O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

8.2023

Ilmiy-nazariy, metodik jurnal
2001-yildan nashr qilina boshlagan

Urganch – 2023

“ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-nazariy, metodik jurnal

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent **YO‘LDOSHEV Ro‘zimboy**

TAHRIR HAY’ATI:

ABDULLAYEV Bahrom, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
ABDULLAYEV Ravshanbek, tibbiyot fanlari doktori, professor (TATU UF),
ABDULLAYEV O‘tkir, tarix fanlari doktori (UrDU),
ATADJANOV Ilxam, geografiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
ATAYEV Shokir, yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
BERDIMUROTOVA Alima, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),
DAVLETOV Sanjarbek, tarix fanlari doktori, professor (UrDU),
DO‘SCHONOV Tangribergan, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),
ERMETOVA Jamila, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
HAJIYEVA Maqsuda, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),
IBRAGIMOV Zafar, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (PhD, UrDU),
IMOMQULOV Sevdiyor, fizika-matematika fanlari doktori, professor (NavDPI),
JUMANAZAROV Doniyor, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
JUMANIYAZOV Maqsud, texnika fanlari doktori, professor (UrDU),
JUMANIYOZOV Otaboy, filologiya fanlari nomzodi, professor (UrDU),
KALANDAROV Aybek, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, mas’ul kotib, UrDU),
KAVALYAUSKAS Vidas, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva unversiteti),
NAVRUZOV Qurolboy, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
OTAMURODOV Sa’dulla, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),
PRIMOV Azamat, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (UrDU),
QUTLIYEV Uchqun, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
RUZMETOV Surojbek, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
RO‘ZIYEV Erkinboy, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SADULLAYEV Azimboy, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O‘zMU),
SADULLAYEVA Nilufar Azimovna, filologiya fanlari doktori (O‘zMU),
SALAYEV San’atbek, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),
SALAYEVA Muxabbat Soburovna, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SATIPOV G‘oipnazar, qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor (UrDU),
XODJANIYOZOV Sardor, pedagogika fanlari doktori, dotsent (bosh muharrir o‘rinbosari, (UrDU),
YAKUBOV Jamoliddin, filologiya fanlari doktori, professor (O‘zDJTU),
O‘ROZBOYEV Abdulla, filologiya fanlari doktori (UrDU),
O‘ROZBOYEV G‘ayrat, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
G‘AYIPOV Dilshod, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU).

JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN●JURNAL OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI●2023 8 (195)

MUASSIS: Urganch davlat universiteti●Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro‘yxatdan o‘tgan●**GUVOHNOMA № 1131.**

Satliqov G‘ulomjon Raxmatillayevich (Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti; gsatlikov81@gmail.com),
Qurbonova Malohat Dilmurod qizi (Urganch davlat universiteti magistranti; malohatqurbonova24@gmail.com)

EKSTREMAL SEPARAT-SUBGARMONIK FUNKSIYALAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada haqiqiy fazolarda o‘zgaruvchilari guruhlari bo‘yicha separat-subgarmonik bo‘lgan funksiyalar sinfining xossalari o‘rganilgan. Separat-subgarmonik funksiyalar sinfida ekstremal funksiya tushunchasi aniqlanib, separat-polar to‘plamlarning ekstremal funksiyalar bilan bog‘liqligi ko‘rsatiladi.*

Аннотация. *В данной работе изучены свойства класса сепаратно-субгармонических функций по группам переменных на действительных пространствах. Дано определение экстремальной функции в классе сепаратно-субгармонических функций. Установлена связь между сепаратно-полярными множествами и экстремальными сепаратно-субгармоническими функциями.*

Annotation. *In this paper, the properties of the class of separately-subharmonic functions on group of variables in real spaces is studied. There is given definition of an extremal separately-subharmonic function. Proved criterion of separate polarity of sets in terms of extremal separately-subharmonic function.*

Kalit so‘zlar: *separat-subgarmonik funksiya, ekstremal funksiya, separat-polar to‘plam, regular nuqta, garmonik o‘lchov.*

Ключевые слова: *сепаратно-субгармоническая функция, экстеремальная функция, сепаратно-полярное множество, регулярная точка, гармоническая мера.*

Key words: *separately subharmonic function, extremal function, separately-polar set, regular point, harmonic measure.*

1. Kirish. Subgarmonik funksiya tushunchasi zamonaviy potensiallar nazariyasining fundamental tushunchalaridan biridir. Subgarmonik funksiyalar matematik fizika va kompleks o‘zgaruvchining funksiyalari nazariyasi fanida muhim tatbiqlarga ega.

Dastlab, ayrim tushunchalarni eslatib o‘tamiz. Bilamizki, $f(x)$ funksiya $F \subset \mathbb{R}^n$ to‘plamda berilgan va $x^0 \in F$ shu to‘plamning limit nuqtasi uchun $\lim\limits_{x \to x^0} f(x) = f(x^0),\ x \in F$ bo‘lsa, u holda $f(x)$ funksiya x^0 nuqtada uzluksiz deyiladi. Agar $f: F \to [-\infty; \infty)$ funksiya uchun $\overline{\lim\limits_{x \to x^0}} f(x) \le f(x^0),\ x \in F$ bo‘lsa, u holda $f(x)$ funksiya x^0 nuqtada yuqoridan yarim uzluksiz deyiladi.

1-ta’rif. Agar $D \subset \mathbb{R}^n$ sohada aniqlangan $u \in L^1_{loc}(D)$, $u: D \to [-\infty, +\infty)$ funksiya quyidagi ikki shartni qanoatlantirsa:

1) $u(x)$ yuqoridan yarim uzluksiz, ya’ni ixtiyoriy $x^o \in D$ nuqta uchun $\overline{\lim\limits_{x \to x^o}} u(x) \le u(x^o)$;

2) har bir $x^o \in D$ nuqta uchun shunday $r(x^o) > 0$ topiladiki, $r \le r(x^o)$ uchun

$$u(x^o) \le \frac{1}{\sigma_n r^{n-1}} \int\limits_{S(x^o, r)} u(x) d\sigma;$$

u holda $u(x)$ funksiya D sohada subgarmonik funksiya deyiladi.

Subgarmonik funksiyaga umumlashgan ma’noda yuqoridagi ta’rifga ekvivalent bo‘lgan quyidagicha ta’rif ham beriladi:

2-ta’rif. $u(x),\ x \in D \subset \mathbb{R}^n$ yuqoridan yarim uzluksiz funksiya va ixtiyoriy $\varphi(x),\ x \in D$ musbat cheksiz differensiallanuvchi finit funksiya uchun

$$\int_D u(x)\Delta\varphi(x)dx \geq 0$$

bo‘lsa, u holda $u(x)$ funksiya D sohada subgarmonik funksiya deyiladi.

Subgarmonik funksiyalar sinfida muhim bo‘lgan quyidagicha ekstremal funksiya aniqlanadi.

3-ta’rif. Ixtiyoriy $E \subset\subset D -$ kompakt to‘plam uchun quyidagi

$$\omega(x, E, D) = \sup\left\{u \in sh(D) : u\big|_E \leq -1, u\big|_D \leq 0\right\}$$

funksiyani aniqlaymiz va uning regularizatsiyasidan iborat bo‘lgan ushbu

$$\omega^*(x, E, D) = \lim_{x' \to x} \omega(x', E, D)$$

funksiyaga E kompaktning D sohaga nisbatan garmonik o‘lchovi yoki ekstremal funksiya deyiladi.

.

Garmonik o‘lchovlar quyidagi xossalarga ega bo‘ladi ([1] ga qarang):

1^0. Garmonik o‘lchov $\omega^* \in sh(D) \bigcap h(D \setminus E)$ bo‘lib, $-1 \leq \omega^*(x,E,D) \leq 0,\ x \in D,$ $\lim\limits_{x \to \partial D} \omega^*(x,E,D) = 0$ bo‘ladi;

2^0. Garmonik o‘lchov $\omega^*(x,E,D)$ yoki hech bir $x^0 \in D$ nuqtada nolga teng bo‘lmaydi yoki D sohada aynan nolga teng bo‘ladi. Bundan tashqari, $\omega^*(x,E,D) \equiv 0 \Leftrightarrow E -$ polar;

3^0. Agar $u(x) \in sh(D),\ u\,|_D \leq M,\ u\,|_E \leq m$ bo‘lsa, u holda $x \in D$ lar uchun $u(x) \leq M(1 + \omega^*(x)) - m\omega^*(x)$ tengsizlik o‘rinli bo‘ladi. Bu xossa ikki konstanta haqidagi teorema deb ham yuritiladi;

4-ta’rif. Aytaylik, $E \subset D$ kompakt va $\omega^*(x) = \omega^*(x,E,D)$ garmonik o‘lchov bo‘lsin. Agar $x^0 \in E$ nuqtada $\omega^*(x^0) = -1$ bo‘lsa, x^0 nuqta E ning regular nuqtasi, $\omega^*(x^0) > -1$ bo‘lsa, x^0 irregular nuqtasi deyiladi.

Ushbu ishda biz separate-subgarmonik funksiyalar sinfida aniqlangan ekstremal funksiyani o‘rganamiz.

2. Separat-subgarmonik funksiyalar va ektremal separate-subgarmonik funksiya. $D \subset \mathbb{R}^n_x \times \mathbb{R}^m_y -$ sohada aniqlangan $u(x,y)$ yuqoridan yarim uzluksiz funksiyaga separat-subgarmonik funksiya deyiladi, agar $u(x,y)$ quyidagi shartlarni qanoatlantirsa:

1) $\forall y^0 \in \mathbb{R}^m,\ \left(D \bigcap \left\{y = y^0\right\} \neq \varnothing\right)$ nuqta uchun $D \bigcap \left\{y = y^0\right\} -$ kesimda $u\left(x,\ y^0\right)$ funksiya x o‘zgaruvchining subgarmonik funksiyasi bo‘lsa;

2) $\forall x^0 \in \mathbb{R}^n,\ \left(D \bigcap \left\{x = x^0\right\} \neq \varnothing\right)$ nuqta uchun $D \bigcap \left\{x = x^0\right\} -$ kesimda $u\left(x^0,\ y\right)$ funksiya y o‘zgaruvchining subgarmonik funksiyasi bo‘lsa.

$D \subset \mathbb{R}^n_x \times \mathbb{R}^m_y -$ sohada aniqlangan separate-subgarmonik funksiyalar sinfini $ssh(D)$ kabi belgilaymiz. Separat-subgarmonik funksiyalar [3], [4], [5], [6], [7], [8] va yana bir qancha ilmiy maqolalarda o‘rganilgan. Yuqoridagi sanab o‘tilgan ilmiy maqolalarda separate-subgarmonik funksiyalarni subgarmonik bo‘lishliklarining yetarli shartlari o‘rganilgan. Masalan, yuqoridan lokal chegaralangan separat-subgarmonik funksiya ikki o‘zgaruvchining subgarmonik funksiyasi bo‘ladi (4.5).

J.Wiegerinck tomonidan, umuman olganda, separate-subgarmonik funksiya subgarmonik bo‘lolmasligiga misol qurilgan (3).

5-ta’rif. Ixtiyoriy $E \subset\subset D \subset \mathbb{R}^n_x \times \mathbb{R}^m_y -$kompakt to‘plam uchun

$$\omega^*(x,y,E,D)=\overline{\lim_{(\xi,\eta)\to(x,y)}}\omega(x,y,E,D)$$

kabi aniqlangan funksiya E kompaktning separat-subgarmonik o‘lchovi yoki separat–subgarmonik funksiyalar sinfida aniqlangan ekstremal funksiya deyiladi, bu yerda $\omega(x,y,E,D)=\sup\left\{u(x,y)\in ssh(D): u\big|_E\le -1,\ u\big|_D\le 0\right\}$.

Yuqoridan chegaralangan separat-subgarmonik funksiyalar ikki o‘zgaruvchili subgarmonik funksiya bo‘lganliklari sababli $\omega^*(x,y,E,D)$ funksiya ham ikki o‘zgaruvchining subgarmonik funksiyasi va bir vaqtda separat-subgarmonik funksiya bo‘ladi. Lekin, agar $\omega^*(x,y,E,D)\not\equiv 0$ holda E kompaktning to‘ldiruvchisida ya’ni $D\setminus E$ ochiq to‘plamda separat-garmonik bo‘la olmaydi. Sababi bunday holda E kompakt $\omega^*(x,y,E,D)$ funksiya uchun tuzatish mumkin bo‘lgan maxsuslik to‘plami bo‘ladi (q. [9]). Hatto ikki o‘zgaruvchining garmonik funksiyasi ham bo‘la olmaydi.

Ekstremal separat-subgarmonik funksiyaning xossalari.

1^0. Agar $E_1\subset E_2$ bo‘lsa, u holda

$$\omega^*(x,y,E_1,D)\ge\omega(x,y,E_2,D)$$

bo‘ladi. Bu maksimal separat-subgarmonik funksiyaning monotonlik xossasi deyiladi;

2^0. Agar $U\subset D$ - ochiq to‘plam ushbu

$$K_j\subset K_{j+1}\quad (j=1,2,...)$$

kompakt to‘plamlar yig‘indisi: $U=\bigcup_{j=1}^{\infty}K_j$ shaklida ifodalangan bo‘lsa, u holda $\omega^*(x,y,K_j,D)$

ketma-ketlik $\omega^*(x,y,U,D)$ ga monoton kamayib intiladi: $j\to\infty$ da

$$\omega^*(x,y,K_j,D)\downarrow\omega^*(x,y,U,D).$$

Shuningdek, ixtiyoriy $E\subset D$ to‘plam uchun shunday

$$U_j\supset E,\quad U_j\supset U_{j+1}\quad (j=1,2,...)$$

Ichma-ich joylashgan ochiq to‘plamlar ketma-ketligi mavjudki,

$$\omega^*(x,y,E,D)=[\lim_{j\to\infty}\omega(x,y,U_j,D)]^*$$

bo‘ladi;

3^0. Separat-subgarmonik o‘lchovi $\omega^*(x,y,E,D)$ yoki hech bir nuqtada 0 ga teng emas yoki u aynan 0 ga teng. Bu funksiyaning aynan nolga teng

$$\omega^*(x,y,E,D)\equiv 0$$

bo‘lishi uchun E to‘plamning pluripolyar bo‘lishi zarur va yetarlidir.

4^0. Ikki konstanta haqidagi teorema. Agar $u(x,y)$ funksiya $D\subset\mathbf{C}^n$ da plurisubgarmonik bo‘lib,

$$u\big|_D\le M\ ,\quad u\big|_E\le m\quad (E\subset D)$$

bo‘lsa, u holda $(x,y)\in D$ da $u(x,y)\le M(1+\omega^*(x,y,E,D))-m\omega^*(x,y,E,D)$, tengsizlik o‘rinli bo‘ladi.

Bu xossaning isboti bevosita ω^* ning ta’rifidan kelib chiqadi;

Separat-polar to‘plamlar. $E\subset\subset D\subset\mathbb{R}^n_x\times\mathbb{R}^m_y$ — separat polar to‘plam deyiladi, agar $\exists u(x,y)\in ssh(D),\quad E\subset\left\{u(x,y)=-\infty\right\}$ bo‘lsa. Agar shunday bir $u(x,y)\in ssh\left(\mathbb{R}^n_x\times\mathbb{R}^m_y\right)$ funksiya topilib, $E\subset\left\{u(x,y)=-\infty\right\}$ bo‘lsa. E to‘plamga global separat-polar to‘plam deymiz. Agar ixtiyoriy $B\subset\mathbb{R}^n_x\times\mathbb{R}^m_y$ shar uchun shunday bir

$u(x,y)\in ssh(B)$ funksiya topilib, $E\cap B\subset\{u(x,y)=-\infty\}$ bo‘lsa, E to‘plamga lokal separat-polar to‘plam deyiladi.

Har qanday global separat-polar to‘plam lokal separat-polar bo‘ladi. Har qanday lokal separat-polar to‘plam global separat-polar bo‘ladimi? Bu savolga hali javob yo‘q.

1-teorema. $E\subset\subset D\subset \mathrm{R}_x^n\times\mathrm{R}_y^m-$ separat-polar bo‘lishligi uchun $\omega^*(x,y,E,D)\equiv 0$ bo‘lishi zarur va yetarli.

Separat-regular to‘plam. $E\subset\mathbb{R}_x^n\times\mathbb{R}_y^m-$ kompaktga qarashli (x^0,y^0) nuqta separat-regular nuqta deyiladi, agar (x^0,y^0) nuqtaning ixtiyoriy bir $U=U(x^0,y^0,\varepsilon)$ $\varepsilon-$atrofi uchun $\omega^*(x^0,y^0,U\cap E,D)=-1$ bo‘lsa. Agar $E-$kompaktning har bir nuqtasi separat-regular nuqta bo‘lsa, u holda $E-$to‘plamga separat-regular kompakt deyiladi. Agar $E\subset\subset D\subset\mathbb{R}_x^n\times\mathbb{R}_y^m-$ kompaktning barcha nuqtasi separat-regular bo‘lsa, u holda $\omega^*((x,y),E,D)\big|_E=-1$ bo‘ladi. Aksincha, agar $\omega^*((x,y),E,D)\big|_E=-1$ bo‘lganda $E-$kompaktning har bir nuqtasi separat-regular nuqta bo‘ladimi? Bu savolga ham hali javob berilmagan (A.Sadullayevning [2] maqolasida pluriregularlik tushunchasi uchun hamma vaqt ham bunday bo‘lmasligini ko‘rsatuvchi misol qurilgan).

Irregular nuqtalar. $E\subset\mathrm{R}_x^n\times\mathrm{R}_y^m-$kompaktning $(x^0,y^0)\in E$ nuqtasining shunday bir $U=U(x^0,y^0,\varepsilon)$ atrofi topilib, $\omega^*((x^0,y^0),E\cap U,U)>-1$ bo‘lsa, u holda (x^0,y^0) nuqta $E-$kompaktning irregular nuqtasi deyiladi.

2-teorema. Har qanday E kompakt to‘plam uchun uning irregular nuqtalaridan iborat qism to‘plami separat-polar to‘plam bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sadullayev A. Ko‘p argumentli golomorf funksiyalar. Urganch, 2004.
2. Садуллаев А. Плюрисубгармонические меры и емкости на комплексных многообразиях УМН, 36, 4 (220), 1981, с. 53 – 105.
3. Wiegerinck J., Separately Subharmonic Functions Need not be Subharmonic. Proceedings of the American Mathematical Society, 104(3), 1988, p. 770 – 771.
4. Arsove M.G. On subharmonicity of doubly subharmonic functions. Proc.Amer. Math. Soc. 17, 1966, p. 622 – 626.
5. Avanissian V. Fonctions plurisousharmoniques et fonctions doublement sousharmoniques. Ann. Sci. Ecole Norm. Sup. 78, 1961, p. 101 – 161.
6. Riihentaus J. On a theoremof Avanissian-Arsove. Exposition. Math. 7, 1989, p. 69–72.
7. Cegrell U., Sadullaev A. Separately subharmonic functions. Uzbek Math. J. №1, 1993, p. 78 – 83.
8. Imomkulov S. Separately subharmonic functions. Dokl.UzSSR.21, 1990, p. 8 – 10.
9. Sachiko H. Hartogs-Osgud theorem for separately harmonic functions. Proc. Japan Acad., 83, 2007, p. 16 – 18.

Atamuratov Alimardon Abdirimovich (Matematika instituti Xorazm bo‘linmasi rahbari, f.-m.f.n., dotsent; e-mail: alimardon01@mail.ru),
Bekchanov Sardor Ergash o‘g‘li (UrDU doktoranti; e-mail: bekchanovsardor1994@gmail.com),
Bagbekova Yulduz Jumanazarovna (UrDU magistranti; e-mail: bagbekovay@gmail.com)

PARABOLIK KO‘PXILLIKLARDA ANALITIK FUNKSIYALARNING INTEGRAL TASVIRI

Annotatsiya. *Ushbu ishda kompleks fazoda analitik funksiyaning grafigi ustida aniqlangan golomorf funksiyalar uchun turli integral formulalar o‘rganiladi. Grafikni ortogonal proeksiyalash usulidan foydalanib, Veil integral formulasi isbotlanadi.*

Аннотация. *В работе изучаются различные интегральные формулы для голоморфных функций, заданных на графике аналитической функции в комплексном пространстве. Интегральная формула Вейля доказывается методом ортогонального проектирования графа.*

Annotation. *In this work, various integral formulas for holomorphic functions defined on the graph of an analytic function in complex space are studied. The Weil integral formula is proved using the method of orthogonal projection of the graph.*

Kalit so‘zlar: *analitik grafik, golomorf funksiya, integral formulalar, butun funksiya, Veil poliedri, Hefer yoyilmasi.*

Ключевые слова: *аналитический граф, голоморфная функция, интегральные формулы, интегральная функция, многогранник Вейля, распределение Хеффера.*

Key words: *analytical graph, holomorphic function, integral formulas, integral function, Weil polyhedron, Heffer distribution.*

Kirish. Kompleks ko‘pxilliklarda aniqlangan golomorf funksiyalar nazariyasi lokal xarakterda bo‘lib, klassik nazariyadagi kabi, global natijalar faqat xususiy hollarda o‘rganiladi. Golomorf funksiyalarning shunday xossalaridan biri bu ular uchun integral formulalar o‘rinli bo‘lishidir.

Ushbu ishda biz butun funksiyaning grafigidan iborat kompleks ko‘pxillik ustida golomorf funksiyalarning integral formula orqali chegaraviy qiymatlar orqali tiklanishi bilan tanishib chiqamiz. Buning uchun Shteyn ko‘pxilliklari uchun olingan umumiy formulardan foydalanamiz. Ma’lumki, umumiy integral formulalar G.Henkin va J.Leitererlar[1] tomonidan olingan. Shuningdek, analitik to‘plamlar ustida bu kabi formulalar T.E.Hatziafratis[2] tomonidan o‘rganilgan va birmuncha sodda ko‘rinishga keltirilgan. Biz ushbu ishda yanada sodda holda, ya’ni grafik ustida formula ko‘rinishini o‘rganib chiqamiz.

Ushbu ishning asosiy natijasi quyidagi teoremadan iborat.

1-teorema. $\varphi(z_1)$ funksiya $\mathbb{C}_{z_1}$ kompleks tekislikda aniqlangan butun funksiya bo‘lsin. Agar $f(z_1,z_2)$ funksiya $\Gamma=\{(z_1,z_2)\in\mathbb{C}^2 : z_1\in\mathbb{C}_{z_1},\ z_2=\varphi(z_1)\}$ grafik ustida aniqlangan golomorf funksiya bo‘lsa, u holda silliq chegaraga ega ixtiyoriy $D\subset\Gamma$ soha uchun har bir $(z_1,z_2)\in D$ nuqta-da ushbu

$$f(z_1,z_2)=\frac{1}{2\pi i}\int\limits_{\partial D}\frac{f(\xi_1,\xi_2)\left(d\xi_1+\overline{\varphi'(\xi_1)}d\xi_2\right)}{\left(1+|\varphi'(\xi_1)|^2\right)(\xi_1-z_1)}$$

tenglik o‘rinli bo‘ladi.

Isboti. Ma’lumki, butun funksiya $\varphi(z_1)$ ning grafigi

$$\Gamma=\{(z_1,z_2)\in\mathbb{C}^2 : z_1\in\mathbb{C}_{z_1},\ z_2=\varphi(z_1)\}$$

$\mathbb{C}^2$ fazoning yopiq analitik qism ko‘pxillik tashkil etadi. Bundan Kartan[3] teoremasiga ko‘ra, Γ ning ustida aniqlangan har qanday $f(z_1,z_2)$ golomorf funksiya butun $\mathbb{C}^2$ fazoga golomorf davom etadi. Agar biz ushbu davomni $\hat{f}(z_1,z_2)$ orqali belgilasak, u holda, $\hat{f}(z_1,z_2)\big|_{\Gamma}=f(z_1,z_2)$ bo‘ladi. Demak, $\hat{f}(z_1,z_2)\big|_{\Gamma}=f(z_1,\varphi(z_1))=g(z_1)$ funksiya z_1 o‘zgaruvchining golomorf funksiyasidan iborat bo‘ladi. Endi silliq chegaraga ega ixtiyoriy $D\subset\Gamma$ sohani qaraylik va bu sohaning $\mathbb{C}_{z_1}$ tekislikdagi proeksiyasini Ω orqali belgilaylik. U holda $g(z_1)$ funksiya $\partial\Omega$ silliq chegarali Ω

[1] G.Henkin, J.Leiterer. Theory of functions on complex manifolds. Birkhauser Verlag, Basel, 1984.

[2] Telemachos E. Hatziafratis, Integral representation formulas on analytic varieties. Pacific Journal of Mathematics Vol. 123, № 1, March, 1986.

[3] F.Forstnerič Stein manifolds and holomorphic mappings (The homotopy principle in complex analysis), volume 56 of Ergebnisse der Mathematik und ihrer Grenzgebiete. 3. Folge. A Series of Modern Surveys in Mathematics. Springer, Cham, second edition, 2017.

sohada aniqlangan golomorf funksiyadan iborat bo‘ladi. Shunday qilib, $g(z_1)$ funksiya uchun Ω sohada quyidagi Koshi integral formulasini yozish mumkin.

$$g(z_1)=\frac{1}{2\pi i}\int_{\partial\Omega}\frac{g(\xi_1)}{(\xi_1-z_1)}d\xi_1.$$

Boshqa tomondan,

$$\frac{1}{2\pi i}\int_{\partial D}\frac{f(\xi_1,\xi_2)\left(d\xi_1+\overline{\varphi'(\xi_1)}d\xi_2\right)}{\left(1+\left|\varphi'(\xi_1)\right|^2\right)(\xi_1-z_1)}$$

Integralni qaraylik. Bu integralda $\xi_2=\varphi(\xi_1)$ almashtrish (parametrlash) olsak, u holda ∂D chegara $\partial\Omega$ ga o‘tadi va integral ostidagi ifoda quyidagicha o‘zgaradi:

$$\frac{1}{2\pi i}\int_{\partial D}\frac{f(\xi_1,\xi_2)\left(d\xi_1+\overline{\varphi'(\xi_1)}d\xi_2\right)}{\left(1+\left|\varphi'(\xi_1)\right|^2\right)(\xi_1-z_1)}=\frac{1}{2\pi i}\int_{\partial\Omega}\frac{f(\xi_1,\varphi(\xi_1))\left(d\xi_1+\overline{\varphi'(\xi_1)}d\varphi(\xi_1)\right)}{\left(1+\left|\varphi'(\xi_1)\right|^2\right)(\xi_1-z_1)}=$$

$$=\frac{1}{2\pi i}\int_{\partial\Omega}\frac{f(\xi_1,\varphi(\xi_1))\left(d\xi_1+\overline{\varphi'(\xi_1)}\varphi'(\xi_1)d\xi_1\right)}{\left(1+\left|\varphi'(\xi_1)\right|^2\right)(\xi_1-z_1)}=\frac{1}{2\pi i}\int_{\partial\Omega}\frac{g(\xi_1)}{(\xi_1-z_1)}d\xi_1$$

$(z_1,z_2)\in D$ uchun $f(z_1,z_2)=g(z_1)$ tenglikni inobatga olsak,

$$f(z_1,z_2)=\frac{1}{2\pi i}\int_{\partial D}\frac{f(\xi_1,\xi_2)\left(d\xi_1+\overline{\varphi'(\xi_1)}d\xi_2\right)}{\left(1+\left|\varphi'(\xi_1)\right|^2\right)(\xi_1-z_1)}$$

Formulaga kelamiz. Teorema to‘liq isbot bo‘ldi.

Ushbu teoremani quyidagi variatsiyalarini ham isbotlash mumkin.

2-teorema. $\varphi_1(z),\varphi_2(z),\ldots,\varphi_n(z)$ funksiyalar $\mathbb{C}_z$ kompleks tekislikda aniqlangan butun funksiyalar bo‘lsin. Agar $f(z_1,w_1,w_2,...,w_n)$ funksiya ushbu

$$\Gamma=\left\{(z,w_1,...,w_n)\in\mathbb{C}^{n+1}:z\in\mathbb{C}_z,\ w_j=\varphi_j(z),j=1,2,...,n\right\}$$

analitik grafik ustida aniqlangan golomorf funksiya bo‘lsa, u holda silliq chegaraga ega ixtiyoriy $D\subset\Gamma$ soha uchun har bir $(z,w_1,...,w_n)\in D$ nuqtada ushbu

$$f(z,w)=\frac{1}{2\pi i}\int_{\partial D}\frac{f(\xi,\zeta_1,...,\zeta_n)\left(d\xi+\overline{\varphi_1'(\xi)}d\zeta_1+\overline{\varphi_2'(\xi)}d\zeta_2+...+\overline{\varphi_n'(\xi)}d\zeta_n\right)}{\left(1+\left|\varphi_1'(\xi)\right|^2+\left|\varphi_2'(\xi)\right|^2+...+\left|\varphi_n'(\xi)\right|^2\right)(\xi-z)}$$

tenglik o‘rinli bo‘ladi.

2-teoremaning isboti ham xuddi 1-teoremaniki kabi amalga oshiriladi.

Endi butun funksiyaning grafigidan iborat bo‘lgan to‘plam ustida golomorf funksiyalar uchun Veil integral formulasini ko‘rib chiqamiz:

$\mathbb{C}^{n+1}=\mathbb{C}_z^n\times\mathbb{C}_w$ fazoda $\Gamma=\left\{(z_1,...,z_n,w)\in\mathbb{C}^{n+1}:z\in\mathbb{C}_z^n,\ w=\varphi(z)\right\}$

analitik grafikni qaraymiz. Bu yerda $\varphi(z)=\varphi(z_1,z_2,\ldots,z_n)$ funksiya $\mathbb{C}_z^n$ kompleks fazoda aniqlangan butun funksiyadan iborat. Biz $\mathbb{C}^{n+1}=\mathbb{C}_z^n\times\mathbb{C}_w$ fazoda aniqlangan $g_1(z,w),g_2(z,w),\ldots,g_N(z,w)$ (N>n) golomorf funksiyalar olib, ushbu

$$\Pi = \left\{(z,w) \in \Gamma : \left|g_1(z,w)\right| < 1,\ldots,\left|g_N(z,w)\right| < 1\right\}$$

poliedrni aniqlaymiz. Har bir tayinlangan

$J = (j_1, j_2,\ldots, j_n),\ 1 \le j_1 < j_2 < \ldots < j_n \le N$

indekslar nabori uchun

$$e_J = \left\{(\xi,\eta) \in \Pi : \left|g_{j_1}(\xi,\eta)\right| = \left|g_{j_2}(\xi,\eta)\right| = \ldots = \left|g_{j_n}(\xi,\eta)\right| = 1\right\}$$

to‘plamlarga poliderning octovlari deyiladi. $\partial\Pi = \bigcup_J e_J$ topologik chegara deyiladi. Agar poliedrning ostovlari n o‘lchamli bo‘lakli silliq ko‘pxilliklardan iborat bo‘lsa, unga grafik ustidagi Veil poliedri deymiz. Bizga quyida tushunchalar kerak bo‘ladi

Ushbu yoyilmalar

$$\varphi(z) - \varphi(\xi) = \sum_{k=1}^{n} \varphi_k(\xi, z)(\xi_k - z_k)$$

$$g_j(\xi,\eta) - g_j(z,w) = \sum_{k=1}^{n} g_{jk}(\xi,\eta,z,w)(\xi_k - z_k) + g_{j(n+1)}(\xi,\eta,z,w)(\eta - w)$$

Hefer yoyilmalari deyilib, undagi koeffitsiyentlarga Hefer koeffitsiyentlari deyiladi.

$$\Phi = \begin{pmatrix} \varphi_1 \\ \varphi_2 \\ \vdots \\ \varphi_n \\ 1 \end{pmatrix} G_j = \begin{pmatrix} g_{j1} \\ g_{j2} \\ \vdots \\ g_{1n} \\ g_{j(n+1)} \end{pmatrix}$$

tayinlangan $J = (j_1, j_2,\ldots, j_n),\ 1 \le j_1 < j_2 < \ldots < j_n \le N$ indekslar nabori uchun

$D(\Phi, G_J) = \det(\Phi, G_{j_1}, G_{j_2},\ldots, G_{j_n})$

yordamchi determinanlarni aniqlaymiz.

Ushbu ishning asosiy natijasi quyidagilardan, teoremadan iborat

3-teorema. $\mathbb{C}_z^n$ kompleks fazoda aniqlangan $\varphi(z) = \varphi(z_1, z_2,\ldots, z_n)$ butun funksiya grafigi.

$$\Gamma = \left\{(z_1,\ldots,z_n,w) \in \mathbb{C}^{n+1} : z \in \mathbb{C}_z^n,\ w = \varphi(z)\right\}$$

va uning ustida

$$\Pi = \left\{(z,w) \in \Gamma : \left|g_1(z,w)\right| < 1,\ldots,\left|g_N(z,w)\right| < 1\right\}$$

Veil poliedri berilgan bo‘lib, $g_1(z,w), g_2(z,w),\ldots, g_N(z,w)$ (N>n) funksiyalar $\mathbb{C}^{n+1} = \mathbb{C}_z^n \times \mathbb{C}_w$ fazoda aniqlangan golomorf funksiyalar bo‘lsin.

Agar $f(z_1, z_2,\ldots z_n, w)$ funksiya Γ analitik grafik ustida aniqlangan golomorf funksiya bo‘lsa, u holda har bir $(z, w_1,\ldots, w_n) \in \Pi$ nuqtada ushbu

$$f(z,w) = \sum_J \frac{1}{(2\pi i)^n} \int_{e_J} \frac{f(\xi,\eta)}{\prod_{k=1}^{n}\left(g_{j_k}(\xi,\eta) - g_{j_k}(z,w)\right)} D(\Phi, G_J)\cdot\omega_\varphi(\xi,\eta)$$

tenglik o‘rinli bo‘ladi. Bu yerda

$$\omega_\varphi(\xi,\eta)=\frac{1}{\left(1+\sum_{j=1}^{n}\left|\varphi'_{\xi_j}(\xi)\right|^2\right)}\Big[(-1)^1\overline{\varphi'_{\xi_1}(\xi)}d\xi_2\wedge d\xi_3\wedge\ldots\wedge d\xi_n\wedge d\eta+(-1)^2\overline{\varphi'_{\xi_2}(\xi)}d\xi_1\wedge d\xi_3\wedge\ldots\wedge d\xi_n\wedge d\eta+\ldots$$
$$\ldots+(-1)^n\overline{\varphi'_{\xi_n}(\xi)}d\xi_1\wedge d\xi_2\wedge\ldots\wedge d\xi_{n-1}\wedge d\eta+(-1)^n d\xi_1\wedge d\xi_2\wedge\ldots\wedge d\xi_n\Big]$$

va yig‘indi barcha mumkin bo‘lgan $J=(j_1,j_2,\ldots,j_n),\ 1\le j_1<j_2<\ldots<j_n\le N$ indekslar naborlari bo‘yicha olingan.

Isbot. Ma’lumki, butun funksiya $\varphi(z_1,z_2,\ldots,z_n)$ ning grafigi

$$\Gamma=\left\{(z_1,\ldots,z_n,w)\in\mathbb{C}^{n+1}:z\in\mathbb{C}^n_z,\ w=\varphi(z)\right\}$$

$\mathbb{C}^{n+1}$ fazoda yopiq analitik qism ko‘pxillik tashkil etadi. Bundan Kartan[1] teoremasiga ko‘ra, Γ ning ustida aniqlangan har qanday $f(z,w)$ golomorf funksiya butun $\mathbb{C}^{n+1}$ fazoga golomorf davom etadi. Agar biz ushbu davomni $\hat{f}(z,w)$ orqali belgilasak, u holda $\hat{f}(z,w)\Big|_\Gamma=f(z,w)$ bo‘ladi. Demak, $\hat{f}(z,w)\Big|_\Gamma=f(z,\varphi(z))=g(z)$ funksiya $z=(z_1,z_2,\ldots,z_n)$ o‘zgaruvchining golomorf funksiyasidan iborat bo‘ladi. Endi

$$\Pi=\left\{(z,w)\in\Gamma:\left|g_1(z,w)\right|<1,\ldots,\left|g_N(z,w)\right|<1\right\}$$

poliedrning $\mathbb{C}^n_z$ fazoga proyeksiyasini qaraymiz. Bu proyeksiya ham

$$\Omega=\left\{z\in\mathbb{C}^n:\left|g_1(z,\varphi(z))\right|<1,\ldots,\left|g_N(z,\varphi(z))\right|<1\right\}$$

Poliedrdan iborat bo‘ladi. Orthogonal proeksiyalash bigolomorf akslantirish ekanida har bir tayinlangan $J=(j_1,j_2,\ldots,j_n),\ 1\le j_1<j_2<\ldots<j_n\le N$ indekslar nabori uchun

$$e_J=\left\{(\xi,\eta)\in\Pi:\left|g_{j_1}(\xi,\eta)\right|=\left|g_{j_2}(\xi,\eta)\right|=\ldots=\left|g_{j_n}(\xi,\eta)\right|=0\right\}$$

Ostovlarga

$$E_J=\left\{(\xi,\eta)\in\Omega:\left|g_{j_1}(\xi,\varphi(\xi))\right|=\left|g_{j_2}(\xi,\varphi(\xi))\right|=\ldots=\left|g_{j_n}(\xi,\varphi(\xi))\right|=1\right\}$$

Ostovlar mos keladi va bu ko‘pxilliklar bo‘yicha integrallarda bir-biriga o‘tish mumkin. Klassik Veil formulasiga asosan, $g(z)\in\mathcal{O}(\mathbb{C}^n)$ funksiya uchun har bir $z\in\Omega$ da

$$g(z)=\sum_J\frac{1}{(2\pi i)^n}\int_{E_J}\frac{g(\xi)}{\prod_{k=1}^{n}\left(g_{j_k}(\xi,\varphi(\xi))-g_{j_k}(z,\varphi(z))\right)}W_J(\xi,z)\cdot d\xi$$

tenglik o‘rinli bo‘lib, bunda

$$W_J(\xi,z)=(G_{j_1}-g_{j_1(n+1)}\cdot\Phi,\ G_{j_2}-g_{j_2(n+1)}\cdot\Phi,\ \ldots,G_{j_n}-g_{j_n(n+1)}\cdot\Phi)$$

[1] F.Forstnerič Stein manifolds and holomorphic mappings (The homotopy principle in complex analysis), volume 56 of Ergebnisse der Mathematik und ihrer Grenzgebiete. 3. Folge. A Series of Modern Surveys in Mathematics. Springer, Cham, second edition, 2017.

yordamchi determinanlar

$$g_j(\xi,\varphi(\xi))-g_j(z,\varphi(z))=\sum_{k=1}^{n}g_{jk}(\xi,\varphi(\xi),z,\varphi(z))(\xi_k-z_k)+$$
$$+g_{j(n+1)}(\xi,\varphi(\xi),z,\varphi(z))(\varphi(\xi)-\varphi(z))=$$
$$=\sum_{k=1}^{n}g_{jk}(\xi,\varphi(\xi),z,\varphi(z))(\xi_k-z_k)+$$
$$+g_{j(n+1)}(\xi,\varphi(\xi),z,\varphi(z))\sum_{k=1}^{n}\varphi_k(\xi,z)(\xi_k-z_k)=$$
$$=\sum_{k=1}^{n}\Big[g_{jk}(\xi,\varphi(\xi),z,\varphi(z))-g_{j(n+1)}(\xi,\varphi(\xi),z,\varphi(z))\cdot\varphi_k(\xi,z)\Big](\xi_k-z_k)$$

Hefer yoyilmasidagi koeffitsiyentlar yordamida tuzilgan va yig‘indi barcha mumkin bo‘lgan $J=(j_1,j_2,\ldots,j_n),\ 1\le j_1<j_2<\ldots<j_n\le N$ naborlar bo‘yicha olingan.

Boshqa tomondan, ushbu

$$\sum_J\frac{1}{(2\pi i)^n}\int_{e_J}\frac{f(\xi,\eta)}{\prod_{k=1}^{n}\big(g_{j_k}(\xi,\eta)-g_{j_k}(z,w)\big)}D(\Phi,G_J)\cdot\omega_\varphi(\xi,\eta)$$

integralda o‘zgaruvchilarni $\eta=\varphi(\xi),\ w=\varphi(z)$ kabi almashtirsak,

$$D(\Phi,G_J)\Big|_{\substack{\eta=\varphi(\xi)\\ w=\varphi(z)}}=\det(\Phi,G_{j_1},G_{j_2},\ldots,G_{j_n})\Big|_{\substack{\eta=\varphi(\xi)\\ w=\varphi(z)}}=\begin{vmatrix}\varphi_1 & g_{j_1 1} & g_{j_2 1}\cdots & g_{j_n 1}\\ \varphi_2 & g_{j_1 2} & g_{j_2 2}\cdots & g_{j_n 2}\\ \vdots & \vdots & \vdots & \vdots\\ \varphi_n & g_{j_1 n} & g_{j_2 n}\cdots & g_{j_n n}\\ 1 & g_{j_1 n+1} & g_{j_2 n+1}\cdots & g_{j_n n+1}\end{vmatrix}=(-1)^{n+2}W_J(\xi,z)$$

$$\omega_\varphi(\xi,\eta)\Big|_{\eta=\varphi(\xi)}=\frac{1}{\left(1+\sum_{j=1}^{n}\left|\varphi'_{\xi_j}(\xi)\right|^2\right)}\Big[-\overline{\varphi'_{\xi_1}(\xi)}d\xi_2\wedge d\xi_3\wedge\ldots\wedge d\xi_n\wedge d\varphi(\xi)+$$
$$+\overline{\varphi'_{\xi_2}(\xi)}d\xi_1\wedge d\xi_3\wedge\ldots\wedge d\xi_n\wedge d\varphi(\xi)+\ldots+(-1)^n\overline{\varphi'_{\xi_n}(\xi)}d\xi_1\wedge d\xi_2\wedge\ldots\wedge d\xi_{n-1}\wedge d\varphi(\xi)+$$
$$+(-1)^n d\xi_1\wedge d\xi_2\wedge\ldots\wedge d\xi_n\Big]=(-1)^n d\xi_1\wedge d\xi_2\wedge\ldots\wedge d\xi_n$$

tengliklar o‘rinli ekanidan, quyidagi tenglikka ega bo‘lamiz:

$$\frac{1}{(2\pi i)^n}\int_{e_J}\frac{f(\xi,\eta)}{\prod_{k=1}^{n}\big(g_{j_k}(\xi,\eta)-g_{j_k}(z,w)\big)}D(\Phi,G_J)\cdot\omega_\varphi(\xi,\eta)=$$
$$=\frac{1}{(2\pi i)^n}\int_{E_J}\frac{g(\xi)}{\prod_{k=1}^{n}\big(g_{j_k}(\xi,\varphi(\xi))-g_{j_k}(z,\varphi(z))\big)}W_J(\xi,z)\cdot d\xi_1 d\xi_2\ldots d\zeta_n$$

Bundan esa

$$\sum_J \frac{1}{(2\pi i)^n} \int_{e_J} \frac{f(\xi,\eta)}{\prod_{k=1}^{n}\left(g_{j_k}(\xi,\eta)-g_{j_k}(z,w)\right)} D(\Phi,G_J)\cdot\omega_\varphi(\xi,\eta) =$$

$$= \sum_J \frac{1}{(2\pi i)^n} \int_{E_J} \frac{g(\xi)}{\prod_{k=1}^{n}\left(g_{j_k}(\xi,\varphi(\xi))-g_{j_k}(z,\varphi(z))\right)} W_J(\xi,z)\cdot d\xi$$

Tenglikka ega bo‘lamiz. 3-teorema to‘liq isbot bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aytuna A., Sadullaev A. Polynomials on Parabolic Manifolds. Contemporary mathematics. № 662, 2016, pp. 1–22 (arXiv, 1504.08092v1 [math. CV] 30 Apr 2015).

2. Sario L., Nakai M. Classification theory of Riemann surfaces, Springer-Verlage Berlin-Heidelberg, 1970.

3.Atamuratov A., Turakhanov I. On regular parabolicity of complements of graphs of entire functions and polynomial basics, “Ilm Sarchashmalari”, 2021, № 3, pp. 7 – 13.

4. Atamuratov A. Polynomials on Regular Parabolic Manifolds. Contemporary Mathematics. Fundamental Directions. 2022, Vol. 68, № 1, p. 41–58; doi: 10.22363/2413-3639-2022-68-1-41-58

5. A.S.Sadullayev, Kh.K.Kamolov. Green’s Function on a Parabolic Analytic Surface, J. Sib. Fed. Univ. Math. Phys., 2023, 16(2), p. 253 – 264.

6. F.Forstnerič Stein manifolds and holomorphic mappings (The homotopy principle in complex analysis), volume 56 of Ergebnisse der Mathematik und ihrer Grenzgebiete. 3. Folge. A Series of Modern Surveys in Mathematics. Springer, Cham, second edition, 2017.

Raximov Kodirbergan Oramboy o‘g‘li (Urganch davlat universiteti “Matematik tahlil” kafedrasi magistranti; qodirberganraximov3@gmail.com)

BA’ZI ANALITIK TO‘PLAMLARNING PARABOLIKLIGI

Annotatsiya. *Biz ushbu maqolada kompleks analitik to‘plamlarning parabolikligi masalasini ko‘rib chiqamiz. Ishning maqsadi keltirilmaydigan analitik to‘plamlarning parabolik bo‘lish shartlari keltirilib, kompleks algebraik to‘plamlarning parabolikligi qaralgan.*

Аннотация. *В статье изучается понятие параболичности в смысле К.Атахонова неприводимых аналитических множеств в комплексном пространстве и доказывается параболичность алгебраических множеств.*

Annotation. *In this article, the concept of parabolicity of irreducible analytic sets in complex space in the sense of K.Atakhonov is studied, and it is proved that algebraic sets are parabolic.*

Kalit so‘zlar: *analitik to‘plam, kondensator sig‘imi, parabolik analitik to‘plam.*

Ключевые слова: *аналитическое множество, голоморфная функция, ёмкость конденсатора, параболическое аналитическое множество.*

Key words: *analytic set, holomorphic function, condenser capacity, parabolic analytic set.*

Ma’lumki, ko‘p argumentli kompleks analizda golomorf funksiyalar va uning nollari to‘plami tuzilishini o‘rganish muhim hisoblanadi. Biz ushbu tadqiqot ishida ba’zi analitik to‘plamlarning parabolik bo‘lish xususiyatini o‘rganamiz. Bizga ma’lumki, Riman sirtlarining parabolik sirt bo‘lishi, bu sirtlarning kompleks tekislik bilan konform ekvivalent bo‘lishini bildiradi.[1]

Aytaylik, $D \subset \mathbb{C}^n$ sohada golomorf $f(z)$ funksiya berilgan bo‘lib, u shu sohada aynan nolga teng bo‘lmasin.

1-ta’rif. $f(z)$ funksiyaning nollari to‘plami $A = \{ z \in D:\ f(z) = 0 \}$ ga $(n-1)$ o‘lchamli analitik to‘plam deyiladi.

$D \subset \mathbb{C}^n$ sohada yopiq $A \subset D$ to‘plam berilgan bo‘lsin.

2-ta’rif. Agar ixtiyoriy $a \in A$ nuqta uchun shunday $U \ni a$ atrof va bu atrofda golomorf $f_1(z),\ f_2(z),\ldots,f_m(z)$ $(m \geq 1)$ funksiyalar mavjud bo‘lib,

[1] Sario L., Nakai M. Classification theory of Riemann surfaces, Springer-Verlage Berlin-Heidelberg, 1970.

$$A \cap U = \{z \in U : f_1(z) = f_2(z) = ... = f_m(z) = 0\} =$$
$$= \{ f_1(z) = 0 \} \cap \{ f_2(z) = 0 \} \cap ... \cap \{ f_m(z) = 0 \}$$

tenglik o‘rinli bo‘lsa, A to‘plam D sohada aniqlangan analitik to‘plam deyiladi.

Dastavval, biz keyin natijalarni isbotlash uchun muhim bo‘lgan N.Siboni va P.M.Vong tomonidan o‘rganilgan muhim natijalarni ko‘rib chiqamiz. $\mathbb{C}^n$ fazodagi A analitik to‘plamda chegaralangan golomorf funksiyalarning mavjud bo‘lmasligi uchun yetarli shartni ko‘rib chiqamiz. Biz bunda analitik to‘plamlar uchun Shtoll[1] tomonidan olingan natijalardan foydalanamiz. $\mathbb{C}^n$ fazoda sof k o‘lchamli A analitik to‘plami uchun $A_r = A \cap B_r$ va $\partial A_r = A \cap \partial B_r$ bo‘lsin. Bu yerda: B_r to‘plam $\mathbb{C}^n$ fazodagi markazi $z = 0$ nuqtada, radiusi r bo‘lgan shar bo‘lsin. χ_r bilan B_r sharning xarakteristik funksiyasini va $[A]$ bilan esa A da integrallash oqimini belgilaymiz. Keyin deyarli har bir r uchun ∂A_r haqiqiy analitik to‘plamning regular nuqtalaridagi integral oqimi $d(\chi_r[A])$ bo‘lsin. Bu oqimni $[\partial A_r]$ bilan belgilaymiz.

Aslida, $A = \bigcup_{j=0}^{k} A^j$ bo‘lsin, bu yerda $\bigcup_{s=0}^{p-1} A^s$ to‘plam A^p analitik to‘plamning kritik nuqtalar to‘p-lamidir va $\dim A^p = p$. Sarda teoremasi shuni nazarda tutadiki, deyarli har bir r, ∂B uchun A^p ga transversal, demak, bunday r uchun ∂A_r to‘plam $2k-1$ o‘lchamli haqiqiy analitik to‘plam va uning kritik nuqtalar to‘plami $2k-3$ o‘lchamli bo‘ladi. Bunday r larga regular qiymatlar deyiladi. Shuning uchun, $d(\chi_r[A]) - [\partial A_r]$ oqim o‘lchami $2k-3$ to‘plami bilan qanoatlantiriladi. Bu bizga 1-lem-mada Stoks teoremasidan foydalanish imkonini beradi.

Soddalik uchun biz $0 \notin A$ va A keltirilmaydigan analitik to‘plamni deb olamiz. A analitik to‘plamda χ yopiq manfiy bo‘lmagan, C^2 sinfga tegishli $(k-1,k-1)$ forma bo‘lsin. Faraz qilaylik, A ning biror nuqtasida $\chi > 0$. U holda $0 < s < r$ regular qiymatlar uchun A da uzluksiz va $A_r \setminus \overline{A}_s$ da cheksiz marta differensiallanuvchi φ_{rs} funksiya mavjud bo‘lib, quyidagi xossalarga ega:[2]

1. $0 \le \varphi_{rs} \le 1$;
2. $\overline{A}_s$ da $\varphi_{rs} = 1$ va $A \setminus A_r$ da $\varphi_{rs} = 0$;
3. $dd^c\varphi_{rs} \wedge \chi \equiv 0$, bu yerda $d^c = \frac{i}{4\pi}(\overline{\partial} - \partial)$;
4. $\partial A_r \cup \partial A_s$ da $-d^c\varphi_{rs} \wedge \chi > 0$;
5. $-\int_{\partial A_r} d^c\varphi_{rs} \wedge \chi = -\int_{\partial A_s} d^c\varphi_{rs} \wedge \chi > 0.$

Biz bundan keyin har doim χ yopiq formani $\left(dd^c \ln |z|^2\right)^{k-1}$ deb olamiz. Bu yerda $|z| = \sqrt{z_1 \cdot \overline{z}_1 + ... + z_n \cdot \overline{z}_n}$, $z \in \mathbb{C}^n$, $z = (z_1,...,z_n)$.

Shtoll tomonidan kiritilgan ushbu

$$c_{rs} = -\int_{\partial A_r} d^c\varphi_{rs} \wedge \chi. \qquad (1)$$

[1] Stoll W. The growth of the area of a transcendental analytic Set. I, II, Math, Ann. V.156 (1964), p. 47–98;144–170.
[2] Stoll W. The growth of the area of a transcendental analytic. Set. I, Math. Ann. V. 156 (1964), p. 47–98.

tenglik bilan aniqlangan ifoda, har bir tayin s da r o‘sishi bilan c_{rs} kamayuvchi bo‘lishi isbotlangan. Demak, $\lim\limits_{r\to x} c_{rs}$ mavjud va bu limit

$$c_\infty(A)=\lim_{r\to\infty} c_{rs}\geqslant 0$$

A analitik to‘plamning sig‘imi deyiladi.

Odatdagidek, hajm formasi va hisoblash funsiyalari quyidagicha aniqlanadi:

$$n(A,r)=\frac{c_n\,\mathrm{vol}(A_r)}{r^{2k}}=\int_{A_r}\left(dd^c\ln|z|^2\right)^k,\quad N(A,r)=\int_0^r\frac{n(A,t)}{t}dt, \tag{2}$$

bu yerda c_k, $n\left(\mathbb{C}^k,r\right)\equiv 1$ bo‘ladigan qilib aniqlanadi. Keyingi natijalarni isbotlash uchun endi sekin o‘sishning analitik to‘plamida o‘zgarmasdan farqli chegaralangan golomorf funksiyalar mavjud emasligi haqidagi N.Siboni va P.M.Vong teoremasini isboti bilan ko‘rib chiqamiz.[1]

1-teorema (N.Siboni va P.M.Vong). $A\subseteq\mathbb{C}^n$ sof k o‘lchamli keltirilmaydigan analitik to‘plam bo‘lib,

$$\liminf_{r\to\infty}\frac{N(A,r)}{\ln^2 r}<\infty$$

bo‘lsin. U holda A dagi har qanday chegaralangan golomorf funksiya o‘zgarmas bo‘ladi.

Teorema isboti uchun bizga quyidagi lemma kerak bo‘ladi.

1-lemma. Faraz qilaylik, u funksiya A da C^2 sinfga tegishli funksiya bo‘lsin. Agar r va s ($0<s<r$) regular qiymatlar bo‘lsa, u holda

$$\int_{A_r}\varphi_{rs}dd^c u\wedge(dd^c\ln|z|^2)^{k-1}=\int_{\partial A_s\setminus\partial A_r}ud^c\varphi_{rs}\wedge(dd^c\ln|z|^2)^{k-1} \tag{3}$$

bo‘ladi.

Isbot. Stoks teoremasi va φ_{rs} funksiyaning yuqoridagi 4-xossasidan foydalanamiz:

$$\int_{\partial A_s\setminus\partial A_r}ud^c\varphi_{rs}\wedge(dd^c\ln|z|^2)^{k-1}=\int_{A_s\setminus A_r}d\left(ud^c\varphi_{rs}\wedge(dd^c\ln|z|^2)^{k-1}\right)=$$

$$=\int_{A_s\setminus A_r}du\wedge d^c\varphi_{rs}\wedge(dd^c\ln|z|^2)^{k-1}.$$

Boshqa tomondan, differensial forma xossasidan

$$du\wedge d^c\varphi\wedge(dd^c\ln|z|^2)^{k-1}=d\varphi\wedge d^c u\wedge(dd^c\ln|z|^2)^{k-1}.$$

tenglik o‘rinli. Shuning uchun

$$\int_{A_s\setminus A_r}du\wedge d^c\varphi_{rs}\wedge(dd^c\ln|z|^2)^{k-1}=\int_{A_s\setminus A_r}d\varphi_{rs}\wedge d^c u\wedge(dd^c\ln|z|^2)^{k-1}=$$

$$=\int_{A_s\setminus A_r}d\left(\varphi_{rs}d^c u\wedge(dd^c\ln|z|^2)^{k-1}\right)-\int_{A_s\setminus A_r}\varphi_{rs}dd^c u\wedge(dd^c\ln|z|^2)^{k-1}=$$

$$=\int_{\partial A_s\setminus\partial A_r}\varphi_{rs}d^c u\wedge(dd^c\ln|z|^2)^{k-1}-\int_{A_s\setminus A_r}\varphi_{rs}dd^c u\wedge(dd^c\ln|z|^2)^{k-1}.$$

A_s to‘plamda $\varphi_{rs}=1$ va $A\setminus A_r$ to‘plamda esa $\varphi_{rs}=0$ bo‘lgani uchun oxirgi munosabatni

[1] Sibony N., Wong P.M. Some remarks on the Casorati-Weierstrass theorem. Ann. Pol. Math. V. 39(1981), №1, p. 165–174.

$$\int_{\partial A_s} d^c u \wedge (dd^c \ln|z|^2)^{k-1} - \int_{A_s} dd^c u \wedge (dd^c \ln|z|^2)^{k-1} + \int_{A_r} \varphi_{rs} dd^c u \wedge (dd^c \ln|z|^2)^{k-1} =$$

$$= \int_{A_r} \varphi_{rs} dd^c u \wedge (dd^c \ln|z|^2)^{k-1}$$

sifatida yozish mumkin. Bu yana Stoks teoremasining natijasidir.

1-teorema isboti. A to‘plamda f golomorf funksiya berilgan bo‘lib, $M_f(r) = \max_{|z|\le r} \ln(1+|f(z)|^2)$ bo‘lsin. Yuqoridagi lemmani $u = \ln(1+|f|^2)$ funksiyaga qo‘llab va φ_{rs} funksiyaning 4-xossasidan foydalanib, quyidagi ega bo‘lamiz:

$$\int_{A_r} \varphi_{rs} dd^c \ln(1+|f|^2) \wedge \left(dd^c \ln|z|^2\right)^{k-1} = \int_{\partial A_s \setminus \partial A_r} \ln(1+|f|^2) d^c \varphi_{rs} \wedge \left(dd^c \ln|z|^2\right)^{k-1} \le$$

$$\le -\int_{\partial A_r} \ln(1+|f|^2) d^c \varphi_{rs} \wedge \left(dd^c \ln|z|^2\right)^{k-1}.$$

Bundan esa

$$\int_{A_r} \varphi_{rs} dd^c \ln(1+|f|^2) \wedge \left(dd^c \ln|z|^2\right)^{k-1} \le c_{rs} \cdot M_f(r) \tag{4}$$

tengsizlik o‘rinli bo‘ladi.

Endi $u = \ln|z|^2$ funksiya uchun 1-lemmani qo‘llab,

$$\int_{A_r} \varphi_{rs} dd^c \ln|z|^2 \wedge \left(dd^c \ln|z|^2\right)^{k-1} = \int_{A_r} \varphi_{rs} \left(dd^c \ln|z|^2\right)^k =$$

$$= \int_{\partial A_s \setminus \partial A_r} \ln|z|^2 d^c \varphi_{rs} \wedge \left(dd^c \ln|z|^2\right)^{k-1} = 2c_{rs} \ln \frac{r}{s}. \tag{5}$$

(5) tenglik va $0 \le \varphi_{rs} \le 1$ bo‘lishidan

$$n(A,r) = \int_{A_r} \left(dd^c \ln|z|^2\right)^k = \int_{A_r} dd^c \ln|z|^2 \wedge \left(dd^c \ln|z|^2\right)^{k-1} \ge$$

$$\ge \int_{A_r} \varphi_{rs} dd^c \ln|z|^2 \wedge \left(dd^c \ln|z|^2\right)^{k-1} = 2c_{rs} \cdot \ln \frac{r}{s}. \tag{6}$$

c_{rs} ifoda r ga nisbatan kamayuvchi, shuning uchun biz t ning $s < t < r$ dagi qiymatlari uchun

$$2c_{rs} \ln \frac{t}{s} \le 2c_{ts} \ln \frac{t}{s} \le n(A,t) \tag{7}$$

tengsizlik bajariladi. (7) tengsizlikni $\frac{1}{t}$ ga ko‘paytirib, quyidagi integralni qaraymiz:

$$2c_{rs} \int_s^r \frac{1}{t} \ln \frac{t}{s} dt \le \int_s^r \frac{n_A(t)}{t} dt.$$

Oxirgi tengsizlikda, ushbu munosabat kelib chiqadi:

$$c_{rs}\cdot\ln^2\frac{r}{s}=2c_{rs}\int_s^r\frac{1}{t}\ln\frac{t}{s}dt\le\int_s^r\frac{n_A(t)}{t}dt=\int_s^0\frac{n_A(t)}{t}dt+\int_0^r\frac{n_A(t)}{t}dt=$$

$$=\int_0^r\frac{n_A(t)}{t}dt-\int_0^s\frac{n_A(t)}{t}dt=N(A,r)-N(A,s),$$

hisoblashlar bajarib, ushbu tengsizlikni olamiz:

$$c_{rs}\le\frac{N(A,r)-N(A,s)}{\ln^2\frac{r}{s}}\le\frac{N(A,r)}{\ln^2\frac{r}{s}}. \tag{8}$$

(4) va (8) dan hamda φ_{rs} funsiyaning musbatligi va A_s da birga tengligidan foydalanib, $0<s<r$ uchun

$$\int_{A_s}dd^c\ln(1+|f|)^2\wedge\left(dd^c\ln|z|^2\right)^{k-1}\le\frac{N(A,r)}{\ln^2\frac{r}{s}}M_f(r). \tag{9}$$

Agar $f(z)$ chegaralangan va $\liminf\limits_{r\to\infty}\frac{N(A,r)}{\ln^2 r}=0$ bo‘lsa, u holda (9) va Fatu lemmasidan $f(z)$ funksiyaning o‘zgarmas bo‘lishi kelib chiqadi. *Teorema isbot bo‘ldi.*

Izoh. *Agar* $\liminf\limits_{r\to\infty}\frac{N(A,r)}{(\log r)^2}=0$ bo‘lsa, *(8) tengsizlikdan* $c_\infty(A)=0$ *bo‘lishi kelib chiqadi. U holda keltirilmaydigan* A *analitik to‘plamdagi ixtiyoriy silliq plurisubgarmonik funksiya o‘zgarmas bo‘ladi.*

Aytaylik, $\mathbb{C}^n$ fazoda $A\subset\mathrm{C}^n-$ keltirilmaydigan $\dim A=k,\ k\le n$ sof o‘lchamli analitik to‘plam bo‘lsin. $\chi=(dd^c\ln|z|^2)^{k-1}$ manfiy bo‘lmagan yopiq forma va $regA$ bilan A analitik to‘p-lamning barcha regular nuqtalari to‘plamini belgilaymiz. Aniqlik uchun $A_1\neq\varnothing$ va radius $r_0=1$ regular nuqta bo‘lsin. U holda har bir $r>1$ regular qiymat uchun A da uzluksiz va $A_r\setminus A_1$ *regular to‘plam*da cheksiz silliq bo‘lgan φ_r funksiya mavjud bo‘lib, bu funksiya yuqorida qaralgan xossalarni qanoatlantiradi. Yuqoridagi kabi $A_r\setminus A_1$ kondesatorning sig‘imini

$$c_r=-\int_{\partial A_r}d^c\varphi_r\wedge\chi$$

formula bo‘yicha aniqlaymiz. Bundan tashqari, φ_r va $\psi_r=\frac{\varphi_r}{c_r}$ funksiyalarning r bo‘yicha monoton o‘suvchiligi isbotlangan.[1] $\chi-$garmonik funksiyaning ma’lum xossalariga ko‘ra, $\{\psi_r\}$ funksiyalar oilasi $r\to\infty$ da $\chi-$ garmonik funksiyaga yoki $+\infty$ yaqinlashadi.

Riman sirtlari,[2] Shteyn ko‘pxilliklari[3][4][5] va analitik sirtlarning[1] parabolikligi tushunchasi ko‘pgina olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, K.Ataxanov ishlarida parabolik analitik to‘plamlarda Nevanlinna nazariyasi masalalari ham o‘rganilgan.

---

[1] Stoll W. The growth of the area of a transcendental analytic. Set. I, II, Math. Ann. V. 156 (1964), p. 47–98: p. 144–170.

[2] Sario L., Nakai M. Classification theory of Riemann surfaces, Springer-Verlage Berlin-Heidelberg, 1970.

[3] Stoll W. The characterization of strictly parabolic manifolds, Ann. Scuola Norm. Sup. di Pisa, s. IV VII (1) (1980), p. 87 – 154.

[4] Aytuna A., Sadullaev A. Parabolic Stein Manifolds, Mathematica Scandinavica Vol 114, № 1 (2014), p. 86 – 109.

[5] Atamuratov A.A. Polynomials on regular parabolic manifolds, CMFD, 2022, Vol. 68, Issue 1, p. 41 – 58.

3-ta'rif[2]**.** Agar $A \subset \mathbb{C}^N$ keltirilmaydigan analitik to'plamning ψ_r funksiyasi $r \to \infty$ da $\psi_r \to +\infty$ yoki $c_r \to 0$ bo'lsa, A analitik to'plam *parabolik* deyiladi.

Misol. $A = \mathbb{C}^n$ fazo parabolik analitik to'plam bo'ladi.

Haqiqatdan ham, $\mathbb{C}^n$ da markazi $z = 0$ nuqtada radiusi r ga teng sharni qaraylik, ya'ni

$$B_r = B(0,r) = \left\{ z \in \mathbb{C}^N : |z_1|^2 + |z_2|^2 + ... + |z_n|^2 < r^2 \right\}$$

u holda $A_r = A \cap B_r = B_r$, $\partial A_r = \partial B_r$ va $\chi = \left(dd^c \ln |z|^2 \right)^{n-1}$ bo'lib, yuqoridagi shart-larni qanoatlantiruvchi φ_r funksiya

$$\varphi_r = \begin{cases} 1, & |z| \le 1, \\ \dfrac{\ln r - \ln |z|}{\ln r}, & 1 < |z| < r, \\ 0, & |z| \ge r. \end{cases}$$

ko'rinishda aniqlanadi. $B_r \setminus B_1$ kondensator sig'imi

$$c_r = -\int_{\partial B_r} d^c \phi_r \wedge \chi = \frac{1}{2 \ln r} \int_{\partial B_r} d^c \ln |z|^2 \wedge \left(dd^c \ln |z|^2 \right)^{n-1} = \frac{1}{2 \ln r}$$

bo'ladi. Shunday qilib, $1 < |z| < r$ da $\psi_r = \dfrac{\varphi_r}{c_r} = 2(\ln r - \ln |z|)$ funksiyaga ega bo'lamiz. $\lim\limits_{r \to \infty} \psi_r = +\infty$ bo'lib, $\mathbb{C}^n$ fazoning parabolik bo'lishi kelib chiqadi.

2-teorema (V.Shtoll)[3]. $A \subset \mathbb{C}^n$ — sof k o'lchamli analitik to'plami bo'lsin. Faraz qilaylik, shunday $c > 0$ mavjud bo'lib, barcha $r > 0$ uchun

$$vol_{2k} \left(A \cap B(0,r) \right) \le c \cdot r^{2k} \tag{10}$$

bo'lsin. U holda A algebraik to'plam bo'ladi.

A algebraik to'plam bo'lsa, (10) tengsizlik va (2) munosabatlardan

$$\overline{\lim_{r \to \infty}} \frac{N(A,r)}{\ln r} = \lambda < \infty \tag{11}$$

bo'lishi kelib chiqadi. (8) tengsizlikdan $A_r \setminus A_1$ kondensator sig'imi c_r uchun

$$0 \le c_r \le \frac{N(A,r)}{\ln^2 r} \tag{12}$$

bo'ladi. Yuqoridagi munosabatlardan, A algebraik to'plam bo'lgani uchun $\lim\limits_{r \to \infty} \dfrac{N(A,r)}{\ln^2 r} = 0$ bo'lib, $\lim\limits_{r \to \infty} c_r = 0$ bo'ladi. Bundan quyidagi natijaga kelamiz.

---

[1] Sadullaev A.S., Kamolov Kh.K. Green's function on a parabolic analytic surface, Journal of Siberian Federal University. Mathematics & Physics 2023, 16(2), p. 253 – 264.

[2] Atakhanov K.U. Defect divisors of holomorphic mappings of parabolic analytic sets, Siberian Math. J. 28 (1987), p. 376 – 381.

[3] Stolzenberg G. Lecture Notes in Mathematics, Vol 19 (1966), Springer-Verlag Berlin Heidelberg.

3-teorema. Ixtiyoriy $A \subset \mathbb{C}^n$ algebraik to‘plam parabolik bo‘ladi.

Haqiqatdan, ko‘rish mumkinki, (12) tengsizlikdan bevosita, keltirilmaydigan analitik to‘plamlarning parabolikligi sharti kelib chiqadi. Bu natija K.Ataxonov ishida o‘rganilgan.

2-lemma.[1] Agar $\mathbb{C}^n$ fazoda $A-$keltirilmaydigan $\dim A = k,\ k \le n$ sof o‘lchamli analitik to‘plam bo‘lib, $N(A,r)$ hisoblash funksiyasi uchun

$$\lim_{r\to\infty} \frac{N(A,r)}{\ln^2 r} = 0$$

bo‘lsa. U holda $A \subset \mathbb{C}^n$ analitk to‘plam parabolik bo‘ladi.

Hafizov Erkin Alimboy o‘g‘li (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali Biotexnologiya kafedrasi o‘qituvchisi)

PAST TEZLIKLI ENERGIYA OQIMLARIDA SAMARALI ISHLOVCHI MUQOBIL ENERGIYA MANBAYI GENERATOR KONSTURUKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi hududiga moslasha oladigan past tezlikli gineratorlar ko‘rib chiqilib, ular ichidan akseal generator tanlab olingan. Aseal generatorlar past tezlik shamol oqimlariga, past teslikli suv oqimlariga ishlay olishi, reduktorga ehtiyoj qoldirmasligi konstruksiyasi soddaligi, ishonchligi yuqori, massa jihatdan radialdan oqim generatoridan konsturuksiyasi massasi yengilligi, foydali ish koeffitsiyenti yuqori, magnit oqim energiya zichligi yuqori bo‘lishi, reduktorsiz ishlay olishi, aseal oqim generatorida rotor qismiga metall, aluminiy, nikel, boshqa materiallardan foydalanish mumkinligi. Izolatsiyasi, sovitish tizimi yaxshiligi, yuqori tezlikka chiqa olishi, mashinasozlik, samalyotsozlik, mototsikllarda, dironlarda qo‘llanilishi mumkin.*

Аннотация.*В данной статье рассмотрены тихоходные генераторы, которые могут быть адаптированы для территории Республики Узбекистан, и из них выбран аксиальный генератор. Генераторы АСЕАЛ могут работать с тихоходными ветровыми течениями и тихоходными течениями воды, не требуют редуктора, просты по конструкции, имеют высокую надежность, по массе, конструкция радиального генератора тока мала по весу, высокий КПД, высокая плотность энергии магнитного потока, возможность работы без редуктора, возможность использования металла, алюминия, никеля, других материалов для роторной части генератора тока. Система охлаждения имеет хорошую изоляцию, может развивать высокую скорость, может использоваться в машиностроении, авиастроении, машиностроении, швейных машинах.*

From (11) and (15) follows:

$$\lim_{n\to\infty} \int\limits_{P} |f(\rho_n,\theta)| d\theta = \int\limits_{P} |f^*(r,\theta)| d\theta. \tag{18}$$

But the right part in (17) is less than ε; therefore, there is $n_0 > 0$ such that at $n > n_0$ there will be $\int\limits_{P^*} |f(\rho_n,\theta)| d\theta < \varepsilon$. Let us now choose n_0 even so large that at $n > n_0$ by P_1 the inequality $\left| f(\rho_n,\theta) - f^*(r,\theta) \right| < \varepsilon$ is still fulfilled. Then, since for any complex z_1 and z_2 we have

$$|z_1 - z_2| \le |z_1| + |z_2| \le 2(|z_1| + |z_2|),$$

we get:

$$\int\limits_0^{2\pi} \left| f(\rho_n,\theta) - f^*(r,\theta) \right| d\theta \le \int\limits_P \left| f(\rho_n,\theta) - f^*(r,\theta) \right| d\theta + \int\limits_{P_1} \left| f(\rho_n,\theta) - f^*(r,\theta) \right| d\theta \le$$

$$\le 2\pi\varepsilon + 2 \cdot 2\varepsilon = 2\varepsilon(\pi + 2).$$

Due to the arbitrariness of $\varepsilon > 0$ this means that there is equality

$$\lim_{n\to\infty} \int\limits_0^{2\pi} \left| f(\rho_n,\theta) - f^*(r,\theta) \right| d\theta = 0.$$

Further more, due to the arbitrariness of the sequence ρ_n, it follows from here and (12). The statement are proven.

3. The Poisson and the Cauchy integral formulas for the class of functions. H_A^1. Now, we will prove for class H_A^1 functions the following theorem:

Theorem 6. In order for the function $f(z) \in \mathrm{O}_A(L(a,r))$ to be representable in $L(a,r)$ by the Poisson integral, it is necessary and sufficient that $f(z) \in H_A^1(L(a,r))$. Under the same condition, the Poisson formula $L(a,r)$ takes place in

$$f(z)=\frac{1}{2\pi r}\int\limits_{|\psi(\zeta,a)|=r} f^*(\zeta)P(\zeta,z)\left|d\zeta+A(\zeta)d\overline{\zeta}\right|, \tag{19}$$

where $\zeta\in\partial L(a,r).$

Proof. If $f(z)$ is representable in $L(a,r)$ by the formula

$$f(z)=\frac{1}{2\pi r}\int\limits_{|\psi(\zeta,a)|=r} g(\zeta)P(\zeta,z)\left|d\zeta+A(\zeta)d\overline{\zeta}\right|,$$

where $g(\zeta)\in L_A^p(\partial L(a,r)),$ then it follows at $|\psi(z,a)|<\rho$:

i.e. $f(z)\in H_A^1\left(L(a,r)\right).$

Conversely, if $f(z)\in H_A^1\left(L(a,r)\right),$ then at $|\psi(z,a)|<\rho$ we have:

$$f(z)=\frac{1}{2\pi\rho}\int\limits_{|\psi(\xi,a)|=\rho} g(\xi)\frac{\rho^2-|\psi(a,z)|^2}{|\psi(\xi,z)|^2}\left|d\xi+A(\xi)d\overline{\xi}\right|,$$

where $\xi\in\partial L(a,\rho).$ From here,

$$\left|f(z)-\frac{1}{2\pi r}\int\limits_{|\psi(\zeta,a)|=r} f^*(\zeta)P(\zeta,z)\left|d\zeta+A(\zeta)d\overline{\zeta}\right|\right|\le$$

$$\le\frac{1}{2\pi r}\int\limits_{|\psi(\zeta,a)|=r}\left|f(\xi)-f^*(\zeta)\right|\frac{\rho^2-|\psi(a,z)|^2}{|\psi(\xi,z)|^2}\left|d\zeta+A(\zeta)d\overline{\zeta}\right|+$$

$$+\frac{1}{2\pi r}\int\limits_{|\psi(\zeta,a)|=r}\left|f^*(\zeta)\right|\left|\frac{\rho^2-|\psi(a,z)|^2}{|\psi(\xi,z)|^2}-P(\zeta,z)\right|\left|d\zeta+A(\zeta)d\overline{\zeta}\right|. \tag{20}$$

But the first of the integrals on the right is the Poisson kernel $P(\zeta;z)$ at $z\in L(a,\rho)$ fixed $z\in L(a,\rho)$ and $\rho\to r$ bounded; therefore, by (12) we conclude that at $\rho\to r$ this integral tends to 0. That is, $\forall\varepsilon>0,\ \exists\delta(\varepsilon)>0$ for all $\xi\in\partial L(a,\rho)$ satisfying $|\psi(\xi,\zeta)|<\delta,$ the following inequality holds:

$$\frac{1}{2\pi r}\int\limits_{|\psi(\zeta,a)|=r}\left|f(\xi)-f^*(\zeta)\right|\frac{\rho^2-|\psi(a,z)|^2}{|\psi(\xi,z)|^2}\left|d\zeta+A(\zeta)d\overline{\zeta}\right|<\varepsilon.$$

Further, in the second integral on the right at $\rho\to r,$ the integrand function tends to 0 almost everywhere in $\partial L(a,r)$ and at the same time does not exceed the function $T\,|f^*(\zeta)|$ with some finite T independent of $\xi;$ therefore, in this integral, a limiting transition is possible at $\rho\to r$:

$$\frac{1}{2\pi r}\int\limits_{|\psi(\zeta,a)|=r}\left|f^*(\zeta)\right|\left|\frac{\rho^2-|\psi(a,z)|^2}{|\psi(\xi,z)|^2}-P(\zeta,z)\right|\left|d\zeta+A(\zeta)d\overline{\zeta}\right|\le\frac{1}{2\pi r}\int\limits_{|\psi(\zeta,a)|=r}T\left|f^*(\zeta)\right|\left|d\zeta+A(\zeta)d\overline{\zeta}\right|.$$

From inequality (20) we conclude that its left part, as independent of $\xi,$ will be zero, and this gives the formula (19). The theorem is proven.

Theorem 7. *If the function* $f(z)\in\mathrm{O}_A\left(L(a,r)\right)$ *and* $f(z)\to f^*(\zeta)$ *at* $\rho\to r$ *are almost everywhere on* $\partial L(a,r)$ *and* $f^*(\zeta)\in L_A^1\left(\partial L(a,r)\right),$ *then in order for the Cauchy formula*

$$f(z)=\frac{1}{2\pi i}\int\limits_{\partial L(a,r)}\frac{f^*(\zeta)}{\psi(\zeta,a)}\Big(d\zeta+A(\zeta)d\overline{\zeta}\Big), \tag{21}$$

to take place in $L(a,r)$, *it is necessary and sufficient that* $f\in H^1_A$.

Proof. If $f\in H^1_A$, then the validity of formula (21) is proved in the same way as formula (19) was proved.

Now let the formula (21) take place for functions $f\in H^1_A$ in $L(a,r)$. The integral on the right can be considered as a linear combination of four Cauchy integrals of the form

$$\frac{1}{2\pi i}\int\limits_{\partial L(a,r)}\frac{\nu(\zeta)}{\psi(\zeta,a)}\Big(d\zeta+A(\zeta)d\overline{\zeta}\Big), \tag{22}$$

where $\nu(\zeta)$ is a real non-negative function in $\partial L(a,r)$. Now, denoting the integral (22) by $F(z)$, we have in the $L(a,r)$:

$$\operatorname{Re}F(z)=\frac{1}{2\pi r}\int\limits_{\partial L(a,r)}\nu(\zeta)P(\zeta,z)\Big(d\zeta+A(\zeta)d\overline{\zeta}\Big)\ge 0.$$

If we exclude the case when $F(z)\equiv 0$ (then the proof below is obvious), then in $|\psi(z,a)|<r$ there will even be $\operatorname{Re}\big(F(z)\big)>0$; therefore, if $F(z)=\operatorname{R}e^{i\alpha}$, then in $L(a,r)$ we have $|\alpha|<\frac{\pi}{2}$, where $\operatorname{R}>0$. Let's now $0<p<1$. Putting $u_p(z)=\operatorname{Re}\Big(\big(f(z)\big)^p\Big)=R^p\cos p\alpha$ in $L(a,r)$ we have $u_p(z)>0$. Hence

$$R^p=\frac{u_p(z)}{\cos p\alpha}\le\frac{u_p(z)}{\cos\frac{\pi p}{2}}.$$

Integrating this by $|\psi(z,a)|=\rho$, we get:

$$\int\limits_{|\psi(z,a)|=\rho}|F(z)|^p|dz+A(z)d\overline{z}|\le\frac{1}{\cos\frac{\pi p}{2}}\int\limits_{|\psi(z,a)|=\rho}u_p(z)|dz+A(z)d\overline{z}|=\frac{2\pi\rho u_p(a)}{\cos\frac{\pi p}{2}}.$$

Therefore, $F(z)\in H^p_A$. Based on this, we conclude that the Cauchy integral included in formula (21) belongs to class H^p_A with any p, where $0<p<1$, i.e. $f(z)\in H^p_A$. But $f^*(\zeta)\in L^p_A$. By Proposition 1, it follows that $f(z)\in H^1_A$; hence, we have proved the necessity of the condition of the theorem. The theorem is proved.

Result. Several theorems are proved for $A(z)-$analytic functions on a compact set $L(a,r)$ in a convex domain D. With the help of some other statements applicable to $A(z)-$analytic functions, the Poisson kernel and Cauchy integral formula for classes of functions H^1_A was proved.

References:

1. Golusin G.M. Geometric theory of functions of a complex variable, Moscow, “Nauka”, 1966, p. 629 (in Russian).

2. Arbuzov E.V. The Cauchy problem for second-order elliptic systems on the plane. J. Siberian Math., Vol. 44, № 1, 2003, p. 3 – 20.

3. Sadullaev A., Jabborov N.M. On a class of A – analytic functions, J.Siberian Fed. Univ., Math. & Physics, 2016, Vol. 9, № 3, p. 374 – 383.

4. Zhabborov N.M., Otaboyev T.U. and Khursanov Sh.Y. Schwarz inequality and Schwarz formula for $A(z)$ – analytic functions. J. Modern math. Fundamental directions, Vol. 64, № 4, 2018, p. 637–649 (in Russian).

5. Husenov B.E. Generalization of the Hardy class for $A(z)$ – analytic functions, J. Scientific Reports of Bukhara State Univ. 2021, Vol. 86, № 4, p. 29 – 46.

6. Nematillayeva M.D. Analogue of the Blaschke theorem of $A(z)$ – analytical functions, Republican Scientific and Practical Conference "Topical issues of algebra and analysis", Termez, Uzbekistan, (November 18-19, 2022), p. 283 – 284 (in Russian).

Foziljonov Mirzabaxrom Baxtiyorjon o'g'li (Andijan State University),
Abdikarimov Azamat Egamberganovich (Urganch State University, Abdukarimov.azamat@rambler.ru),
Matyakubov Davlatbek Davronbekovich (Urgench Branch of Tashkent university of Information Technologies)

THE IMPACT OF THE LOCAL TRAPPED CHARGE IN BOUNDARY OXIDE-SEMICONDUCTOR LAYERS ON THE GATE-DRAIN CAPACITANCE IN A FinFET

Annotatsiya. *Ushbu maqolada biz zatvor osti oksid qatlamidagi lokal zaryadning zatvor-stok sig'imiga ta'sirini o'rganamiz. Ko'rsatilganidek, oksid qatlamidagi lokal zaryad istok tomonga yaqinlashganda,u istok va kanal sohasidagi elektronlar va kavaklarning zichligiga hamda stok-kanal sohasidagi sig'imining o'zgarishiga ta'sir qilishi aniqlangan.*

Аннотация. *В данной работе исследуется влияние локального захваченного заряда в оксидном слое затвора на емкость затвора-стока. Показано, что с приближением локального захваченного заряда в оксидном слое к истоку влияет на изменение плотности электронов и дырок в областях сток-канала и емкость областей сток-канала.*

Annotation. *In this paper, the influence of the local trapped charge in the gate oxide layer on the total of the capacity of gate-drain is studied. It was investigated that the approaching of the local trapped charge in the gate oxide layer towards the source influences the change in the density of electrons and holes in the drain-channel regions and electric capacity of drain-channel regions.*

Kalit so'zlar: *qamralgan zaryad, oksid-yarimo'tkazgich mintaqasi, elektron va kavaklar zichligi, p-n o'tish, sig'im, zatvor, stok va kanal.*

Ключевые слова*: захваченный заряд, оксидно-полупроводниковая область, плотность электронов и дырок, p-n переход, электрическая емкость, затвор, сток и канал.*

Key words*: trapped charge, oxide-semiconductor region, density of electrons and holes, p-n junction, electric capacity, gate, drain and channel.*

I. Introduction. At the semiconductor-oxide interface in a metal-oxide semiconductor stack, im-perfections in the chemical structure lead to interface traps. These localized defects can trap and release mobile charge, leading to drain-current noise [1.2] as well as a reduced electrostatic control of the gate over the channel [3.5]. Interface traps are formed during device processing, but can be additionally crea-ted by e.g. ionizing radiation and electrical stress. CMOS process development, process control and relia-bility assessment require an accurate estimate of the interface state density in these devices. Trapped char-ges can have a significant impact on the capacitance between the gate and the source layers in FinFETs. Trapped charges can cause a shift in the threshold voltage, which can affect the device's performance, and can also alter the effective capacitance between the gate and the source layers [6]. When charges are trap-ped in the gate oxide layer of a FinFET, they can alter the effective thickness of the oxide layer, which af-fects the capacitance between the gate and the source layers. The trapped charges can act as additional charges that contribute to the capacitance between the gate and the source, and can increase or decrease the effective capacitance depending on their polarity and density. Moreover, the presence of trapped char-ges can also alter the threshold voltage of the device. The trapped charges can create an electric field that opposes the gate electric field, leading to a shift in the threshold voltage. This shift in the threshold vol-tage can cause the device to operate at a higher or lower voltage than intended, which can result in perfor-mance issues. To mitigate

the effects of trapped charges on the capacitance between the gate and the source layers, various techniques may be used, such as incorporating a high-k dielectric material to reduce the density of trapped charges, or using a gate stack engineering technique to reduce the effective thickness of the oxide layer [7]. Additionally, annealing or bias-stress techniques may also be employed to reduce the impact of trapped charges on the device's performance. Annealing is a process that involves heating the FinFET device to a high temperature for a short period of time. Annealing can help to reduce the effects of trapped charges on the capacitance between the gate and the source layers. During the an-nealing process, the trapped charges can be neutralized or redistributed, which can reduce their impact on the device's performance. Bias-stress techniques involve applying a voltage bias to the gate of the FinFET for an extended period of time. The application of the bias voltage can cause the trapped charges to move, and the effect of the trapped charges on the device's performance can be measured[8]. By studying the effects of the bias voltage, the impact of trapped charges on the device's performance can be characteri-zed, and steps can be taken to mitigate their effects. Trapped charges can significantly impact the capaci-tance between the gate and the source layers in FinFETs. The presence of trapped charges can alter the effective thickness of the gate oxide layer, which affects the capacitance between the gate and the source layers. Additionally, trapped charges can also shift the threshold voltage of the device, leading to perfor-mance issues. Various techniques such as high-k dielectric material, gate stack engineering, annealing, and bias-stress techniques can be used to mitigate the effects of trapped charges on the device's perfor-mance [9]. Nowadays, studying the influence of the accumulated charges in the defects of the gate oxide region via the long-time operation of FinFET is one of the actual problems. The purpose of this paper is to study the influence of the local accumulated charge in the gate oxide layer on the capacitance of gate-drain.




Fig. 1. The structure of the FinFET studied by of the simulation.




Fig. 2. Calibration of the I–V characteristic of (1) a simulated transistor by (2) experimental results of at L_{gate} = 25 nm and V_{ds} = 50 mV.

I. Device structure and simulation conditions. In our research 3D-modeling was carried out using the Advanced TCAD Sentaurus program [10]. The structure of the FinFET studied in this paper by of the simulation is shown in Fig. 1. A diffusion-drift transport model was used in the simulation. The model takes into account the Shockley–Read–Hall recombination and Auger recombination for minority carriers. The mobility model doping dependence and velocity saturation was also included. Since the tran-sistor has a nanometer size, it is necessary to take into account the quantum effects. The most preferred for diffusiondrift simulation is the density gradient quantum correction [11], which was used in this study. The model was calibrated according to the experimental results (Fig. 2) [12].

The following structure parameters were used in the simulation. The length of the polysilicon gate (G) doped with phosphorus at a concentration of 10^{20} cm^{-3} is L_{gate}=25 nm. HfO_2 with an equivalent thickness of t_{ox} = 0.35 nm is taken as a gate oxide layer. The length and width of the buried oxide layer were L_{box}=75 nm and W_{box}=100 nm, respectively. The transistor fin is doped with boron at a concentra-tion of 10^{15} cm^{-3}, has the height T_{si}=30 nm and a base width of W_b = 12 nm, the drain (D) and source (S) regions are doped with phosphorus with a Gaussian profile with a maximal concentration of 10^{20} cm^{-3}. The lengths of the drain and source regions are 25 nm. For study influence the trapped charges in semi-conductor-insulator interface to the capacitance between the gate and the source layers. In simulation charged layer has set as fig.3. At here width of charged layer is 5 nm which as shown Fig. 3. Volume bulk density of charge is equal to $4 \cdot 10^{18}$ C/m^3.

III. Simulations results and discussion. In the simulation, the charged layer moves from drain to source with 5nm step by step as shown Fig. 3. Besides, in the second stage the charged region extended from 5nm to 25 nm step by step. In simulation, the change in capacitance between the gate and the drain was studied when the charged gate oxide region moved from the drain to the source when the drain was supplied with a voltage of 5 V. The obtained results are presented in Fig. 4.




Fig. 3. Location of charged gate oxide region and its moving from drain to source with 5 nm step.




Fig. 4. The change capacitance between the gate and the drain depending on the located distance of charged gate oxide region.




Fig. 5. Electron density along the channel 1 nm below the top of the channel.

The analysis of the results obtained in Fig. 4. indicates that, there is impact of the local charged region on the gate-drain electric capacity. The change of the gate-drain electric capacity depends on the change of the p-n junction capacity. Because the charged region influences to the depletion region in the p-n junction. For to determine this, we will check the influence of the charged region on the density of electrons and holes in the p-n junction. The obtained results are presented in Fig. 5. and Fig. 6.




Fig. 6. Hole density along the channel 1 nm below the top of the channel.

If we analyze the obtained results, the approaching of the charged region to the source side causes a change in the density of electrons and holes in the p-n junction region. we can see it from Fig. 5. and Fig. 6. It is the change in the density of electrons and holes that changes the electric capacity of the p-n junction. If the capacitance of the p-n junction changes, the total capacitance of between the gate and drain also changes. But the influence on the total electrical capacity of gate-drain is less than that of the p-n junction electrical capacity. Because the total capacitance of the gate-drain is formed by the series connection capacitance of metal-oxide, capacitance of oxide-semiconductor and capacitance of p-n junction. In this paper, the investigate of the thickness of the gate oxide layer on the capacity of gate-drain is also studied. In simulation prosses, the capacity of drain-gate was calculated in the thickness of the HfO_2 oxide layer from 2 nm to 3.5 nm. The obtained results and the equivalent structure of the vertical field-effect transistor (FinFET) studied in the simulation are shown in Fig. 7. and Fig. 8.




Fig. 7. Impact of oxide layer thickness on capacitance of draingate.




Fig. 8. Equivalent structure of the vertical field-effect transistor..

IV. Conclusion. Using the obtained results and their discussion can be give as follow main conclusions. The trapped charge at the gate oxide influences the density of electrons, holes in the drain-channel region and capacitance of the p-n junction in the drain-channel region. The approaching of the trapped charge to the source has a stronger influence on the electric capacity of the p-n junction in the drain-channel region. It was determined that the capacitance of drain-gate increases when the thickness of the oxide layer increases.

References:

1. K.K.Hung, P.K.K,C.Hu and Y.C.Cheng, A unified model for the flicker noise in metal-oxide-semiconductor field effect transistors", IEEE Trans. Electron Devices, vol. 37 №. 3, pp. 654 – 665 (1990).

2. G.Ghibaudo, O.Roux, Ch.Nguyen-Duc, F.Balestra, and J.Brini, Improved analysis of low frequency noise in field-effect MOS transistors., Physica status solidi A, vol. 124, pp. 571 – 581, 1991.

3. D.K.Schroder. Semiconductor material and device characterization. 3 rd edition, John Wiley & Sons, Inc., USA, 2006.

4. S.C.Witczak, J.S.Suehle, and M.Gaitan. An experimental comparison of measurement techniques to extract Si-SiO2 interface trap density. Solid-State Electronics, vol. 35, № 3, pp. 345 – 355, 1992.

5. S.M.Sze and K.K.Ng. Physics of Semiconductor Devices. 3rd edition, John Wiley & Sons, Inc., USA, 2007.

6. S.Khandelwal and S.S.Islam. Impact of gate oxide traps on FinFET threshold voltage and sub-threshold slope. Microelectronics Reliability, vol. 54, №. 6 – 7, pp. 1146 – 1151, June–July 2014.

7. C.Luo, X.Li, and M.Li, Effect of gate oxide trapped charges on the performance of FinFETs. Journal of Semiconductors, vol. 37, № 1, pp. 014002-1-014002-6, January 2016.

8. Y.Liu, Y.He, X.Zhang, and J.Kangıo Impact of interface trap charge on sub-threshold slope of FinFET. Chinese Physics Letters, vol. 33, №. 4, pp. 047301-1-047301-4, April 2016.

9. S.Gupta, R.P. Agarwal, and D.Gupta. Effect of gate oxide trapped charges on the performance of FinFET-based SRAM cells. Journal of Computational Electronics, vol. 16, №. 4, pp. 1162 – 1172, December 2017.

10. www.synopsys.com.

11. A.E.Abdikarimov, A.G.Indalecio, E.Comesana, N.Seoane, K.Kalna, A.J.García-Loureiro, A.E.Atamuratov. In Proceedings of the 17th International Workshop on Computational Electronics, Paris, France, 2014, p. 247. http://www.iwce.org/iwce/browse/iwce17/abstracts.html.

12. V.S.Basker, T.Standaert, H.Kawasaki, C.C.Y,K.Maitra, T.Yamashita, Y.Faltermeier, H.Adhikari, H. Jagannathan, J.Wang, H.Sunamura, S.Kanakasabapathy, S.Schmitz, J.Cummings, A.Inada, et al., in Proceedings of the Symposium on VLSI Technology (IEEE, 2010), p. 19.

FALSAFA

Yazdonova Soxiba Kurbanovna (Samarqand davlat universiteti “Falsafa va milliy g‘oya” kafedrasi)

TA’LIM VA TARBIYA SAMARADORLIGIGA TO‘SIQ BO‘LUVCHI KIBERMAKON OMILLARI

Annotatsiya. *Maqolada ta’lim va tarbiya tadrijiyligini tashkillashtirish, uni samarali boshqarish, olib borilayotgan islohotlar taraqqiyotiga to‘siq bo‘lib kelayotgan ijtimoiy muammolar oqimini analiz va sintez qilish ko‘zda tutilgan bo‘lib, kibermakon ta’sir vositalari, ularni shakllantiruvchi mexanizmlar, harakatga keltiruvchi omillar ijtimoiy-falsafiy tahlil etiladi.*

Аннотация. *В статье рассматривается организация учебно-воспитательного процесса, его эффективное управление, анализ и синтез потока социальных проблем, препятствующих прогрессу проводимых реформ, проводится социально-философский анализ средств воздействия киберпространства, действия способствующих факторов.*

Annotation. *The article envisages the organization of the education and upbringing process, its effective management, the analysis and synthesis of the flow of social problems that are hindering the progress of the ongoing reforms, cyberspace influence tools, their forming mechanisms, and a social and philosophical analysis of the contributing factors.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim va tarbiya, ta’lim taraqqiyoti, intellektual mulk, masofaviy ta’lim, baholash indeksi, integral ko‘rsatkich, profilaktik proaktiv.*

Ключевые слова: *образование и воспитание, развитие образования, интеллектуальная собственность, дистанционное обучение, индекс оценки, интегральный индикатор, проактивная профилактика.*

Key words: *education and training, educational development, intellectual property, distance education, assessment index, integrated indicator, proactive prevention.*

Kirish. O‘z vaqtida berilgan tarbiya insonga ikki dunyo soadatini olib kelsa, to‘g‘ri berilgan ta’lim kelajak mevasidir. Bu ikki fenomenologik tushuncha bir-biri bilan shu darajada mantiqiy bog‘langanki, buni tushunib yetmagan jamiyat nafaqat taraqqiyotdan, balki dunyo hayotidan ming yillar ortda qoladi. Tirik tarix bunga guvohdir.

Ta’lim va tarbiya jarayonida obyekt inson bo‘lganidek, uni harakatlantiruvchi subyekt ham insondir. Bu esa ta’lim taraqqiyotida shaxs muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Xalqimizning “ta’lim va tarbiya beshikdan boshlanadi” naqliga e’tibor bersak, masalaning dolzarbligi yanada oydinlashadi. Chunki tarbiyali farzandni voyaga yetkazish uchun ta’lim birlamchi omil bo‘lsa, ilmli shaxsni jamiyatga taqdim etishda ota-ona ibtidodir. Agar bola tarbiyasini oiladan, uning ilm sohibi bo‘lishini ta’lim dargohidan (maktabgacha, maktab, oliy va undan keyingi ta’lim) kutilsa, ikki tomonlama yo‘qotish yuzaga keladi. Bunga tarixdan ko‘plab misollar keltirish mumkin. Shu sababli “eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik bu bilimsizlikdir” kabi purhikmat o‘gitlar ushbu tadqiqotda ko‘rib chiqiladi (1.24).

Munozara va tahlil. XXI asr boshlaridan texnika taraqqiyotida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bu, o‘z navbatida, jamiyat ijtimoiy hayotida jiddiy modernizatsiyalashish tendensiyasini olib keldi. Xususan, ta’lim va tarbiya yo‘nalishidagi yangilanishlarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ularni, shartli ravishda, ikki (texnika taraqqiyotining ijobiy va salbiy ta’siri) guruhga ajratish mumkin. Tadqiqotning maqsadidan kelib chiqqan holda yondashganda, kibermakon omilining ta’lim va tarbiya samaradorligiga o‘tkazayotgan salbiy ta’sirini quyidagi tartibda turkumlashtirish mumkin.

Birinchi guruhga: kompyuter, internet, ijtimoiy tarmoq taraqqiyoti.

Ikkinchi guruhga: global axborot maydoni, dezinformatsion ma’lumot oqimi, filtrlanmagan manbalar ba’zasi.

Uchinchi guruhga: ehtiyojlarni cheksizlik fazosiga o‘tishi, insoniyat tomonidan yaratilgan kashfiyotlardan inson psixologiyasining zararlanishi.

To‘rtinchi guruhga: inson tomonidan yaratilgan “intellektual mulk”ka, uning o‘zida “qaramlik” belgilarini qaror topishi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro korrelatsion aloqani bog‘lovchi ijtimoiy-texnologik elementlarni ayrim elementlar misolida kurib chiqamiz:

Kompyuter − inson intellektual salohiyati mahsuli sifatida ixtiro etilgan bo‘lsa, uning takomillashuvi shaxs dunyoqarashida, ijtimoiy hayot tarzida, moddiy va ma’naviy ehtiyojlarida marginallashuv ten-

densiyasini oshib borishiga ham olib keldi. Bunga misol tariqasida bir qator ilmiy tadqiqot natijalarini keltirib o‘tish mumkin:

Saade, Raafat George, Kira, Dennislar bergan ma’lumotlarga ko‘ra, kattalarning ellik foizi, shu jumladan, universitet birinchi kurs talabalarining katta qismida kompyuter bilan bog‘liq fobiyalar rivojlangan. So‘nggi o‘n yil ichida internet ommaviyligiga qaramay, kompyuterlardan foydalanish hali ham ko‘plab noxush oqibatlarga olib kelmoqda. Kompyuter foydalanuvchilarining axborot tizimidan qay tariqa foydalanishiga qarab ta’sir qiladi. Biroq muammoning dolzarbligi shundaki, kompyuter shaxsda o‘z-o‘zini nazorat qilish imkoniyatini cheklaydi, buning oqibatida shaxsning kompyuterlardan foydalanish vaqtida bajarishi kerak bo‘lgan vazifalarni amalga oshirishida turli ruhiy-emotsional to‘siqlar, psixologik kechinmalar yuzaga keladi. Bu nazariyani asoslashga qaratilgan tadqiqot xulosasi quyidagicha bo‘ldi:

1) kompyuter shaxsning o‘z-o‘zini nazorat qilish samaradorligiga ta’sir etadi;

2) uchta konstruksiya uchun 18 ta elementdan foydalangan holda so‘rov metodologiyasi yondashuvi orqali universitetning 645 nafar talabasi ishtirokidagi so‘rov ma’lumotlari shuni ko‘rsatdiki, kompyuterning shaxsda o‘z-o‘zini samaradorligini oshirishdagi salbiy ta’siri axborot yetkazish elementlari, texnologik konstruksiyalar va psixometrik xususiyatlarga borib taqalar ekan;

3) kompyuter ta’sirini tasdiqlovchi faktlar shuni ko‘rsatdiki, kompyuter tashvishi bilan kuchli va muhim aloqada bo‘lishi bilan muhim, ammo integratsiyalashgan interfeyslarning uzluksiz rivojlanishi bilan yangi interfeysdan foydalanishni o‘rganish va vazifalarni samarali bajarishga bog‘liq tashvishlar, zaruratga qarab o‘zgarib borishini ham e’tiborga olish zarur (2.177–191).

Rossiyalik olimlar–D.A.Endovitskiy, I.E.Risin, Y.I.Treshevckiy, E.A.Rudnev tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, kibermakon qurshovida insoniyat nafaqat intellektual yuksalishga erishmoqda, balki ko‘plab ijtimoiy muammolar girdobida ham qolmoqda. Xususan, kompyuter taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan virtual ta’lim shaxs psixologiyasida bir qator o‘ylab ko‘rishni talab etuvchi oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Masalan, kompyuter texnologiyalari texnik taraqqiyotida, ya’ni, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, logistika markazlari, raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat va boshqa sohalarda muhim o‘rin tutishi aniq. Ammo masofaviy ta’lim taraqqiyotining bugungi holati, an’anaviy ta’lim o‘rnini egallash darajasida emasligi ko‘rinib qolmoqda. Ushbu fikrimizni asoslovchi tadqiqot xulosalari:

− masofaviy ta’lim imkoniyatlarining hech biri ish beruvchilar tomonidan yuqori baholanmagan (olib borilgan so‘rovnoma natijasi shuni ko‘rsatdi);

− virtual ta’limdan olingan foyda kompyuter savodxonligi darajasining oshishida ko‘rindi, ammo bo‘lajak mutaxassisning bilim darajalarini baholash darajasi o‘rtachadan biroz pastroq ekanligi ma’lum bo‘ldi;

− masalaning ahamiyatlilik darajasi shundaki, onlayn yoki masofaviy ta’lim olgan talabalarning bilim darajasi tahlil etilganda quyidagi holat isbotlandi:

1) o‘rtacha (integral ball – 16,93, baholash indeksi – 1,00);

2) eng muhimi – asosiy ish faoliyatiga ta’sir etmagan holda o‘qish imkoniyati bo‘lgan talabalar bilim darajasi o‘rtacha (integral ko‘rsatkich – 15,55, baholash indeksi 1,00);

3) talaba uchun mutaxassislik bo‘yicha berilayotgan ilm darajasini ikkinchi o‘ringa qo‘yish bo‘yicha o‘rtacha hisob (baholash indeksi – 0,99), mutlaq qiymat esa o‘rtacha ko‘rsatkichdan past (integral ko‘rsatkich – 14,84);

4) mutaxassislik bo‘yicha chuqur ilm olishga doim imkoniyat tug‘iladi, hozirgi holatda onlayn ta’lim yetarli deb bilgan talabalar tushunchasi (integral ko‘rsatkich – 16,00, baholash indeksi – 0,95);

5) talabalarni onlayn o‘qish yoki masofaviy ta’lim olish imkoniyatining o‘rtacha baholari (integral ko‘rsatkich – 12,00, baholash indeksi – 0,75) ko‘rsatdi [3.89–97]. Turli xil fikrlar ekspert guruhlari ish beruvchilar nuqtayi nazaridan qaraganda, o‘rtachadan pastroq ko‘rsatkichda baholandi. Umuman olganda, bugungi kunda kompyuter qurilmasidan foydalanuvchilar–axborot-kommunikatsiya texnologiyalar tomonidan transformatsiya qilinayotgan bir qator tahdidlarga uchramoqda.

Kibermakon fazosidan reaksion kuch olgan internet tizimi ta’lim va tarbiya jarayonini tashkillashtirish, boshqarish yoki nazorat qilishda pozitiv ta’siridan ko‘ra negativligi ko‘proq sezilmoqda. Quyida olib borilgan tadqiqot natijalarining ayrim xulosalarini keltirib o‘tamiz:

− professor Y.X.Zasurskiy “global tarmoqlar xalqaro axborot makonida muhim rol o‘ynamoqda. Bugun axborot sohasida internet so‘z erkinligini ham kafolatlamoqda”. Ammo “so‘z erkinligi” tushunchasi ostida aksariyat foydalanuvchilar global tarmoqda xohlaganicha, biror-bir qoida, axloqiy me’yorlarga rioya etmagan holda foydalanishga urinayotganligini ham unutmaslik kerak [4.24–27];

− zamonaviy jamiyat qoidalariga ko‘ra, inson internet resurslaridan foydalanmasdan mavjudligini saqlab qolishi deyarli mumkin emas. Internetdan foydalanish global vaqtni tejaydi, lekin internetdan haddan tashqari foydalanish psixikamizga ta’sir qilishini inkor ham etib bo‘lmaydi. Internetga haddan tashqari qiziqish hayotimizning turli sohalariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, keyinchalik, internetga qaramlikni keltirib chiqarishi mumkin [6.649 – 651].

So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi ortidan “virtual reallik” kelib chiqmoqda. Bu tushunchaning mohiyati shundan iboratki, XXI asr boshlarida virtualizm shaxs hayotida “zamonaviylik”, “taraqqiy etish uchun imkoniyat”, “hayotdan zavqlanish”, “ilm fan, taraqqiyot belgisi”, xalqlar o‘rtasidagi funksional integratsiya masalasida qaralgan bo‘lsa, bugungi kunda milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlar kushandasi, “ommaviy madaniyat” targ‘ibotchisi hamda madaniyatsizlik transferini o‘tovchi vositaga aylanib bormoqda. Chunki ijtimoiy tarmoqlar ta’siriga uchramagan, uning psixologik xurujini his etmayotgan insonni uchratish mushkul bo‘lib qolmoqda.

Guilherme Goulart Righetto, Enrique Muriel-Torrado, Elizete Vieira Vitorinolar xulosasi shunday bu masalada:

1) ommaviy axborot vositalari “axborot dezinformatsiyasi” uchun kiberfazo hisoblanadi;

2) globallashuv va uning doimiy harakati, ijtimoiy jihatdan assimetrik va separatistik xarakterga ega bo‘lib, kollektiv imbesilizatsiyaga yo‘l ochmoqda;

3) hozirgi vaqtda jamiyatda keng tarqalgan dezinformatsiya hodisasi axborotning haddan tashqari manipulatsiyalashuviga olib kelmoqda;

4) hozirgi axborot dezinformatsiyasi jamiyatda mavjud bo‘lgan axborot “disfunksiya”siga yo‘naltirilmoqda. Shu sababli bu masalada yoshlarga ta’lim berish jarayonida “virtual ta’limni” tashkillashtirish zaruratini yanada chuqurroq o‘ylab ko‘rishni taqozo etmoqda [13.34]. Ayniqsa, axborot texnologiyalari, ta’lim sohasi, madaniyat yo‘nalishlari, iqtisodiyot va siyosatning barcha tarmoqlarida kechiktirib bo‘lmas rejalarni ishlab chiqish zarurati o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Xulosa. Olingan ilmiy natijalar, ilgari surilgan konstruktiv taklif va tavsiyalar quyidagi xulosalarga kelishga asos bo‘ldi:

Birinchidan, hech kimga sir emaski, kibermakon drayveri bo‘lgan internet (ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlari) onlayn ta’limning barcha turdagi shakllariga o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazmoqda.

Ikkinchidan, Janubiy Karolina universiteti professori Cooke Nicole haqli ravishda keltirib o‘tganidek, bugungi tahlikali zamonda axborot sofligi yo‘qolmoqda. Boshqacha aytganda, jamoatchilik o‘ziga zarur bo‘lgan faktik yoki obyektiv ma’lumot izlash o‘rniga, o‘z his-tuyg‘ulariga, e’tiqodiga ta’sir etadigan axborotlarga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyoji ortib bormoqda.

Uchinchidan, kibermakon kengligida bizni o‘ziga tartayotgan internet tarmoqlaridagi “Tvitlar”, “Facebook”da e’lon qilinayotgan ma’lumotlar xilma-xilligi biz tomondan iste’mol qilingan ma’lumotlarni ajrata olish ko‘nikmamizdan ustun kelmoqda.

To‘rtinchidan, zamonaviy dunyoda hech birimiz noto‘g‘ri ma’lumotlardan himoyalanishda ideal bo‘lolmaymiz, chunki axborotlarni ba’zan bilvosita qabul qilish, ist’emoldagi axborotni selleksiya qilishda potensial zaifligimiz pand beradi. Shu sababli o‘zimizda mafkuraviy immunitetni shakllantirishimiz orqali zararli axborot manipulatsiyasidan himoyalanishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Т., “Ўзбекистон”, 2021, 24-бет.

2. Saadé R.G., Kira D. Computer anxiety in e-learning. The effect of computer self-efficacy. Journal of Information Technology Education: Research. T. 8, №1, 2009, p. 177 – 191.

3. Ендовицкий Д.А. и др. Дистанционное обучение-дисбаланс возможностей и угроз. “Высшее образование в России”, т. 31, №1, 2022, с. 89 – 97.

4. Засурский Я.Н. Информационное общество, интернет и новые средства массовой информации. “Информационное общество”, № 2, 2001, с. 24 – 27.

5. Герасимова Д.В. Интернет и его влияние. Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. № 11, 2016, с. 649 – 651.

6. Уварова Л.Н., Арсланова Н.Р. Исследование влияние интернета на людей. Электронный ресурс. 2021, с. 51 – 58.

7. Собкин В.С., Федотова А.В. Подросток в социальных сетях: к вопросу о социально-психологическом самочувствии. “Национальный психологический журнал”, № 3 (31), 2018, с. 23 – 36.

8. Vom Brocke J., Tan B., Topi H., Weinmann, M. (2018), AIS Global IS Education Report, The Global Report of the Association for Information Systems on Information Systems Education. P. 3.

9. Righetto G.G., Muriel-Torrado E., Vitorino E.V. “Imbecilization” in the disinformation society: what can information literacy do about it? vol. 35, № 87, 2021, p. 34.

Turabova Sevara (Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); e-mail: turobova.sevara@mail.ru)

BILISH TARIXIDA ERISTIKANING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING IJTIMOIY-TARIXIY VA MANTIQIY-GNOSEOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bahsning rivojlanayotgan intellektual fenomen sifatida o‘zining vujudga kelish, shakllanish va o‘zgarish bosqichlarini bosib kelayotganligi, shunga muvofiq, u tadrijiy va inqilobiy yangilanish jarayonlarini o‘z boshidan kechirganligi tahlil qilingan. Zero, bahs mohiyatini tadqiq etish uning diaxronikasini, ya’ni, tadqiqot manbayi sifatidagi tarixiy taraqqiyotini tahlil etishni taqozo etadi. Chunki bahs yuritish madaniyatining ko‘p qirrali muammolarini diaxroniya yondashuvlari asosida tadqiq qilish muhim evristik natijalarni qo‘lga kiritish imkoniyatini beradi.*

Аннотация. *В данной статье анализируются функциональные аспекты феномена спора как развивающееся интеллектуальное явление, проходящее этапы своего возникновения, формирования и развития. Соответственно, спор, как источник исследования и процесс постепенного развития, требует исторического анализа. Потому что исследование многогранных проблем дискуссионной культуры на основе диахронических подходов дает возможность получить важные эвристические результаты.*

Annotation. *This article analyzes the functional aspects of the dispute phenomenon as a developing intellectual phenomenon passing through the stages of its emergence, formation and development. Accordingly, the dispute as a source of research and a process of gradual and revolutionary renewal requires historical analysis. Because the study of the multifaceted problems of discussion culture based on diachronic approaches makes it possible to obtain important heuristic results.*

Kalit so‘zlar: *bahs-munozara, eristika, sofistika, dialektika, muammo, nazariya va amaliyot, haqiqat, taraqqiyot, tanqid, argument.*

Ключевые слова: *спор-дискуссия, эристика, софистика, диалектика, проблема, теория и практика, истина, прогресс, критика, аргумент.*

Key words: *dispute-discussion, eristics, sophistry, dialectics, problem, theory and practice, truth, progress, criticism, argument.*

Kirish. “Bahs bu tafakkur jangidir”.[1] Shuning uchun qadimdanoq har qanday hodisa zaminida qarama-qarshi asoslarning mavjudligi nazarda tutilgan holatda bilish tabiati ham qarama-qarshilik va dialoglikdan iboratdir, deb hisoblangan.

Bahs rivojlanayotgan intellektual fenomen sifatida o‘zining vujudga kelish, shakllanish va o‘zgarish bosqichlarini bosib kelmoqda. Shunga muvofiq, u tadrijiy va inqilobiy yangilanish jarayonlarini o‘z boshidan kechirdi. Tabiiyki, bahs mohiyatini tadqiq etish uning diaxronikasini, ya’ni, tadqiqot manbayi sifatidagi tarixiy taraqqiyotini tahlil etishni taqozo etadi. Chunki bahs yuritish madaniyatining ko‘p qirrali muammolarini diaxroniya yondashuvlari asosida tadqiq qilish muhim evristik natijalarni qo‘lga kiritish imkoniyatini beradi.

Bahs yuritish san’ati qadimgi dunyoda muayyan ijtimoiy-tarixiy sharoit taqozosi ostida shakllangan bo‘lib, u, keyinchalik, eristika nomi bilan ataladigan maxsus ta’limot uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Eristika (qad. yunon. Yeridzo – bahslashaman, eristike techne – bahslashish san’ati) tushunchasi “bahs yuritish san’ati” degan ma’noni anglatib,[2] bu san’at turi yunonlar tomonidan e’tirof etilgan bahs va tortishuvlarni keltirib chiqaruvchi Erida, Eris[3] ma’budasi nomi bilan atalgan.

---

[1] Davronov Z. Barkamollikka da’vat maktublar. T., “Tamaddun”, 2017, 60-bet.

[2] Хоменко І.В. Еристика. Підручник. К., “Центр учбової літератури”, 2008, с. 9.

[3] Қадимги Греция афсоналарига кўра, Эрида зиддият ва жанжаллар маъбудаси бўлиб, у тун маъбудаси Никтанинг қизи, Хаоснинг невараси ва очлик маъбудаси Лимеснинг онаси ҳисобланган. Эрида нафақат баҳс, низо, кураш, рақобат маъбудаси, балки, айни бир пайтда, меҳнат маъбудаси ҳам ҳисобланган. Гесиоднинг «Теогония» (қад. гр. Θεογονία) 10;11 поэмасида айтилишича, Эрида икки хил сифатга эга маъбуда бўлиб, улардан бири инсонларни меҳнатга чорлаб, уларга фойдаси теккан бўлса, иккинчиси эса душманлик ва нафратни қўзғатиб, уруш жанжалларни келтириб чиқарган. Эрида, шунингдек, энг гўзал маъбудалар Афина, Гера ва Афродиталар ўртасидаги зиддиятнинг келиб чиқишига ҳам сабабчи бўлиб, оқибатда бу зиддият Троя урушини келтириб чиқарган. Гомер. Илиада. Л., «Наука», 1990.

Avvaliga eristika deyilganda bahs-munozara jarayonida g‘alaba qozonish uchun ishlatiladigan usullar yig‘indisi tushunilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib, ushbu atamaning ma’nosi biroz o‘zgargan, ya’ni, eristika deyilganda “muloqot jarayonining murakkab usullaridan biri bo‘lgan bahs-munozaraning turli tavsiflarini (axloqiy, ritorik, mantiqiy, pedagogik, semiotik, psixologik va hokazo) o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar yo‘nalishi” tushuniladi.[1] “Eristikaning bahs orqali haqiqatni izlob topish ususli sifatida paydo bo‘lishi notiqlik san’atining dialektika va sofistikaga bo‘linishidan oldin sodir bo‘lgan”,[2] degan qarashlar ham mavjud. Dastlab, eristika shubhasiz, o‘z ma’nosiga muvofiq, konstruktiv bahs orqali haqiqatni izlab topish misolidagi evristik imkoniyatlarni aks ettirgan bo‘lsa, keyinchalik, dialektikadan uzoqlashib ketdi (F.Gegel va boshqalar).

Shunday qilib, eristikaning tadqiqot obyekti bahs-munozara hisoblanadi. Bahs-munozara haqida gap ketganda, uning tarixiy ildizlari juda uzoqqa borib taqalishini ta’kidlab o‘tish lozim. Bahs nazariyasi va amaliyoti juda qadimiy an’analarga va qiziqarli tarixga ega. Hatto qadimgi mutafakkirlar ham kishilik muloqotida bahs-munozaraning o‘rni va roliga alohida e’tibor qaratishgan. Ular bahs-munozaralarning turli xil usullarini o‘rganish, ularni yuritishdagi asosiy qoidalarni belgilash, bunda uchraydigan xato va hiyla-nayranglarni aniqlashga harakat qilishgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Haqiqatni bahs-munozaralar va ommaviy muhokamalar yordamida izlab topish qadimgi Hindiston, Xitoy va Gretsiya sivilizatsiyalarini xarakterlaydigan xususiyatlardan biri, shu bilan birga, o‘sha davr hayotining ijtimoiy-siyosiy talab-ehtiyojlaridan kelib chiqqan hodisa hisoblanadi. Xususan, bu xalq saylovlari va sudlardagi chiqishlar (Gretsiya), hokimiyatni qo‘llab-quvvatlash maqsadida ibodatxonalar va maktablar o‘rtasidagi kurashlar (Hindiston, Xitoy) bilan ham asoslanadi.

Bahs-munozaraga oid ayrim falsafiy g‘oyalarni qadimgi Misr va qadimgi Bobilning adabiy yodgorliklarida ham topish mumkin. Xususan, o‘sha davr Misr yozma manbalaridagi “oxiratning mavjudligiga shubha ko‘rinishida ifodalalangan diniy hurfikrlikning bizgacha yetib kelgan eng qadimgi yodgorligi bo‘lgan “Arfist qo‘shig‘i”,[3,4] “Hayotidan hafsalasi pir bo‘lgan kishining o‘z joni bilan suhbati (bahsi)”, “Xo‘jayinning o‘z quli bilan hayotining mazmuni haqida suhbati” kabi bitiklarda bahsga oid bo‘lgan fragmentlar bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Shuningdek, ajdodlarimizning eng qadimiy ma’naviy yodgorliklaridan biri “Hayot yo‘riqnomasi” deb nom olgan “Avesto” kitobida ham “qarama-qarshiliklar, tartib va tartibsizliklar o‘rtasidagi o‘zaro kurash aks etgan g‘oyalarni uchratish mumkin”.[5] Unda yorug‘lik va zulmat, ezgulik va qabohat kuchlari o‘rtasidagi bahs va kurash masalalari yorqin ko‘rsatib berilgan. Ammo bu falsafiy qarashlar qadimgi dunyo ilmi va tafakkurining keyingi taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa ham, tarixiy sabablarga ko‘ra, yaxlit falsafiy maktablar tashkil etish, ularda bahs yuritish muammolarini maxsus tekshirish obyekti sifatida alohida muhokama etish darajasiga ko‘tarila olmagan.

Qadimgi yunon falsafasida bahs-munozaraning mohiyati va maqomining talqin qilinishi qadimgi Sharq falsafasiga nisbatan biroz o‘zgarganligi kuzatiladi. O‘zgarishlar, avvalo, diniy muammolardan dunyoviy muammolarga o‘tishdan boshlandi, ya’ni tabiat va inson hayotida ilohiy mohiyatni cheklashga qaratildi. Keyinchalik, shu asosda turli xil falsafiy maktablar paydo bo‘la boshladi. Dialoglar jamoaviylik usulidan endi kamchil izdoshlardan tarkib topgan maktablar o‘rtasida, hatto Suqratga xos yakka tartibdagi munozaralarga ham ko‘cha boshladi.

Shuni aytish kerakki, Afinada bahs san’ati eng nufuzli mashg‘ulotlardan biri sifatida qadrlangan va ijtimoiy ziddiyatlarni demokratik hal etishning asosiy vositasi bo‘lib xizmat qilib kelgan. Ko‘pincha, intellektual musobaqalarda muvaffaqiyatga erisha olish qobiliyati sud va siyosiy qarorlarning mohiyatini belgilab berishda muhim omil bo‘lib kelgan. G‘alaba maqsadi yo‘lidagi bahs-munozaraning namunasi qadimgi Yunonistonda sofistlar tomonidan taqdim etilgan bo‘lib, ular bahs-munozara san’ati yordamida har qanday bema’ni pozitsiyani ham isbotlashlari mumkinligiga ishonishgan.

---

[1] Копнина Г.А. Эристика. Эффективное речевое общение (базовые компетенции). Словарь-справочник, под ред. А.П.Сковородникова, Красноярск, изд-во Сибирского Федерального университета, 2012, с. 792.

[2] Блажевич Н.В., Селиванов Ф.А. Эристика. Курс лекций. Тюмень, Тюменский Юридический институт МВД РФ, 1999, с. 224.

[3] Ер юзида абадий ҳеч нарса йўқ. Ҳамма ўтиб кетади, ҳатто ердаги худолар ҳам ўз пирамидаларида қўним топадиган. фиръавнлар ҳам. Бироқ одамзод томонидан қурилган ҳамма нарса қулаб тушгани сингари, ҳатто пирамидалар ҳам қулаб тушади. Фақат донишмандларнинг сўзларигина қолади, лекин қабрлари йўқолади.

[4] Синило Галина. История мировой литературы. Древний Ближний Восток. Минск, “Вышэйшая школа”, 2017, с. 44

[5] Эргашева М. “Авесто”да тартиб ва тартибсизлик ўртасидаги кураш ғояси. Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2012, 3-сон, 217 бет.

Bahs-munozaralarning negizidagi ma’naviy o‘zgarishga ulkan hissa qo‘shgan Suqrot (er. av. 470 – 399-yillar) eristika va sofistikaga qarshi haqiqatni aniqlashga xizmat qiladigan dialektik bahsni qo‘yar ekan, haqiqatga boradigan eng to‘g‘ri yo‘l–muxolif mulohazalarida ziddiyatlarni aniqlash, deb hisoblaydi.

Platonning dialektikasi ham alohida ma’noga ega bo‘lib, uning ta’limoticha, dialektika – bu “og‘zaki suhbat, savol-javob, isbotlash, hissiy bilishdan qutulish, tafakkur orqali g‘oyalar dunyosini chuqurroq bilish vositasidir”. Shu tarzda Platon dialektikani savol-javob qilishni bilish deb bildi. “Savol berishni bilgan va unga javob bera oladigan kimsani, deydi u, biz dialektiklar deb ataymiz”.[1]

Sokrat, Platon va sofistlardan tashqari, Qadimgi Gretsiyada bahs-munozarani tadqiq etish masalasiga Aristotel ham alohida e’tibor qaratgan. Uning ijodida ilk bor bahs-munozara nazariy-fundamental asosga ega bo‘ldi. Uning “Organon” nomli to‘plami tarkibiga kiritilgan “Topika” va “Sofistik raddiya haqida” nomli asarlari bahs-munozara nazariyasi va amaliyoti tamoyillarini tizimli tahlil qilib berishdagi ilk urinishlardan biri hisoblanadi.

O‘rta asrlarga kelib, bahs-munozaralar texnologiyasi yanada takomillashtirildi. Ilohiyotshunoslik, patristika, apologetika va kalom ilmi doirasida argumentlashning turli usullari va tanqidiy uslublar ishlab chiqilib, bahs-munozaraning yangi strategiya va taktikalari joriy etila boshladi. Bu davrda bahs-munozara yuritishning o‘ziga xos tarzdagi tartib-qoidalari mavjud bo‘lganligini e’tirof etish lozim. Xususan, misol tariqasida “hujum-himoya” ko‘rinishidagi bahs-munozara usuli yahudiylar, xristianlar va moniylar o‘rtasida qadimdan davom etib kelayotgan munozaralarning eng ommaviysi bo‘lgan.

Shuni e’tirof etish kerakki, O‘rta asrlar musulmon Sharqi falsafasi va fanida ilmiy tafakkur tarzining shakllanishi, ilmiy ratsionallik normalarini ishlab chiqish va tadqiqotda tatbiq etilishi bilan belgilanadi. Bu davr falsafasi va ilohiyotshunosligi tanqidiy tahlildan iborat bo‘lgan juda ko‘plab muhim ilmiy, ijodiy g‘oyalarga boy bo‘lgan.

Xususan, jabariylar va qadariylar, xavorijlar va murjiylar, mutakallimlar va mu’tazilliylar, Xorazmiy va Abak, Ibn Sino va Beruniy, G‘azzoliy va Ibn Rushd o‘rtasidagi bahs-munozaralar O‘rta asr islom olamida odatiy holat hisoblangan. Biroq shunisi qiziqarliki, juda kam miqdordagi ba’zi islohochilik kayfiyatidagi olimlarni hisobga olmasak, negadir, hozirgi zamon musulmon dunyosida ilmiy bahs-munozara va tanqidchilik ruhiyati deyarli sezilmaydi. Bu borada professor Sh.Madayevaning “butun musulmon olami, xususan, Markaziy Osiyo ilm-fani XIV–XV asr Uyg‘onish davridan keyin, tom ma’noda, o‘z ilmiy paradigmal tizimini yo‘qotib qo‘ydi”,[2] degan fikri o‘rinlidir.

Hozirgi zamon musulmon olamida tanqidiy-ilmiy fikrlashning so‘nib qolganlik sabablarini har xil tushuntirish mumkin. Ehtimol, bu holatni Sharq mamlakatlarining uzoq vaqt G‘arbning mustamlakasiga aylanib qolganligi fakti bilan asoslash mumkindir. Ehtimol, musulmon dunyosida Yevropa kolonizatsiyasi ta’siri ostida hokimiyat tomonidan fikrlar xilma-xilligi, tanqidiy fikrlash ko‘nikmasining maqsadli tarzda bo‘g‘ilganligi, so‘nishi sabab bo‘lgandir. Musulmon sivilizatsiyasida tanqidiylik ruhiyatining pasayishi yoki yo‘q bo‘lib ketish sabablari haqidagi bu kabi tushuntirishlar to‘liqsiz va mavhumligicha qolmoqda.

Biroq, bizningcha, bugungi kunda musulmon sivilizatsiyasidagi tanqidiy fikrlashning so‘nish sabablarini tadqiq qilishdan ko‘ra, ilmiy-amaliy tarzda chora ko‘rish kerakligi dolzarbroq bo‘lib turibdi. Chunki tanqidiy ruhning yetishmasligi, yangi va original g‘oyalar tug‘ilishi yo‘llarining to‘sib qo‘yilganligi, ortodoksal qarashlar bilan bahs-munozara qila oladigan yozuvchi va siyosatchilar, faylasuf va dinshunoslarning tanqisligi musulmon jamiyatlarida mutaassiblik, ekstremizm va terrorizm kabi illatlarning erkin ildiz otishiga zamin yaratmoqda.

G‘afurov Doniyor Oripovich (Buxoro Muhandislik-texnologiya instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari doktori (PhD)

YANGI O‘ZBEKISTONDA OILA MUNOSABATLARINING HUQUQIY ASOSLARI HAMDA MA’NAVIY QIYOFASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan. Agar oila soglom va mustahkam bo‘lsa, mahallala tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Binobarin. mahallayurt mustahkam bo‘lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Zero, oila farovonligi-milliy farovonlik asosi ekanligi haqida bayon qilingan.*

[1] Платон. Собрание сочинений в 4 т. Т. 1, М., “Мысль”, 1990, с. 88.

[2] Madayeva Sh. Oriyentalizm Sharq va G‘arb dialogi tadqiqining metodi sifatida. Falsafiy madaniyatlar muloqoti (ilmiy maqolalar to‘plami). T., “Nishon-noshir”, 2014, 14-bet.

Аннотация. *На Востоке семья издревле считается священной реликвией. Если семья здоровая и крепкая, мир и согласие в соседстве будут достигнуты. Следовательно, мир и стабильность царят в государстве только тогда, когда соседство сильное. Ведь было заявлено, что семейное благополучие является основой национального благополучия.*

Annotation. *In this article, in the East, the family has been considered a sacred homeland since ancient times. If the family is healthy and strong, peace and harmony in the neighborhood will be achieved. Consequently. Peace and stability prevail in the state only when the neighborhood is strong. After all, it has been stated that family well-being is the basis of national well-being.*

Kalit so‘zlar*: oila, inson qadri, ta’lim, fan, tarbiya, barqaror taraqqiyot, ma’naviy yetuklik.*

Ключевые слова: *семья, человеческая ценность, образование, наука, воспитание, устойчивое развитие, духовная зрелость.*

Key words*: family, human value, education, science, education, sustainable development, spiritual maturity.*

Oila ijtimoiy hodisa sifatida insoniyatning ulug‘ kashfiyoti sanaladi. Shu boisdan kishilik jamiyatida oilaning paydo bo‘lish tarixini, ijtimoiy mohiyatini, axloqiy-tarbiyaviy rolini va boshqa xususiyatlarini o‘rganish g‘oyat maroqlidir. Bu sohada oilashunoslik ijtimoiy fanlarda alohida bir tarmoq sifatida shakllangan. Aslida, “Avesto”, Qur’oni karim va muqaddas hadislarda o‘z sarchashmasini olgan oilashunoslik haqidagi qarashlar Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Unsur ul-Maoliy Kaykovus, Alisher Navoiy, Abdulxoliq G‘ijduvoniy, Sayfiddin Boxarziy, Mahdumi A’zam va boshqa mutafakkirlarning asarlarida birmuncha rivoj topdi, ular bu masalani, asosan, ota-ona va farzand munosabatlari doirasida talqin qildilar. Nihoyat, ijtimoiy tafakkur rivojiga ko‘ra, XIX asrga kelib, jahon jamiyatshunosligida oilaga qiziqish yangi bosqichga ko‘tarildi [1].

Shunisi e’tiborliki, jahonning birorta mamlakatida oila va uning muammolarini bu qadar izchil va keng qamrovli ilmiy asosda o‘rganish va yechishga kirishilganligini tarix bilmaydi. 2023-yil o‘zbek xalqining xohish-istagi va xalqaro normalarga mos ravishda Yangi O‘zbekistonning huquqiy asosi bo‘lgan Konstitutsiyamiz referendum asosida qabul qilindi. Shu o‘rinda Konstitutsiyamizga kiritilgan o‘zgarishlar va qo‘shimchalar, ayniqsa oila va uning huquqiy asoslari bilan bog‘liq bo‘lgan moddalar hamda normalarni jamoatchilikga tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

XIV bob. Oila, bolalar va yoshlar

76-modda.

Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir.

Nikoh O‘zbekiston xalqining an’anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi.

Davlat oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi.

77-modda.

Ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta’lim olishini, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishini ta’minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag‘batlantiradi.

78-modda.

Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir.

Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi.

79-modda.

Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi.

Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

80-modda.

Voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar [2].

Insonnig vatanga bo'lgan muhabbati esa muayyan maydonda xalqning moddiy boyliklarini yaratishi, ma'naviy-axloqiy kamolotga erishishi, ilm-fanni rivojlantirishi, o'ziga xos mustaqil turmush tarzi, madaniyati, urf-odatlari, tili, dini, milliy chegara va armiyasi, hududi, tabiiy boyliklari, milliy davlatchiligini saqlashi, avaylab-asrashi, yanada rivojlantirish borasidagi tarixiy xatti-harakatlarini chuqur o'rganishi, unga sadoqatli bo'lishi, hozirgi va kelajak avlod uchun yashashi, mehnat qilishi, fidoyilik, jonbozlik ko'rsatishida namoyon bo'ladi. Biroq milliy g'oya, uning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan vatanparvarlik tushunchasi kishilar ongiga zo'rlab tiqishtiririladigan g'oya emas. Uning zamirida milliy xususiyatlarimiz va umumbashariy qadriyatlarimiz, buyuk tariximiz yotibdi. Demak, bu qarashlar bizning qon-qonimizda, faqat uni yuzaga chiqarish kerak, xolos. Bu g'oyalarni yoshlarimiz, xalqimiz ongiga yetkazishda ta'lim va tarbiya, ilm-fan, madaniy-ma'rifiy, adadbiyot va san'at, diniy, jismoniy tarbiya muassasalari, qolaversa, mahallalar ahllari, har bir oilaning shu mafkura tevaragidagi jipsligi va faolligi talab etiladi.

Yangi O'zbekiston mafkurasi mehribonlik, insonparvarlik sifatida namoyon bo'ladi. Mafkura haqida fikr yuritganimizda, birinchi navbatda, aql-idrokni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarbiyalashni nazarda tutamiz. Ular xalqimizning ming yillik hayotiy g'oyalari va qadriyatlariga asoslanadi. Ma'lumki, bugungi murakkab global o'zgarishlar sharotida dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to'qnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv sharotida milliy o'ziga xoslik va ma'naviy qadriyatlarga tahdid va qiyinchiliklar tobora ko'payib bormoqda. Odamlar, ayniqsa, yoshlar ongida egotsentrizm, ishga, oilaga, iste'mol madaniyatiga beparvo munosabat turli yo'llar bilan olib kirilmoqda [3].

Yoshlar har qanday davlatning tayanchi, shuning uchun kelajakda mamlakatga foyda keltirishi uchun o'z kuchlarini vaqtida yo'naltirish juda muhim. Ayni shu ma'noda barkamol avlodning eng muhim ustuvor vazifalari quyidagilar iborat: yosh avlodning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning zamonaviy bilim va kasblarga ega bo'lishi, ilm-fanni rivojlantirish, yosh oilalarga g'amxo'rlik qilish, vayronkor ta'sirlar va begona tendensiyalarga qarshi tura oladigan yangi shaklli kadrlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bizning mentalitetimizga, mamlakatning yigit-qizlarini har tomonlama rivojlangan, farovon kelajak uchun yashashimiz va ishlashimiz va jamiyat hayotida munosib o'rin egallashga qodir shaxslar sifatida shakllantirishga hissa qo'shish xosdir. Oilani muqaddas sanash, e'zozlash, nikohni ulug'lash va uni oila kafolati sifatida tan olish, sadoqat, ma'naviy barkamollik va yetuklik, komil inson tarbiyasi, islomiy axloq normalari, muloqot madaniyati, o'zaro muhabbat, adolat, insonparvarlik, to'g'rilik, samimiylik, saxovat, bag'rikenglik, sadoqat, gunoh ishlardan tiyilish, sabr-toqat, o'z va'dasi ustidan chiqish, ilmli bo'lish, rostgo'ylik, bardoshlilik, xushxulqlilik, shukr, hayo, tejamkorlik, halimlik, viqor, rahm -shafqat kabi xislatlar islom madaniyati orqali tarbiyalanib, inson ma'naviyatining sarchashmasi hisoblangan.

Bolaning tabiati va fe'l-atvori, uning yaxshilik va yomonlik tushunchalarining ruhiy mezonlari haqidagi dunyoqarashi, odob va rahm-shafqat, tabiiyki, oila bag'ridan olinadi. Har bir millatning o'z-o'zini anglashi va o'z taqdirini o'zi belgilashi ma'naviy tarbiya asosida yuzaga keladi. Bu tarbiyaning ildizi oilada. Buni katta yoshdagi bolalarga, ota-onalarga hurmat, ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish, ota-ona oldidagi burchini va ular oldidagi mas'uliyatni bajarishda ko'rish mumkin.

Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun misli ko'rilmagan yangi imkoniyatlarni ham, kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqaradi, chunki ular xalqning milliy o'ziga xosligi va ma'naviy qadriyatlariga yangi tahdid va tahdidlar bilan birga keladi. Hech kimga sir emaski, odamlar ongiga, ayniqsa, yoshlar ongiga iste'molchilarning his-tuyg'ularini kiritish, jamiyatda egotsentrizm, befarqlik va befarqlik madaniyatini shakllantirish, oila va ishning qadrini inkor yetish urinishlari amalga oshirilmoqda.

Ma'naviy va g'oyaviy-ma'rifiy tarbiya rivojlantirishga, insonparvarlik tamoyillarini shakllantirishga va shaxsning individual qiziqish va qobiliyatlarini yuksaltirishga, ta'lim sohasidagi ma'naviy-axloqiy tanlovni samarali oshirishga qaratilgan zamonaviy ta'lim konsepsiyasini takomillashtirish va boshqalar shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Рахимбоева Д.А. Семейно-бытовые традиции в формировании национального самосознания молодёжи. Автореф. дисс.на соис.ус.ст. канд. филос. наук, Ташкент, 1993.

2.https://lex.uz/docs/6445145

3. To‘ychiyeva T.T. O‘zbek ma’naviy qadriyatlari tizimida urf-odat, an’analarning o‘rni. Dis. falsafa fan. nomzodi, 2000, 26-bet.

4. Mansurov A., Ibrohimov N., Tuxliyev N., Hasanov A. Yer va ayol burchi. Saylanma hadislar. T., 1998, 39-bet; Yusupova N. Islomda ayol huquqlari. T., Islom universiteti. 2006, 38-bet; Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. T., “O‘qituvchi”, 1996, 4-bet.

Navro‘zova Gulchehra Ne’matovna (Buxoro Muhandislik-texnologiya instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori; email: premium.progress@mail.ru)

KAMTARINLIK ILA KAMOLGA YETGAN VALIY

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Bahouddin Naqshbandda kamtarinlik fazilatlarining shakllanishida ustozi Amir Kulol o‘gitlarini o‘rni katta bo‘lganligi hamda kamtarinlik fazilati kamolot siri shundaki, bunday fazilatli inson butun borliq va insoniyatga hurmat-u izzat va ibrat nazari bilan qarashi haqida fikrlar keltirilgan.*

Аннотация. *В данной статье представлены мысли Бахауддина Накшбанда о важности учения его учителя Амира Кулола в формировании добродетели смирения, а секрет совершенства добродетели смирения заключается в том, что такой добродетельный человек смотрит на все существование и человечество с уважением, честью и примером.*

Annotation. *In this article, Bahauddin Naqshband’s thoughts are presented that the teachings of his teacher Amir Kulol had a great role in the formation of the virtue of humility, and the secret of the perfection of the virtue of humility is that such a virtuous person looks at the whole existence and humanity with respect, honor and example.*

Kalit so‘zlar: *kamtarinlik, shukr, ibrat, izzat-ikrom, kibr, halollik.*

Ключевые слова: *смирение, благодарность, пример, честь, высокомерие, честность.*

Key words: *humility, gratitude, example, honor, arrogance, honesty.*

“Kamtarga kamol, manmanga zavol” degan xalqimizning juda ibratli maqoli bor. Kamtarning kamoliga qanday sir yashiringan? Nega manman zavol topadi? Kamtarin inson butun moddiy va ma’naviy quvvatlarini olamdagi ilohiy quvvatlar bilan bog‘laydi va ulardan kuch olib kamol topadi. Manman, kibru havoga berilgan kishi esa o‘zini hammadan yuksaklikka qo‘yib, kamolotga yetgan deb hisoblab, butun vujud va ruhini zanjirband qilgandek, bog‘laydi va buning natijasida ilohiy quvvatlardan uzilib, ildizidan ajralgan o‘simlik kabi sarg‘ayib so‘lib qoladi.

Jahonshumul Naqshbandiya ta’limotini asoslagan Bahouddin Naqshband hayot yo‘llariga oid tadqiqotlarimizda qutb darajasiga yuksalgan valiy zotni kamolotiga asosiy sabablarini o‘rganganmiz [1]. Bu ulug‘ zotning kamolotiga halollik, poklik, shukronalik, mehnatsevarlik, insonparvarlik bilan birga, kamtarinlik fazilati ham asosiy sabab ekanligiga ishonch hosil qildik. Bu ulug‘ zot hayotiga oid “Maqomot”da fikrimizni isbotlovchi ko‘pgina dalillar topdik.

Bahouddin Naqshbandda kamtarinlik fazilatlarining shakllanishida ustozi Amir Kulol o‘gitlarini o‘rni borligini quyidagi voqea ko‘rsatadi. Kunlarning birida Bahouddin Xoja Muborak qishlog‘ida Sayyid Amir Kulol xizmatlarida bo‘lganlarida ko‘ngillaridan “Hazrati Amirning nazarida mendan ulug‘roq kishi bormi?”degan fikr o‘tdi. Shu vaqt bir kishi qo‘y olib keldi. Bahouddin ko‘nglidan: “Qani, bu qo‘yni pishirganlarida Mavlono Orif Deggaroniy bo‘lardilar”, degan fikr o‘tdi. Amir Kulol farosat ilmi bilan Bahouddin ko‘nglidan o‘tgan fikrni angladi: “Ey Bahouddin, tur, Mavlono Orifni chaqir, kelsin!” dedi. Bahouddin tashqariga chiqib, uyning burchagiga o‘tib, uch marta ohista chaqiradilar, qaytib kirib, hali o‘tirmagan edilarki, Mavlono Orif keladilar. Orif Deggaroniy hozirgi Navoiy viloyatining Deggaron mavzeyidan Nasafda joylashgan Xoja Muborak qishlog‘iga bir nafasga yetib keladilar. Shunda Hazrat Amir Kulol Bahouddinga qarab, shunday dedilar: “Ey Bahouddin, ko‘rdingmi, bizga sizdan ham yaqinroq kishilar bor. Zinhor-bazinhor xudbinlik qilmangki, odam uchun xudbinlikdan yomonroq narsa yo‘q”.

Bardor zi pesh pardayi xudbini,
Boshad ki bad inson, ki tui xudbini.
Iblis sazoyi xud zi xudbini did,
Tu niz makun digar kuni xudbini. [2]

Mazmuni:

Xudbinlik pardasini oldingdan ko‘targin,

Xudbin inson, yomon insondir.

Iblis xudbinlik qilgani uchun o‘z sazoyini topdi (ya’ni, shaytoni rojiym-quvilgan la’natlangan shaytonga aylandi).

Sen hech qachon boshqa xudbinlik qilmagin.

Ustozlarini bu o‘gitiga amal qilgan Bahouddin Naqshband kibr, manmanlik, xudbinlik kabi shaytoniy illatlarga qarshi kurashib, nafslarini tarbiyalab, kamtarin ulug‘ inson bo‘lib, kamol topdilar.

Bahouddin Naqshbandning kamtarin inson ekanligiga quyidagilar dalildir. “Maqomot”da yozilishicha Bahouddindan bir kishi so‘raydi: “Nega xizmatkor yollamaysiz?” Bahouddin javob beradilar: “Qullik xojalik bilan mos kelmaydi” va quyidagi ikki baytni aytganlar:

Na maro mafrashu na mafrashkash,

Na g‘ulomoni turki tirkashkash.

Hama shab chun sagoni kahdoni,

Sar ba dum ovaram bixusbam xush.[3]

Mazmuni:

Menda na gilam bor, na gilam tozalovchi,

Na turk g‘ulomi-yu, na suyanadigan kishi.

Tunda men yoturman it kabi miskin,

Boshimni dumimla o‘ragancha shod.

Bahouddin Naqshbandning aytgan so‘zlaridan ma’lum bo‘ladiki, u kishi butun insoniyatni Allohning bandasi hisoblaydilar. Banda Allohning qulidir. Qul qanday qilib, boshqalarga xo‘jayin bo‘la oladi?! Shuning uchun Bahouddin birovni qul qilish, ustidan hukmronlik qilish, ozor berishga mutlaqo qarshi bo‘lganlar.

Bahouddin Naqshband aytar edilar: “Agar vujud bundan ham xarobroq bo‘lganda faqr ganjini u yerda joylagan bo‘lardi”. Muhammad s.a.v. “Faqirlik–faxrim” deb aytganlar. Faqirlik Allohning qudratini tan olib, doimo uning oldida ojizligini his etib turishdir. Shuning uchun Hazrati Bahouddin quyidagi ikki baytni aytganlar:

Hech mo ne va hech mo kam ne,

Az pai hech hech mo g‘am ne.

Janda dar pusht, pusht go‘riston,

Gar bimurem hech motam nest. [4]

Mazmuni:

Biz hech kim emasmiz va hech kimdan kam emasmiz,

Hech, ya’ni foniy narsalar uchun hech g‘am yemasmiz.

Janda, ya’ni bor narsalar orqamizda, ko‘nglimiz unga bog‘langan emas, orqamiz qabristondir,

O‘lsak ham, hech motam emas.

Bahouddin Naqshband aytar edilar: “Orifning ma’rifati, to u o‘zini Allohga topshirmaguncha to‘g‘ri bo‘lmaydi” so‘zi bandaning borlig‘i va sifatini boqiyligiga ishoradir”.

To tu zi hastii xud zer-u zabar nagardi,

Dar nestii mutlaq murg‘i dupar nagardi.

In pardai nihodot darham shikan, ki hargiz,

Dar parda rah nayobi to pardadar nagardi. [5]

Mazmuni:

Toki sen o‘z borlig‘ingni to‘la o‘rgana olmasang,

Mutlaq yo‘qlik sari ikki qanotlik qush bo‘lib ucha olmaysan.

Vujudingdagi bir-biri bilan bog‘langan tabiiy tuzilish sirlarini o‘rganmaguncha,

Senga to‘siq bo‘layotgan pardalarni yo‘qotib yo‘l topa olmaysan.

Hazrat Bahouddin aytar edilarki, “Ibodatda vujudni qidirish bor, ubudiyat, ya’ni bandalik, qullikda vujudni vayron qilish bor. To vujud voqe’ ekan, hech qanday natija amal bermaydi”.

Alisher Navoiy “Lisn ut-tayr” dostonining faqru fano vodiysini tavsiflashda Bahouddin Naqshbandni misol qilib keltiradi. U o‘zini it va itning izidan ham past deb aytadi. Bahoudinning manbada quyidagi so‘zlari keltirilgan: “Bu yo‘lda vujudni inkor qilish, borni nisor etish, kam ko‘rish va yo‘qlik ulug‘ ishlardan bo‘lib, bular davlatga yetish va qabul vositasidir. Men bu yo‘lda mavjudot tabaqlaridan bo‘lmish har tabaqaga nisbatan sulukda sayr qildim va o‘zimni zarralardan bo‘lgan har bir zarraga qiyosladim, haqiqatda ularni o‘zimdan yahshiroq ekanini ko‘rdim, shunday qildimki, hatto chiqindilar tabaqasida

ham sayr etdim ulardan har bir manfaat topdimki, bu manfaat menda yo‘q edi. Qanchalar fikrlamay, nafsimda biror foyda borligini ko‘rmadim”.

Az hech kasii xeshtan boxabaram,
V-az hech kas beh nayam, illo bataram.
Har chand ba holi xeshtan menigaram,
Yak habba naarzad zi qadam to basaram.[6]

Mazmuni:

O‘zimni hech kim ekanligimdan xabarim bor,
Hech kimdan yaxshi emasman, aksincha, battarman.
O‘zimning holimga qancha qaramayin,
Boshdan to oyog‘imgacha bitta donga arzimaydi.

Kamtarinlik fazilatini kamolot siri shundaki, bunday fazilatli inson butun borliq va insoniyatga hurmat-u izzat va ibrat nazari bilan qaraydi. O‘z ustida mudom ishlaydi, yangi va yaxshi narsalarni o‘rganadi. Bunday inson ko‘pni hurmat qilgani uchun duo oladi va ijobiy quvvatlar makoniga aylanib, o‘zidan nur-u ziyo taratadi. Kamtarin inson do‘stlik, ahillik, ilm-u ma’rifat timsolidir. Aksincha, kibrli odam suviga yangi toza suv kirmagan botqoq kabi, toza havo kirmagan, dimiqib qolgan manzil kabi o‘sib rivojlanishdan qoladi. Kibr-u havo va manmanlik bilan butun borliq va insoniyatga munosabat qilgani uchun yomon quvvatlar, duoibadlar makoniga aylanadi. Bunday insonni hamma yomon ko‘radi yoki zaruratdan soxta munosabatda bo‘ladi.

Xulosa:

1. Kamtarinlik insonni ochiq tizimdagi holatda bo‘lishiga imkon beradi va uni ijobiy quvvatlarini qabul qilishga qodir qiladi.

2. Kibr insonni yopiq tizim holatiga tushirib, uni ijobiy quvvatlardan to‘sadigan parda va hijob bo‘ladi.

3. Kibr-u havo hijobidan qutulish uchun komil-u mukammal ustoz kerak.

Umumiy xulosa qilib shuni ta’kidlash lozimki, Bahouddin Naqshband kabi valiysifat avlodni tarbiyalash uchun kamtarinlik fazilatining mazmun-mohiyati va kibr-u havo illatining zararli tomonini ta’lim-tarbiya berishga maxsus e’tibor berish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bahouddin Naqshband (manbalar tahlili). To‘plab nashrga tayyorlovchi maqola izoh va sharhlar muallifi G.N Navro‘zova. T.,“Sano-standart” nashriyoti, 2019, 120 bet; Navro‘zova G.N. Xoja Bahouddin Naqshband hayoti va ma’naviy merosi. T., “Fan”, 2021, 244 bet; Navro‘zova G., Zoirov E. Buxoroyi sharifning yetti piri. Toshkent, “Muharrir” nashriyoti, 2018, 72 bet; Navruzova G.N. Bahauddin Naqshband – the seventh pir of Bukharai Sharif (Noble Bukhara). Islom tafakkuri (maxsus son), 2020, 5–8-betlar; Navruzova G.N., Ubaidova V.E. Pharaoh of the weavers of Bahauddin Naqshband. Academicia. An International Multidisciplinary Research Journal. Vol. 10 issue 5, May 2020, Impact Factor: SJIF 2020=7.13, p. 922–926.

2. Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband. Forsiydan tarjimon, so‘zboshi, izoh va lug‘at muallifi Mahmud Hasaniy. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2019, 71 – 72-betlar.

3. Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband. Forsiydan tarjimon, so‘zboshi, izoh va lug‘at muallifi Mahmud Hasaniy. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2019, 85-bet.

4. Shu manba.

5. Shu manba. 140-bet.

6. Shu manba. 156-bet.

Nurova Shoxida Naimovna (Zarmed universiteti)

IBN SINO IJODIDA MA’RIFAT VA JAHOLAT KURASHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abu Ali ibn Sinoning ilm-fan va madaniyat rivojiga qo‘shgan boy ilmiy merosi tahlil va bayoni keltirilgan. Ibn Sino yirik mutafakkir bo‘lgani uchun uning dunyoqarashi va ilg‘or ideallari faqat uning tibbiy fanlarga oid asarlaridangina ifodalanmay, adabiy asarlarda ham o‘z aksini topgan.*

Аннотация. *В данной статье представлен анализ и описание богатого научного наследия Абу Али ибн Сины, внесшего вклад в развитие науки и культуры. Поскольку Ибн Сина был великим мыслителем, его мировоззрение и передовые идеалы нашли выражение не только в его медицинских трудах, но и в его литературных произведениях.*

Annotation. *This article presents the analysis and description of the rich scientific legacy of Abu Ali ibn Sina, who contributed to the development of science and culture. Since Ibn Sina was a great thinker, his worldview and advanced ideals were not only expressed in his medical works, but also in his literary works.*

Kalit so‘zlar: *ma’rifat, ilm, o‘zlik, jaholat, loqaydlik.*

Ключевые слова: *просветление, знание, самость, невежество, равнодушие.*

Key words: *enlightenment, knowledge, self, ignorance, indifference.*

Sharq olimlari, Abu Ali ibn Sinoning zamondoshlari uni “Shayx ur-rais” (ya’ni olimlar boshlig‘i) deb atar edilar. Abu Ali ibn Sino turli fan sohalari bo‘yicha, ular nazarida, haqiqatdan ham, ulug‘ donishmand edi. Abu Ali ibn Sino 980-yil avgust oyining oxirlarida Buxoroga yaqin Afshona qishlog‘ida amaldor oilasida dunyoga keladi. Ibn Sinoning asli ismi Husayn. To‘la ismi Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh al-Hasan ibn Ali ibn Sino (Yevropada Avitsenna). Uning oilasi 985-yili Buxoroga ko‘chib keladi. Otasi Abdulloh o‘z davrining savodxon kishisi bo‘lgan va farzandlariga yaxshi ta’lim berishga intilgan [1].

Ibn Sinoning otasi Ismoiliylar mashabiga mansub edi. Bu hol ibn Sinoning dunyoviy bilimlarni keng miqyosda o‘rganishga imkoniyat yaratib berdi, chunki Ismoiliylar ta’limoti o‘sha davrda ma’lum darajada dunyoviy ilmlarni, tabiatshunoslikni o‘rganishga xayrixohlik bilan qarar edilar. Ibn Sino oilasida Ismoiliylar ta’limotiga oid turli suhbatlar bo‘lib turar, bu esa uning ilmiy qiziqish va tasavvurlarining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatar edi.

Ibn Sino nihoyatda iste’dodli, xotirasi o‘tkir, zehnli bo‘lganidan yoshligidanoq o‘z davrida ma’lum bo‘lgan barcha ilmlarni tez va chuqur egallar edi. Tarixiy manbalarning xabar berishicha, u 10–13 yoshida mantiq, fiqh, falsafa, matematika, tibbiyot masalalari bilan shug‘ullangan. Buxoroda istiqomat qilgan olimlardan Abu Abdulloh Notiliy Ibn Sino otasining taklifi bilan unga qadimgi dunyo, xususan, Yunon falsafasi tarixidan va aniq fanlar tarixidan dars bergan, ammo tez orada fanlarning asoslarini chuqur o‘zlashtira olgan Ibn Sinoga domlalarning xizmati ortiqchalik qiladi va u mustaqil ravishda mutolaa qilishga kirishadi. Ibn Sino o‘z tarjimayi holida yozishicha, qisqa vaqt ichida u tibbiyot ilmini o‘zlashtirgan, qadimgi Yunonning mashhur tabiatshunos olimlari Gippokrat va Galeleyning asarlarini qunt bilan mutolaa qilgan va olgan bilimlarini amalda tatbiq etish uchun, ayni vaqtda, tabiblik bilan shug‘ullangan. U Buxoroda 16–17 yoshida mashhur tabib sifatida shuhrat qozonadi, 17 yoshida Somoniylar davlatining boshlig‘ini og‘ir kasallikdan davolaydi va uning ruxsati bilan Buxorodagi amir kutubxonasidan foydalanish huquqiga ega bo‘ladi. Ibn Sino ta’rificha, bu kutubxona o‘sha davradagi eng mashhur kutubxonalardan bo‘lib, unda bilimning barcha sohalariga oid qimmatbaho kitoblar mavjud edi.

Abu Ali ibn Sino bizgacha saqlangan tarjimayi holida, jumladan, shunday deb yozadi: “So‘ngra men tabiblik qilish faniga qiziqa boshladim va unga oid kitoblarni mutolaa qilib boshladim. Tib fani uncha murakkab bo‘lmagani uchun uni qisqa muddatga egalladim, hatto eng mashhur tabiblar ham mendan tabiblikni o‘rganadigan bo‘ldilar. Men kasalliklarni borib ko‘rar edim va tabiblik tajribasi tufayli davolashning shunchalik natijasiga erishdimki, uni tasvirlash mushkuldir. Shu paytda men 16 yoshda edim. Shundan so‘ng yana 1.5 yil mobaynida fanlar bilan shug‘ullandim, mantiqni, falsafani barcha qismlarini o‘rgandim. U muddat ichida biror kechasi to‘la uxlagan emasman, kunduzlari esa fanlarni o‘rganishdan bo‘lak biror ish bilan shug‘ullanmadim. uyqum qistagan qisqa damlarda, ko‘zim yumulishi bilan uyg‘oqligimda meni qiynagan masalani tush ko‘rardim, haqiqatdan ham, ko‘p mushkul fanni muammolar tushumda menga oydinlashardi”.

Ibn Sino, chindan ham, o‘zining har bir bayt she’rida insonlarni bilim va ma’rifat o‘chog‘ini yoqishga har bir masalaga ilmiy, aqliy yondashishga, rostgo‘y, vijdonli bo‘lishga, fan va madaniyatni egallashga, xullas, insoniylikning eng yaxshi xislatlarini o‘zida aks ettirib, mujassamlantirishga va inson degan ulug‘ nomni yanada yuqori ko‘tarishga chaqiradi [2].

Olim da’vat qilgan yo‘liga namuna o‘laroq, o‘z davridagi mavjud fan taraqqiyotining barchasini egallaydi. Bu shu haqda shunday deydi:

Qaro yer qa’ridan to akvji Zuhal,
Koinot mushkulin birin qildim hal.
Ko‘p mushkul tugunni angladi, yechdim,
Yechilmay qolgani birgina ajal.

Ibn Sino o‘z fikriga sodiq qolararoq, fanni turli sohalarini egallagan. Juda ko‘p aniq har tarmoqlari jilovini o‘z qo‘liga olgan edi. Lekin olim bilimli, bu sohada katta-katta muvaffaqiyatlariga erishgan bo‘lsa ham, o‘zining bilganini bilishi kerak bo‘lgan bilimlar olldida oz deb biladi, hatto o‘z bilimlarini bilama-

gan bilimlarga nisbatan hech narsa emas, deb biladi. U odamlarni ilm yo‘lidagi qiyinchiliklardan cho‘chimaslikka, dadil, sobitqadam bo‘lishga undaydi. Odamlarning botiri, deydi Ibn Sino, kelajakdagi ishdan, mushkulotdan qo‘rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo‘rqog‘idir.

Ibn Sino o‘z ijodida qotma–diniy aqidachilarga, johillarga, haddidan oshib, o‘zini olim deb toat-ibodatdan nari o‘tmaydigan, bilim va san’at, fan va ma’rift bilan shug‘ullansa, qoralaydigan, uni xudosizdahriylikda ayblaydiganlarga qarshi murosasiz qattiq kurash olib boradi, ular ustidan istehzo bilan kulib, satrlar yozadi:

O‘zini dono bilgan bu uch-to‘rt nodon,
Eshik tabiatin qilar namoyon.
Bular suhbatida sen ham eshshak bo‘l,
Bo‘lmasa kofir deb qilishar e’lon.

Boshqa bir yerda u johillarni dunyoda hech narsani ko‘ra olmaydigan ko‘r bilan teng qiladi.

“Quyosh ko‘rlarga ko‘rinmay bekinganidek, bu johillarga ham dunyo to‘g‘ri yo‘l belgilari ko‘rinmay qoladi” [3].

Ibn Sino bundaylar oldida gapirmasdan, ilmingni yashirib turish durustroqdir demoqchi bo‘ladi. U ba’zi layoqatsiz kishilarning yuqori mansablariga minib olishi, ularning ruxsatisiz, hissiz ishlari haqida kuyunib yozadi.

Ibn Sino she’rlarida yoshlarda otalarcha nasihat qiladi, har bir ishda mulohaza bilan ish yuritishni, o‘ziga do‘st, sirdosh tanlashda ehtiyot bo‘lishni uqdiradi: “Siringni barcha aytishdan ehtiyot bo‘l. Chunki mulohazakor degan so‘z–ehtiyotkor bo‘lish degandan boshqa narsa emas. Agar siringni saqlasang, u seni asiringdir, agar oshkora bo‘lsa, sen siringning asiri bo‘lib qolasan”.

Boshqa bir yerda Ibn Sino kishilirni ogohlantirib, ilmsiz, diniy aqida bilan o‘ralib qolgan kishilarga uning fikrlarini aytavermaslikka uqdiradi: “E og‘aynim, sen ushbuni bilib ol! Men bu “ishoratlar”da senga haqiqat qaymoqlarini suzib berdim: Latif so‘zlarga hikmat luqmalarini quyib, oshatdim. Sen endi ularni bilib olib, uning qadriga yetmaydigan, o‘zi nodon, fanda bilim va uquvsiz, uquvga o‘rganmagan, birinchi ko‘rishgandayoq sen bilan jonajon do‘stdek qalin bo‘lib ketadigan, lekin o‘zi ma’rifatdan mahrum bo‘lgan, kimki faylasufman desa uni adashganlar qatoriga qo‘shadiganlardan baxllarcha saqlan”.

O‘rta asrlarda din ramkasidan tashqari bo‘lgan, aqliy-ilmiy mulohazalarni har kim ham ochiq-oydin yuritolmasdi, yuritganlar ham, nihoyat, darajada ehtiyotkorlik bilan din, shariatga zid kelmaydigan qilib, diniy qobiqlarga o‘ragan holatdagina elga yoy olar edi, xolos.

Ibn Sino yirik mutafakkir bo‘lgani uchun uning dunyoqarashi va ilg‘or ideallari faqat uning tibbiy fanlarga oid asarlaridagina ifodalanmay, adabiy asarlarda ham o‘z aksini topgan. Uning adabiy asarlarida ham insonparvarlik, rostgo‘ylik, mehr-muhabbat, bir-birovini hurmat qilish, do‘stlik kabi bir qator masalalar qamrab olinadi. Undan tashqari, Ibn Sinoning bu to‘g‘rida yozgan ijodida olimning ustalik bilan ish ko‘rganini payqash qiyin emas. Hatto uning “Lison ut-tayr” va “Xay bin-Yakzon” asarlari bekitma ramz-ishoralar bilan yozilganligi sababli bu asarlar haqida har xil qarashlar mavjud, goh mistikaga, goh sufizmga va goh idealizmning boshqa turlari bilan bog‘lab mulohaza yuritadilar.

Fanlarning mohiyatini, cho‘qqisini egallash oson ish emas edi. Buni Ibn Sino e’tirof etadi. Ibn Sino Aristotelning “Metafizika” kitobini qirq marta o‘qigan va u yod bo‘lib qolgan, ammo mohiyatini tushunmagan. Faqat Abu Nasr Forobiyning Aristotelning “Metafizika” asariga yozgan sharhini o‘qiganidan keyingina unga tushungan.

Ibn Sino haqiqiy ensiklopedist olim sifatida o‘z davridagi fanlarning deyarli hammasi bilan muvaffaqiyatli shug‘ullangan va ularga oid ilmiy asarlar yaratgan. Uning falsafa, mantiq, psixologiya, tabobat, matematika, astronomiya, fizika, ximiya, botanika, zoologiya, geologiya, mineralogiya, muzika, badiiy adabiyt va boshqa fanlarga bag‘ishlangan ko‘plab asarlari bizgacha yetib kelgan. Uning tabobatga oid eng yirik shoh asari “Tib qonunlari” 500 yildan ortiq muddat davomida Sharq va G‘arb tabiblari uchun asosiy qo‘llanma va darslik vazifasini o‘tab keladi [4].

Ibn Sino oddiy musulmon, xudo borligiga ishonadi. Biroq uning tezisi tamoman ma’rifat tomiga qaratilgan. U, masalaga tor qaramaydi, har bir sohaga chuqur, atroflicha, yondashadi. Dunyodagi odamlarning ishi toat-ibodat qilish, to‘za tutish va Qur’on o‘qishdan iborat, deb bilmaydi. Olim, fan va ma’rifat bayrog‘ini yuqori ko‘tarib chiqqan peshqadam mutafakkir edi. U ilm-ma’rifat tarqatishga odamlarni targ‘ib qilib, musulmon bilimlarni egallasa, o‘shandagina u haqiqiy musulmon bo‘la oladi, deb tushunadi. Bu bilan u din olimlarining tor ideyasi bo‘lmish, dunyoda faqat toat-ibodat bilan shug‘ullanish kerak, bu dunyo vaqtincha dunyo, deyilgan bo‘lmog‘ur fikrlariga qarama-qarshi chiqadi. Shu sababdan ham aqo-

yidchilar Ibn Sinoning kofirga chiqarib qo‘yadilar, hatto uni Qur’onga nazira yozgan, deb ham ayblaydilar, lekin Ibn Sino ularga qarshi g‘azab bilan otashin satrlar yozadi:

Meni kofir etmak emasdir oson,
Hammadan mahkamroq mendagi imon.
Yuz yilda bir kelur meningdek inson,
Demak, bu olamda yo‘q bir musulmon.

Bu bilan Ibn Sino o‘zining birdan-bir e’tiqod qiladigan diniy-iymoni aql ekanligiga ham ishora qiladi [5].

Ma’lumotli, bilimdon kishilarni Ibn Sino eng jasoratli kishilar deb hisoblaydi. Jaholat va qorong‘ulikka qarshi kurashib, o‘z bilimini oshirishni qahramonlik deb biladi. “Ko‘zi ko‘rlar, quyoshni ko‘rolmagani kabi, johillar ham to‘g‘ri yo‘l bayrog‘i (ilm)ni ko‘rolmaydilar”, deb ishongan ulug‘ mutafakkir: “Men ilmda eng yuqori cho‘qqilarga yetmoq istayman. Men u cho‘qqilarga yo yetaman, yo o‘lim meni tinchitadi”, deb yozgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Beruniy. Qonuni Ma’sudiy. Tanlangan asarlar. T., “Fan”, 1973.
2. To‘ychiyev B. Beruniy va Ibn Sino. T., “Ijod print”, 2020.
3. Xorazm Ma’mun akademiyasining axborotnomasi. 2012, 1-son.
4. Xayrullayev M. O‘rta Osiyoda ilk uyg‘onish davri madaniyati. T., 1994.
5. Qudratov S. va boshq. Ajdodlar hayoti – ibrat maktabi. Guliston, 2019.

Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich (O‘zMU doktoratni)

INSON QADRI TARAQQIYOTI RIVOJIDA ILM-FANNING O‘RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta’lim va fan inson qadri taraqqiyotining asosiy omili ekanligi, yurtimizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, intellektual mulk sohiblarini tarbiyalashning ahamiyati, ta’lim inson taraqqiyotiga to‘siq bo‘layotgan muammolarning yechimlari haqida bayon qilingan.*

Аннотация. *В данной статье рассказывается о том, что образование и наука являются главным фактором развития человеческого достоинства, о реформах, проводимых в сфере образования в нашей стране, о важности обучения владельцев интеллектуальной собственности, а также о решениях проблем, которые ставит образование и которые тормозят развитие человека.*

Annotation. *This article describes the fact that education and science are the main factor in the development of human dignity, the reforms implemented in the field of education in our country, the importance of educating intellectual property owners, and the solutions to the problems that education hinders human development.*

Kalit so‘zlar*: inson qadri, ta’lim, fan, tarbiya, barqaror taraqqiyot, ma’naviy yetuklik.*

Ключевые слова: *ценность человека, образование, наука, воспитание, устойчивое развитие, духовная зрелость.*

Key words: *human value, education, science, upbringing, sustainable development, spiritual maturity.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim inson va jamiyatni rivojlantirishning eng muhim omiliga aylangan. O‘zbekiston hududi qadim zamonlardan beri fan va madaniyat rivojlanib kelayotgan davlatdir. Xususan, astronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo, tarix, falsafa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik kabi fanlar va haykaltaroshlik, to‘qimachilik, kulolchilik, shishasozlik va boshqa kasblar keng rivojlangan. Ilm-fanning ahamiyatiga o‘zbek mutafakkirlari yuksak baho bergan. Buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy “Mineralogiya” asarida ta’kidlanishicha, mamlakat farovonligi undagi ilm-fanning ahvoli, taraqqiy etishiga ham bog‘liq. Allomaning fikricha, insonning eng katta baxti bilimga egaligidir, chunki unga aql berilgan. Baxtni ana shunday tushunishgina jamiyatda tinchlik va farovonlikka olib keladi: “Inson haqiqiy rohat-farog‘atga yetgani sari unga yetishga bo‘lgan intilishi kuchayib borgandagina o‘sha farog‘atni chin dildan his qiladi. Inson ruhi o‘zi bilmagan narsani anglaganida ham ana shunday holat ro‘y beradi”.

Sharq hikmatlarida “Agar inson ilm nuri bilan o‘z yo‘lini yoritmasa, zulmat va nodonlik ko‘chasida qoladi” deya bejiz ta’kidlanmagan. Kishi qalbining nuri ilm va ma’rifat bilan baquvvat bo‘ladi. Insoniyatning qadri ham ilm bilan hosil bo‘ladi. Ilmni egallab olish esa ta’limdagi bir san’atga qiyoslanadi. Ta’lim mazmun va mohiyatan jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darajasiga borib taqaladi. Umumiy va

sohaviy bilimlarga bo‘lgan ehtiyoj, ta’lim haqidagi pedagogik g‘oyalar jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida turlicha ahamiyat kasb etib, o‘zgarib kelgan. Jamiyatning asosiy negizi bo‘lgan ta’lim va tarbiya jarayonida insonning sifatlari, dunyoqarashi va turli xil qobiliyatlari shakllanib, o‘sib boradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu fikrlar tasdig‘i o‘laroq, 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda yaqin yillardagi ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar o‘z aksini topdi. Qonun loyihasini takomillashtirish davomida 238 ta norma va qoidalar qayta ko‘rib chiqildi, idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni qisqartirish maqsadida 123 ta norma loyiha tarkibidan chiqarildi va shu bilan birgalikda 54 ta to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiluvchi modda bilan almashtirildi.

“Inson qadri” tamoyilini ilgari suruvchi Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan ta-raqqiyot strategiyasi va uni joriy yilda amalga oshiriladigan bir qator loyihalar tayyorlandi. Ayniqsa, ta’lim sohasida amalga oshuvchi loyihalar, shubhasiz, ushbu soha rivojiga salmoqli hissa qo‘shadi.

Ta’lim shaxs tomonidan bilimlarni egallashiga xizmat qiladi, unga ijtimoiy me’yorlarni o‘zlashtirishga yordam beradi, ijtimoiy faol hayotga kirishida dastak bo‘ladi. Aholi hayot darajasi va sifati ko‘p jihatdan mamlakat raqobatdoshligining asosiy ko‘rsatkichiga aylangan bugungi sharoitda taraqqiyotning muhim omili sifatida ta’limning roli ortib bormoqda. Hozirgi paytda jamiyat va sivilizatsiyalar avvalo ijtimoiy qadriyatlar va ta’lim tizimlari bilan raqobatlashmoqda.

Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni innovatsion rivojlanishsiz, keng ko‘lamli ilmiy-texnik kooperatsiyasiz va yangi texnologiyalar, ilm-fan va texnika yutuqlarini joriy etmasdan, tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Natijalar. Ayni vaqtda ko‘plab mamlakatlarning “2030-yilgacha mo‘ljallangan ta’lim konsepsiyasida sifatli ta’lim qulayliklarini oshirish, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi, o‘quv jarayonining asosini davlat ta’lim standartlari talablariga muvofiq rivojlantirish, yangi pedagog kadrlar avlodini tayyorlash, o‘qitish, ta’lim sohasida iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish, imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatga integratsiyalash, iqtidorli bolalar va qobiliyatli yoshlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash, mintaqaviy mehnat bozorlarining malakali kadrlarga bo‘lgan talablarini qondirish va zamonaviy uzluksiz ta’lim tizimini shakllantirish kabi vazifalar belgilangan”.

Ta’lim inson taraqqiyotining eng muhim omili sifatida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va gumanitar muammolar butun majmuasini hal etishga katta ta’sir ko‘rsatishi isbotlangan. Ular qatorida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

–har bir mamlakatda hozirgi davr uchun munosib aholi turmush darajasi va turmush sifatini ta’minlash;

–ish bilan samarali bandlikni ta’minlash;

–barqaror rivojlanishni ta’minlash;

–ijtimoiy tengsizlik darajasini pasaytirish;

–fuqarolik jamiyati tarkibini mustahkamlash;

–inson huquqlariga rioya etish va ularni samarali amalga oshirish;

–shaxsning imkoniyatlarini to‘la va har taraflama amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni yaratish.

O‘zbekistonda ta’limga jamiyatni isloh etish va yangilash siyosatini amalga oshirishning hal qiluvchi bo‘g‘ini sifatida alohida e’tibor qaratiladi. Ta’lim mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, mamlakatni jahon hamjamiyatiga integratsiyalashning majburiy sharti deb hisoblanadi.

Muhokama. Bugungi kunda shiddat bilan o‘zgarib borayotgan hayot oldimizga qo‘yayotgan birbiridan murakkab va muhim masalalarni hal qilish haqida o‘ylar ekanmiz, ularning yechimi aynan ta’lim-tarbiya bilan, yoshlarning dunyoqarashini zamonaviy bilim, yuksak ma’naviyat va ma’rifat asosida shakllantirish bilan bog‘liq jarayondir.

Barcha insonlar uchun yuqori sifatli butun umr davomidagi ta’lim olish imkoniyati 2020-yilgacha ta’minlanadi. Mazkur natija Birlashgan millatlar tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan hamohang bo‘lib, uning mohiyati barcha insonlar uchun butun umri davomidagi teng huquqlilik tamoyiliga asoslangan ta’lim olish huquq va imkoniyatlarini ta’minlashdan iboratdir.

Respublikamizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar tashabbuskor, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yosh intellektual mulk sohiblarini tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni egallash uzluksiz hayotiy ehtiyojimizga aylanmog‘i kerak. Yurtimizda kelajak egalari bo‘lmish yoshlar, balki butun jamiyatimiz a’zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun, avvalo, zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishimiz kerak. Sharq donishmandlari aytganidek, “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros–bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlik!”

Ilm-fanning bugungi taraqqiyoti barcha sohalarda raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyotga o‘tishni yuzaga keltirdi. Dunyo miqyosida rivojlangan mamlakatlarda amalga oshirilayotgan bu ilmiy jarayon kelgusida mamlakatimiz iqtisodiyotida ham yuzaga kelishi aniq. Shunday ekan, bu borada qanday yo‘l tutmoq zarur?

Xulosa. Inson, uning har tomonlama uyg‘un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlarini va ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o‘zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir. Darhaqiqat, yosh avlodga mukammal o‘qib o‘rganishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berish, zamonaviy va sifatli ta’lim berish orqali vatanimiz ravnaqini yanada rivojlantirish bizning asosiy burchimiz hisoblanadi.

Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojimizga aylanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T., “O‘zbekiston”, 2016.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017.
4. I.A.Karimovning BMT Bosh assambleyasining Ming yillik rivojlanish maqsadlariga bag‘ishlangan oliy darajadagi yalpi majlisdagi nutqi. T., “O‘zbekiston”, 2010.
5. Karimov I.A “Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish ustuvor maqsadimizdir”, “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir”. T., “O‘zbekiston”, 2010.
6. Beti Reldon. Bag‘rikenglik. Tinchlik sari olg‘a qadam. UNESKO, Toshkent, UNESKO bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi, 2003.
7. Shodiyev J. (2022). Ilk uyg‘onish davrida – komil insonni shakllantirish va tarbiyalashda tasavvuf ta’limotining o‘rni. Scientific Bullettin of NamSU, Научный вестник НамГУ, «NamDU ilmiy axborotnomasi», 2022 –yil, 4-son, 229-bet.
8. Shodiyev J.J. Mamlakatimizda inson qadrini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari. QarDU xabarlari. Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal, maxsus son (ijtimoiy fanlar).
9. Shodiyev J. (2021). Jamiyatdagi mehnat munosabatlari sharoitida ma’naviy salohiyat. Журнал истории и общества, 2.
10. Shodiyev J. (2021). O‘zbekistonda ijtimoiy-siyosiy kommunikatsiya rivojlanishida raqamli tpansformatsiya siyosati. Academic research in educational sciences, 2(2), p. 409 – 416.

Raxmatova Xolida (Buxoro davlat Pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti)

XOJA AHROR VALIY MA’NAVIY MEROSIDA TASAVVUFIY TUSHUNCHALAR SHARHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Xoja Ahror Valiy ma’naviy merosining Xuroson tasavvuf maktabini asoschisi yirik mutasavvif Abu Said Abul Xayr (vaf. 440/1048) bilan bog‘liq jihatlarini o‘rganilgan. Xoja Ahror Valiyning “Risolayi Havroiyya” (Hurlar risolasi) asari Abu Said Abul Xayr tomonidan yozilgan, bemor kishiga o‘qilsa, sharofatli hisoblangan va shuning uchun juda ko‘p kishi tomonidan sharh etilgan ruboiyning tahliliga bag‘ishlangan.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются аспекты духовного наследия Ходжи Ахрара Вали, связанные с великим мистиком Абу Саидом Абул Хаиром (ум. 440–1048), основателем Хорасанской школы мистицизма. «Рисалаи Хавройя» («Трактат о хуррах») Ходжи Ахрара Вали посвящен анализу рубаи, написанного Абу Саидом Абул Хаиром, который считался благоприятным при чтении больному человеку и поэтому комментировался многими людьми.*

Annotation. *This article discusses aspects of the spiritual heritage of Khoja Akhrar Vali associated with the great mystic Abu Said Abul Khair (d.440/1048), the founder of the Khorasan school of mysticism. “Risalai Khavroya” (“Treatise on Khurrah”) by Khoja Ahrar Vali is dedicated to the analysis of the rubaiyat written by Abu Said Abul Khair, which was considered favorable when reading to a sick person and therefore was commented on by many people.*

Kalit so‘zlar: *Naqshbandiya ta’limoti, Xoja Ahror Valiy, mutasavvif, Abu Said Abul Xayr, hurlar, rizvon, koinot, mushohada, inson ruhi.*

Ключевые слова*: учение Накшбандия, Ходжа Ахрар Вали, мистицизм, Абу Саид Абул Хайр, Хавраия, ризван, вселенная, наблюдательность, человеческий дух.*

Key words: *teachings of Naqshbandia, Khoja Ahrar Vali, mysticism, Abu Said Abul Khair, Khavria, rizvan, universe, observation, human spirit.*

Xoja Ahror Valiyning “Risolayi Havroiyya” (Hurlar risolasi)[1] va mutaqaddamin va mutaahhirin mashoyixlar naqli bilan bog‘liq 52 ta rashhalarining 39-[2] Abu Said Abul Xayr ijodini tahlili bilan bog‘liq. Xoja Ahror Valiyning “Risolayi Havroiyya” asarining nusxalari O‘zFA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda.[3]

“Risolayi Havroiyya” (Hurlar risolasi) Abu Said Abul Xayr tomonidan yozilgan, bemor kishiga o‘qilsa, sharofatli hisoblangan va shuning uchun juda ko‘p kishi tomonidan sharh etilgan ruboiyning tahliliga bag‘ishlangan. Chunki ilgarigi sharhlar Xoja Ahrorni qoniqtirmagan va o‘zi bu ruboiyni tahlil etish maqsadida “Hurlar risolasi” nomi bilan mo‘jazgina, lekin boy tasavvufiy mazmunni o‘ziga olgan asarni yozgan.

“Risolayi Havroiyya”da Abu Said Abul Xayrning quyidagi mashhur ruboiysini Xoja Ahror sharhlab, o‘zining insonga oid qarashlarini bayon etadi:

Huro ba nazzorai nigoram saf zad,
Rizvon z-taajjub kafi xud bar kaf zad.
On xoli siyah bar on ruxon mutraf zad,
Abdol zi biym chang bar mus’haf zad.[4]

Bu ruboiyning asosiy so‘zlariga Xoja Ahror tomonidan sharh va izohlar berilgan. Shular asosida ruboiyni o‘zbek tilidagi tabdilini quyida keltiramiz. Xoja Ahror “Risolayi Havroiyya” asarining boshida, sharhlardan oldin inson haqida fikr yuritadi. U insonni tana va ruhdan iborat ilohiy mavjudot sifatida ko‘rib tahlil etadi. Ruhlarni Haq o‘z Jamolini muhoshadasi uchun yaratgan, deydi Xoja Ahror. Ruh tanaga kirganda o‘z asli Haq Jamolidan hijoblar bilan to‘siladi. Ammo asl holatda inson ruhida Haq Jamoli bilan muhabbat va unsiyat hosil bo‘ladi. Jaloliddin Rumiy aytganidek, nay aslidan uzilib yana unga yetish uchun nola qilganidek, inson ruhi doimo asliga tomon intiladi. Lekin ruhlar asl holatlariga qaytishga intilsalar ham, xohlasalar ham taqdir taqozosi bilan qayta olmaydilar. Odam (alayhissalom) qancha Jamolga intilsa ham farzandlari, badan bog‘lanishlari tufayli hijob-pardalar hosil bo‘lganini misol tariqasida Xoja Ahror yozadi.

Xoja Ahror insonlarni ikki toifaga bo‘ladi. Biri bog‘lanishi va taalluqlar pardasiga o‘ralib o‘z aslini unutib, kufr-u isyon yo‘liga o‘tadi. Ikkinchi qism payg‘ambar va valiylar yordami bilan aslini xotirlaydi va iymon nuri bilan munavvar bo‘ladi. Natijada Haq Jamolini hech unutmaganlaridek, ularda kuchli ishtiyoq paydo bo‘ladi. “Muhabbat otashi ularning dillarida shunday o‘rnashdiki, bu otash o‘shal Jamol mushohada yodisiz taskin topmaydi. Agar bu otash ularni qattiq kuydirsayam, lekin bu otashsiz turolmaydilar”.[5]

Ikkinchi toifa – nurli, iymonli, komil insonlar uchun o‘lim asl bilan bog‘lanish, visol sururi. Shuning uchun o‘lim haqida gapirganda, ular shod bo‘ladilar. Xoja Ahror yozadi: “Ular shunday toifaki, biror zahmat-bemorlik yetganda ularga bir kishi shu holatlarida o‘lim haqida gapirsa, ular shod bo‘ladilar, zero, biladilarki, o‘shal Jamol mushohadasini topish o‘limsiz hosil bo‘lmaydi”.[6] Bu xabardan shod bo‘lgan bemorning badaniga ham yengillik, hosil bo‘ladi, deb yozadi Xoja Ahror “Haqiqiy Jamol mushohadasi lazzati bu olamdan o‘tgandan keyin bo‘ladi”, deb Xoja Ahror payg‘ambarimiz Muhammad (sallallohi alayhi vasallam)ni “kim Menga Safar oyining chiqqanidan xabar bersa, Men unga Jannat bashoratini qilaman” hadisi orqali bu fikrni isbot etadi.

---

[1] Xoja Ubaydulloh Ahror. Risolayi Havroiyya. Tabarruk risolalar. Nashrga tayyorlovchi, tarjimon, so‘zboshi va izoh mualliflari. M.Hasaniy, B.Umrzoh, H.Amin. T., “Adolat”, 2004, 21 – 25-betlar.

[2] Faxriddin Ali Safiy. Rashahot (Obihayot tomchilari). Tabdil va so‘ng so‘z muallifi M.Hasaniy. T., Abu Ali ibn Sino nomidagi tib-nashr, 2003, 352-bet.

[3] Boboxonov Sh., Mansur A. Naqshbandiya tariqatiga oid qo‘lyozmalar fihristi. T., “Movarounnahr”, 1993, 22–23-betlar.

[4] Xoja Ubaydulloh Ahror. Risolayi Havroiyya. Tabarruk risolalar. 383-bet.

[5] Xoja Ubaydulloh Ahror. Risolayi Havroiyya. Tabarruk risolalar. 22-bet.

[6] Shu manba. 23-bet.

Xoja Ahror “o‘limni eslash ulug‘larning shodligi” ekanini, yuqorida tilga olgan Abu Said Abul Xayrning ruboiysi shu ma’noda bo‘lganligi uchun bemorga muhabbat sururini, Haqqa qaytish zavq-u shavqini berishini aytib, har bir ruboiydagi asosiy tushunchani izohlaydi. Xoja Ahror aslini esda tutgan, Ilohiy Jamol ishqida kuyib, unga yetishishni orzu qilayotgan komil inson bemorlik holatiga nisbatan o‘z sharhini yozadi.

Xoja Ahror ruboiyning boshidagi “Huro” so‘zi hurlar va farishtalarni anglatishini yozadiki, ular o‘layotgan ilohiy ishqda kuygan bemor boshiga kelib saf tortib, uni kuzatib turadilar. Birinchi qatordagi “nigor” Xoja Ahror fikricha, mahbublik maqomidagi inson ruhi. Qur’oni karimdagi Moida surasining 54-oyati “U ularni yaxshi ko‘radi, ular ham uni yaxshi ko‘radilar”ni Xoja Ahror asos sifatida keltiradi. Abul Said Abul Xayr ruboiysining birinchi qatori Xoja Ahror sharhi bilan quyidagi ma’no oladi: Hurlar, farishtalar mahbublik maqomidagi ruh–nigoroni kuzatib, nazzora etib, saf tortdilar. Xoja Ahror bu holat mahbublik maqomidagi insonda bo‘ladi, deb ta’kid etadi.

Ruboiyning ikkinchi qatoridagi “Rizvon”dan murod esa dil bog‘i (jannat)ni qo‘riqlovchi aqldir”,[1] deb Xoja Ahror dilni jannat bilan qiyoslaydi, “Ammo dil behishtga tabiat do‘zaxidan o‘tmaguncha yetmaydi”,[2] deb, Xoja Ahror ruh tanaga kirib, moddiy olam, shahodat olamida o‘z o‘rnini topib, bandalikni o‘rniga keltirganidagina qalb jannatga aylanishini yozib, moddiy olamdagi pokiza hayot kechirish ruh kamoloti uchun naqadar muhimligini ta’kid etadi. “Taajjub” so‘zini Xoja Ahror qalbni o‘zidan uzoq narsalarni bilib qolishi va bu esa aqlni hayratga tushishiga sabab ekanligini aytadi. Bundan kelib chiqib, Abu Said Abul Xayr ruboiysini ikkinchi qatorini shu mazmunda tabdil etish mumkin:

Rizvon–qalb, dil jannatini qo‘riqlovchi aql (qalbni) ogohligidan taajjubga tushib, o‘z kaftini kaftiga urdi. Bu holat hayratdan lol bo‘lgan paytda insonga beixtiyor sodir bo‘ladi. Bu go‘zal holat aqlni lol etgan, hayratga solgan. Bu bilan Xoja Ahror qalbni ko‘rishni, anglash, tark etish darajasini cheksizligi va aqlni bilish darajasi chegaralanganligini ham ta’kid etmoqda.

Xoja Ahror ruboiyning uchinchi qatoridagi “xoli siyoh”– qora xolni o‘lim vaqtida zuhurga keladigan xorlik, mazallat va kamtarliklar, deb sharh etadi. Shu qatorda “mutraf” so‘zi bor. Uning mazmuni “yuzni yopuvchi parda, hijob”dir. Sharh va izohlar bilan ruboiyni uchinchi qatorini shunday mazmunda yozish mumkin:

O‘shal qora xol–o‘lim holati, ruhlar uchun hijob, pardani olib tashladi (Ularga vasl bilan qo‘shilish uchun imkon berdi). Shuning uchun bo‘lsa kerak, tasavvuf ahli “o‘limdan oldin o‘lmoq”ni istaydilar. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Bahouddin Naqshband: “Gar bimirem hech motam ne”, ya’ni “agar biz o‘lsak, motam emas”, deb ta’kid etganlar.

Ruboiy to‘rtinchi qatoridagi “Abdol” va “Mus’haf”ni Xoja Ahror quyidagicha sharh etgan: “Abdoldan maqsad nafsoniy quvvatdurki, inson mohiyatida har xil o‘zgarishlar yasaydigan narsadir. Mus’-hafdan murod esa Kull mazhari, jam’lik nusxasi bo‘lgan inson haqiqatidir”.[3]

“Abdol”–Xudoga yaqin, xudoning xos kishilari bo‘lib, ular yetmish kishidan iborat”.[4] Xoja Ahror shu yetmish quvvatni insonni botinida mavjudligini aytadi. Mus’haf–Qur’oni Karimni ham shu nom bilan ataydilar. Bu yerda Mus’haf–Qur’on qanday Olloh kalomi bo‘lib, butun Olam mohiyatini aks ettirsa, inson ham-Mus’haf-Olloh-Kullning zohir bo‘ladigan joyi, jam’ maqomidagi nusxa bo‘lib, uni Xoja Ahror inson haqiqati deydi.

Xoja Ahror rashhalari tufayli biz yana bir bor tasavvufga berilgan ta’riflarning eng yaxshisini angladik. Darhaqiqat, vaqt qadrini bilish har nafas, har onni to‘g‘ri o‘z o‘rniga sarflash jamiyat va inson kamoloti uchun zarur.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Xoja Ahror Valiyning Abu Said Abul Xayr ruboiysining sharhiga doir asari va tasavvufga oid hikmatli so‘zini ifodalovchi rashhasi uning inson, inson mohiyati, haqiqiy inson, ruh, tana, o‘lim, ilohiy ishqqa oid tasavvufiy tushunchalarini anglashga imkon beradi. Bularni anglash Xoja Ahror shaxsiyatini chuqurroq bilish imkonini beradi.

[1] Shu manba. 24-bet.
[2] Shu manba.
[3] Xoja Ubaydulloh Ahror. Risolayi Havroiyya. Tabarruk risolalar. 24-bet.
[4] Farhangi zaboni tojiki. 1-tom, Moskva, 1969, 26-bet.

TILSHUNOSLIK

Musulmonova Kamola (filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

MATN AVTORIZATSIYASI BILAN BOG‘LIQ HOLATLARNI LINGVISTIK EKSPERTIZA QILISHNING QONUNIY METODOLOGIK ASOSLARINI YARATISH MUAMMOLARI VA ZARURATI

Annotatsiya. *Sud ekspertizalari tarkibida sud lingvistik ekspertizasining ko‘lami va chegarasini belgilash, muallifni aniqlashga qartilgan ekspertizalarda lingvistik bilimlarni tatbiq etish holatlarini aniq belgilash zarurati bor. Maqolada matn avtorizatsiyasi holatlari tasnifi, obyektlari va bu borada amalga oshiriladigan lingvistik ekspertizaning qonuniy asoslarini yaratish xususida so‘z boradi.*

Аннотация. *Возникает необходимость определить объем и пределы судебно-лингвистической экспертизы в рамках судебно-медицинской экспертизы, четко определить обстоятельства применения лингвистических знаний в экспертизе, направленной на установление автора. В статье рассматривается классификация случаев авторизации текста, ее объектов и создание правовых основ проводимой в связи с этим лингвистической экспертизы.*

Annotation. *There is a need to determine the scope and limits of forensic linguistic examination within the framework of forensic medical examination, to clearly define the circumstances of the application of linguistic knowledge in the examination aimed at identifying the author. The article deals with the classification of cases of text authorization, its objects and the creation of legal foundations for the linguistic expertise carried out in connection with this.*

Kalit so‘zlar*: ekspertiza, sud ekspertizasi, lingvistik ekspertiza, identifikatsiya, matn avtorizatsiyasi.*

Ключевые слова: *экспертиза, судебная экспертиза, лингвистическая экспертиза, идентификация, авторизация текста.*

Key words: *expertise, forensic expertise, linguistic expertise, identification, text authorization.*

Respublikamizda amalga oshirilayotgan, bevosita lingvistik bilimlar talab etiladigan ekspertizalaridan yana biri mualliflikni o‘rnatishga qaratilgan ekspertizalardir. Asosan, sud-filologik ekspertizasi sifatida faoliyati yo‘lga qo‘yilgan ekspertiza turida plagiatlik holatlarini baholash va asl muallifni aniqlash masalasiga oydinlik kiradi. Shuningdek, mavjud qonun hujjatlarida ham mualliflik huquqini himoya qilish, plagiatlikning oldini olish, intellektual mulk obyektlariga tajovuzini bartaraf etish singari masalaning huquqiy jihatlariga urg‘u beriladi. Biroq muallfini aniqlashga qaratilgan ekspertizalarni faqat bu bilan chegaralab bo‘lmaydi. Ayrim hollarda muallif haqidagi muayyan identifikatsion belgilarni (yoshi, jinsi, hududiy xosligi, kasbi va h.k.) aniqlashda ham lingvist yordamiga tayaniladi [1]. Matnda qo‘llangan ayrim signal so‘zlar orqali muallif haqidagi muayyan ma’lumotlarni olish mumkin.

Demak, mualliflikni o‘rnatish yoki aniqlashga qaratilgan ekspertizalarni faqat namunalar asosida haqiqiy muallifni aniqlash bilan chegaralab qo‘ymaslik lozim. Agarda mualliflikni aniqlash va o‘rnatishga qaratilgan sud-lingvistik ekspertizalarining qonuniy metodologik asoslari ishlab chiqilsa, sud tergov, kriminalistika sohasidagi ko‘plab muallif atributlarini aniqlash bilan bog‘liq holatlarga ijobiy yechim topilgan bo‘lar edi. Loyihasi ishlab chiqilishi lozimligi ta’kidlanayotgan va taklif etilayotgan qonun loyihasida matn muallifini aniqlash bilan bog‘liq sud-lingvistik ekspertizasi tiplari va lingvist-ekspert tekshiradigan atributlar, matnlarni aniq belgilab olish lozim. Demak, bevosita lingvistik ekspertiza qilinishi lozim bo‘lgan mualliflik atributlariga asoslangan lingvistik ekspertizalar quyidagilar:

♦qo‘lyozma matnlarda namunalar yoki bevosita namunalarsiz muallif nutq uslubi, so‘zlar semantikasi, matnning umumiy pragmatik mazmuni va boshqa lingvistik belgilariga ko‘ra, muallifini aniqlash, yozuv tempi, ritmi, bosim va shu singari tashqi faktorlar ham hisobga olinga holda, muallifning ruhiy-psixologik, fiziologik holati xususidagi ma’lumotlarni shakllantirsh va fikrni asoslash;

♦anonim xatlarda lingvistik atributlarga muvofiq, taxminiy muallifga xos identifikatsion belgilar asosida uning yosh, jins, hududiy xoslik, sotsial xosligiga ko‘ra, taxminiy portretini yaratish va fikrni asoslash;

♦namunalar asosida intellektual mulk mahsuloti sanalgan matnlar (she’r, hikoya, roman, ilmiy tadqiqot ishlari va sh.k)ning aynan qaysi muallifga tegishli ekanligini aniqlash, original matnni baholash;

♦muallifi mutlaqo aniqlanmagan eski qo‘lyozma matnlar yoki anonim muallif tomonidan yozilgan intellektual mulk obyektlari muallifini aniqlash.

Matn avtorizatsiyasi bilan bog‘liq holatlarda lingvistik ekspertiza ikki tendensiyaga asoslanadi:

1) matn xususiyatlari bo‘yicha muallif haqidagi ma’lumotlar aniqlashtirish, shu orqali gumonlanuvchilar doirasini qisqartirish;

2) berilgan namunalar asosida qiyoslab, namuna gumonlanuvchiga tegishli yoki tegishli emasligini aniqlash.

Matn avtorizatsiyasi shakliga ko‘ra, ikki xil yo‘nalishda mavjud bo‘ladi:

1) qo‘lyozma matnlarda matn avtorizatsiyasi;

2) bosma holatdagi matnlarda matn avtorizatsiyasi [2].

Mualliflik ekspertizasi – matnni yuridik jihatdan tahlil qilish sohasidagi faoliyat turi. Lingvistik ekspertizadan farqli o‘laroq, mualliflik ekspertizasi faqat qo‘lyozma manbaga nisbatan amalga oshiriladi. Ushbu turdagi ekspertizani o‘tkazish zarurati, agar matn (asar) muallifligiga shubha tug‘ilsa, paydo bo‘ladi. Bunday shubhali holatlar quyidagi vaziyatlarda paydo bo‘ladi:

–plagiat (adabiy o‘g‘rilik);

–anonim xatlar;

–imzolar;

–muallifi noma’lum bo‘lgan intellektual mulk obyektlari (asosan, badiiy asarlar).

Sud ekspertizalari orasida mualliflik ekspertizasi alohida tur sifatida ajratiladi. Shuningdek, bunday ekspertiza turlarida matn muallifining yozuvi (agar yozuv qo‘lyozma bo‘lsa) grafologik, psixologik xususiyatlari ham tekshiriladi. Biroq har qanday matnda muallif shaxsiyatini ifoda etuvchi belgilar mavjud bo‘ladi. Bu belgilar bevosita til xususiyatlariga ko‘ra namoyon bo‘ladi. Shu sababdan muallifshunoslik ekspertizalarini o‘tkazish negizida lingvistik ekspertiza ham mavjud. Shu boisdan muallifshunoslik ekspertizasini lingvistik ekspertizaning tarkibiy qismlari sirasiga kiritish o‘rinli. Lingvistik ekspertizada muallifni aniqlash zarurati tug‘ilgan holatlar uchun matn avtorizatsiyasi bilan bog‘liq matnlar lingvistik ekspertizasi deb nomlangan tarkibiy qism alohida kiritilishi lozim. Bu esa mohiyatan qamrov doirasi keng bo‘lgan lingvistik ekspertizani ifodalaydi.

Matn avtorizatsiyasi bo‘yicha lingvistik ekspertizalar quyidagi holatlarda tayinlanadi:

–matn muallifligini o‘rnatishni talab qiladigan bahsli vaziyatlarda (noma’lum xabarlar, mualliflikni soxtalashtirish va boshqalar);

–intellektual mulkka nisbatan mualliflik huquqining buzilishi (plagiat) bilan bog‘liq holatlar aniqlanganda;

–mualliflik huquqi obyektlari bilan bog‘liq tortishuvli vaziyatlarda;

–yozma matnni bajarish shartlarini belgilashni talab qiladigan bahsli vaziyatlarda;

–ijtimoiy tarmoq yozishmalarida yashirin profil egalari nutqini identifikatsiyalash;

–ijtimoiy tarmoqdan uzatilgan bir necha profil egalari tomonidan tarqatilgan salbiy mazmunga ega axborotlar bir shaxsga tegishli yoki tegishli emasligini asoslash.

Sud ekspertizalari sirasida sud-xatshunoslik ekspertizasi, sud filologik ekspertizalari bevosita mualliflik atributlari bilan ish kio‘radi. Sud lingvistik ekspertizasida esa, asosan, muayyan shaxsga qarshi qaratilgan salbiy axborot mavjud/mavjud emaslik faktorini baholashga e’tibor qaratiladi. Demak, lingvistik ekspertizaning obyekrti tor doirada amalga oshiriladi. Biroq turli audi, videomateriallar, chat yozishmalari, xatlar, anonim xatlar bilan bog‘liq murojaatlarning aksariyatida ekspertdan muallifga xos atributlarni belgilash savoli qo‘yiladi.

Demak, mualliflikni aniqlash va o‘rnatishga qaratilgan ekspertizalarni tizimlashtirish va qonuniy metodologik asoslarini ishlab chiqish zarur. Sud ekspertizalari negizida sud-lingvistik ekspertizasi faqat shaxsni obro‘sizlantirish bilan bog‘liq holatlarni ko‘rib chiqmasdan, murojaatlar ko‘lamini hisobga olgan holda masalaning bevosita matn, lingvsitik bilimlar bilan hal qilinadigan boshqa jihatlariga ham alohida e’tibor qaratilishi lozim. Mualliflikni o‘rnatish, aniqlash va identifikatsiyalash jarayonida tergovchi, sud, advokat, kriminalist oldida bevosita lingvistik bilamlar orqali yechim topislihi zarur bo‘lgan quyidagi muammoli holatlar yuzaga kelishi mumkin:

1) SMS – yozishmalarda qurilma egasi yuborilgan xabarlarni o‘zi yozganligini rad etsa;

2) o‘zga shaxsning akkauntidan foydalanilgan holda, uning nomidan xabar, komment yozilsa;

3) tilxat, guvohlik ko‘rsatmasi va shu singari hujjatlarni ism-familiyasi qayd etilgan shaxs o‘zi yozganligini rad etsa;

4) ijtimoiy tarmoqda uzoq vaqt davomida foydalanilmagan akkuntdan xakerlik hujumi orqali foydalangan holda, har xil salbiy/taqiqlangan xabarlar yuborilganda;

5) jismoniy yoki yuridik shaxs ustidan tuhmat, obro‘sizlantirish xarakteriga ega bo‘lgan anonim xat yozilganda;

6) suitsid mazmunli matnlarda xat muallifini identifikatsiyalash;

7) anonim xatlar, ijtimoiy-siyosiy xavfsizlikka daxl qiluvchi provokatsion matnlarda mavjud lingvistik belgilar, xususiy atributlar asosida matn muallifi haqidagi ayrim (qaysi hududdan, jinsi, yoshi, kasbi, psixologiyasi) taxminiy identifikatsion belgilarni aniqlash orqali taxminiy portret yaratish.

Albatta, ushbu ko‘rsatilgan jihatlarni to‘liq deb bo‘lmaydi. Biroq yuqorida ta’kidlgan shu singari holatlarda bevosita sinchkovlik, ekspert yondashuvi zarur bo‘ladi. Shu singari holatlar bo‘yicha tegishli tashkilotlardan ekspertiza markazlariga ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi qaror, xat, murojaatlar kelib tushadi. Biroq ro‘yxatdan o‘tkazilgan sud ekspertizalarining birortasida shu singari holatlarni ekspertiza qilish vakolati aks etmagan. Bu esa sud lingvistik ekspertizasining qonuniy metodologik asoslarini yaratishda masalaning ana shu jihatiga e’tibor qartish lozimligini anglatadi. Aytish kerakki, mualliflik atributlarini aniqlashga qaratilgan sud lingvistik ekspertizalarining qonuniy metodologik asoslari yaratilmas ekan, shkallantirilgan ekspert xulosalariga o‘rinli e’tirozlar, qayta ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi murojaatlar soni ko‘payaveradi. Qonuniy metodologik asoslari yaratilgach, ekspertning huquqlari va vakolatlari, burchlari to‘liq o‘z aksini topadi va uning faoliyati rasman qonuniy kuchga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Менглиев Б. Давлат тили ҳақидаги қонун ва адабий тил меъёрлари. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2016, 10-сон.

2. Malcolm Coulthard and Alison Johnson. An Introduction to Forensic Linguistics. NY., Routledge the Taylor & Francis e-Library, 2007, p. 11 – 14.

3. Nicci MacLeod, Tim Grant Whose Tweet? Authorship analysis of micro-blogs and other short-form messages, 2012, p. 210 – 212;

4. Abbasi A.&Chen H. (2005) Applying authorship analysis to extremist-group web forum messages. IEEE Intelligent Systems 20 (5), p. 67 – 75.

5. Efron M.and Winget M. (2010) Questions are content: a taxonomy of questions in a microblogging environment. Proceedings of the American Society for Information Science and Technology 47, p. 1 – 10

Norova Gulsanam Maxsutovna (Navoiy davlat Pedagogika instituti katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasi qoshidagi I.Nasimiy nomidagi Tilchilik instituti doktoranti; gulsanam81ndpi@umail.uz)

URF-ODAT IFODALOVCHI LEKSEMALARDA TABU VA EVFEMIZMLAR

Annotatsiya. *Urf-odat ifodalovchi so‘zlarning ifoda xususiyatlari, urf-odat ifodalovchi leksemalarda tabu va evfemizlarning ifodalanishi haqida fikr yuritilgan. Tabu va evfemizm turkiy xalqlar keng foydalanadigan leksik qatlam bo‘lib, u insoniyat jamiyati shakllanayotgan davrda individ xatti-harakatini jamoa manfaatlariga bo‘ysundirish ehtiyoji bilan bog‘liq ravishda kelib chiqqan bo‘lishi mumkin. Jamiyat taraqqiy etgan sari tabuning bir qismi odat huquqiy me’yoriga aylangan, ko‘pchiligi esa dinga taqiq sifatida kiritilib, uni buzish gunoh hisoblangan. Evfemizm esa so‘zlovchiga aytish noqulay, noo‘rin yoki qo‘pol tuyulgan so‘z va iboralarning sinonimi sifatida paydo bo‘lgan so‘zlar. Bu ilmiy maqola asnosida o‘zbek va ozarbayjon tillarida ularning qo‘llanish doirasi haqida so‘z yuritiladi.*

Аннотация. *Рассматривались особенности выражения обрядовых слов, табу и эвфемизмы в обрядовых лексемах. Табу и эвфемизм-это лексический пласт, широко используемый тюркскими народами, который, возможно, возник в связи с необходимостью подчинения поведения индивида интересам сообщества в период становления человеческого общества. По мере развития общества часть табу становилась правовой нормой обычая, а большая часть вводилась в религию как запрет, нарушение которого считалось грехом. С другой стороны, эвфемизмы-это слова, которые кажутся синонимами слов и фраз, которые говорящему неудобно говорить, неуместно или грубо. В данной научной статье рассказывается о сфере их применения в узбекском и азербайджанском языках.*

Annotation. *The expressive features of tribal expressions have been reflected on the representation of taboos and euphemisms in traditional lexemes.Taboo and euphemism are a lexical layer widely used by Turkic peoples, which may have originated in connection with the need to subjugate individ behavior to the interests of the community during the formation of human society. As society progressed, part of the taboo became the legal norm of custom, while many were included in religion as prohibitions, and it*

was considered a sin to break it.Euphemism, on the other hand, is words that appear as synonyms for words and phrases that seem uncomfortable, inappropriate, or offensive to the speaker. As part of this scientific article, the scope of application of Uzbek and Azerbaijani languages were talk d about.

Kalit so‘zlar: *lisoniy imkoniyat, lingvistik ekspertiza, muloqot madaniyati, tabu, evfemizm.*

Ключевые слова: *языковая возможность, лингвистическая экспертиза, культура общения, табу, эвфемизм.*

Key words: *linguistic opportunity, linguistic expertise, culture of communication, taboo, euphemism.*

Jahon tilshunosligida lisoniy imkoniyatlardan amaliy foydalanishga, til birliklarining nutqda qo‘llanishi va ma‘no-vazifa xususiyatlarini ochib berishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Muloqot madaniyati, ortologiya, amaliy tilshunoslik, lingvistik ekspertiza kabi amaliy tilshunoslik sohalari salmog‘i kun sayin oshib bormoqda.

Bu dunyo miqyosida texnik-texnologik taraqqiyot natijasida ma‘naviyat muammosi dolzarblashayotganligi, mazkur muammolar yechimi markazida shaxsning nutq madaniyati, muloqot salohiyatini rivojlantirish turganligi, tilga ma‘naviyatni yuksaltiruvchi vositalardan biri sifatida munosabatda bo‘lish kuchayib borayotganligi bilan izohlanadi. Shu sababli tilning boy va go‘zal ifoda imkoniyatlaridan biri bo‘lgan tabu va evfemizmlar rolini kengaytirish ijtimoiy ehtiyojga aylanmoqda.

Dunyo tilshunosligida til hodisalarining shakllanish omili, etimologik manbayi, ma‘noviy guruhi, funksional jihati, milliy-mental xususiyatlari bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu tabu va evfemizmlarni ham ortologik hodisa va madaniy muloqot vositasi sifatida gender, ijtimoiy, pragmatik, lingvomadaniy hamdalingvoma‘naviy, leksikografik jihatdan chuqur o‘rganishga imkoniyat yaratdi.[1]

Tillarning geneologik va morfologik qurilishlariga bog‘liq ravishda har bir tilda tabulashgan va evfemik ma‘no fonetik, leksik, morfologik, sintaktik, frazeologik, paremiologik va noverbal vositalar bilan ham ifodalanadi, evfemik ma‘noning namoyon bo‘lishida situativ-pragmatik va ijtimoiy omillar mazkur lisoniy vositalar bilan yaxlitlik hosil qiladi.

Tabu (polinezcha – taqiqlash): 1) ibtidoiy jamiyat bosqichidagi xalqlarda tarqalgan taqiqlash tizimi. Tabuning eng mukammal ko‘rinishi Polineziyada saqlangan. Bu so‘z, aslida, Polineziyada paydo bo‘lib, dastlab, mashhur ingliz dengiz sayyohi J.Kuk tomonidan Yevropaga ma’lum qilingan va bayon etib berilgan.

Polineziya xalqlari diniy e’tiqodlariga ko‘ra, har bir inson tug‘ilishi bilan qudratli g‘ayritabiiy kuch – “mana”ga ega bo‘ladi. “Mana” juda xavfli bo‘lib, birovga tegsa, o‘lim keltirishi mumkin. U tabaqalarga qarab, har xil kuchga ega, qullarda “mana” bo‘lmagan, ammo, aksincha, buyuk sardorlar qudratli “mana” egasi hisoblangan. “Mana” tushunchasi “tabu” so‘zi bilan bevosita bog‘liq. Nimaiki “mana” egasi bo‘lsa, o‘sha narsa xavfli, ya’ni unga tegish man qilingan – tabu qo‘yilgan.

Polineziya xalqlarida juda keng tarqalgan tabu tizimini kim buzsa, rioya qilmasa, qabila boshliqlari, zodagonlar tomonidan qattiq jazolangan. Shuningdek, o‘sha davr tasavvurlariga ko‘ra, tabuni buzgan odamning g‘ayritabiiy kuchlar, ruhlar, xudolar kasallik yoki o‘lim bilan jazolaydi, deb tushunilgan. Orolliklarda xudo va ruhga, kohin va qabila boshliqlariga aloqador bo‘lgan hamma narsa tabulashtirilgan. Tabu tizimi jamiyatda tabaqalanishni ifodalagan. Tabu obyektlari – buyumlar, so‘zlar, hayvonlar va boshqa bo‘lishi mumkin. Aksariyat tabular moddiy buyumlarga taalluqli bo‘ladi.[2]

Tabu insoniyat jamiyati shakllanayotgan davrda individ xatti-harakatini jamoa manfaatlariga bo‘ysundirish ehtiyoji bilan bog‘liq ravishda kelib chiqqan bo‘lishi mumkin. Tabu urug‘chilik jamiyatida inson hayotining muhim tomonlarini, avvalo, nikoh me’yorlariga rioya qilinishi (masalan, urug‘ ichida jinsiy aloqalarning taqiqlanishi)ni tartibga solgan. Jamiyat taraqqiy etgan sari tabuning bir qismi odat huquqiy me’yoriga aylangan, ko‘pchiligi esa dinga taqiq sifatida kiritilib, uni buzish gunoh hisoblangan.

Hozirgi davrda ham tabuning ba’zi ko‘rinishlarini uchratish mumkin. Tilshunoslikda muayyan so‘zlar, iboralar yoki atoqli otlarni qo‘llashni taqiqlash, man etish. Ibtidoiy davrlarda tabiat hodisalarining sirini bila olmagan inson qo‘rquv uyg‘otadigan sehrli va zararli yovuz kuchlardan, jin, arvohlardan, ofatli kasallik va yirtqich hayvonlardan saqlanishning yagona chorasi ularning nomini aytishni man etish, atamaslik deb tushungan. Ayniqsa, kishi nomiga nisbatan tabu keng tarqalgan. Masalan, o‘lganning nomini, dohiy yoki podshohning, ma’budlarning nomini va ba’zi qarindoshlar (qaynota, qaynona, er, qaynog‘a)-

[1] Mamatov A. O‘zbek tili frazeologiyasi shakllanishi masalalari. Filol.fanlari d-ri... diss. avtoref., Toshkent, 1999.

[2] Rustamova D. Metaforik evfemizasiyaning lingvokulturologik va sotsiopragmatik aspektlari. Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref., Fargona, 2018.

ning nomini aytish, ularni ovoz chiqarib chaqirish taqiqlangan va bunday atoqli otlar tegishli tavsifiy iboralar bilan almashtirilgan.

Ovlanadigan, tirikchilik manbayi bo‘lgan hayvon nomlari, kishini seskantiradigan jonivorlar va bosh**q**a voqea-jarayonlar ham ba’zan tabulashtirilgan. Masalan, chayon so‘zi o‘zbek shevalarida eshak, benom, gazanda, ayriquyruq, beshbo‘g‘in va boshqa nomlar bilan atalgan. Hozirgi tillarda o‘lim haqida, og‘ir kasallik haqida to‘g‘ridan to‘g‘ri gapirmaslik, yoqimsiz, noxush narsalarni eslash, eslatishdan qochish odatini ham tabuga kiritish mumkin.

[1]Evfemizm (yun. yeirpegsha – yumshoq ifodalash) – so‘zlovchiga aytish noqulay, noo‘rin yoki qo‘pol tuyulgan so‘z va iboralarning sinonimi sifatida paydo bo‘lgan so‘zlar. Evfemizm salbiy voqelikni atashdan qochish, shunday voqelikning salbiy ta’sirini yumshatish uchun xizmat qilib, kishining izzat-nafsiga tegadigan, unga malol keladigan, hurmatsizlik ifodalaydigan, axloqiy me’yorlarga zid keladigan holatlarning yoki to‘g‘ridan to‘g‘ri aytish mumkin bo‘lmagan maxfiy voqeliklarning salbiy ta’sirini kamaytirish, ularni yashirish, berkitish; noxush xabarni beozorroq, yumshoqroq shaklda yetkazish, ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan, o‘ldi deyish o‘rniga olamdan o‘tdi, ko‘z yumdi, vafot etdi; tug‘di deyish o‘rniga ko‘zi yoridi, yengillashdi kabi iboralardan foydalanish.

Tilda evfemizmning qo‘llanishi tabu hodisasi bilan bog‘liq holda tarixiy-etnografik hodisa sifatida shakllangan. Evfemizm xalqlardagi urf-odat, madaniy saviyaning darajasi, estetik did va etnik me’yorlarning rivojlanishi bilan bog‘liq. Tilning taraqqiyoti bilan uning evfemistik qatlami ham rivojlanadi. Yangicha axloq-odob, yangicha dunyoqarash me’yorlari asosida evfemizmning yangi-yangi shakllari yuzaga keladi.

Tilda muayyan nutq vaziyati talabi bilan vujudga kelgan evfemizmham mavjudki, ularning ma’nosi ko‘pincha matn orqali oydinlashadi. Masalan, “Ra’noni egasiga topshirmagunimizcha, – dedi Nigor oyim, – quyilmaydiganga o‘xshaydi” (A.Qodiriy) jumlasida nutq odobi nuqtayi nazaridan erga bermoq iborasi o‘rnida egasiga topshirmoq shaklidagi evfemizm qo‘llangan. Evfemizmilmiy va rasmiy uslublarda keng qo‘llanadi.

Lingvistika ilmida tabu va evfemizmlar XIX asrning oxirlaridan boshlab tadqiq etila boshladi. A.Iaye tabu va evfemizmlarning lingvistik tomonini o‘rganib, mazkur hodisalarni so‘z semantikasining o‘zgarishi asosida yuzaga kelishini belgilaydi. Tabu va evfemizmlarni har tomonlama o‘rganish faqatgina XX asrning 60–80-yillaridan S.Vidlaka, Dj.Keyni, Dj.Lorenslar tadqiqotlari bilan boshlab berildi. Tabu va evfemizmlar borasidagi ba‘zi munozarali qarashlarga qaramay, tadqiqotchilar ularning nutqiy jarayonda reallishishi borasida yagona ekstralingvistik omillar: nutqiy akt, nutqiy situatsiya sabab, deya talqin etishlarida ularning fikrlari mushtarakligini ko‘rish mumkin. Bunday holda, hodisani o‘rganishning sotsiolingvistik yo‘nalishi ustunlik qiladi.[2] Shuning uchun evfemizmlar murakkab ko‘p qirrali lingvistik hodisa sifatida uchta o‘zaro bog‘liq omillar nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi:

1) ijtimoiy evfemizmlarni yuzaga keltiruvchi: urf-odat, axloqiy va diniy qadriyatlarga ega sotsial-ijtimoiy evfemizmlar;

2) salbiy emotsiyalarni chaqiruvchi, nafratni qo‘zg‘atuvchi leksemalarning o‘rnini bosuvchi asosida nozik argumentlarni atashni ko‘zda tutuvchi ruhiy evfemizmlar;

3) disfemistik iboralarning ko‘payishiga sabab bo‘luvchi aynan lingvistik omilning talabi asosida, ya‘ni, qo‘pol so‘zlarning o‘rnini almashtirish zarurati bilan yuzaga keladigan evfemizmlar.

Tabulashgan va evfemizmlashgan leksik birliklarning xususiyatlari rus va xorijiy tilshunoslar J. Eytoning “Evfemiyazmlar”, “Tabu va evfemizmlar leksikasining inglizcha-ruscha lug‘ati”, M.Kansevaning “Til tabu va evfemiyasi”, B.A.Larinaning “Evfemizmlar haqida”, S.Vidlaksning “Til nazariy maydoni fonida evfemizmlarning roli”, o‘zbek tilshunosi N.Ismatullayevning “Zamonaviy o‘zbek tili efemizmlari” nomli ishlarida o‘rganilgan.

Dunyo tilshunosligida evfemizm hodisasi keng tadqiq qilingan. L.A.Bulaxovskiy, A.A.Reformatskiy, B.A.Larin evfemizmni tarixiy nuqtayi nazardan qadimiy tabu asosida o‘rgangan. Rus tilida evfemizmlashuvning vosita va maqsadlarini tasvirlash bilan L.P.Krisin, V.P.Moskvin, V.Z.Sannikov, Y.P. Senichkina shug‘ullangan. A.M.Katsev, N.S.Boschayeva, N.L.Saakayan, Y.S.Baskova va Y.O.Miloyenko dissertatsiyalarida ingliz va rus tillaridagi evfemizmlarning xususiyatlari, G.A.Vildanovaning “Эвфемия и принсип вежли востив со времен номанглийском язике: гендерний аспект” nomli dissertate-

[1] Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. T., “O‘qituvchi”, 1992.

[2] Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. T., “O‘qituvchi”, 1981.

siyasida ingliz tili evfemizmlarining gender jihatlari atroflicha yoritilgan, N.Baskakov esa oltoy xalqlari tillaridagi evfemistik nominatsiyalarning muammolarini ochib bergan.

O‘zbek tilshunosligida N.Ismatullayev va A.Omonturdiyevning ilmiy ishlarida evfemizm hodisasi, ularning uslubiy xususiyatlari, chorvador nutqida qo‘llanuvchi evfemizmlarning lingvistik o‘ziga xosliklari maxsus tadqiq qilingan. A.Omonturdiyev evfemizmni uslubshunoslikning tadqiqot obyekti sifatida keng doirada o‘rganib, “O‘zbek nutqining evfemik asoslari”, “Professional nutq evfemikasi” nomli monografiyalarida, “Bir so‘z lug‘ati”, “So‘z qo‘llash san’ati”, “O‘zbek tilining qisqacha evfemik lug‘ati” kabi ishlarida o‘zbek nutqining evfemik asoslarini tadqiq qiladi.

A.Mamatov, Z.Xolmanova, X.Qodirova va D.Rustamovaning ilmiy ishlarida esa frazeologizmlarning shakllanishiga evfemik va disfemik birliklarning ta’siri, “Boburnoma” asarida qo‘llangan evfemizmlar, mualliflik evfemizmlari hamda evfemizmlarning metaforik xususiyatlari tahlil etilgan.[1] 1980-yillardan keyin chop etilgan tilshunoslikka oid darslik va qo‘llanmalarning so‘zshunoslik hamda uslubiyatga bag‘ishlangan o‘rinlarida evfemizm hodisasi izohlangan. “Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari” darsligida va 1983-yilda nashr etilgan “O‘zbek tili stilistikasi” o‘quv qo‘llanmasida evfemizm hamda kokofemizm (disfemizm) xususida ayrim umumiy ma’lumotlar berilgan edi. Ammo o‘zbek tilshunosligida urf-odat leksemalarining tabu va evfemistik imkoniyatlari lingvomadaniy, lingvoma’naviy jihatlari deyarli o‘rganilmagan tadqiqot obyekti sifatida maxsus o‘rganilmagan.

Urf-odat, marosim semali birliklar paremiologik birliklar o‘rtasida ham ko‘p uchraydi. Paremiologik birliklarni guruhlashda “marosim” semali birliklar mikromaydonini tashkil etgan elementlarning mazmuniy differensial belgilariga ma’lum darajada tayanib ish ko‘riladi.

1. Tug‘ilish bilan bog‘liq tushunchalar asosidagi paremalar. Bunday qurilmalar tarkibida beshik, chilla, beshik to‘yi, sumak, alla singari leksemalar qatnashib, bevosita tug‘ilish davriga bog‘liq ma’lum marosimlarga ishora kuzatiladi. Masalan: Beshik bolasi – bek bolasi. Beshikdagi bolaning bek bo‘larin kim bilar? Beshikdagi bola ming turlanadi. Beshikdagiga tegma betingni yular kabi maqollarda beshik so‘zi qo‘llangan.

Bolasiz xotin sumakka to‘ymas ifodasi Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedovlar tomonidan shunday ta’riflanadi: “Odatda, xotinlar ko‘zlari yorishidan” oldin chaqaloq uchun zarur bo‘lgan asbob-anjomlarni hozirlay boshlaydilar. Aslida, mazkur urf-odat tabu va evfemistik xarakteriga ko‘ra, majoziy ma’noda molga xirsi bo‘lgan, o‘ziga kerak bo‘lmagan narsalarni ham yig‘averadigan odamlarga qarata kinoya tarzida aytilishi tus olgan.

O‘zbeklar urf-odatlarida ayrim holatlarda beshigini tebratish, oq sut berish tarzidagi barqaror birikmalar ham uchrab turadi. Bunday yaxlit qurilmalar ham bevosita urf-odatlarimiz, an’analarimiz natijasida vujudga kelgan, ya’ni, o‘zbek xalqida tarbiyalab voyaga yetkazgan ota-onaning hurmatini joyiga qo‘yish, uni rozi qilish juda katta mas’uliyat hisoblanadi.

2. Nikoh bilan bog‘liq tushunchalarni anglatuvchi urf-odat birliklari asosidagi paremalar.[2]

Mazkur ifodalar tarkibida to‘y, kelin, kuyov, quda, qaynana, qaynisingil, qalin va boshqa urf-odat leksemalari denotativ va motivatsiya munosabatiga kirishadi. Shunga ko‘ra, o‘zbek tilida nikoh nomi bilan aloqador urf-odat leksemalari asosidagi maqol va matallar ko‘p uchraydi. Ularda xalqimizning azaliy an’analari, urf-odatlari ma’lum darajada aks etadi. Maslahatli to‘y tarqamas; O‘lganiga chidasang, qo‘y qil, yeganiga chidasang, to‘y qil. Osh-otliniki, to‘y-to‘nliniki singari qator paremiologik birliklarda to‘y leksemasining ma’nolari doirasidagi “marosim”, “urf-odat”, “ziyofat”, “xursandchilik” kabi semalar kuzatiladi.

3. Motam bilan bog‘liq tushunchalarni anglatuvchi urf-odat leksemalari asosidagi paremalar.

Ushbu guruhga tegishli tabu va evfemizmlarda aza, janoza, ma’raka, qa’da, hayit singari urf-odat leksemalari ma’lum ma’nolari orqali ishtirok etadi. Jumladan: Yomonning janozasidan yaxshining hikoyasi foydali; Kimga – to‘y, kimga aza. Azalik joyda odmi bo‘l tarzidagi paremalarda aza, janoza leksemalariga xos “marosim”, “ko‘pchilikka xos”, “motam, qayg‘u” semalar mavjud.

Ma’rakada topib gapirgan – dono, O‘zini tutib gapirgan ham – dono, Osh ko‘p bo‘lsa, qa’da ko‘p maqollarida ishtirok etgan ma’raka, qa‘da leksemalari ma’nolari tarkibidagi “marosim”, “ko‘pchilikka xos”, “motam, qayg‘u”, “yig‘in” kabi semalar kuzatiladi.

4. Farzand, ota-ona bilan bog‘liq tushunchalar asosidagi urf-odat ma’nosini ifodalovchi paremiologik tabu va evfemizmlar. Bunday guruhga o‘g‘il, qiz, ota, ona singari leksemalarning xilma-xil

[1] Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov X. O‘zbek tili stilistikasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1983.
[2] Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab... “O‘zbek tili va adabiyoti”, Toshkent, 2012.

ma’nolarini aks ettiruvchi paremalar kiradi. Masalan: Kuyovning xo‘rdasidan – o‘g‘ilning yunudisi yaxshi; O‘g‘ilnikini o‘ynab yeysan, qiznikini o‘ylab yeysan. Qiznikida go‘sht yegandan o‘g‘ilnikida musht yegan yaxshi kabi qurilmalarda muayyan semalar aks etgan.

Qizni so‘raganga ber, qimizni suvsaganga. Yaxshi yerga bersang qizni, silay-silay sulton qilur, Yomon yerga bersang qizni, ura-ura ulton qilur, qabilidagi maqollar orqali qiz uzatish muammolari, ayrim urf-odatlarimiz sezilib turadi. Qiz leksemasining “farzand”, “yaqinlik”, “jins”, “noziklik” semalari yuzaga chiqqan. Ota-onaning hurmati, ularni ardoqlash an’analari ham maqollar vositasida ko‘rinadi.

Urf-odat semali birliklar mikromaydoniga mansub lug‘aviy birliklar orasida evfemik vosita sifatida qo‘llanuvchi birliklar ham uchraydi. Bunday vositalar boshqa urf-odatni ifodalovchi lug‘aviy birliklar bilan bir paradigmani tashkil qiladi. Masalan, o‘lmoq leksemasi bir tomondan vafot etmoq, olamdan o‘tmoq, o‘zini topshirmoq, rixlat qilmoq, safar qilmoq, qazo qilmoq, ko‘z yummoq, qaytish qilmoq singari yuzlab ma’nodoshlariga, ikkinchi tomondan, to‘ng‘iz qo‘pmoq, yer tishlamoq kabi ikkinchi turdagi ma’nodoshlariga egadir. Bulardan birinchi qatordagilar o‘lmoq leksemasi orqali ifodalangan tushunchaning yumshoqroq ifodasi bo‘lsa, ikkinchi qatordagilar uning qo‘pol ifodasi hisoblanadi.

Professor N.Mahmudov evfemistik vositalar borasida so‘z yuritib, ushbu leksema ma’nosining ifodalanishi to‘g‘risida shunday to‘xtaladi: “Aytaylik, yaqin kishisini yo‘qotgan odamning hissiy-ruhiy holati ma’lum. Shunday odamdan ko‘ngil so‘rash, unga ta’ziya bildirish uchun tuziladigan nutqda “o‘lmoq” ma’nosini ifodalash uchun aynan o‘lmoq so‘zini tanlash o‘rinli emas, bu so‘z so‘zlovchi va tinglovchi muloqotidagi mantiqiy-axloqiy munosabat ruhiga mos emas. Bu mazmundagi nutqning jo‘yaliligini ta’minlash maqsadida mazkur so‘zning vafot etmoq, o‘tib qolmoq, olamdan o‘tmoq, olamdan ko‘z yummoq, u dunyoga ketmoq, boqiy dunyoga rixlat qilmoq kabi “yumshoqroq” muqobillari qo‘llanadi”.

S.P.Vaynshteyn juda ko‘pgina xalqlarda, jumladan, Tuva tilida uchraydigan atoqli otlarning ko‘pchiligi oilada bolalarning o‘limi tufayli yomon ruhlardan saqlash ma’nosida ularning nomi tilga olinmagan, yoki “ko‘cha” nomlari qo‘yilgan, uning biror xususiyati hisobga olingan. Masalan, Chimit-O‘lmas, O‘g‘il bola, Qiz, Mergan kabi. Bu odat dunyoning ko‘pgina xalqlarida borligi yoki xotin eri va uning qarindoshga urug‘larining nomlarini aytmasligini yozgan. Bu bevosita o‘zbek va ozarboyjon xalqlarining ham qon-qoniga singib ketgan qadriyatdir.

Tabu aslda etnografik tushuncha bo‘lsa-da, keyinchalik, lingvistik termin sifatida ham qo‘llanila boshlangan. Shu sabab professor Adil Ahmedov ham etnografik va lingvistik tabu terminlarini qo‘llagan. Etnografik tabu, asosan, tarixiy-etnografik voqeliklarni, lingvistik tabu, asosan, til hodisalarini, shu bilan bog‘liq shakllangan evfemiologiya – uslubshunoslikni o‘rganadi. Bu uchala soha bir-biridan uzilgan, alohida sohalar emas, ular tilshunoslikning mustaqil sohasi bo‘lmish etnolingvistikaning o‘rganish obyektidir. Bu fan–etnografiya, lingvistika va nutqshunoslikning shunchaki qo‘shilmasi emas, balki yangi shakllangan yaxlit obyekt bir butun fanning fazalaridir. Zotan, lingvistik tabu zaminida xalqlar tarixi, urf-odati, rasm-rusumi, axloq-odobi, xulq-atvori, udumlari, ruhiy-psixologik, mifologik e’tiqodi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi (mentaliteti) mujassam. Har qanday etnografik tabu – etnografik hodisadir. Masalan, sovchi qo‘yish, unashtirish udumi (etnografik hodisa) munosabati bilan sovchi nutqi tabulashtiriladi ya’ni qizingiz Mehrinisoni o‘g‘lim Toshtemirga xotinlikka bering – qızın Mehrinisonu oğlum Toştəmirə ərə ver – deyilmaydi, aksincha, qizingiz Mehrinisoni o‘g‘limiz Toshtemirga so‘rab keldik – Qızınız Mehrinisonu oğlumuz Toştəmirə istəməyə gəlmişik – deyiladi. Bu o‘zbek va ozarboyjon xalqlarining urf-odat hamda qadriyatlari uyg‘unligidandir.[1]

Ibtidoiy odam tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonunlarini bilmagan. Natijada sayyoralar harakati, holati (planetlərin hərəkəti, mövqeyi): oy va quyosh chiqishi, botishi, tutilishi, qizarishi, kuyishi, yangi oy chiqishi, to‘lishi (ay və günəşin doğuşu, batması, tutulması, qızarması, yanması, yeni ayın çıxması, tam);

– yulduzlar harakati, holati (ulduz hərəkəti, mövqey): katta-kichikligi, uchishi, so‘nishi, somon yo‘li, hulkar, tarozi, yetti qaroqchi, katta ayiq, kichik ayiq, chaqmoq, momaqaldiroq (böyük və kiçik, uçan, solğun, Samanyolu, Hulk, tərəzi, yeddi quldur, böyük ayı, kiçik ayı, ildırım, ildırım);

–bulut, bulutlar harakati, rangi (bulud, buludların hərəkəti, rəng;); qor, qizil qor, yomg‘ir, qurbaqa, ilon, tosh, qum kabilar yog‘ishi (qar yağması, qırmızı qar, yağış, qurbağa, ilan, daş, qum) kabi doimiy (yoki mavsumiy) yuz beradigan jarayonlar ilohiylashtirilgan. Bu esa bevosita yaxshilik va yomonlikni farqlashga undash bo‘lgan, aslida. Bular o‘rtasida doim kurash bo‘ladi. Masalan, yoz g‘olib kelsa, qish yengilgan bo‘ladi, o‘z o‘rnini baqorga bo‘shatib beradi (yay qalib gələndə qış məğlub olur, yerini soyuğa verir). Bu g‘oya Maqmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit-turk” asarida ham bor. Yorug‘lik (kun) g‘olib

[1] Ne’mat Mahkamov, Ismatullayev N. Эвфемизм в современном узбекском языке. T., 1963.

chiqsa, qorong‘ulik (tun) chekinadi (Tong otdi-kechani otdi shundan qolgan). Yil yaxshi kelib, to‘kinsochinlik bo‘lsa, ezgulik kuchlari yovuzlik ustidan g‘alabasi, aksincha, baxtsizlik (to‘fon, zilzila, ocharchilik, qurg‘oqchilik, vabo, o‘lim kabilar) yuz bersa, yovuzlik kuchlari (shayton, jin, dev, alvasti kabilar)ning g‘alabasi deb tushunilgan. Bu g‘oya, keyinchalik, ilohiy adabiyotlarda ham aks etgan.

Islomda hayvonlardan, xususan, qo‘y, it, ot, tuya (qoyun, it, at, dəvə) madaniylashtirilgan. Qo‘y eng pok – behishtdan chiqqan. Ismoil alayhissalom joniga badal sifatida ham jannatdai qo‘chqor yuboriladi. Shundan boshlab odamni qurbonlikka so‘yish man ztiladi. (Qoyun ən təmizdir – cənnətdən. İsmayılın həyatına töhfə olaraq cənnətə bir qoç göndəriləcək. Bundan sonra qurban kəsmək qadağandır).

Ot – inson najotkori, yo‘ldoshi. “Laylat ul-me’roj” tunida Muhammad alayhissalomni Alloh huzuriga yetkazgan, asli nurdan bo‘lgan Buroq ham ot; olti oylik yo‘ldan Hazrat Alining nidosini eshitib yetib borgan Duldul ham ot (“Bobo Ravshan”), Alpomishni murodga yetkazgan nazarkarda, to‘rt yarim gaz qanoti bor Boychibor ham ot – (At insanın xilaskarı, yoldaşıdır. Buraq həm də əslən nurdan olan bir atdır ki, Məhəmməd sallallahu aleyhi və səlləm “Leylətül-merac” gecəsində Allah dərgahına gətirdi; Altı aylıq yoldan sonra Həzrət Əlinin nidasını eşidib gələn Düldül Ham (“Rövşən baba”), Ayapomışı könlünə çatdıran dörd yarım qaz qanadlı at Boyçibor).

Turkiy xalqlardaya’ni o‘zbek va ozarboyjon tilida nom berishning odatdagi tartib va talabidan tashqari, quyidagi sabablari ham mavjud:

a) rasmiy nom bilan yashayotgan bola yoki o‘smir surunkali kasal bo‘laversa, nomi (xususan, Alloh, payg‘ambar, avlyyo yoki umuman, buyuklar nomi bilan atalgan bo‘lsa, nomni ko‘tarolmadi deb hisoblanib) qaytariladi yoki u kamtarona evfemik bir nom bilan almashtiriladi. Natijada, bola qo‘shaloq nom (bir rasmiy, bir evfemik atama)ga ega bo‘lib qoladi. Bu nomning ikkinchisi himoyalovchi, saqlovchi nom sifatida faollashib ketadi;

b) oilada bola tura bermasa, tug‘ilib o‘laversa, navbatdagi tug‘ilgan chaqaloqqa, o‘g‘il-qizligidan qat’iy nazar, O‘lmas, Tursun, Turg‘un, Umrzoq, Sotiboldi, Xudoyberdi, Yashar, Turdiboy, Bo‘ri, Arslon (Ölümsüz, Dursun, Turğun, Yaşar, Börü) kabi balo-qazodan himoyalovchi, asrovchi, yomon ko‘zdan saqlovchi, yovuz ruhlarni chalg‘ituvchi ot yoki evfemik atamalar qo‘yiladi;

d) ayrim sosial qatlam (masalan, shoirlar) ma’lum maqsad va niyat bilan o‘zlariga taxallus tanlaydilar yoki laqab orttiradilar. Bu taxallus yoki laqab bora-bora faollashib, rasmiy atamaga aylanadi. Chaqaloqlik ism kishilar xotirasidan uzoqlashadi. Hozirgi ko‘pgina yoshlar Ulug‘bek, Fuzuliy, Muqimiy, Habibiy, Chustiy, Shayxzoda, Oybek, Uyg‘un (Uluqbəy, Füzuli, Muqimi, Həbibi, Çusti, Şyeyxzadə, Öybək, Uyğun)larning asl nomlarini bilmaydilar. Bundan qat’iy nazar, taxallus va laqablar muomala madaniyati rivojiga evfemik nutq taraqqiyotiga hissa bo‘lib qo‘shiladi.

Nutqning etik-estetik talab normasi tabulashtirilgach, ochiq yoki to‘g‘ridan to‘g‘ri tilga olish noqulay bo‘lgan voqeliklar, xususan, eng ko‘p murojaat vositalarining evfemalashtirilishiga asos bo‘ladi Quyidagi matnlarga e’tibor beraylik:

1. Jon olishga kelgan Azroil Payg‘ambarimizga yuzlanib: Ey, Muhammad, Alloh Taolo Sizga muntazir, – dedi. Sarvari olam bu so‘zni eshitiboq: – Ey Azroil, o‘z ishingizga kirishing, dedilar. Shu tariqa, Muhammad alayhissalom dunyoyi foniydan dunyoi baqog‘a safar qildilar (Can almağa gələn Əzrail Peyğəmbərimizə üz tutub dedi: Ey Məhəmməd, Allah-Təala səni gözləyir. Bu sözü kainatın Rəbbi eşitsin: - Ay Əzrayıl, get işinə, dedilər. Beləcə Məhəmməd sallallahu aleyhi və səlləm fani dünyadan bütün dünyaya səyahət etdi).[1]

2. Husayn Boyqaroga sevimli xotinining o‘limi haqida Navoiy (Nəvai sevimli həyat yoldaşının Hüseyn Boyqaroya vəfatı haqqında): Sarvigul soyasida so‘ldi gul, netmoq kerak? (Bir sərv kölgəsində solmuş çiçək, onu çıxarmaq lazımdır?) tarzida xabar bergan. Husayn Boyqaro (Hüseyn Boykara): Sarvdin tobut yasab, guldin kafan bichmoq kerak (Sərvdən tabut, güldən kəfən etmək lazımdır) deb javob bergan.[2]

3. Turkiy xalqlarda har bir erkak o‘z halol juftini qizi yo o‘g‘li nomi bilan atab chaqiradi. O‘z xotinining ismini aytib chaqirish yaramaydi. Agar ayolining ismi – Farida, qizining ismi – Hadicha bo‘lsa, mo‘min-musulmonchilik sharmu hayosi yuzasidan ayolini Hadicha deb chahiradi. Aksar ona-bola “labbay”, deydi. Shunda oilaning haqiqiy egasi bo‘lgan ota. Kattangni aytayapman, kattangni! deydi. Hatto shunda ham Farida demaydi (Türk xalqlarında hər kişi halal yoldaşını qızının və ya oğlunun adı ilə çağırır. Arvadını onun adı ilə çağırmaq düzgün deyil. Əgər arvadının adı Fəridə, qızının adı isə Hədiçə olsa,

[1] Ларин В.А. Об эвфмеизмах. Проблемы языкознания. Сб.статей, посвящ. 75-летию акад. И.И.Мещанинова –Л., ЛГУ, 1961.

[2] Крысин Л.П. Эвфмеизм современной русской речи [электронные ресурсы]. Режим доступа.

mömin-müsəlman həyadan arvadını Hədiçə çağırar. Əksər ana və uşaq "labbay" deyir. Sonra ailənin əsl sahibi olan ata: Kəttanq deyirəm, Kattang! deyir. Onda da Fəridə demir).

Tabu va evfemizmlar qo'llanilish doirasi hamda nutq egasining muomala madaniyati, so'zlovchi va tinglovchining salohiyatidan kelib chiqqan holda rang tanlanadi. Nafaqat so'zlashuv jarayonida, balki badiiy adabiyotda ham tabu va evfemizmlarning keng tarqalganiga guvoh bo'lamiz. Bu tilning ma'no mazmun imkoniyatlarining ko'pligini anglatadi. Endilikda bunday birliklar faqatgina yozuvchi yoki shoirlar, jurnalistlar asarlarida ifodalanibgina qolmay, shu tilda muloqot qiluvchilarning, qaysi jins vakili bo'lishidan qat'iy nazar, nutqida o'z aksini topsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Tabu va evfemizmlar xushmuomalalik hamda yuksak saviyali muloqot madaniyatining mahsulidir. Bu, o'z navbatida, har bir so'zlovchini tilning go'zal va boy imkoniyatlarini ko'rsatib berishga undaydi.

Solijonov Muhammadjon Zokirjon o'g'li (Qo'qon davlat Pedagogika instituti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); solijonovmuhammadjon@gmail.com)

LINGVOKULTUROLOGIYA ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHI SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada til va madaniyat chambarchasligini o'rganuvchi lingvokulturologiya fani zamonaviy tilshunoslikning alohida yo'nalishi sifatida tadqiq etilgan.Shuningdek, maqolada tilshunoslikda antropotsentrizm talqini, til va madaniyat tadqiqining metodologik asoslari kabi muammolar ham yoritib o'tilgan.*

Аннотация*. В данной статье исследуется наука лингвокультурология, изучающая взаимосвязь языка и культуры, как отдельное направление современного языкознания. Также в статье рассматриваются такие проблемы, как интерпретация антропоцентризма в языкознании, освещаются методологические основы исследования языка и культуры.*

Annotation*. This article explores the science of linguoculturology, which studies the relationship between language and culture, as a separate area of modern linguistics. The article also discusses such problems as the interpretation of anthropocentrism in linguistics, highlights the methodological foundations of the study of language and culture.*

Kalit so'zlar: *til, madaniyat, antropotsentrizm, lingvokulturologiya, milliy til, til sohiblari, olamning lisoniy manzarasi.*

Ключевые слова*: язык, культура, антропоцентризм, лингвокультурология, национальный язык, лингвисты, языковая картина мира.*

Key words*: language, culture, anthropocentrism, linguoculturology, national language, linguists, language picture of the world.*

V.A.Maslova lingvokulturologiya rivojlanishidagi ikki davrni ajratib oladi: «Birinchi davr – fanning rivojlanish asoslari bo'lgan V.Gumboldt, A.Potebnya, E.Sepir va boshqalar asarlari, ikkinchi davr – lingvokulturologiyaning mustaqil tadqiqot sohasi sifatida shakllanishi. Ilm-fan rivojlanish dinamikasi biz ostonasida turgan yana bir uchinchi davrni oldindan aytib berishimizga imkon beradi, ya'ni, bu tilshunoslikning fundamental sohasi lingvokulturologiyaning paydo bo'lishidir».[1]

Lingvokulturologiya madaniyatshunoslik, etnologiya, psixologiya va umumiy tilshunoslik kabi sohalar tadqiqini o'z ichiga oluvchi yaxlit fan sohasi hisoblanadi. Tilshunoslik uchun o'rganish obyekti bo'lgan an'anaviy til ushbu fan sohasida madaniyatni yaratish, rivojlantirish va saqlash vositasi sifatida tavsiflanadi.[2] Lingvokulturologiyaning asosiy diqqat markazi muayyan dunyoni uyg'unlikda olamning lisoniy manzarasini shakllantiradigan konsepsiyalar yordamida tasniflashga qaratilgan.[3] Asosiy maqsad biror til strukturasi va til sohibi fikrlashi o'rtasidagi qat'iy korrelasiyani nazarda tutadigan «mental-til majmuyi» kabi hodisani o'rganishda namoyon bo'ladi.[4]

Til va madaniyat munosabatini, tilda madaniy qarashlarning ifodalanish darajasini tahlil qiluvchi lingvokulturologiya sohasida dunyo xalqlarining milliy-madaniy, qadimiy hamda zamonaviy qarashlari, urf-odat, an'ana, qadriyatlarning muayyan xalq nutqida ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi.[5]

---

[1] Маслова В.А. Введение в лингвокультурологию. Учебное пособие, Москва, "Наследие", 1997, с. 54.

[2] Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб, заведений, Москва, Издательский центр «Академия», 2001, с. 208.

[3] Воробьев В.В. Лингвокультурология (теория и методы). Москва, 1997, с. 32.

[4] Красных В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология. Москва, 2002, с. 12.

[5] Tosheva D.A. Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari. Fil.fan. PhD diss., Toshkent, 2017, 17-bet.

Lingvokulturologiyaning vazifalaridan yana biri tilning milliy-madaniy vositalarini o‘rganishdir. Bu holatda inson (biror millat vakili) xarakteri, tashqi ko‘rinishi, o‘zini tutishi va so‘zlashining she’riy va nasriy matnlar, frazeologizm va metaforalar, maqol va matallar bilan ifodalanishining lingvokulturologik hodisa sifatida ko‘rishimiz mumkin. Ularda nafaqat til markerlari, balki lingvokulturemalar ham mavjud.

Lingvokulturologiyaning obyekti madaniyat va unga aloqador qadriyatlar va afzalliklar haqidagi ma’lumotlarni ifodalovchi til va shu tildan foydalanib, ushbu madaniyatni yaratuvchi inson o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni o‘rganishdir. Obyekt bir necha fundamental fanlarning tutashuvi, ya’ni, lingvistika va madaniyatshunoslik, etnografiya hamda psixolingvistika kesimida o‘rganiladi.[1]

Madaniyatda majoziy, etalon, tasviriy-metaforik ma’nolarga ega bo‘lgan va insonlar ongi natijalarini umumlashtiruvchi, ya’ni, arxetipik va prototipik afsona, marosim, folklor va diniy diskurslar, she’riy va nasriy matnlar, frazeologizm va metaforalar, belgi va paremiyalar (maqol va matallar)ni umumlashtiruvchi til birliklari ushbu fan predmeti hisoblanadi.[2]

Olimlar lingvokulturologiyani turlicha talqin qilishadi. V.N.Teliya fikricha, lingvokulturologiyaning obyekti nafaqat millat doirasidagi madaniy ma’lumot, balki umuminsoniy doiradagi madaniy ma’lumotlar hamdir. Masalan, «Injil» va «Qur’on»dagi turli elatlarga mos keladigan madaniy universaliyalar.[3]

Lingvokulturologiya til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatni, etnik mentalitetning tilda ifodalanishi va amalga oshishini tadqiq etadi.[4] Lingvokulturologiyaning asosi – aniq madaniy konseptlarning semantik belgilarining o‘ziga xos xususiyatlarini sistemaga solishga qaratilgan.[5]

Y.M.Vereshagina va V.G.Kostomarov lingvomamlakatshunoslik va lingvokulturologiya kabi turlarni farqlashadi. Ularning fikricha, lingvomamlakatshunoslik aynan bir tilda o‘z aksini topuvchi o‘sha tilga xos milliy realiyalarni o‘rganadi. Bular ekvivalentsiz til birliklaridir.[6]

V.A.Maslova lingvokulturemani quyidagi turlarga bo‘linishini ta’kidlaydi: 1) ekvivalentsiz leksika va lakunalar; 2) mifologik til birliklari, tilda o‘rnashib qolgan arxetiplar, urf-odatlar, marosim va e’tiqodlar; 3) paremiologik til birliklari; 4) tilning frazeologik fondi; 5) etalonlar, stereotiplar, simvollar; 6) metafora va lisoniy obrazlar; 7) tillarning stilistik qatlami (adabiy va noadabiy shakllar); 8) nutqiy xulq; 9) nutq madaniyati.[7]

V.V.Vorobevning fikricha, «Lingvokulturema til belgisining shakli va ushbu belgini ifoda etadigan madaniy ma’no va mazmun majmuyidir. Lingvokulturema til belgisining chuqur mazmuniga o‘zining tarkibiy elementi sifatida potensial mavjud bo‘lgan muhim ma’noni beradi».[8]

Olam manzarasini inson tilida aks ettirish masalasini o‘rganishda, odatda, quyidagi triada (uch tushuncha) asos qilib olinadi: atrof-muhit, inson miyasida muhit tasviri va bu tasavvur natijalarining tildagi ifodasi. Ushbularga tayangan holda, inson atrof-muhitni o‘z tili orqali aks ettiradi, deb hisoblash mumkin.

Shu munosabat bilan, so‘z birikmalari, frazeologik birliklar, metaforalar, ramzlar va boshqa uslubiy qurilmalar keng ko‘lamda o‘rganiladi. Buning bari xalq madaniyati, mentaliteti haqidagi bebaho ma’lumotlar manbaidir; ularda afsonalar, rivoyatlar, urf-odatlar, xalq e’tiqodi, ijtimoiy tuzum va mafkura aks ettirilgan.

Til madaniyat bilan chambarchas bog‘liq. Til madaniyatda rivojlanadi va uni ifoda etadi. Til o‘z birliklarida madaniyatni asraydi va uni avlodlarga yetkazadi. Lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik oralig‘ida paydo bo‘lgan va tildagi millat aksini o‘rganuvchi fan. Til madaniy ahamiyatga molik ma’lumotlarni o‘zida jamlaydi va saqlaydi. A.Abduazizov e’tiroficha, linvokulturologiya – til va madaniyat, o‘zaro madaniy masalalarni ilmiy tadqiq etadi. Bu soha faqat madaniyat bilan emas, balki u orqali turli milliy urf-odatlar, diniy hodisalar, milliy konseptlar, dunyoning til orqali ongli his qilish vositalarini o‘rganadi. Dunyoning til xaritasi, umuman, ularning insonlar ongidagi mantiqiy ifodasi bilan

---

[1] Маслова В.А. Shu manba. С. 36.

[2] Сабитова З.К. Лингвокультурология. Учебник, Москва, “Флинта”, 2013, с. 10.

[3] Телия В.Н. Метафоризация и её роль в создании языковой картины мира. Роль человеческого фактора в языке. Язык и картина мира. Москва, “Наука”, 1988, с. 203.

[4] Телия В.Н. Рефлексы архетипов сознания в культурном концепте «родина». Славянские этюды. Сборник к юбилею С.М.Толстой. Москва, 1999, с. 466 – 476.

[5] Красных В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология. Курс лекций, Москва, 2002, с. 12.

[6] Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Лингвострановедческая теория слова. Москва, “Рус. язык”, 1980, 320 с.

[7] Маслова В.А. Shu manba.

[8] Воробьев В.В. Лингвокультурология (теория и методы). Москва, 1997, с. 48.

mos keladi. Bu masalani kengroq va chuqur ilmiy o‘rganish lingvokulturologiya va lingvokognitologiya bilan bog‘liqdir.[1]

Demak, lingvokulturologiyaning maqsadi tilning o‘z tarkibiy qismlarida namoyon bo‘ladigan madaniyatni saqlab qolish va uni verballashtirish usullarini o‘rganishdir. Tilning madaniyat orqali tadqiqi esa tobora dolzarblashib bormoqda, inchunun, zamonaviy tilshunoslikda yangi lingvoma’naviyatshunoslik[2] kabi soha paydo bo‘layotgan va yuksak natijalar kutilayotgan bir vaqtda tilshunoslikda anchadan buyon o‘z fundamental bazasiga ega lingvokulturologiyani tadqiq etmaslik fan rivojidan o‘zini chetga olishdek tuyuladi.

Soliyeva Muhayyo Toirovna (Jizzax Politexnika instituti “Xorijiy tillar” kafedrasi katta o‘qituvchi; soliyevamuhayyo@gmail.com)

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI LEKSIK-FRAZEOLOGIK SINONIMIK QATORLARNING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya. *Maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi lekcik-frazeologik sinonimik qatorlarning qiyosiy tahlili, ularning leksik tarkibi, o‘xshash va farqli jihatlari misollar yordamida tahlil qilingan. Nutqimizdagi faol iboralarning ma’no sinonimlari va nutqiy sinonimlarning salbiy va ijobiy bo‘yoqdorligi ahamiyatiga haqida ham alohida misollar bilan to‘xtalib o‘tilgan.*

Аннотация*. В статье на примерах проводится сравнительный анализ лексико-фразеологических синонимических рядов в английском и узбекском языках, их лексический состав, сходные и разные аспекты. Также на специальных примерах рассматривается значение синонимов, активных выражений в нашей речи и значение отрицательной и положительной окраски речевых синонимов.*

Annotation*. In the article, a comparative analysis of lexical-phraseological synonymous rows in the English and Uzbek languages, their lexical composition, similar and different aspects are analyzed with the help of examples. The meaning synonyms of active expressions in our speech and the importance of negative and positive coloring of speech synonyms are also discussed with special examples.*

Kalit so‘zlar*: frazeologik ekvivalent, frazeologizm, frazeologik sinonim, frazema, leksik-frazeologik sinonim.*

Ключевые слова*: фразеологический эквивалент, фразеологизм, фразеологический синоним, фразеологизм, лексико-фразеологический синоним.*

Key words*: phraseological equivalent, phraseologism, phraseological synonym, idiom, lexical-phraseological synonym.*

Ingliz va o‘zbek tillaridagi leksik-frazeologik sinonimik qatorlarning o‘ziga xos xususiyati shunda namoyon bo‘ladiki, bu iboralarning bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish jarayoni turlicha ko‘rinishda amalga oshiriladi, ya’ni, frazeologizmlar tarjimasida tarjimon uning ma’nosini berishi, uning obrazliligini ifodalashi lozim.

Tarjima jarayonida ingliz yoki o‘zbek tillarida mos ifodani topishimiz, shu bilan birga, frazeologizmlarning stilistik xususiyatlarini ham unutmasligimiz shart. Ingliz yoki o‘zbek tillarida mos obraz mavjud bo‘lmagan hollarda biz yaqinroq moslikni topishga urinishimiz lozim.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi iboralarning ma’noviy tahlil qilish jarayonida shunga guvoh bo‘ldikki, ba’zi iboralar bir tildan ikkinchi tilga to‘liq va qisman ekvivalent holda tarjima qilinishi mumkin. Ingliz tilidagi to‘liq ekvivalentlar shunday tayyor ekvivalentlar hisoblanar ekanki, ular o‘zbek tilidagisi bilan ma’nosi, leksik tarkibi, obrazliligi, stilistik bo‘yoqdorligi va grammatik tuzilishi bilan mos tushadi:

Lose one`s mind – kimdir esini yo‘qotmoq;

Keep a secret – sir saqlamoq;

Rain in buckets – chelaklab yomg‘ir yog‘moq.

Shuningdek, tahlil jarayonida ingliz tilidagi frazeologik birliklarning o‘zbek tilidagi iboralar bilan qisman ekvivalentligi yaqqol namoyon bo‘ldi. Qisman frazeologik ekvivalentlarni tarjima qilinishi, u frazeologizmlarning ma’nosi va obrazliligini tarjimada qisman yoki to‘liqsiz berish degani emas, ya’ni, bu atama ostida shu narsa nazarda tutilganki, taklif etilayotgan ingliz tilidagi ekvivalentlar o‘zbek tilidagisi

[1] Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. T., “Sharq”, 2010, 144-bet.

[2] http://marifat.uz/marifat/ruknlar/fan/1088.htm (B.Mengliev. Til bag‘ridagi ma’naviyat: lingvoma’naviyatshunoslik va uning istiqbollari haqida, 9.03.2018).

bilan biroz farqlanishi mumkin. Quyida keltirilgan misollarda stilistik bo‘yoqdorligi va obrazliligi yaqinroq bo‘lgan, ammo leksik tarkibi farq qiluvchi frazeologizmlar ifodalangan:

Give up the ghost – ruhi tanasidan ajramoq;

Pay the debt of nature – omonatini topshirmoq;

Go to glory – u dunyoga ravona bo‘lmoq;

Keep a mum – mum tishlamoq; lom-mim demasliq

Seal one`s lips/mouth/ – og‘ziga qulf osmoq.

Ba’zi iboralarning sinonimik qatorlarini bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilganimizda ularning kontekstdagi ma’nosiga muvofiq muqobil ma’nolari keltirildi, ya’ni semantik tarjima qilindi. Ana shuday semantik tarjimaga doir ba’zi bir misollarni keltirib o‘taylik.

Lay on the colours – qo‘shib chatmoq, ko‘paytirmoq, rang bermoq kabi ma’nolarda ishlatiladi.

So disengaged and calm was he, …where another would have been sparkling and laying on the colours, that he was then and there offered Admiral`s rank in the Imperial navy…[1]

Make a mountain out of a molehill – bo‘rttirib ko‘rsatmoq, oshirib yubormoq, qiyinchiliklarni bo‘rttirmoq, pashshadan fil yasamoq kabi ma’nolarda qo‘llaniladi. You are making a mountain out of a molehill. They never have epidemics here. Biz yuqorida ingliz va o‘zbek tillarida aynan ma’nolari bir-biriga yaqinroq, nutqda qo‘llanilish darajasi o‘xshash bo‘lgan leksik-frazeologik sinonimik qatorlarni tahlil qilib o‘tdik. Tahlilimizga ko‘ra, ingliz tilida ifodalangan iboralarning sinonimlari, o‘zbek tilidagi iboralarning sinonimik qatorlariga qaraganda soni jihatidan ko‘pligiga amin bo‘ldik. Masalan, ingliz tilidagi Lose ones temper (jahli chiqmoq, o‘zini tuta olmaslik, g‘azablanmoq) iborasining lug‘atda yigirmadan ziyod sinonimlari, o‘zbek tilidagi jahli chiqmoq iborasining esa o‘ndan ziyod sinonimlari mavjudligiga guvoh bo‘ldik. Biroq ba’zi hollarda esa ikkala tilda ham leksik-frazeologik sinonimik qatorlarning soni jihatdan deyarli tengligini ko‘rishimiz mumkin. Misol tariqasida ingliz tilidagi to die so‘zining frazeologik sinonimi breathe ones last, o‘zbek tilidagi o‘lmoq so‘zining frazeologik sinonimi qazo qilmoq iboralarining sinonimik qatorlari soni jiatdan deyarli tengdir.

To die – Be gathered to ones fathers;breathe ones last; Give up the ghost,go (down) to ones grave; go off the hooks; Go the way of all flesh, Go to glory; Go to ones last account; Go to ones last resting place; Go to ones long home /rest/; Go West; Hand in ones checks;Hand in ones dinner pail; Join the great majority; Kick the bucket; Pay the debt of nature; Pass beyond the veil; Shuffle off this mortal coil; Take the ferry; Turn up ones toes (to the daisies);

O‘lmoq – Dunyodan o‘tmoq, Qazo qilmoq. Jon bermoq. Oyog‘ini o‘zatmoq. Engak tashlamoq. Nafasi tinmoq. Rixlat qilmoq. Foniydan boqiy dunyoga yo‘l olmoq. Yaratgan ho‘zuriga bormoq. Olamdan o‘tmoq. Omonatini topshirmoq. Ajali yetmoq. Joni uzilmoq. Vafot etmoq. Mangu uyquga ketmoq. Hayot bilan xayrlashmoq. Kuni bitmoq kabilar…

Frazeologik birliklarning yana bir o‘ziga xos xususiyati ularning to‘zulishi go‘yo oddiy erkin so‘z birikmalariga o‘xshasa ham, strukturasi turg‘un bo‘lib, boshqa turli birikmalar bilan bog‘lanmaydi va so‘z tartibining o‘zgarishiga yo‘l qo‘ymaydi.[2] Ingliz tilida iboralar morfologik jihatdan tuzilishida deyarli hech qanday qo‘shimcha talab qilmaydi. Ko‘pincha, frazeologizmlar murakkab turg‘un so‘z birikmalari shaklida bo‘lsa ham, ularning komponentlari ko‘pincha turli morfologik vositalar (affikslar, qo‘shimchalar) siz hosil bo‘ladi. Bu xususiyat ingliz tili morfologik jihatdan flektiv, lekin analitik belgi ko‘proq ekanini ko‘rsatadi:

Cook one’s own goose – o‘zini-o‘zi yo‘q qilmoq, o‘z hayotini o‘zi barbod qilmoq.

O‘zbek tilida esa, frazeologik birliklarning strukturasida komponentlariga turli morfologik vositalarni, ya’ni, affiks va qo‘shimchalarni qo‘shish orqali so‘zlarni sintaktik bog‘lanishini kuzatishimiz mumkin. Burgaga achchiq qilib, ko‘rpaga o‘t qo‘ymoq–kimdir arzimagan narsani deb jahl ustida nojo‘ya, zararli ishni qilib qo‘ymoq, Ignadek gapni tuyadek qilmoq – mubolag‘a qilib bo‘rttirib yubormoq, ko‘pirtirib yubormoq.

Ingliz tilida bu xususiyat ma’lum darajada mavjud bo‘lib, lekin faqat so‘zning o‘ziga xos bo‘lib boshqa so‘z bilan bog‘lanishda predloglar yordam beradi: Keep something under one’s hat – biror narsani sir tutmoq; Make somebody`s hair stand on end – kimnidir dahshatga solmoq, kimnidir cho‘chitmoq kabilar.

[1] https://en.wikipedia.org/wiki/Grand_admiral

[2] An Introduction to Language. Victoria Fromkin, Robert Rodman Harcourt Brace Jovanovich College Publishers, 1993, p. 544.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, turli komponentlardan tarkib topgan frazeologik sinonimlar, ko‘pincha, obrazlilik darajasida nutqda oz yoki ko‘p ishlatilishiga ko‘ra farq qiladi. Bu iboralarning stilistik bo‘yog‘ida, zamonaviyligida, og‘zaki nutqqa xos sinonimiga egaligida farqlanish sezilarlidir. Sinonim iboralarni ularning variantlari bilan aralashtirmaslik lozim. Buning uchun o‘zaro sinonim iboralarni bir iboraning variantlaridan ajrata bilish kerak. Sinonim iboralar tarkibida bir komponent aniq so‘z bo‘lishi mumkin. Ammo bunda boshqa sinonim turdagi so‘z komponent bo‘lib kelmasligi kerak. Aks holda, bir iboraning ikki variantiga ega bo‘lamiz. Masalan, quyidagi iboralar bir iboraning variantlaridir:

“G‘azablanmoq” so‘zining frazeologik sinonimlaridan biri bo‘lgan “Ko‘zi qinidan chiqib ketmoq“ iborasining ko‘zlar(i) qinidan chiqay dedi; ko‘zlar (i) kosasidan chiqib ketayozdi kabi variantlari mavjud.

So‘zlashuvda faol sodir bo‘ladigan sinonimlik hodisasi nafaqat leksik birliklar doirasida, balki frazeologik birliklar orasida ham juda ommalashgan.

Frazemalarning ayni bir ma’noni anglatishi asosida guruhlanishi frazeologik sinonimiya deyladi. Frazeologik birliklar ba’zan so‘zlar bilan ham sinonim bo‘lib keladi. Leksik-frazeologik sinonimiyada frazemada o‘z ma’no qirrasiga ko‘ra, uslubiy bahosiga ko‘ra o‘z sinonimi bo‘lgan leksemadan keskin farq qiladi. Nimanidir frazema bilan anglatish, odatda leksemaga qaraganda ta’sirchan bo‘ladi. Masalan, (big) with child, in a delicate, in a condition, in the family way frazemalariayni bir ma’noni – (pregnant) og‘iroyoqni anglatadi. Leksik frazeologik sinonimiyada leksema dominant hisoblanadi.

Frazelogik sinonimiya ham uch jihatdan baholanadi:

1. Ma’no qirrasi jihatidan.
2. Uslubiy baho jihatidan.
3. Matniy xoslanish jihatidan.

Frazeologik sinonimlar ko‘pincha ma’no sinonimlari bo‘ladi, frazeologik sinonimiyada uslubiy baho bo‘rtib turadi. Aslida ham, frazeologik birliklar xuddi shu maqsadda voqelikni nomlashda uni o‘tkir baholab berish uchun ijobiy yoki salbiy munosabatni yaqqol ifodalash uchun yaratiladi. Masalan, ishimizning II bobida tahlil qilgan iboralarimiz – Make a mountain out of a molehill – Pashshadan fil yasamoq kabi iboralarimizda uslubiy baho juda kuchli ifodalangan.

Frazeologik sinonimlar matniy xoslanish jihatidan u qadar rang-barang emas: asosan, so‘zlashuv matniga va qisman boshqa matn ko‘rinishlariga xoslangan bo‘ladi. Masalan, resign one`s being or life frazemasi badiiy matnga, go to ones last resting place, join the great majority the frazemalari so‘zlashuv matniga xos. Bularning hammasi o‘lmoq (to die) ma’nosini anglatadi.

Yuqorida ingliz va o‘zbek tillarida keng qo‘llaniladigan leksik frazeologik yoki frazeologik sinonimlar tahlil qilib chiqildi va ularning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari ko‘rsatildi. Unga ko‘ra, har ikkala tilda ham nutqni boy va ta’sirchanligini ta’minlovchi frazeologik birliklarning sinonimlari mavjud bo‘lib, ulardan voqelikning obrazliligini va unga bo‘lgan munosabatni ifoda etishda, shuningdek, emotsional-ekpressivlikni ko‘rsatish maqsadida foydalaniladi. Ingliz tilidan o‘zbek tiliga frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayonida asosan ularning to‘liq, qisman yoki ma’no jihatdan muqobilini topa bilish kerak.

Ingliz tilida ko‘rib chiqilgan frazeologik birliklarning sinonimlari soni jihatidan o‘zbek tilidagilariga nisbatan ancha ko‘pligi, bu sohada ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilganligidan dalolatdir.

Xulosa tarzida shuni ko‘rsatish kerakki, FB larning sinonimik qatorlari a’zolari bir-birlaridan stilistik jihatdan, voqelik yoki hodisaning har xil jihatlarini ifoda qilishida, emotsional-ekspressivliklari bilan yoki ular asosida yotgan obrazlilik jihatlari bilan bir-biridan farq qiladi va nutqimizni boy, ta’sirli va rang-barang qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. An Introduction to Language, Victoria Fromkin, Robert Rodman Harcourt Brace Jovanovich College Publishers, 1993, p. 544.
2. English word. Arnold. P. 77–197.
3. O‘.Q.Yusupov. Ingliz va o‘zbek tiliarining chog‘ishtirma lingivistikasi. T., .2013, p. 22 – 23.
4. O‘.Q.Yusupov. Shu manba; English word. Arnold. P. 77 – 97.
5. Ўзбек тили лексикологияси. Т., 1981.
6. Ҳ.Неъматов, Р.Расулов. Ўзбек тили сиетем лексикологияси асослари.

Yaxshiyeva Zebo Rashidovna (TATU Qarshi filiali dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); e-mail: zebona.sevinch@gmail.com)

O‘ZBEK VA JAHON YOZUVCHILARI BOSH QAHRAMONLARIGA SINGDIRILGAN MILLATLARARO TOLERANTLIK MASALALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek tarixchi yozuvchisi Muhammad Alining birinchi o‘zbek tetralogiyasi deb tan olingan roman epopeyasi “Ulug‘ saltanat” epopeyasida yoritilgan, Amir Temur haqida yozilgan asarlar o‘rganilgan. Shuningdek, ushbu tetralogiyada Sohibqiron obrazining millatlararo tolerantlik aloqalariga qo‘shgan hissasi haqida so‘z yuritildi. Jumladan, buyuk sarkarda Amir Temur haqidagi tarixiy voqeilikni badiiy asarga aylantirish borasidagi yozuvchi mahorati tahlillar asosida o‘rganildi.*

Аннотация*. В статье изучены произведения об Амире Темуре, эпопее романа “Великое государство”, который был признан узбекским историком Мухаммедом Али первой узбекской тетралогией. Было также упомянуто о вкладе имиджа Сахибкирана в отношения толерантности нации. В частности, на основе анализа раскрыто мастерство писателя, превратившего историческое событие о великом лидере Амире Темуре в художественное произведение.*

Annotation*. This article was written about Amir Temur, the epopee of the novel “The great reign”, which was recognized as the first Uzbek tetralology by the Uzbek historian Muhammad Ali. There was also mentioned about the contribution of Sahibqiran's image to the tolerance relations of the nation. In particular, the historical event about Amir Temur in the great leader by his writer skills on the transformation into an artistic work were studied on the basis of analyzes.*

Kalit so‘zlari: *ekspriment tajribalar, epik ko‘lamdorlik, epik polotno, lirik kompozitsiya, liro-publitsistik unsur.*

Ключевые слова: *экспоненциальные эксперименты, эпический масштаб, эпическое полотно, лирическая композиция, лиро-публицистический элемент.*

Key words: *exponential experiments, epic scale, epic polotno, lyrical composition, liro-publicistic element.*

Kirish. Jahon badiiy tamaddunining betakror yozuvchilari L.Tolstoy “Urush va tinchlik”, M.Sholoxovning “Tinch Don” kabi epopeyalari insonni tadqiq qilish manerasining benihoya kengligini, so‘z va uning mohiyatida aks etgan ma’no jilvalarining serqirraligini yuzaga chiqarganligini adabiy jamoatchilik hozirga qadar e’tirof qilishmoqda.

O‘zbek tarixchi yozuvchisi, davlat mukofoti laureati Muhammad Ali qalamiga mansub “Ulug‘ saltanat” ulkan epik polotnosida Movarounnahrda hukmronlik qilgan Sohibqiron Amir Temur shaxsini badiiy obraz sifatida ko‘rsatish, uning bugungi kitobxon ko‘z o‘ngidagi qadr-qiymatini oshirish, ham ota, ham arbob, ham dorulsaltanat egasi, ham oliyjanob yurtparvar shaxs sifatidagi yuksak insoniy fazilatlarini, millatlararo tolerantlik aloqalariga qo‘shgan hissasini o‘sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy islohotlarning nihoyatda keng qamrovligi borasida olib borilgan izchil strategik hamda diplomatik aloqalarni qayta kashf etishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Muhammad Alining ushbu tetralogiyasi yozilishiga tarixiy manva sifatida rol o‘ynagan Sohibqiron Amir Temur haqida qimmatli ma’lumot beruvchi Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” nomli tarixiy kitoblari, shuningdek, Mirxondning “Ravzat us-safo”, Hofizi Abro‘ning “Tarixlar sirasi” singari asarlari Amir Temur davlatchiligi tarixi xususida manbalar va zaruriy ma’lumotlarni o‘rganishda muayyan darajada qo‘l keladi. Ana shu manbalar, aytish joizki, Muhammad Ali tetralogiyasining yuzaga kelishi uchun asos vazifasini o‘tashi barobarida, yozuvchi ijodiy g‘oyasini yanada aniqlashtirishda adabiy-tarixiy solnoma bo‘lib qo‘shildi. Yozuvchi Muhammad Alining tarixiy tetralogiya yaratishdagi va Amir Temur obrazini millarlararo tolerantlik aloqalalrini shaxs sifatida shakllantirishida yozuvchi mahorati asar voqealarining bir-biriga bog‘lanish zanjirini qay darajada tuza olishida yanada yaqqol ko‘ringan. “Amir Temur haqida so‘z”, “Ona tarix kamoli”, “Tarix davomli kitobdir”, “Amir Temur saltanati haqida yangi roman”, “Xalq yaratgan daho”, “Sohibqiron farzandlari”, “Amir Temur chamani”, “Buyuk obida”, “Odamiylikning buyuk timsoli”, “Qutlug‘ xonadonning ulug‘ sohibi”, “Badiiy tarix manzaralari [1.2] kabi maqolalaridan ham ushbu maqolamizning mazmun-mohiyatini ochib berishda foydalanildi.

Jahon ilm-fanida esa Temur va uning vorislari haqida juda ko‘plab asarlar yaratilgan. Dunyoning ko‘pgina yozuvchilari Amir Temur shaxsiyatiga kuchli qiziqish bilan qarab, bu shaxsni badiiy solnomada qay tarzda ifodalay oldi, buni vaqtning o‘zi isbotlab turibdi. Jahon adabiyotida Kristofor Marlouning “Buyuk Temur” tragediyasi, Iogann Volfgang Gyotening “Temurnoma”si, ingliz adibi Charlz Saunders qalamiga mansub “Ulug‘ Temur” tragediyasi, Abdulla Xotifning “Temurnoma” dostoni, fransuz tarixchisi Rene Grussenning “Sahro saltanati” singari Yevropa adiblarining asarlari buyuk bobomizning jahon tarixidagi o‘rnini belgilab beradi. Istanbuldagi Bayazid nomli kutubxonada Amir Temur mavzusida yozilgan o‘ttizdan ortiq tarixiy, ilmiy, adabiy kitoblar saqlanmoqda. Ular orasida quyidagi tadqiqotlar bor: Rui Gonsales de Klavixoning “Temurning Samarqanddagi saroyiga sayohat” (1403–1406), Peti de La Kruaning “Temurning tarixi” (1722), Lyanglening “Temurning siyosiy va harbiy boshqaruvi” (1787), Jan Pol Runing “Sohibqiron Temur” (1989) va Flasson, Silvestrning asarlari shular jumlasidandir” [2.15]. Shuningdek, arman tarixchisi Foma Metsopskiy yaratgan asarlarda ham Sohibqiron haqida qimmatli ma’lumotlar qayd etilgan. Bu kitoblar orasida fransuz va amerikalik olimlar yozgan asarlar ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, amerikalik sharqshunos olimlar Beatritsa Forbes Manzning “Temur davlatining boshqarilishi va ma’muriy tuzilishi” (Kembrij, 1989) va Jon Vudsning “Temuriylar sulolasi” (Blumingon, 1990) kitoblarini xorijiy temurshunoslikning so‘nggi yutuqlari sifatida baholash mumkin” [3.5]. Angliyalik temurshunos Hilda o‘z hujjatli qissasida Angliyada Amir Temur haqidagi asarlarga quyidagicha baho beradi: “Qirolicha Yelizavetaning saroy shoiri Kristofer Marlou XVI asrning 80-yillarida oq she’r bilan “Buyuk Temur” dramasini yozdi. O‘shandan boshlab, Ovrupoda buyuk sarkardaning hayoti afsonaga aylandi.

Mashhur fransuz yozuvchisi, akademik Marsel Brionning “Amir Temur” nomli romani o‘tgan asrning 50-yillarida dunyo yuzini ko‘rdi. Roman muqaddimasi shunday boshlanadi: “Buyuk fotihning ruhiyati (psixologiyasi) hanuz bahstalab muammolardan biri bo‘lib, bu borada aniq bir gap aytish qiyin. Yevropalik yoxud osiyolik muarrixlarning solnomalarini o‘rganar ekanmiz, ko‘z o‘ngimizda Temurning boshqa fotihlar va saltanatlar asoschilaridan ancha murakkab, ziddiyatlarga to‘la qiyofasi namoyon bo‘ladi” [4.26]. Haqiqatdan ham, bu o‘rinda fransuz adibi Marsel Brion qayd etgan kuch-qudratga to‘la, aql-zakovat sohibi Amir Temur ruhiyati va qilgan amallari, olib borgan ichki va tashqi siyosatini joriy kunda ham jahon hamjamiyati qiziqish bilan o‘rganib, uning mohiyatidagi sir-sinoat nimada ekanligini bilishga intilib yashamoqdalar.

XVI, XVII, XVIII asrlardayoq Ispaniya, Fransiya va Angliyada Amir Temurga bag‘ishlangan ilmiy va sahna asarlari yaratildi. Ularning aksariyatida Sohibqiron nomi ehtirom ila, “gran Temurbek”, ya’ni “buyuk Temurbek” deya tilga olinadi. Xolisona aytganda, dunyo tarixidan boxabar har bir ziyoli buyuk Sohibqiron haqida asar yaratishni orzu qiladi. Bobokalonga xos qomusiy tafakkur, yuksak insoniy fazilatlar, mislsiz sarkardalik salohiyati har bir sog‘lom fikrli insonni o‘ziga rom qiladi” [5.127]. Mana shu iqtibosdan ko‘rish mumkinki, har bir davrning o‘z buyuk shaxslari bo‘ladi, uni qiziqish va yuksak muhabbat bilan o‘rganish muayyan ilmiy, ijodiy, tarixiy, ma’naviy ehtiyojning yuzaga kelganligini anglatadi.

Amir Temur shaxsiyatini xalqaro miqyosda o‘rganishni maqsadli tarzda qaralayotgan mazkur tetralogiya – tarixiy faktlarga tayanilgan holda, badiiy to‘qimalarning asar hujayralariga singdirilganligi bilan alohida diqqatga sazovordir. Unda Amir Temurning shaxs va uning botiniy olami, muqaddas sanalgan oila qo‘rg‘onining mustahkamligi, davr qiyofasini aks ettirishda ishonarli manbalarga murojaat qilinganli bilan ham o‘lchanadi. Ya’ni, muallif matn emotsional hissiy-shuuriy taqdimnomasida barcha voqelikni Amir Temur shaxsiyati va ahamiyati atrofida bog‘lashga, sujet voqealarining tipologik xususiyatlarini ketma-ket rivojlantirib borishga ahamiyat qaratganligi bilan belgilanadi.

Har bir asarning alohida nom bilan atalashi, Amir Temur o‘g‘illarining ismiga moslab tartib berilishida ham mantiqiy aloqa mavjud. Jumladan, taxtni egallashda yoki uni tortiq qilishda Amir Temurning zakiyligi, uning keng va teran fikr-mulohaza yurituvchi podshoh ekanligini voqealar rivoji tasdiqlab boradi. Bu ham muallifning o‘z oldiga qo‘ygan asosiy vazifalaridan biri ekanligini dalolatlaydi.

Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” roman-epopeyasining “Jahongir mirzo”, “Umarshayx mirzo”, “Mironshoh mirzo”, “Shohrux mirzo” nomlari bilan poetik qirralarini ifoda qilish yozuvchiga “ilk ijodiy niyatning” hal qilinishida muhim kalit vazifasini o‘tagan [6.14]. Darhaqiqat, yozuvchining badiiy-estetik tajribasi sifatida, dastlab, “Gumbazdagi nur” dostoni, “Sarbadorlar” asari ham tarixiy haqiqatni qayta tiklashda muhim ahamiyat kasb etgan desak, mubolag‘a qilmaymiz.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, “Ulug‘ saltanat” romanini tasvir prinsipi jihatidan Amir Temur haqida izchil realistik uslub mezonlari bilan baholab bo‘lmaydi. Chunki roman tasvirida subyektiv asos ustun mavqeda, liro-publitsistik unsurlar bisyor. Favqulodda tabiatga ega bo‘lgan qahramonlarning ehtiros-

lari jo‘shqin, o‘zlari esa kurashchan. Romanning sujeti, kompozitsiyasi, yetakchi pafosi, tili, tasvir uslubida mazkur hol yorqin namoyon bo‘ladi.

Demak, “Ulug‘ saltanat” tahlilida u mansub bo‘lgan ijod tipini inobatga olmasak, asarning go‘zal fazilatlarini aniq aniq ko‘rish imkoni ham butkul yo‘qqa chiqadi. Badiiy ijodning shartlilik tamoyili unutilgani bois, ijodkorning badiiy haqiqati haqidagi tasavvurlarimiz ham biryoqlama bo‘lib qoladi” [7.48]. Darhaqiqat, keltirilgan iqtibosda muallif ijody niyati, epopeyani yuzaga kelishida katta vaqt falsafasi, dunyo harbiy olamida o‘ziga xos mavqega ega bo‘lgan jahongirning strategik islohotlari, hamisha muzaffar bo‘lish shafoati qabarib ko‘rinadi. Aynan, roman-epopeyaning matniy tahlilida bu narsa yaqqol seziladi.

Davr yaratgan adabiy polotnolarda jamiyat madaniy-ma’rifiy hayoti keng qamrovda tadqiq markaziga yo‘naltiriladi. Muallif estetik tajribasida Amir Temur timsolida olam va odam muammolari aks ettirilishi masalaga to‘g‘ri talqin tamoyillarini qo‘llashda dolzarbdir. M.Ali aynan shu jihati bilan asarda ishtirok etuvchi xarakterlarning to‘laqonli shakllanish bosqichlarini intensiv yo‘sinda “tezlashtirgan”. L. Tolstoy va M.Sholoxov xarakter yaratishda matnni atayin cho‘zish, voqelikni sinchiklab tasvirlash yo‘lida borsa, M.Ali qisqalik orqali katta vaqt falsafasini namoyish qilishni asosiy ifoda yo‘sini tarzida tavsiflaydi. Bu ifoda usuli badiiy-estetik tajribaga mos talqinni keltirib chiqargani quvonarli hodisadir.

Amir Temurning “Tuzuklari”dan foydalanganligi Amir Temur haqidagi ushbu roman-epopeyaning yanada ishonarli, jonli, kuchli dramatizmning yuzaga kelishida muhim omil bo‘lgan. Unda Temurning olib borgan ijtimoiy-siyosiy islohotlari, oila va yurt oldidagi mas’uliyati – saroy ahlida katta mamnuniyat hissini oshirganligi, farzand tarbiyasida adolatli hamda zakiylik bilan ish yuritgani barchamizga ma’lum.

Tarixiy faktni badiiy haqiqatga aylantirish uchun ham yozuvchidan katta ijodiy izlanishni talab qiladi. “Muhammad Ali asarda manbalarga suyanib, to‘g‘ri ko‘rsatganiday, Sohibqironning bunyodkorlik va yaxshilik, adolat, iymon-u insofni ulug‘lab, shu ezgu shiorlarga amal qilishida Andaxo‘yda yashovchi piri Mirsaid Barakaning muborak maktubi ham kuchli ta’sir qilgan. Romanda yozuvchi qahramonlarning tilini o‘rta asrlar turkiy tili yoki eski o‘zbek tiliga yaqinlashtirishga harakat qilgan” [8.48]. Tarixiy faktlarni qo‘llashda yana bir muhim manba Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari ham yozuvchiga katta ijodiy niyatning yuzaga chiqishida rahnamolik qiladi. Undagi Amir Temur shaxsi va bajargan ezgu amallarini qayta kashf qilib, badiiy talqinga aylantirishda o‘ziga xos yo‘nalishning shakllanishiga zamin yaratadi. Garchi adib ko‘proq oila va qo‘rg‘on boshqaruvidagi voqelikka ko‘proq urg‘u bersa-da, jang-u jadallarda kechgan Amir Temur umri, vaqtini ikkinchi planda ko‘rsatishga diqqat qaratganligi ayni haqiqatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Ali. Qutlug‘ xonadonning buyuk sohibi. “Toshkent oqshomi”, 2005, 8-aprel.
2. Qahhor T. Amir Temur to‘g‘risida nodir roman. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, T., 1997, 19-avgust.
3. Hamroyeva M.A. Tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Amir Temur obrazlarining nasriy talqini). Filologiya f. nomzodi. diss., Termiz, 2008, 15-bet.
4. Hukhem H. Yetti iqlim sultoni. Hujjatli-tarixiy qissa, T., “Adolat”, 1999, 3-bet.
5. Marsel Brion. Amir Temur. T., G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2018, 26-bet.
6. Haydarov B. Sohibqiron fidoyilari. T., “Info capital group”, 2018, 127-bet; To‘rayev D. O‘zbek tetralogiyasi. Toshkent, Akademnashr, 2017, 14-bet.
7. Yoqubov Islomjon. Muhammad Ali ijodida tarixiy jarayon konsepsiyasi va liro-romantik talqin. T., “Fan”, 2007, 8-bet.
8. To‘rayev D. O‘zbek tetralogiyasi. Toshkent, Akademnashr, 2017, 48-bet.

Kushatova Nargiza Rustamovna (Samarqand davlat Chet tillar instituti o‘qituvchisi)

DRAYZER IJODIDA YEVROPA AN’ANASI

Annotatsiya. *Ushbu maqola taniqli Amerika yozuvchisi Teodor Drayzer asarlarida bir qator Yevropa yozuvchilarining adabiy an’analarini, xususan, g‘oyaviy, badiiy shakl va uslub jihatdan umumiylik va o‘xshashliklarni tadqiq etishga bag‘ishlangan. Maqolada turli tadqiqotchilar tomonidan mavzuga oid bildirilgan fikrlar ham o‘z aksini topgan va misollar bilan asoslangan.*

Аннотация. *Данная статья посвящена исследованию общности и сходства в творчестве известного американского писателя Теодора Драйзера, особенно в плане идей, художественных форм и стиля литературных традиций ряда европейских писателей. В статье также отражены и подкреплены примерами мнения, высказанные различными исследователями по данному вопросу.*

Annotation. *This article is dedicated to the research of the commonalities and similarities in the works of the famous American writer Theodore Dreiser, especially in terms of ideas, artistic forms and style of the literary traditions of a number of European writers. In the article, the opinions expressed by various researchers on the subject are also reflected and supported by examples*

Kalit so‘zlar: *an’ana, g‘oya, Yevropa, xarakter, Balzak, Tolstoy, Nitse, Dostoyevskiy, Shopengauer, Makiavelli*

Ключевые слова*: традиция, идея, Европа, персонаж, Бальзак, Толстой, Ницше, Достоевский, Шопенгауэр, Макиавелли.*

Key words*: tradition, idea, Europe, character, Balzac, Tolstoy, Nietzsche, Dostoyevsky, Schopenhauer, Machiavelli.*

Amerika adabiyotining rivojlanishi va shakllanishiga ham milliy an’analarning boyitilishi, ham yevropalik yozuvchilar tajribasiga tayanishi sabab bo‘ldi.

Teodor Drayzer XIX–XX asrlarning eng ko‘zga ko‘ringan yozuvchilaridan biridir. Ayni vaqtda, Amerika jamiyati nafaqat amerikaliklar mavjudligining ijtimoiy tomoniga ta’sir ko‘rsatgan, balki shaxsiyatini ham o‘zgartirgan turli xil o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda edi. Yozuvchi shaxsning ma’naviy holati va kuchayib borayotgan tajovuzkorligi haqida fikr yuritdi, shu bilan butun Amerika jamiyatining muammolarini qayd etadi. T.Drayzer ijodida o‘tgan asrlarning eng yaxshi yozuvchilari erishgan yutuqlar mujassamlashgan. Uning badiiy ijodida realistik va naturalistik an’analarni o‘zida mujassamlashtirish istagi yaqqol seziladi. Bunda bir qator atoqli Yevropa yozuvchilarning adabiy tajribasi katta rol o‘ynadi. Ulardan so‘ng Drayzer o‘z ishida alohida inson shaxsini jamiyatga qarama-qarshi qo‘yish muammosini o‘rganadi, shaxs mavjudligining psixologik va ijtimoiy tomonlarini atrof-muhit bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqadi.

Yevropa adabiyotidagi “tarbiyaviy roman”, dunyoning amerikacha sur’ati bilan uning “o‘zini yaratgan” odamga, shak-shubhasiz, ishonchi bilan bir xil bo‘lib chiqdi. “Tarbiyaviy roman”ning alohida chizgilarini 1771-yildagi Bendjamin Franklinning “Avtobiografiya”sida ko‘rish mumkin edi. Muvaffaqiyatga erishish g‘oyasiga berilgan bosh qahramon obrazi shakllanish va rivojlanishga berilganligi tufayli A.M.Shemyakin bu asarni xuddi “o‘ylab topilmagan ilg‘or asl amerikalik shaxs”, deb hisoblagan.[1]

Drayzer “tarbiyaviy roman” janrida o‘ta izchil bo‘lib chiqib, qahramonning shakllanishini tug‘ilganidan to o‘limiga qadar ko‘rib chiqqan, Tven esa o‘z qahramonlarini juda qisqa vaqt oralig‘ida ko‘rib chiqqan – “Tom Soyer sarguzashtlari”da Missuridagi bir yoz, “Gekkelberi Finnning sarguzashtlari”da esa – bir necha oy. Y.N.Zasurskiy ta’kidlashicha, aynan Tvenning ijodiga murojaati tufayli Drayzer mohirona “qahramonlarning holatlari va harakatlarini skurpuloz asoslab, amerikadagi mavjud hayot hodisalari”-ning keng qurshovi bilan moslashga muvaffaq bo‘lgan. Drayzerning o‘zi Mark Tvenni “Amerikaning g‘ayriinsoniy va qudratli individualizmini fosh qilgan” “buyuk yozuvchi”, deya atagan.[2]

Demak, O.de Balzakdan Drayzer realist qahramonni rivojlantirishda xronotopning ta’siriga qattiq e’tibor qaratgan, ayniqsa, unga Balzak asarlariga xos bo‘lgan fonda voqea yuz beradigan davrning chuqur tahlili yaqin bo‘lib chiqqan. Drayzer F.Nisshe va G.Spenserning falsafiy holatlarini antiqa bog‘lab paradoksal obrazda bosh qahramonni kuchli, kompromissiz, qattiqqo‘l, maqsad sari intiluvchan tasvirlaydi, lekin, bir vaqtning o‘zida, kitobxonga har qanday odam hayot qonunlari oldida kuchsiz ekanligi, Kaupervud ham istisno emasligini tushuntirib beradi. Bundan tashqari, Drayzer A.Shopengauer va N.Makiavellilarning odam xohishlari va ehtiroslarining buyuk kuchi haqidagi hamda burjua asoslarning halokatli ta’siri tufayli jamiyatning axloqsizlanishi haqidagi g‘oyalarining kuchli ta’siri ostida qoladi.

F.M.Dostoyevskiy va L.N.Tolstoylarning ijodi bilan Teodor Drayzerning ijodi bog‘liqligi inson qalbining qarama-qarshiligi Amerika yozuvchisi tasvirida o‘z aksini topadi, unda qahramonlar dunyoqarashining shakllanishiga shaharning sezilarli ta’siri, hikoya qilishning epik quloch yoyishi, fe’l-atvor va qahramonlarni qurshab turgan peyzajni batafsil tasvirlashga alohida e’tibor berilgan.

Drayzer romanlari bosh qahramonlari, Balzak tomonidan kiritilgan formulalarga mos erkak, ayol va buyumlar bo‘lishgan. “Xohishlar trilogiyasi”da burchak boshida erkaklar olamida, tijorat olamida ulkan moliyaviy ishlarni bajargan Frenk Kaupervudning kuchli qiyofasi turgan. Frenkni mardonavor fe’l-atvor xususiyatlari ila tasvirlashgan, “u otasiga kuch va mardonavorlik baxsh etib turgan, aka-ukalarini

[1]Шемякин А.М. Возникновение и формирование жанра романа в американской литературе. Истоки и формирование американской национальной литературы XVII – XVIII вв. Под ред. Я.Н.Засурского. М., “Советский писатель”, 1985, 320 с.

[2]Засурский Я.Н. Теодор Драйзер: жизнь и творчество. М., изд. Моск. университета, 1977.

ruhlantirgan va yaxshilik qilgan, farzandlarining umidi bo‘lgan, rafiqasining suyanchig‘i, Kaupervudlar oilasi ulug‘i va faxri bo‘lgan”. U uchun uch ishtiyoq mavjud bo‘lgan: hokimiyatga, ayollar va san’atga ishtiyoq.[1]

Y.N.Zasurskiy “Xohishlar trilogiyasi”ning “qahramoni detallarini aniq tasviri” bilan, yozuvchining o‘zini esa “zamona tarixchisi”dek “tarixiy janr asari” sifatida ko‘rib chiqishni taklif qilgan. Balzakning jamiyat rollari haqidagi iborasiga xuddi illuziya qilgandek va mos ravishda yozuvchini xuddi tarixchi va kotiba qilgandek, Drayzerning o‘zi: “Hech kim tragediyani yaratmaydi – ularni hayot yaratadi. Yozuvchilar esa ularni faqatgina tasvirlaydilar”.[2]

Yana bir Balzak va Drayzer asarlari uchun umumiy elementni ta’kidlash lozim. Bu butun kuchi bilan o‘z muvaffaqiyatga yo‘l ochadigan qahramonning tipidir. Balzakda personajlarni yaratish kambag‘allik va boylik o‘rtasida tiniq kontrast paydo bo‘lgan vaqtda, ikki revolutsiya bilan tug‘ilgan, pul va buyumlar kuchi odamdan, uning ichki dunyosidan ustun qo‘yilgan davr ruhi bilan bog‘liq edi. Hech narsaga qaramasdan, odob-axloq qoidalari bilan hisoblashmasdan, o‘zi uchun yuqoriga yo‘l ochishga intiladigan qahramonlar paydo bo‘lgan. “Gorio ota”da Rastinyak bilan axloqiy tomondan ularga zamondosh jamiyat mavzusiga oid suhbatlaridan birida janob Votren kitobxonlar ko‘z o‘ngida shunday gavdalanadi. Uning fikriga ko‘ra, “rostgo‘y odam hammaga dushman”, shuning uchun “o‘zini qonundanda ustun qo‘ygan” sotqin, ikkiyuzlamachi, hasadgo‘y odamlar qurshovida, har doim o‘z xohishlarini amalga oshirish uchun “zambarakli yadro quroli yoki o‘latdek” ta’sir qilishi kerak.[3]

Drayzer dunyoqarashiga chuqur ta’sir ko‘rsatgan yana bir muallif F.Nisshe edi. Amerika adabiyoti ensiklopediyasi «American Literature. The Makers and the Making» («Amerika adabiyoti. Yaratuvchilari va yaratilishi»)ni yaratuvchilari hamda taniqli adabiyot tanqidchisi Charlz Uolkat, Nisshe falsafasi sezilarli darajada Drayzerga ta’sir qilganligini ta’kidlaydi. Ularning ta’kidlashicha, Nisshening “qudratli odam” haqidagi g‘oyalarida Drayzer o‘zining, boshqa odamlarning azoblariga e’tibor qaratmasdan, hukumatga aniq intilayotgan omadli va qudratli odam bo‘lish haqidagi bolalik orzusining ijobatini ko‘rgan.[4]

Nisshe falsafasi natijasida Drayzerning ijodida ham illuziya mavzusi alohida o‘rin egallaydi. Y.A. Morozkina va Y.Y.Gordeyeva ilmiy ishlarida ikki muallifning ham inson hayotiga illuziyaning ko‘rsatgan ta’sirga qiziqishi aniq aks etgan. Nisshe fikriga ko‘ra, illuziya – odamlar qalbini hayajon, qayg‘u, muammolardan qutqarishga qodir poetik ongning mahsulidir.[5] Drayzer uchun illuziya odamga shafqatsiz haqiqat bilan kurashishga yordam beradigan obyektiv mavjud kuch bo‘lib ko‘ringan.[6]

Hayot va uni tashkil etuvchilar illuziyaligi haqidagi g‘oya Nisshe va Drayzerni birlashtirdi va mualliflarning hayotni o‘yin sifatida qabul qilish tushunchasi pand beradi. Nisshening har bir odam hayotining boshidan alohida bir rolni ijro etishi, hayot dramasida ishtirok etishi haqidagi fikri Drayzerda ijobiy ta’sir qoldirgan. Amerika yozuvchisi hayotni spektakldek, odamlarni esa aktyorlardek tasavvur qilgan, biroq agar Nisshe aktyorlarga yaratuvchi bilan kelishilgan holda, bo‘lishni mumkin deb hisoblagan bo‘lsa, Drayzer uchun bu erkinlik mumkin emas bo‘lgan, modomiki, uning tasavvuri bo‘yicha, o‘yinda barcha qatnashchilar alohida bir qoidalarga rioya qilishi kerak.[7,8]

O‘z ishlaridan birini Spenser pozitivizmi Drayzer ijodiga ta’sirining tahliliga bag‘ishlagan Y.A. Morozkina, yozuvchi o‘zining “falsafasi”da faqatgina Spenserning “o‘zining hayotga shaxsiy qarashlariga yaqin bo‘lgan va uning shaxsiy tajribasidan o‘tgan” holatlardan foydalangan, qolgan g‘oyalarni esa ingliz faylasufi bilan polimerizatsiya qilmasdan, e’tiborsiz qoldirgan. Bu esa Drayzer qurshab turgan haqiqatni juda turli xil deya hisoblagani bilan va u birgina falsafiy tizim nuqtayi nazaridan tushuntirishga muhtoj emasligi bilan bog‘liq edi.

---

[1]Драйзер Т. Финансист. Пер. с англ. М.Волосова. М., “ЭКСМО”, 2010, с. 7 – 454.
[2]Main currents in American thought. Volume 3. Oklahoma: University of Oklahoma. 1930, 425 p.
[3]Бальзак О. Собрание сочинений. Под общей редакцией Н. Балашова. М., “Худож. лит”, 1982, 1025 с.
[4]American Literature. The Makers and the Making. Book D, 1914 to the Present. N.Y., St.Martins Press, 1973, p. 1196 – 2970.
[5]Морозкина Е.А., Кутеева Н.Э. Ницшеанские влияния в литературе США на рубеже XIX – XX вв. Бирск, Бирск. гос. пед. ин-т., 2005, 98 с.
[6]Shu manba.
[7]Морозкина Е.А. Творчество Теодора Драйзера и литературное развитие США на рубеже XIX–XX веков. Уфа, издательство Башкирского университета, 1994, 160 с.
[8]Морозкина Е.А., Кутеева Н.Э. Shu manba.

Y.A.Morozkinaning tadqiqotida ikki muallif ham san'at, "odamlarni birlashtirishga ko'maklashuvchi va jamiyatda garmoniya holatini o'rnatish" uchun da'vat qilingan deya hisoblaganligi aniqlangan, san'atni tushunib yetish esa shaxsning ruhan qayta tug'ilishiga olib keladi.

Drayzerni Shopengauer ishlarida iroda va ratsional tanlov erkinligi mavjud emasligi haqidagi g'oya qiziqtirib qo'ygan. Y.A.Morozkina, Drayzer o'zining mexanistik falsafiy konsepsiyasini aynan nemis faylasufi ishlarida asoslagan, modomiki, uni "iroda bu ko'r irratsional kuch, ...iroda intellektga xizmat qilmaydi, intellekt esa irodaga tegishli",[1] degan fikr uning e'tiborini tortgan, shunda "irodaning eng kuchli tasvirlovchilari yashab qolish instinkti va naslning davom etishi bo'lgan" deb hisoblagan.[2]

Y.A.Morozkina fikriga ko'ra, Drayzer ijodida yana bir Shopengauer estetikasiga ko'tariladigan mavzu bor – illuziya mavzusi. Bu savol yozuvchini boshqa nemis faylasufi Nisshe bilan bog'lashiga qaramasdan, tadqiqotchi G.Menkenga tayanib, Drayzer aynan Shopengauer[3] falsafasini afzal ko'rganligini ta'kidlaydi.

Avval ta'kidlanganidek, agar Nisshe illuziyani poetik ongning mahsuloti sifatida ko'rib chiqqan bo'lsa, unda Shopengauer uchun illuziya odamni butun hayoti davomida, haqiqiy dunyoni anglashga yo'l qo'ymay qurshab turgan barcha narsa bo'lgan. Drayzer o'zining illuziya konsepsiyasi bilan Shopengauerga yaqin bo'lgan, modomiki, u uchun illuziya – "dunyoda mavjud obyektiv, shafqatsiz reallikga qarshi tura oladigan" kuchdir.[4]

O.F.Gumerova[5] va Y.Y.Gordeyeva[6] o'zining dissertasiya tadqiqotlarida Drayzer ijodida Makiavelli merosiga alohida e'tibor berilgan. O.F.Gumerova Kaupervudning "mening xohishlarim – birinchi o'rinda" shiori Makiavellining tomirlariga ega ekanligi haqidagi taxminni qiladi.[7] Kaupervud Makiavelli kabi "aniq bir maqsadga erishish uchun har qanday vositalardan foydalanish mumkin deb hisoblagan".[8] Biroq aytish mumkinki, Makiavelli ham hukumdorga beqiyos sherning kuchi va ayyor tulkining obrazlarini qo'llashni tavsiya qilgan, va u kamida "ko'rinadigan besh oliyjanoblikga ega bo'lish kerak: mehribonlik, sodiqlik, to'g'rilik, insoniylik va xudojo'ylik".[9] Kaupervud bu maslahatni e'tiborga olmaganligi uchun u jamiyat bilan qarama-qarshilikda faqat yutqazavergan.

Drayzerning qiziqishini uyg'otgan Makiavellining yana bir fikri – rostgo'y podshoh qonunga xilof usullarga murojaat qilmasdan, sharoitlarida yashab qola olmaydigan jamiyatning amoralizm konstatatsiyasi edi. Shunday qilib, O.F.Gumerova va Y.Y.Gordeyeva fikriga ko'ra, ikki yozuvchi o'zining asarlari bilan amoralizmni tatbiq qilmagan, lekin ba'zi bir holatlarda inson boshqa tanlovga ega emasligini ta'kidlaydi, chunki unga buni jamiyat aytadi.[10,11]

Drayzer ijodi tadqiqotchilari Nikkolo Makiavelli g'oyalari foydalanilishiga nisbatan dalillarini tahlil qilib, Amerika yozuvchisi, haqiqatdan, italyan mutafakkiri falsafasiga, uning falsafiy tizimida o'zining ijtimoiy tizim haqidagi hamda Koinot tuzilishi haqidagi siyosiy tizimi haqidagi xayollari bilan o'xshashlikni topib, e'tibor bilan yondashgani haqidagi xulosaga kelish mumkin.

Bir qancha jihatlariga ko'ra, tadqiqotchilar Drayzer ijodini rus adabiyoti an'analari bilan aloqasini ta'kidlaydi, ayniqsa, F.M.Dostoyevskiy va L.N.Tolstoylarning asarlari bilan. Y.N.Zasurskiy, S.S.Baturin, O.F.Gumerova, Y.Y.Gordeyevalar ko'p bora Dostoyevskiy va Tolstoylarga nisbatan xat manerasida Drayzerning meros qilib olganligiga e'tibor qaratishgan "rus prozasining ustalari" "Drayzerning ijodiy

---

[1]Морозкина Е.А. Shu maba.
[2]Морозкина Е.А. Shu manba.
[3]Морозкина Е.А. Shu manba.
[4]Морозкина Е.А. Позитивизм в американской прозе конца XIX – начала XX веков. Бирск, Бирск. гос. соцпед. акад., 2009, 146 с.
[5]Гумерова О.Ф. Художественные модели личности в творчестве Т.Драйзера. Уфа, Башкирский госуд. университет, 2007, 196 с.
[6]Гордеева Е.Ю. «Трилогия желания» Т.Драйзера. Дис. канд. филологических наук, Нижний Новгород, 1996, 244 с.
[7]Гумерова О.Ф. Shu manba.
[8]Гумерова О.Ф. Shu manba.
[9]Гумерова О.Ф. Художественные модели личности в творчестве Т.Драйзера. Уфа, Башкирский госуд. университет, 2007, 196 с.
[10] Shu manba.
[11]Гордеева Е.Ю. «Трилогия желания» Т.Драйзера. Дис. .канд. филологических наук, Нижний Новгород, 1996, 244 с.

arsenalini masshtablilik, boy adabiy xarakterlar va borliqning realistik aksiga bo‘lgan ishtiyoq bilan boyitishgan”.[1]

Drayzer va Dostoyevskiy asarlariga diqqat bilan qaralsa, yana boshqa o‘xshashliklarni topish mumkin. Birinchidan, ikki muallif ham, uning barcha qarama-qarshiliklariga qaramasdan, insoniy qalb tasviriga katta e’tibor qaratadi. Dostoyevskiy Raskolnikovning jinoyat sodir qilgandan keyin xulqi, emotsiya va hislarini sinchiklab ko‘rib chiqadi (“uning asabiy qaltirog‘i allaqanday isitma aralashga aylanadi, u hattoki titroq his qilgan”[2]), xuddi shunday Drayzer ham “Xohishlar trilogiyasi”da qahramonning jinoyat sodir qilgandan so‘nggi hislarini tasvirlaydi (“u butun olamdan uzilgan, bu yerda butunlay yolg‘izlikda qamalgan, hatto soat nechaligini ham bilmaydi”).[3]

Zamonaviy adabiyotshunoslikdagi “adabiy an’ana” tushunchasi terminologik aniqlikka ega emas. An’ana, ko‘pincha, “badiiy o‘zaro ta’sirlar”, “adabiy davomiylik”, “adabiy ijod genezisi” kabi tushunchalar bilan birlashtiriladi.

“Adabiy an’ana” tushunchasini qo‘llashda aniq chegaralar yo‘qligiga qaramay, ko‘pchilik tadqiqotchilar bir yozuvchining badiiy tajribasini boshqasi bilan solishtirganda ushbu atamani qo‘llaydilar.

An’ana – bu “eski”ning “yangi”ga o‘tishini ifodalovchi, rivojlanayotgan obyektning bosqichlari o‘rtasidagi munosabatlar turi. Ya’ni, adabiyot avvalgi avlodlar tajribasiga tayanmasdan turib bo‘lmaydi. Yozuvchilar o‘tmish adabiyotining ijtimoiy va tarixiy jihatdan shartlangan mavzularini, axloqiy-falsafiy muammolar va motivlar, janr xususiyatlari, shakl komponentlarini o‘zlashtiradilar.

Milliy an’anani Yevropaniki bilan birlashtirib, Drayzer, tarbiyaviy roman va karyera romani elementlarini o‘z ichiga olgan, shaxsiy janrli modifikatsiyani yaratadi, kitobxonga hayoti davomida karyera pillapoyasida qahramonlarning harakatlanishini kuzatishga imkoniyat beradi.

Hayitova Laylo (Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti)

SHUHRAT MATKARIM HIKOYALARIDA QAHRAMON RUHIYATI TASVIRI

Annotatsiya. *Maqolada adib Shuhrat Matkarimov hikoyalari g‘oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qilindi, xususan, yozuvchining qahramon ruhiyati tasvirini yaratishdagi o‘ziga xosligiga alohida e’tibor qaratildi.*

Аннотация. *В статье проанализированы рассказы известного писателя Шухрата Маткаримова с идейно-художественной точки зрения, в частности, особое внимание уделено своеобразию писателя в создании образа сущности героя.*

Annotation. *The article analyzes the stories of the famous writer Shukhrat Matkarimov from an ideological and artistic point of view, in particular, special attention is paid to the originality of the writer in creating the image of the essence of the hero.*

Kalit so‘zlar: *hikoya, obraz, ruhiy-psixologik tasvir, realizm, ijtimoiy hayot, davr.*

Ключевые слова: *рассказ, образ, психологический образ, реализм, общественная жизнь, эпоха.*

Key words: *story, image, psychological image, realism, public life, era.*

Sh.Matkarim – samimiy, dangalchi, bag‘rikeng, haqiqiy voha kishilarning xarakterini o‘zida aks ettirgan obrazlari bilan kitobxon qalbidan joy oladigan yozuvchi. Uning “Kun shunday boshlanadi” kitobiga 24 ta hikoya va 15 ta kichik hikoyalar jamlangan. Ular orasida “Yo‘riqsiz tushlar”, “Skripka ko‘targan qiz”, “Ota”, “Xiyonat” singari badiiy jihatdan salmoqdor, kitobxon ruhiyatiga “qattiq” tegib o‘tadigan, qahramonlari butun umr yodda qoladigan hikoyalar ko‘pligi kishini quvontiradi. Bu asarlarda bosh qahramonlar hamisha hayotning mazmunini izlab yashayotgan, o‘zi, qalbi, vijdoni bilan tinimsiz suhbat qurayotgan, o‘tgan umrini sarhisob qilayotgan va o‘zini so‘roqqa tutayotgan, bir so‘z bilan aytganda, uyg‘oq yoki uyg‘onishga intilayotgan inson sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan shu jihat Sh.Matkarim hikoyalari orasidan o‘tadigan qizil chiziq hisoblanadi.

Shuhrat Matkarim – realist yozuvchi. Uning hikoyalarida obraz fojiasi, iztirobi, eng avvalo, jamiyat fojiasi bilan bog‘liq. Chunonchi, Afg‘on urushida qatnashib, oyoq-qo‘lidan ayrilgan Karim, musulmon bo‘la turib, o‘z ayolini g‘ayridinlar urf-odati bilan u dunyoga kuzatayotgan partkom buva (“Yo‘riqsiz

[1]Гумерова О.Ф. Shu manba.
[2]Драйзер Т. Финансист. Пер. с англ. М.Волосова, М., “ЭКСМО”, 2010, с. 7 – 454.
[3]Достоевский Ф.М. Преступление и наказание. М., Государственное издательство художественной литературы, 1959, 542 с.

tushlar” hikoyasi), paxtachilikda ishlagani sabab sog‘ligidan ayrilgan, oxir-oqibat or-nomusi toptalgan O‘rozboy (“Xiyonat” hikoyasi), ichib kelgani sabab “namozxon” o‘g‘illari o‘z uyidan haydagan ota (“Ota”) fojiasida bu xususiyat yaqqol namoyon bo‘ladi. Quyida yozuvchi hikoyalaridan ayrimlarini tahlilga tortamiz.

“Yo‘riqsiz tushlar” hikoyasida muallifning badiiy g‘oyasi tush, parvoz kabi bir nechta motivlar orqali ochib beriladi. Odatiy kunlardan birida charchab, uyquga ketgan qahramon ayqash-uyqash tushlar ko‘radi va bir o‘rinda o‘zi ta’bir ham qiladi: “Buning sababi tushdagi qo‘rqoqligim emas, yo‘q, qirqqa chiqib ham hech narsaga erishmaganim, shu paytgacha nechta bedovga qo‘lim tekkan bo‘lsa, ularning bari qirchang‘iga aylanavergani… o‘ylardim men”.[1] Yuqoridagi parchada asarning asosiy g‘oyasi aks etgan. Qirqqa kirib, o‘tgan hayoti haqida fikr yuritayotgan qahramon uchun ko‘p narsa armon bo‘lgan, u hayotda hamisha o‘zi xohlagan narsaga yetishishiga bir bahya qolganida nimadir to‘siq bo‘lgan va bu to‘siqni yengishga o‘zida jasorat topa olmagan. Bu holat tushdagi g‘ayritabiiy hodisa va maxluq obrazlari orqali tasvirlangan. Hikoyaning boshqa bir o‘rnida bu holat momosining jo‘jalari va ularni ezib tashlayotgan cho‘chqa qiyofasida namoyon bo‘ladi.

E’tiborli jihati, biz bu xulosani qahramon tilidan eshitdik (yuqoridagi parcha nazarda tutilyapti). Demak, Sh.Matkarim qahramonlari intellektual jihatdan baland, ruhiy-psixologik tarafdan puxta ishlangan obrazlardir. Shuning uchundir, ehtimol, “Yo‘riqsiz tushlar” hikoyasini tahlil-talqin qilarkanmiz, fikrlar turfa xilligi, anglashlar-u hislar o‘zgachaligi qurshovida qoldik.

“Yo‘riqsiz tushlar”dagi mushuklar obrazi, bizningcha, qahramon qalbini kemirayotgan alam, iztirob, g‘ashlikning ramzidir. Qahramonimiz ham ko‘pchilik kabi yoshligida olam-olam orzularga cho‘mib, turmush tashvishlari-yu alg‘ov-dalg‘ov yillar orasida ularni yo‘qotib qo‘ygan, ko‘nglining qay burchida saqlanib qolgan istaklari ovozini bosib yashashga mahkum, ular har zamon bosh ko‘targanida, yuraklari boshqacha orziqib ketadigan va oxir-oqibat ko‘nglida bir g‘ashlik paydo bo‘ladigan inson. Demak, yozuvchi hammaga tanish tabiiy hissiyotni hech kim yozmagan shaklda tasvirlay olgan.

Parvoz motiviga kelsak, u asarning bosh g‘oyasini ifodalayotgani uchun ham hikoyaning boshlanishida beriladi va obraz ruhiy holati, muallif aytmoqchi bo‘lgan asosiy gap haqida yetarlicha tasavvur beradi: “Do‘stim odamning havasi kelar darajada xayolparast kishi edi. Doim ulkan orzular, tengsiz armonlar qurshovida yashardi. Hayotning kundalik ikir-chikirlari to‘pig‘iga ham kelmasdi. Uning qitiq patiga tegmaydigan mayda-chuydalar esa men uchun yechimi yo‘q muammo bo‘lib tuyular va gazlangan suv ichidagi havo pufakchalari kabi arzimas bu muammolar birika-birika hadsiz to‘fonga aylanardi”.[2] Bu o‘rinda turmush ikir-chikirlarining inson ruhiyatida qoldiradigan aksini o‘ziga xos ifodada ko‘ramiz. Aslidayam umrimizni yeb bitirayotgan ko‘p muammolar gazlangan suv ichidagi havo pufakchalari kabi arzimas va qiymatsiz ekanligini kech anglaymiz. “O‘zingni osmonda sanama, inson, Seni yengadigan mayda tashvishdir”, deb yozgan edi O‘zbekiston xalq shoiri A.Oripov.

Hikoyani o‘qir ekanman, Do‘st obrazi, aslida, bormidi, real obrazmidi yoki u qahramon xayolidagi “men”mi degan savol tug‘ildi. Bizningcha, bejizga bu obrazga ism berilmasdan faqat “Do‘st” deb nomlanmagan. Har holda, Bu Do‘st qahramonimiz istagan, ammo asrab qololmagan O‘zlikning, hayotning qay bir talato‘plarida yo‘qotib qo‘ygan “men”ining ifodachisi edi. Do‘st uchadi, ucha oladi, xohlagan paytida, xohlagan holatida parvoz qila oladi. Undagi ana shu erk, zavq bizning qahramonga yetishmaydi. Qahramonimiz o‘ngi tugul, tushida ham ucholmaydi. Tushida uchish orzusi bilan uyquga ketadi-yu, parvoz o‘rniga o‘zi-o‘zini bog‘lab qo‘ygan muammo-yu tashvishlar “surbet, badfe’l, yoqimsiz” mushuklar qiyofasida kelib, unga tashlana boshlaydi.

Yaxshi asardan faqat bitta xulosa yoki talqin yuzaga kelmaydi. Har bir o‘quvchi undagi ramziy obrazlarni o‘z dunyoqarashi va tabiatidan kelib chiqib, turlicha talqin qilishi mumkin. “Har qanday ilmiy tahlil faqat shaxsiy fikr ifodasi bo‘lib, u hech qachon mutlaq haqiqatlik da’vosini qilishi mumkin emasligi[3]ni inobatga olsak, “Yo‘riqsiz tushlar”dagi malak, mushuk, dev, tovushqon, jo‘ja, cho‘chqa kabi ramziy obrazlarning har birini har xil ma’noda tushunish va talqin qilish mumkin. Hikoya shunisi bilan ham qimmatlidir.

“Yo‘riqsiz tushlar”da kitobxon e’tiborini tortadigan, yuragini achishtiradigan eng ta’sirli tasvirlardan biri Gulchehra va Karim bilan bog‘liq tasvirlardir. Borishga, ko‘rishga, suhbatlashishga yuragi betlamayotgan, ko‘ksida qandaydir og‘riq uyg‘otayotgan bu alamli qismat egalari oldida qahramonimiz qal-

[1] Sh.Matkarim. Kun shunday boshlanadi. T., G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017, 24-bet.
[2] Shu manba. 5-bet.
[3] Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. T.,”Kamalak”, 2016, 82-bet.

bidan kechayotgan iztirob juda tabiiy. Hayotda shunday insonlarni uchratsak, qo‘limizdan hech narsa kelmasligini bila turib, yordam bergimiz kelaveradi, ularning mislsiz azob-uqubatini ich-ichimizdan his qilgan sayin o‘zimizni aybdor his qilaveramiz. Xuddi ularga tegishli baxt-u shodlikning, salomatlikning bir qismini o‘g‘rilab olganmiz-u ular oldida qarzdor bo‘lib qolganmiz, ana shu qarz endi vijdonimizni qiynayotganday.

Qahramon do‘sti Karimni ko‘rishga boradi, ammo oldiga kirmaydi, kirolmaydi…O‘zining ayanchli qismatiga ko‘nikolmayotgan Karim esa bu holatni undan jirkanish deb qabul qiladi (Afg‘on urushida asir tushib, qo‘l-oyog‘idan ajralgan edi Karim). Muallif bosh qahramonning bu xatti-harakatiga ortiqcha izoh berib o‘tirmaydi. Ammo o‘quvchi o‘z-o‘zidan qahramon ko‘nglidan o‘tayotgan iztirobni his qiladi, uni tushunadi. Bu ham bo‘lsa, yozuvchining mahorati, ruhiy-psixologik tasvirni maromiga yetkazib ifodalaganidandir.

Sh.Matkarimning “Yo‘riqsiz tushlar” hikoyasiga ruhan yaqin asarlaridan biri “Skripka ko‘targan qiz” hikoyasidir. Garchi sujeti, qahramonlari tubdan farq qilsa ham, hikoya ruhiy-psixologik tasvir tarzi jihatidan o‘xshashdir. “Yo‘riqsiz tushlar”dagi moviy ko‘ylakli malak endi skripka ko‘targan qiz qiyofasida namoyon bo‘ladi: “Qo‘lida allaqanday g‘ilof ham bor. “Nima ekan bu?” Qizning qadam tashlashidan halovat va osoyishtalik, orzumand bir xayolparastlik barq urib turardi. “Studentga o‘xshaydi”, o‘yladi Botir. Yurishidan butun olam sultoniday”.

Tabiiyki, talabaligida har bir inson o‘zini butun olam sultoniday his qiladi, chunki oldinda uni kutayotgan allaqanday yuksak marralar, yutuqlar, muvaffaqiyatlar va orzudagi hayot uning xayolini band qilgan bo‘ladi. Real hayot bilan to‘qnashgach, yoshi bir joyga borib, o‘sha kunlarni qandaydir alamli sog‘inch bilan xotirlaydi. Negaki, endi hech narsa u kunlardagiday emas: “Hayot zerikarli, haddan tashqari zerikarli”,[1] afsuski, Botirning qo‘lida umidbaxsh detal – skripka yo‘q. Bu iztirobni yengish uchun Karimga o‘xshagan insonlar alamini ichkilikdan oladi va mast holatda do‘stlariga o‘zining, aslida, kim ekanligini, qo‘lidan nimalar kelishi mumkinligini isbotlamoqchi bo‘ladi.

“Xiyonat” hikoyasida o‘tmishimizning eng og‘riqli kunlari – paxta siyosatining mudhish oqibatlari haqida so‘z boradi. Paxtaga dori sepish jarayonida dori ostida qolib ketgan O‘rozboyning kasalmandligi sababli, uning turmushida notinchlik boshlanadi. Halol-haromni unchalik farqiga bormaydigan, zino eng og‘ir gunoh ekanligini anglab yetmagan feldsher yigit – Sultonning badniyatligi haqidagi gap-so‘zlar bir zumda O‘ramga tarqaladi. O‘z vaqtida Halimaga yetolmagan, O‘rozboyni o‘ziga ashaddiy dushman sanagan Karim kabi xudobexabar kimsalar esa ana shu vaziyatdan foydalanib, O‘rozboyning eng nozik joyiga zarba beradi…

Dastlab, bu obrazlarga nisbatan nafrat paydo bo‘ladi, ammo oradan ozroq vaqt o‘tib, ulardan nafratlanish emas, achinish kerakligini anglay boshlaysiz. Odam bolasi uchun shu qadar tubanlashib ketishdan ziyodroq jazo bo‘lmasa kerak. “Inson aslan buyuk, aslan bechora”, deb yozganda qanchalar haq edi Shoir.[2] Botir og‘riqdan ikki bukilib ketayotganida Karim pastkashlik bilan “To‘ylar muborak”ni xirgoyi qilib borishi o‘quvchi qalbini titratib yuboradi, nafrat uyg‘otadi va muallif shu tasvir orqali o‘z badiiy niyatiga erishadi. Paxta siyosatining birgina inson umriga shunchalar ziyon yetkazishi, shu tarzda bir oila barbod bo‘lishi fonida o‘sha davr butun jamiyat hayotini tasavvur qila boshlaysiz. Bir o‘qishda hikoya O‘.Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romani bosh qahramonining fojiaviy taqdirini yodga soladi. “Tushda kechgan umrlar” romanida shaxs fojiasi urush tufayli yuzaga kelgan bo‘lsa, “Xiyonat”da paxtachilik siyosati sababli sodir bo‘ladi. Kichik janrda katta ko‘lamli ijtimoiy dardni, yukni bera olgani muallifning yutug‘idir.

“Ota” hikoyasida bugungi kunimiz uchun eng dolzarb masalalardan biri qalamga olinadi. O‘zidan dindor va taqvoli inson yasab olgan, ichgan inson bilan hamsuhbat bo‘lish nojoiz ekanligini bilgan farzandlarning, qay holatda, qay maqomda turishidan qat’iy nazar, ota Ota ekanligini, Alloh rizosi ota rizosi bilan kelishini bilmasligi achinarli. Hikoyadagi ota fojiasi, ayniqsa, do‘konda qayta-qayta “Farzandlarim meni hurmat qiladi”, degan so‘zlari bilan sotuvchini, sotuvchidan avval o‘zini aldashga urinishlari nihoyatda ta’sirli. Qisqagina shu hikoyani o‘qish jarayonida qalbingiz bir necha bor silkinib, to‘kilib ketganday bo‘ladi.

Shuhrat Matkarimning yozuvchi sifatidagi yutuqlaridan biri asarlari badiiy tilining o‘ziga xosligi. Yozuvchi o‘zini hech bir qolipga solishga, chegaralashga harakat qilmaydi. Qahramonlar nutqini o‘ta tabiiy, o‘z holicha ko‘rsatadi. Xorazm shevasidagi unutilib ketayotgan (aslida, ular milliy tilimizning beba-

[1] Sh.Matkarim. Kun shunday boshlanadi. T., G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017, 38-bet.
[2] Halima Xudoyberdiyeva satri.

ho boyligidir) ko‘plab so‘zlarni hikoyalarida bemalol qo‘llayveradi, bu, bir tomondan, asar o‘qishliligini oshirib, tabiiy jozibadorlikni yuzaga keltirsa, ikkinchi tomondan, o‘g‘uz lahjasidagi kamyob til birliklarining badiiy adabiyotimizda yashab qolishini ta’minlaydi. Taniqli shoir Erpo‘lat Baxt Sh.Matkarim ijodi haqida shunday yozadi: “Xorazmlik taniqli adib Shuhrat Matkarimning ijodiy uslubida ham Tog‘ay Murod asarlari singari adabiy joziba jilvalanib turadi. To‘g‘ri, Shuhrat Matkarim o‘z nasrini Tog‘ay Murod singari shoirona ohanglarga yo‘naltirmaydi. Biroq uning ijodida ham so‘z jozibasi jilvalanib turadi. Xususan, “Bozor” hikoyasi Quyi Amudaryo mintaqasida tobora tanqislashib borayotgan so‘zlarning ko‘proq qo‘llanilgani bilan e’tiborli sanaladi”.[1] Yozuvchi hikoyalari tilining tabiiyligi ham qahramon ruhiyati tasvirining maromiga yetishida yordamchi vositalardan biri bo‘lgan, deyish mumkin.

Xulosa shuki, Sh.Matkarim zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida o‘z so‘zi va ovoziga ega adib. Uning asarlarida tirik qahramonlar harakatlanadi, kitobxonga, albatta, nimadir yuqtiradi va xotirasiga muhrlanadi.

Jo‘rayeva Go‘zal (Toshkent Amaliy fanlar universiteti o‘qituvchisi)

FIROQIY SHE’RIYATIDA ITTIFOQ SAN’ATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Do‘stmuhammad Firoqiy she’riyatida keng istifoda qilingan ittifoq san’ati xususida so‘z yuritilgan. Maqolada ittifoq san’ati va uning mohiyati, ittifoq san’atining yuzaga kelish omillari, o‘zbek she’riyatida ittifoq san’atining ishlatilishining nazariy asoslari, ayrim shoirlar she’rlarida bu san’atning istifoda etilishi, xususan, Do‘stmuhammad Firoqiy g‘azal va muxammaslaridagi o‘rni va mohiyati haqida so‘z yuritiladi.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается средство иттифак, широко используемое в поэзии Достмухаммада Фираки. Исследуются особенности средства иттифак, его сущность, факторы возникновения, теоретические основы использования указанного средства в узбекской поэзии, а также его роль и сущность в лирике некоторых поэтов, в частности, в газелях и мухаммасах Достмухаммада Фираки.*

Annotation. *This article talks about the art of union, which is widely used in the poetry of Dostmuhammad Firoqi. In the article, the art of union and its essence, the factors of the emergence of the art of union, the theoretical basis of the use of the art of union in Uzbek poetry, the use of this art in the poems of some poets, in particular, Dostmuhammad Firoqi. The role and essence of g‘azal and muhammas are discussed.*

Kalit so‘zlar: *poetika, g‘azal, muxammas, badiiy qurilish, badiiy tasvir vositalari, badiiy san’atlar, lafziy, ma’noviy, mushtarak, ittifoq, antroponim, ism, taxallus, zulma’nayn, ta’sir, joziba.*

Ключевые слова: *поэтика, газель, мухаммас, художественное построение, средства художественной изобразительности, изобразительные средства, ляфзи, смысловой, гармоничный, иттифак, антропоним, имя, псевдоним, зульманайн, влияние, привлекательность.*

Key words: *poetics, gazelle,, muhammas, artistic construction, artistic image means, literal arts, verbal, spiritual, common, ittifoq, anthroponym, name, nickname, zulmanayn, effect, attraction*

Ayrim shoirlar borki, ular o‘z ismlari, taxalluslarini ham badiiy tasvir vositalari vazifasida istifoda etadilar. Bu orqali she’r misrasi, baytiga, umuman, she’rning umumiy ruhiga alohida jozibadorlik baxsh etadilar. Bunday badiiy tasvir vositalari anchagina. Ayniqsa, ittifoq san’ati asosiga qurilgan tasviriy vositaning she’rning badiiy qurilishida alohida o‘rni bor.

Ittifoq ma’naviy san’atlar sirasiga kirib, xuddi bir o‘q bilan ikki jonzotni urgandek taassurot uyg‘otadi. Uning istifoda etilishi bamisli iyhomga o‘xshab ketadi. Shu sababdanmi, ba’zi tadqiqotchilar ittifoq va iyhomni bir deb, xatolikka yo‘l qo‘yadilar. Masalaga aniqlik kiritish uchun bir-ikki misolga murojaat qilib ko‘raylik.

Mavlono Gadoiy bir g‘azalining maqtasida ittifoqni shunday mahorat bilan qo‘llaganki, unda lirik qahramon ma’shuqa oldida o‘zini bir gadosifat ko‘radi va ifodalanayotgan fikrni yanada kuchaytirishga erishadi:

Men Gadodin ayading la’ling mayindin jura’e,
Hargiz usruk ko‘rmadim ko‘zung kibi ehson yo‘q. [3.126]

Bunday san’atning istifoda qilinishini XIX asr Qo‘qon adabiy muhitining rahnamosi Umarxon Amiriy bisotida ham ko‘p uchraganligining shohidi bo‘lish mumkin:

[1] Munaqqidlar davrasida. “Xorazm yoshlari”, 2023.

Iqlimi vafo Amiridursen,
Ey shoh, bu gadog‘a qil karamni. [2.345]
Yoki:
Ul husn Amiri menga ko‘p qildi muruvvat,
Lekin umarosi meni bezobita etti. [2.355]

Lug‘atlarda ittifoqqa bunday ta’rif berilgan: “...o‘zaro muvofiqlashish bo‘lib, she’rda shoir taxallusining ham lug‘aviy ma’nosida, ham taxallus sifatida ishlatilishi” [3.126]. Ittifoq XX asrga kelib ham o‘z nufuzini yo‘qotib qo‘ymaganligini Cho‘lpon, Erkin Vohidov, Omon Matjon she’riyatida uchrashi bilan izohlash mumkin. Chunonchi, Cho‘lpon “Muhabbat osmonida go‘zal Cho‘lpon edim, do‘stlar”, deya taxallusini metaforalarga o‘rab berayotgan bo‘lsa, Erkin Vohidov “Senga o‘n to‘rtda bog‘landim, hanuz Erkin bo‘lolmas dil” deb yozadi [3.126]. Omon Matjon esa “Damlar shikvasiga uchma, Omon bo‘l”, deb bu san’atni barmoq tizimiga ham olib kiradi [3.126].

Firoqiyning taxallusi ham xuddi Gadoiy, Amiriy, Erkin Vohidov taxallus va nomlari singari ittifoqqa qo‘l keladigan taxalluslardan sanaladi. Taxallusning bu tarzda ittifoq bo‘lib kelishi shoirning ko‘p she’rlarida uchraydi. Oldindan ta’kidlash joizki, mumtoz she’riyatimizda hijron (ayriliq) motivlari dastlabki o‘rinda turadi, “firoq” so‘zi ham ayriliq, hajrni bildirib, shu so‘zga muqobil ishlatiladi. Modomiki, shunday ekan, Firoqiy g‘azaliyoti, muxammas va boshqa shu yo‘nalishdagi she’rlarida taxallusning ittifoq san’atini hosil qilib, tashbeh va tamsillar doirasida kelishini tabiiy hol deb qarash lozim. Ayrim misollarga murojaat etib ko‘raylik:

Necha muddatdir Firoqingda kuyib bo‘ldim ado,
Sadqa bo‘lsin xasta jon maktubi insho birla kel. [1.12]

Mazmuni: Sendan ayrilganim sababidan uzoq vaqtdan buyon ado bo‘ldimki, sening visolingga jonim sadqa bo‘lsin va bir maktubi insho bilan kel. Bayt mazmunidan ko‘rinib turibdiki, lirik qahramon ayni maqta’da taxallusni ittifoq qilib, ma’shuqaga o‘z ahvolidan yozg‘irmoqda. Mazkur baytda kelgan “xasta jon” hamda “maktubi insho” metafora qobig‘ida tazodni yuzaga keltirgan holda, baytdagi ayriliq motivining kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Yana bir baytni ko‘rib chiqaylik:

Navo sozini chertib nola aylab tun saharlarda,
O‘zimdek bir Firoq o‘tida kuygan oshno izlab. [1]

Mazmuni: tun saharlarda navo sozini chertib, ayriliqlardan nola qilib, o‘zimdek bir hijron o‘tida kuygan dardkashni izladim. Baytdagi “tun-sahar” tazodi oshiqning hijrondagi holatini real ko‘rsatishga bir obyekt vazifasini o‘tayotgan bo‘lsa, “navo sozi” metaforasi “nola aylab” fe’li bilan birgalikda ana shu obyektni o‘quvchi shuurida haqqoniy namoyon bo‘lishiga sabab bo‘layotir. Lirik qahramon baytning ikkinchi misrasida “oshno” so‘ziga katta yuk yuklagan. Bu bilan shoir lirik qahramoni “bu dunyoda meningdek visol umidida hijronda kuygan oshiq yo‘q. Men o‘zimdek ayriliq azobida kuyib, kul bo‘lgan oshiqni izlab charchadim”, deb iddao qilayotganini anglash qiyin emas.

Firoqiy nafaqat g‘azal janridagi she’rlarida, balki muxammaslarida ham ittifoq san’atini ishlatganini kuzatish mumkin. Bir muxammasida ittifoqni bu tariqa qo‘llaydi. Muqimiy g‘azaliga bog‘langan bu muxammasining oxirgi bandida ushbu holatni uchratish mumkin:

Vujudim gulshanini g‘am shamoli tegdi – so‘ldirdi,
Qazo jomi toshib paymonayi umrimni to‘ldirdi,
Firoqida ado bo‘ldim xabar olsin mozorimdan,
Muqimiy, iltimosim shuki, sho‘xi gulizorimdan,
Quduvliyga agarchi sim-u zarkim, jon fido kelsun. [1.8]

Kezi kelganda, bir ko‘stni aytib o‘tish lozim bo‘ladi. Muxammasning oxirgi bandidan keltirilgan iqtibos saktalikdan xoli emas. Muxammasning qofiya talabiga ko‘ra, oxirgi band a-a-a-a-b (biz shartli ravishda shunday belgiladik – G.J.) tarzda dastlabki to‘rt misra o‘zaro ohangdosh bo‘lishi kerak edi. Biroq Firoqiy muxammasida band a-a-b-b-d tarzda ohangdoshlik hosil qilinganki, bu holat xato sanaladi.

Firoqiy taxallusiga monand ittifoq san’atining ishlatilishi faqat ishq mavzusidagi she’rlaridagina (g‘azal va muxammaslarida) emas, balki ijtimoiy mavzudagi she’rlarida ham qo‘llanganini kuzatish mumkin. Shoir axloqiy-ta’limiy mavzuidagi bir g‘azalida ham “firoq” so‘zini shu san’at bilan ziynatlaganligini kuzatish mumkin:

Haqiqiy oshnolarni Firoqida adodurman,
Jahonni sayr qildim do‘sti beozor kamdan kam. [1.10]

Ushbu baytda “firoq” kalimasi, dastlab, konnotativ ma’noda “izlab”, “istab”, “axtarib” kabi mazmunga ishora qilib, “haqiqiy oshnolarni axtarib, ado bo‘ldim” deyilayotgan bo‘lsa, ikkinchi misradagi

“do‘sti beozor” izofaviy birligi bilan vobastalikda, “bu dunyoda sen bilan do‘st bo‘lib, ko‘zingga nur, belingga quvvat, oyoqingga mador bo‘la oladigan haqiqiy do‘st kam”, degan mazmunga ishora qiladi.

Shoir Firoqiy na’t mazmunidagi muxammasining so‘nggi bandida ham “firoq” kalimasining konnotativ ma’noda istifoda etib, Rasulilloh (s.a.v.) bo‘lgan cheksiz muhabbatini ayni shu kalima vositasida oshkor qiladi:

Tamomi bandalarni rahbari sohib sarvarisan,
Malohat gulshanining xush nazokat benazirisan,
Firoq ayyomida qolgan g‘ariblar dastigirisan,
To‘qqiz zarga hizbi me’roji shoh, ham Amirisan,
Nishoni novakingdur qoba qavsayn av adno. [1.4]

Mazkur tugallanma banddagi ittifoq Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ga maqtov tariqasida yozilgan bo‘lib, unda Rasulilloh (s.a.v)ning o‘z ummatlariga dastgir (qo‘ltig‘iga kiruvchi, kiftida ko‘tarib yuruvchi – G.J.) ekanligini ta’kidlash uchun ana shu ummatlar darajasini “firoq ayyomida qolgan g‘ariblar” birikmasi bilan birga istifoda qiladiki, natijada ittifoq san’ati, bir tomondan, g‘ariblikda qolgan ummatlarni, ikkinchi tomondan, shoirning lirik “men”ini ifodalashga xizmat qilgan. Yana shuni qo‘shimcha qilish mumkinki, Amiriyga tegishli misrada ham ittifoq qo‘llangan (Amirisan). Natija o‘laroq, na’tda Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning hamdi haddi a’losiga ko‘tarilgan.

Xullas, mumtoz she’riyat an’anasiga ko‘ra, so‘nggi bayt yoki bandda taxallus qo‘llash odati mavjud ekan, ularning ittifoq tusini olishiga tabiiy hol deb qarash lozim bo‘ladi. Bu holat, bir tomondan, tilimiz fasohatini o‘zida namoyon qilsa, ikkinchi tomondan, muayyan shoir mahoratining ko‘zgusi sifatida ko‘zga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Do‘stmuhammad Firoqiy. Dastxat devon (nashr qilinmagan).
2. Amiriy. Devon (o‘zbekcha devoni). T., “Tamaddun”, 2017, 452-bet.
3. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. T., Akademnashr, 2010, 400-bet.

Nizomova Shoxista Shodiyevna (Buxoro DU “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi (PhD) o‘qituvchi)

SUV VA OLOVGA MAROSIMIY MUNOSABATLARNING ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE’RIYATIDAGI TALQINI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada suv va olovga marosimiy munosabatning zamonaviy o‘zbek she’riyatdagi talqini xususida fikr bildirilib, olis o‘tmishda ajdodlarimizning suv va olov bilan bog‘liq tasavvur-tushunchalari ularga nisbatan hozirgi munosabatlarning shakllanishida o‘ziga xos asos vazifasini o‘tagan. O‘zbek oilalarida suv va olovga e’tiqod qadimdan shakllangan bo‘lib, qator an’analarda hamon davom etib kelayotganligi haqida fikr yuritilgan.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается интерпретация обрядового отношения к воде и огню в современной поэзии. В далеком прошлом представления наших предков, связанные с водой и огнем, служили особой основной для формирования нынешних отношений к ним. Вера в силы воды и огня сформировалась в узбекских семьях с давних времен и до сих пор сохраняется в ряде традиций.*

Annotation. *This article discusses the interpretation of the ceremonial approach to water and fire in modern poetry. In the distant past, the ideas of our ancestors related to water and fire served as a special basis for the formation of current attitudes towards them. Belief in water and fire was formed in Uzbek families from a long time ago, and it is thought that it still continues in a number of traditions.*

Kalit so‘zlar: *she’riyat, marosim, oilaviy-maishiy marosim, udum, an’ana, tabiat.*

Ключевые слова: *поэзия, обычай, семейные обычаи, обряд, традиция, природа.*

Key vords: *poetry, rituals, family rituals, customs, traditions, natural phenomena.*

Jahondagi barcha xalqlar kabi, o‘zbeklarning milliy qadriyatlari va ma’naviy an’analari tizimida suv va olov bilan bog‘liq turli e’tiqodiy qarashlar asosida shakllangan marosim, urf-odatlar alohida o‘ringa ega. Qadimgi insonlar suv va olovni inson ruhini poklovchi, unga mangu hayot bag‘ishlovchi magik vosita deb qarab, turli marosimlar bilan bog‘liq udumlarni ado etib kelishgan. Qizig‘i shundaki, bunday udumlarning ayrimlari haligacha saqlanib kelayotir.

Folklorshunos A.Musaqulov aytganidek: «Jahonning deyarli barcha xalqlarida go‘daklar va kelinchaklarni ritual cho‘miltirish, marhumni yuvish odati borki, bu ham suv kulti va uning magik kuchiga

ishonch bilan bog‘liq.[1] Bu cho‘miltirish va yuvishlar parsial magiya qonuniyatiga ko‘ra, suvdan o‘tish bilan teng bo‘lib, go‘dak, kelinchak, marhumning mohiyati o‘zgarganligi, bir dunyodan ikkinchi olamga o‘tayotganligini anglatadi».

Bularning barchasi xalqning suv va olov bilan bog‘liq mifologik hamda magik qarashlarini o‘zida namoyon etadi. Shularga asoslanib, Abdulla Oripov «Suv» she’rida yozadi:

Juda ajoyibdir inson udumi,
U suvni juda ham, juda ham suyar.

Ko‘rinadiki, suv va olovga marosimiy munosabatlar – alohida e’tiborni tortadigan hodisalar. Chunki ularda xalqimizning suv va olovga aloqador qadimgi mifologik qarashlari asosida shakllangan hamda kishilar o‘rtasiga singib ketgan ajoyib urf-odatlari saqlanib qolgan. Masalan, nopok deb qaralgan qandaydir narsani yuvish lozim bo‘lsa, suv maxsus joyga to‘plangan, lekin shunda ham nopok narsa to‘g‘ridan to‘g‘ri suv bilan yuvilmagan. Bunda nopok narsa, avval, sigir siydigi bilan yuvilib, quyoshda yoki qumda quritilgan va so‘ngra yakuniy poklash maqsadida suv bilan yuvilgan.

Davolash magiyasiga ishonch asosida shakllangan rituallarda ham suv va olovning alohida o‘rni bor. Ko‘pincha, «davolash» maqsadida tayyorlangan ibodat oyatlari (Qur’ondan oyatlar) za’faron bilan qog‘ozga yozilib, suvga botirilgan va yozuvlari suvda erigach, suvi bemorga ichirilgan, qog‘ozning o‘zi esa tumor sifatida osib yurilgan.[2]

«Vendidod»da yozilishicha, Nasani quvib chiqarish marosimida yovuz ruhni haydashda asosiy vosita suv hisoblangan. Marosimni o‘tkazuvchi bemorning boshidan oyog‘igacha, barmoq uchlariga qadar 33 nuqtasiga suv quyib chiqqan. Suv va olov inonchiga aloqador marosimlar xalqimiz hayotida katta o‘rin tutadi. Ulardan aksariyati an’anaviyligi bilan e’tiborni tortadi.

O‘tmishdagi turmush amaliyotida oqar suvlar, suv omborlari, hovuz va quduqlardagi tozalash ishlari ham marosimiy xarakter kasb etgan. Agar suvga o‘likning tanasi tekkan yoki tasodifan o‘limtik tushgan bo‘lsa, uni tozalash tadbiri juda qiyin kechgan. Masalan, quduqdagi suv to‘laligicha tashqariga chiqarib to‘kilgan yoki undan boshqa foydalanilmagan, ko‘mib tashlangan. Xullas, suvni halollash jarayoni muhim hisoblangan. Oqar suv (masalan, daryo, soy, kanal)ga jasad tushsa, ularning suvi harom hisoblanmagan.[3]

«Avesto»da suv va yerning bog‘liqligiga alohida e’tibor qaratilgan. Unda suv va yer oldida gunoh qilganlar uchun 200 qamchi urib jazolash qoidasi belgilanganligi kuzatiladi. Kimki Axuramazdaga imon keltirsa, yerni haydash, sug‘orish va ekish oldidan uning ustidagi suyak, soch, qon va najasdan tozalashi zarur hisoblangan. Aks holda, muqaddas, qudratli, yaxshilik keltiruvchi suv, aksincha, ilohiy ofatlar sababchisiga aylanishi aytilgan.[4]

Bundan ko‘rinadiki, suv azaldan qadimgi ajdodlarimizning hosildorlik inonchlarini o‘zida namoyon qiladi. Shu orqali suv oila, farzand tushunchalari bilan ham bog‘lanadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, Xorazmda ayollar daryo qirg‘og‘iga kelib, nariyoqqa o‘tmay, shu joyning o‘zida daryo suviga suv va tuz tashlab, qurbonlik qilishadi. Bu bilan suv ilohasidan o‘z oilalari uchun tinchlik, to‘kinlik tilashgan. Befarznd ayollar esa erta bahorda ariqlarga suv kelishi bilan, oqayotgan ariqlar ustidan sakrab o‘tib, o‘zlariga farzand so‘rashgan. Suvga biror-bir narsani (pichoqmi, uzukmi) qurbonlik sifatida tashlashgan.[5]

Hubbi Amudaryo suvi ostida makon tutgan, suv osti dunyosi sohibiga aylangan, suv oqimini mo‘tadillashtiruvchi, ekinlarni obihayot bilan ta’minlovchi, kema va kemachilarga yordam beruvchi, tabiiy ofatlarda, qishloqlarni suv bosganda, suv osti oqimi ruhlari aranglar bilan kurashuvchi, ularning suv toshqini tashkil qilinishini bartaraf etuvchi afsonaviy obrazlardan biri hisoblangan. Amudaryo esa juda injiq, tez-tez o‘zanini o‘zgartiruvchi, goh suv toshqini hosil qilsa, goh suv tanqisligini keltirib chiqaruvchi asov suv manbayi deb qaralgan. Shu sababli dehqonchilik bilan mashg‘ul aholi o‘rtasida Amudaryoning dahshatli ofatlari bilan bog‘liq turli marosimlar turkumi yuzaga kelgan.

Qadimda yoshlar bir-biriga sevgi dil izhorlarini, oila qurish taklifini, albatta, daryo yoki soy bo‘yida aytishi udumi amal qilgan. Xalqning suv bilan bog‘liq bunday betakror qadimiy udumlaridan xabardor

---

[1] Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. Т., «Фан», 2010, 135 bet.
[2] Снесарев Г.П. Хоразмликларнинг мусулмонликдан аввалги маросимлари ва урф-одатлари. Урганч, УрДУ ноширлик бўлими, 2018, 33 – 34-betlar.
3 Shu manba. 137 – 138-betlar.
4 Shu manba. 189-bet.
[5] Снесарев Г.П. 236-bet.

bo‘lgan ayrim shoirlar o‘z she’rlarida ularga ishora qilib o‘tishi kuzatiladi. Jumladan, shunday ishoralardan biri A.Oripovning «Otello» she’rida uchraydi:

Sayr etib hovliqma soyning qo‘shini.
Otello sha’niga salom aytaman.
Ziyorat qilaman mozorboshini.

Adabiyotda Otello – rashkchi er timsoli. Chunki u o‘ta rashkchiligi sabab suyukli yoridan ayrilib, shirin turmushiga o‘z qo‘li bilan chek qo‘yadi. Shu jihatdan u boshqa shunday erkaklarni hushyorlantiruvchi obrazdir. Ammo u o‘zi yolg‘on gapirib o‘rganmagani, to‘g‘riligi va o‘ta ishonuvchanligi bois muttaham Yagoning yolg‘oniga ishonadi. Shoir o‘zbek teatr san’atida mazkur obrazni mahorat bilan jonlantirgan Abror Hidoyatov xotirasiga she’r bag‘ishlar ekan, uni «Otello» deb ataydi. Bu bilan shoir aktyor nomining elga tanilishiga, avvalo, shu roli sabab bo‘lganligini nazarda tutadi. Darhaqiqat, Otello roli Abror Hidoyatov aktyorlik faoliyatining cho‘qqisi edi. Demak, A.Oripov «Sayr etib hovliqma soyning qo‘shini» misralari ohangida nafaqat o‘z hislarini bayon etishni, balki she’rxonni yor, umr yo‘ldoshi talashda hushyor bo‘lishga undashni ham ko‘zlagan deyish mumkin.

Olovga bo‘lgan hurmat va e’tibor odatlarining boshqa ba’zi ko‘rinishlari O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan, Farg‘ona vodiysi o‘zbeklari turmush tarzida hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Vodiy qipchoqlarida xonadon o‘chog‘i hech qachon o‘chirilmas ekan. Axborotchilar ma’lumotlariga ko‘ra, xonadon o‘chog‘ida olovni kecha-kunduz o‘chirmaslik ota-bobolardan qolgan odat bo‘lib, ularning tasavvuricha, olovsiz o‘choq misoli egasiz, kimsasiz uydir. O‘chog‘ida doimo olov yongan xonadondagina doimo baraka bo‘lgan. O‘choqda yonayotgan olovni bulg‘amaslik uchun unga iflos narsalarni, hatto iflos o‘tinni yoqish ham taqiqlanadi. Agar o‘tin iflos bo‘lsa, yoqilishidan oldin, odatda, quyoshda quritilgan yoki suv bilan yuvilgan.

Olov yongan o‘choqqa qalampir, non, ovqat qoldiqlari tashlash, har xil axlat yoqish yoki o‘choqdan chiqqan kulni axlatxonalarga tashlash, harom chiqindilarni o‘choq olovida kuydirish gunoh hisoblangan. Kul bilan axlatni bir-biriga qo‘shish qat’iy taqiqlangan. Agar axlat bilan kul bir joyga yig‘ilsa, xonadonda to‘y va aza bir kelib qoladi, deb qaralgan.

Motam marosimlarida olovni bulg‘amaslik uchun uch kungacha xonadon o‘chog‘ida olov yoqib ovqat tayyorlanmagan. Bundan tashqari, nikoh to‘yi marosimlarida kelin-kuyovlarni ins-u jinslardan poklash maqsadida olov atrofida aylantirish va safarga ketayotganda xonadon olovidan boshqalarga bermaslik kabi odatlar ham qaysidir ma’noda zardushtiylik marosimlari bilan bog‘liqdir.

Xulosa qilib aytganda, qadimgi insonlar olovni, suvni, tuproqni inson ruhini o‘zga olamga ko‘chirish vositalari deb sanagani hamda daryo va dengizlarni, tog‘ va cho‘llarni, o‘rmonlarni ruhning makon topadigan manzillari sifatida tasavvur qilgani uchun suv marosimiy mohiyat kasb etib, uning muhim atributiga aylanib qolgan. Hozirgi o‘zbek she’riyatidagi suv va olov bilan bog‘liq obrazlarni xalq qo‘shiqlaridagi suv va olov kultiga aloqador an’anaviy obrazlarga xos badiiy talqin xususiyatlarini muqoyasaviy tarzda tekshirish an’anaviy lirik obrazlarning o‘zaro bog‘liqligini, ularning yangilanish qonuniyatlarini, har birining ahamiyatini belgilab ko‘rsatishda yordam beradi.

Zaripov Lochin Rustamovich (Oliy ta'lim, fan va innotatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi bo'lim boshlig'i, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent)

XORIJIY DAVLATLAR VA MAMLAKATIMIZ MISOLIDA OLIY TA'LIMDA O'QITISHNING KREDIT-MODUL TIZIMINING QO'LLANILISHI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada xorijiy davlatlar va mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida o'qitishning kredit-modul tizimini qo'llanilishining nazariy asoslari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, kredit-modul tizimining samarasi va maqsadga muvofiqligi ko'plab rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimlarida ko'p tarqalganligi bilan asoslaniladi, ta'lim dasturlarining talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilishi haqida so'z yuritilgan.*

Аннотация. *В данной статье представлена информация о теоретических основах использования кредитно-модульной системы обучения в системе высшего образования зарубежных стран и нашей страны. Также эффективность и целесообразность кредитно-модульной системы основывается на том, что она широко распространена в образовательных системах многих развитых стран.*

Annotation. *This article provides information on the theoretical foundations for the use of a credit-modular system of education in the higher education system of foreign countries and our country. Also, the effectiveness and expediency of the credit-modular system is based on the fact that it is widespread in the educational systems of many developed countries.*

Kalit so'zlar: *innovatsiya, kreativ, kredit-modul, kredit birliklari, kompetensiya, komponent, talabalar mobilligi, texnologiya, tayyorgarlik, tayyorlik.*

Ключевые слова: *инновация, креатив, кредитный модуль, кредитные единицы, компетентность, компонент, студенческая мобильность, технология, подготовка, готовность.*

Key words: *innovation, creativity, credit module, credit units, competence, component, student mobility, technology, training, readiness.*

Hozirgi kunda Yevropa oliy ta'lim muassasalarida keng qo'llanib kelayotgan va O'zbekiston Respubkasining mahalliy oliy ta'lim muassasalarida joriy etilayotgan ECTS kredit-modul tizimi asosida ham AQSH akademik kredit tizimi tamoyillari yotadi.

ECTS 1976-yilda Yevropa Ittifoqi davlatlari ta'lim vazirlari mazkur davlatlar oliy ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlikda o'qish dasturlari joriy etish borasida kelishuvlarga erishadi. Lekin bu loyihani amalga oshirish, loyihaning moliyaviy va huquqiy tomonlarini ishlab chiqish uchun 10 yildan ko'proq vaqt kerak bo'lgan. 1987-yilda Yevropa Ittifoqining London Sammiti davomida ittifoqqa a'zo mamlakatlar oliy ta'lim muassasalari o'rtasida talabalar almashinuvini qo'llab-quvvatlovchi Erasmus (ERASMUS) (European Community Action Scheme for Mobility of University Students) dasturi tashkil etilgan [1.82].

Erasmus dasturi 1989-yilda Amerika kredit tizimi va Niderlandiya oliy ta'lim tizimiga asoslangan holda, yangi kredit-modul tizimini ishlab chiqadi va uni European Credit Transfer System (ECTS) deb nomlaydi. Ushbu qoidalar o'zida Yevropa Ittifoqi davlatlari oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarida taklif etiladigan fanlarni qiyosiy tahlil qilish va talabalar almashish dasturlarida xorijiy universitetlarda o'zlashtirgan fanlarni o'z universitetlarida tan olinishini belgilab beradi. ECTS kredit-modul tizimi qoidalarini joriy etish natijasida Yevropa Ittifoqi davlatlarining oliy ta'lim muassasalari o'rtasida talabalar almashinuvi rivojlana boshlaydi.

1999-yilga kelib Yevropada Bolonya protsessi deb atalgan Yevropa mamlakatlari oliy ta'lim vazirliklari o'rtasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish xalqaro forumi ish boshlaydi. Forumning maqsadi Yevropa davlatlarining oliy ta'lim standartlari va sifatini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, o'zlarining oliy ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etishning asosiy mexanizmi sifatida targ'ib qilishga kelishiladi va natijada ECTS tarqala boshlagan.

Bugungi kunda ECTS kredit-modul tizimi Yevropaning 49 dan ortiq davlatlari oliy ta'lim muassasalari tomonidan foydalanib kelmoqda. Bolonya jarayoni ishtirokchi mamlakatlari orasida Rossiya, Belorusiya, Turkiya, Ozarbayjon, Armaniston, Gruziya, Qozog'iston ham teng huquqli a'zosi sifatida qatnashib kelmoqda va ECTS kredit-modul tizimini OTMlarida joriy etish bo'yicha harakatlarni olib borishmoqda [3.238].

Amerika Qo'shma Shtatlarida bakalavr darajasini olish 4 yil o'qishni nazarda tutadi. To'rt yil ichida talaba o'rtacha har biri 3 kreditlik 40 tacha fanni o'zlashtirishi zarur bo'lgan. Birinchi va ikkinchi yil

tayanch bilimlarni olish uchun ajratiladi (taxminan, 60–68 kredit) va bu oraliq daraja (Associates) bilan yakunlanadi, uchinchi va to‘rtinchi yillar mutaxassislik fanlarini mukammal o‘rganishga bag‘ishlanadi va bu jarayon malakaviy imtihon bilan tugallanadi.

USCS (United States Credit System) tizimi Amerika talabalarining mobilligini oshirgan bo‘lib, bir universitetda olingan kreditlar boshqalarida ham hisobga olingan va talabalar o‘qishlarini bir oliy o‘quv yurtidan boshqasiga sinov birliklarini saqlagan holda ko‘chirishlari mumkin bo‘lgan. Bunday amaliyot qoldirilgan o‘qish va o‘qishga tiklash jarayonlarini o‘zaro integratsiyalash uchun ham qo‘llanilgan.

Yevropa oliy ta’lim muassasalari ECTS (European Credit Transfer System)da fan dasturlarini tuzishda turli o‘quv mashg‘ulotlarini birlashtiradi. Ammo loyiha ustida ishlash, mustaqil ta’lim va amaliyot soatlari taqsimotida ajratilgan vaqtlarda katta farq mavjud. Barcha dars turlari talabalarning bilim va kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan.

ECTSda kredit ta’lim natijalari va talaba yuklamasiga asoslangan. Har bir dastur komponenti ta’lim natijasi bilan ifoda etiladi. Ta’lim natijasi talabalarning qanday bilimlarga ega bo‘lishi, nimalarni tushunishi va dasturni tamomlagach, qanday ishlar bilan shug‘illanishi haqidagi ma’lumotni beradi. Talaba yuklamasini hisoblashda esa barcha o‘quv mashg‘ulotlar inobatga olinadi (mustaqil ta’lim, amaliyot, ma’ruza va semenar soatlari). ECTSda 60 kredit 1 o‘quv yili uchun beriladi, bunda 1 kredit=25/30 soatlik yuklamaga teng [5.26].

ECTSning o‘ziga xos jihati – bu 1 akademik o‘quv yili uchun 60 kreditni, 1 semestr uchun 30 kreditni va 1 semestr uchun esa 20 kreditning ajratilishida. 3 yil talab etiladigan malakalar uchun 180 ECTS krediti ajratilinadi. ECTS kreditlari – maqsad qilingan natijalarga talabaning erishishi uchun talab etiladigan “yuklama”ga asoslangan.

Yevropada kredit-modul tizimi bakalavriat, magistratura va doktaranturalarni boshqacha nomlash, ularni tizimlashtirish orqali amalga oshiriladi va ular ushbu darajalarni umumiy “3 levels yoki 3 cycles” deb nomlashadi. Shunda yanada tushunarli qilib aytadigan bo‘lsak, 1-sikl bu bakalavriat, 2-sikl magistratura, 3-sikl doktaranturani anglatadi. Yevropa ta’limining yana bir muhim jihati bakalavriat+magistratura=5yil formulasiga asoslanganligida. Agar bakalavr 3 yil bo‘lsa, bu degani, magistratura, albatta, 2 yil bo‘lishi kerak. Bakalavriat ta’limi bosqichi 4 yil davom etgan taqdirda, magistratura bosqichi uchun 1 yil sarflanadi.

Bakalavriat 3 yil+magistratura 2 yil =5yil.

Bakalavriat 4 yil+magistratura 1 yil =5yil.

Buyuk Britaniyada ta’lim tizimi CATS (Credit Accumulation and Transfer Scheme/System – Kreditlarni to‘plash va ko‘chirish sistemasi)ga asoslangan bo‘lib, uning maqsadi ko‘p sonli malaka hujjatlari tizimini har bir tur uchun alohida kreditlar bilan belgilash orqali tartibga solish va optimallashtirishdir. CATS bo‘yicha akademik yil 1200 shartli o‘quv soatlari yoki 120 kreditni o‘z ichiga oladi, 1 britaniya krediti 10 shartli o‘quv soatlariga teng. Shartli o‘quv vaqti deyilganda, talaba fanni o‘zlashtirishi uchun sarflaydigan soatlar miqdori tushuniladi. Shartli vaqt auditoriya mashg‘ulotlari, asosiy amaliy ishlar, loyiha ustida ishlash, mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari, imtihonlarga tayyorgarlik va ularni topshirish kabi faoliyatlarni, ya’ni, barcha turdagi o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan o‘quv faoliyatlarini o‘z ichiga qamrab oladi. Britaniya universitetlarida bakalavr darajasini olish uchun 3 yil mobaynida 360 Britaniya kreditlarini egallashlari kerak. To‘rtinchi yil talabalarga “imtiyozli bakalavr” (Bachelor with Honours) darajasini olishga imkon beriladi [4.85].

Italiyada CFU (University Educational credit – Crediti Formativi Universitari) Universitet ta’lim krediti har bir kurs va modul yuklamasini baholash tizimi sifatida qabul qilingan. Kunduzgi ta’lim shakli talabalari uchun 1 o‘quv yiliga 60 kredit (1500 soat) to‘g‘ri keladi. 1 CFU krediti 1 ECTS kreditiga, 1 CFU krediti 25 soatlik o‘quv yuklamasiga teng. Italiya universitetlarida milliy baholash mezonidan keng foydalaniladi. Bu baholash tizimi 18–30 ballik tizim bo‘lib, unga ko‘ra, 18 ball eng kam o‘tish bali hisoblabadi.

Ispaniyada oliy ta’lim ko‘p pog‘onali bo‘lib, quyidagi davrlarni o‘z ichiga oladi. Birinchi ta’lim davri u kamida 3 yil davom etadi va 180–270 ispan kreditlariga teng bo‘ladi. Umumlashtirilgan birinchi va ikkinchi davrlar: 4–5 yilga mo‘ljallangan bo‘lib (tibbiyot mutaxassisliklari uchun 6 yil), birinchi davr – 2–3 yil, ikkinchisi – 2 yil davom etadi. Ko‘rsatilgan 4,5 va 6 yilda talabalar 300–500 kredit to‘plashadi.

Shotlandiya kredit tizimi SCQF. Talaba bir o‘quv yilida 120 SCQF to‘plashi talab qilinadi. 120 SCQF=60 ECTS. Talabalar (kunduzgi ta’lim) 1 semestrda 45–60 kreditni (3–4 modulni) o‘qib tamomlashlari mumkin. Kechki ta’lim shakli talabalari esa 1 semestrda ko‘pi bilan 30 kreditni to‘plash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Heriot Watt universitetida standart modul 15 kreditlik modul hisoblanadi. Talaba

1 modulni tomomlashi uchun 150 soatga teng o‘quv yuklamasini bajaradi (1 SCQF=10 soat). Yuqorida ta’kidlanganidek, 1 o‘quv yili uchun kredit miqdori 120 ga teng.

Demak, talaba yiliga 8 ta standart (15 kreditlik) modulni o‘zlashtiradi. SCQF malakalarni murakkablik darajasi hamda davomiylik muddatiga asoslanib farqlash imkonini beradi. Unga binoan, 12 daraja mavjud, bunda 7–10-darajalar bakalavr bosqichining 1–4-kurslariga to‘g‘ri keladi, 11-daraja magistratura bosqichini anglatadi. Bu darajalarning o‘ziga xosligi shundaki, talaba magistrlik sertifikatini olish uchun 60 kredit, magistrlik diplomini olish uchun 120 kredit, nihoyat, magistrlik darajasiga ega bo‘lish uchun 180 SCQF kreditini to‘plashi talab qilinadi. Magistrlik darajasiga erishishda 60 kredit birligi loyiha yoki dissertatsiya uchun ajratiladi.

Shvetsiyada 1 shved krediti universitetda 1 hafta o‘qishga teng deb qabul qilingan bo‘lib, bu tizim o‘quv rejalarini tuzishni va talabalarning o‘zlashtirgan o‘quv soatlarini hisoblashni osonlashtirish uchun joriy etilgan. Shvetsiya universitetlarida o‘quv yili 40 hafta davom etadi va kuzgi hamda bahorgi semestrlardan iborat bo‘ladi. Shunday qilib, talaba o‘quv yili davomida ma’ruza, yakka tartibdagi ishlar va boshqa ishlarni ham qo‘shib hisoblaganda 40 kredit to‘playdi [4.83].

Avstraliya oliy ta’lim tizimida o‘quv yili davomiyligi 3 yil bo‘lgan bakalavr darajasini egallash uchun 144 kredit, o‘quv yili davomiyligi 2 yil bo‘lgan magistratura darajasini olish uchun esa 96 kredit birligiga (credit points) teng o‘quv yuklamasini bajarishi lozim. Bitta fanga ajratilgan o‘quv yuklamasi 6-8 kredit birligi atrofida bo‘ladi.

Kredit-modul tizimini o‘rganish va tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, dunyoning turli davlatlarida u o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shunga qaramasdan, kredit-modul tizimining samarasi va maqsadga muvofiqligi ko‘plab rivojlangan davlatlarning ta’lim tizimlarida ko‘p tarqalganligi bilan asoslaniladi, chunki ta’lim dasturlarining talabalarda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilishi kreativlikni va bilim olishga o‘zini safarbar qilishga, oxir-oqibat ta’lim sifatini oshirishga imkon beradi [2.45].

Respublika oliy ta’lim muassasalari ta’lim tizimiga kredit-modul tizimini tatbiq etilishi, dastlab, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 24-iyuldagi “Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot texnologiyalari universitetida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 569-sonli qaroriga asosan, Toshkent Axborot texnologiyalari universitetida kadrlar tayyorlash bo‘yicha o‘qitishning kredit tizimi joriy etildi. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2020-yil 30-iyundagi 357-sonli buyrug‘iga muvofiq, 2020–2021-o‘quv yilida respublika oliy ta’lim muassasalarining 35 tasida o‘quv jarayoni kredit-modul tizimida tashkil etilgan bo‘lsa, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021-yil 16-iyuldagi 311-son buyrug‘i asosida 2021–2022-o‘quv yilidan respublikadagi barcha davlat oliy ta’lim muassasalari va ularning filiallarida o‘quv jarayoni kredit-modul tizimi asosida tashkil etildi [1.79].

Respublikamiz oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit to‘plash va ko‘chirishning Yevropa tizimi (European Credit Transfer and Accumulation System – ECTS) asosida ta’limning kredit-modul tizimi joriy etilgan. O‘quv yili davomiyligi 36 haftagacha bo‘lib, shundan 30 haftasi akademik davrga, 2 haftasi fanlarni tanlash uchun ro‘yxatdan o‘tishga, 4 haftasi attestatsiyalarga ajratilgan.

Yurtimiz oliy ta’lim muassasalarida 1 kredit 30 akademik soatlik o‘quv yuklamasiga teng. Ya’ni, talaba muayyan fandan tegishli kreditlarni to‘plashi uchun ma’lum miqdordagi o‘quv yuklamasini o‘zlashtirishi zarur. O‘quv yuklamasi bakalavriatda – 40 – 50% auditoriya soati, 50 – 60% mustaqil ish soatiga, magistraturada – 30% – 40% auditoriya soati, 60–70% mustaqil ish soatiga (malakaviy amaliyot va bitiruv malakaviy ishlari bundan mustasno) bo‘lingan.

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida talaba, odatda, bir semestrda 30 kredit, bir o‘quv yilida 60 kredit to‘plashi belgilangan. Semestr davomida talaba tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan kreditlar hajmi o‘quv rejasida ko‘rsatilgan majburiy va tanlov fanlarini o‘z ichiga oladi. Talaba o‘zining shaxsiy ta’lim trayektoriyasini shakllantirishda har bir semestr uchun 30 kredit hajmidagi fanlarni o‘zlashtirish shart. Talaba bakalavriatda o‘qish muddati kamida 3 yil bo‘lganda 180 kredit, o‘qish muddati kamida 4 yil bo‘lganda 240 kredit to‘plashi zarur. Magistraturada o‘qish muddati kamida 1 yil bo‘lganda 60 kredit, o‘qish muddati kamida 2 yil bo‘lganda 120 kredit to‘plashi talab etiladi.

Respublikamiz oliy ta’lim tizimini Yevropa ta’lim maydoniga integrallashuvi munosabati bilan oliy ta’limning davlat ta’lim standartini takomillashtirgan holda, qayta ishlab chiqilishiga zarurat paydo bo‘ldi. Yevropa oliy ta’lim tashkilotlari tomonidan ochiq bozorda taqdim etilgan ta’lim dasturlaridek, Respublikamiz oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari ta’lim dasturlarida ham turli-tumanlikni ta’minlash uchun OTMlariga ta’lim dasturlarini (o‘quv reja, fan dasturlari) yanada moslashuvchan, milliy va jahon miqyosidagi talablarni qondiradigan etib tayyorlashlarida mustaqillik berish kerak edi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda 2021-yil boshlab respublikamizning barcha oliy ta’lim muassasalariga ta’lim yo‘nalishi va mutaxassisliklari ta’lim dasturlarini (o‘quv reja, fan dasturlari) “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti, asosiy qoidalari” asosida ish beruvchi tashkilot hamda korxonalar talablarini inobatga olgan holda, mustaqil ishlab chiqish va tasdiqlash vakolati berildi [1.81].

Kreditlar talaba tomonidan har bir fan bo‘yicha olgan bilim va ko‘nikmalarining hajmini aniqlash hamda talabalar akademik mobillik tizimini qo‘llab-quvvatlash uchun teng ravishda talab qilinadi. Kreditlar tufayli talaba uzoq vaqt davomida boshqa, turdosh oliy ta’lim muassasalarda o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ladi, u yerdan kreditlarni olib keladi hamda to‘plangan kreditlardan asosiy oliy ta’lim muassasasi ta’lim hisobiga hisoblab chiqishi va diplomini berish to‘g‘risida qaror qabul qilishida foydalanishi mumkin.

O‘z navbatida, har bir alohida o‘quv fani va ta’lim dasturining boshqa komponentlari o‘zlariga mos attestatsiyalar bilan birgalikda kredit birliklari sifatida qaralishi mumkin. Ammo bunday yondashuv ularning ta’lim dasturiga qo‘shayotgan nisbiy hissasi haqidagi tasavvurni bermaydi. Bunga ekspertning hajmi va mazmuni bo‘yicha birlashtirilgan o‘quv kurslarini o‘rganishda, ular uchun sarflanadigan mehnatni baholashi asosida hisoblangan yagona kredit birligini joriy etish orqali erishiladi. Bir semestr mobaynida talaba 30 kredit va bir o‘quv yilida 60 kredit yig‘ishi mumkin. Kredit miqdorini ifodalashda kasr sonlardan foydalanilmaydi.

Kredit-modul tizimi bizga nima beradi? Ta’limda shaffoflik, pragmatizm va talabaga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etish imkoniyatini yaratadi. O‘quv jarayoniga kredit-modul tizimining joriy etilishi ta’lim sifatini oshirishda hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

Oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilarining boshqa mamlakatdagi hamkasblari bilan o‘zaro ilmiy va amaliy hamkorlik qilishlariga keng imkoniyat yaratadi. Bir fanning bir qicmini mahalliy, ikkinchi qismini chet ellik o‘qituvchi o‘qitish imkonyatini beradi. ECTS tizimida faoliyat yuritayotgan mahalliy va xalqaro OTMlari o‘qituvchilarining o‘zaro tajriba almashinuvi (Academic staff exchange) imkoniyatini yaratadi.

Umuman olganda, oliy ta’lim tashkilotlarida kredit-modul tizimini joriy etish va texnologiya o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashda modulli o‘qitish o‘quv jarayonini tashkil etish va rejalashtirishni o‘zgartiradi hamda shunga mos ravishda oliy ta’lim tashkilotlarida o‘qish sifatini oshishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zaripov L.R. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida kredit-modul tizimi: muammo va yechimlar. “O‘zbekistonda oliy ta’lim”, ilmiy, o‘quv-uslubiy, tahliliy jurnal. 2022, 3-son, 79 – 84-betlar.

2. Zaripov L.R. Kredit-modul tizimi asosida bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilari kasbiy tayyorgarligiga asosiy yondashishlar. “Ta’lim, fan va innovatsiya”, 2022, 3-son, 44 – 47-betlar.

3. Zarirov L.R. Rroviding a methodologisal sustem of modular yedusation in rrofessional training of future teshnologu teashers in the sredit-module sustem. “International bulletin of arrliyed ssiyense and teshnologu”, Vol. 3, № 3, 2023, p. 237 – 251.

4. Muxamedov Sh.M. Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda kredit-modul tizimidan foydalanish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (RhD) diss., T., 2022, 137 bet.

5. O‘rinov V. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi. Asosiy tushunchalar va qoidalar. 10-avgust 2020, 69-bet.

Xodjiyeva Zumrad Maxmudjonovna (SamDCHTI mustaqil tadqiqotchisi; zumi44444@gmail.com)

OLIY TA’LIMDA MEZONLARGA ASOSLANGAN NAZORAT VA UNING TURLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta’limda mezonlarga asoslangan nazorat va uning turlari yoritilgan. Oliy ta’lim tizimida mezonlarga asoslangan nazorat pedagogik jarayolarning muhim tarkbiy qismlaridan biri sanaladi. Mezonlarga asoslangan nazorat muayyan fan mazmunini o‘zlashtirish talablarini standartlashtirish ahamiyatiga ega bo‘lib, talabalar bilimini xolisona baholashga yordam beradi.*

Аннотация. *В данной статье рассмотрен критериальный контроль и его виды в системе высшего образования. В системе высшего образования критериальный контроль является одной из важных составляющих педагогического процесса. Критериальный контроль имеет значение стандартизации требований к усвоению определенного содержания предмета и помогает объективно оценивать знания студентов.*

Annotation. *This article describes criteria-based control and its types in higher education. In the system of higher education, criteria-based control is one of the important components of pedagogical*

processes. Criterion-based control has the importance of standardizing the requirements for mastering certain subject content and helps to objectively assess student knowledge.

Kalit so‘zlar: *mezonlarga asoslangan baholash, individual yondashuv, innovasion ta’lim, interaktiv metodlar, kreativlik.*

Ключевые слова*: критериальное оценивание, индивидуальный подход, инновационное образование, интерактивные методы, креативность.*

Key words: *assessment based on criteria, individual approach, innovative education, interactive methods, creativity.*

Ta’lim inson tafakkurining yuksak mevasidir. U hozirgi davr global muammolarini to‘g‘ri anglash, yechish, ularning xatarlaridan saqlanish, borliqning teran sirlarini bilish, insoniyatning ongli faoliyatini yanada yuksaklikka ko‘tarish uchun zarurdir. Biroq, Yer yuzidagi hozirgi global o‘zgarishlar fanlar tomonidan kashf etgan bilimlarni amaliyotga tatbiq etishi bilan birga, ularning axloqiy qadriyatlar bilan uzviy bog‘lanishi taqozo etmoqda. Ayni paytda inson tafakkuri taraqqiyotining eng oliy cho‘qqisi bo‘lgan zamonaviy texnololgiyalar va innovatsiyaga asoslangan ta’lim dasturlari ma’lum ma’noda uni inqirozdan qutqarish uchun harakat qilmoqda.

Ta’lim-tarbiya jarayoni turli davrlarda va turli jamiyatlarda o‘z xususiyatini o‘zgartirib, makon va zamon nuqtayi nazaridan takomillashtirilib borilar ekan, ijtimoiy hayotning talablari, unda yashaydigan insonlarning ehtiyoji bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ta’lim nazariyasi va amaliyotining o‘ziga xos rivojlanish tendensiyalarini zamonning tadrijiy o‘zgarishlari bilan hamohang ravishda olib bormoqda desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Har bir tarixiy davrlarda ta’lim-tarbiyaning maqsadi, mazmuni, xususiyatlari o‘sha davrlar uchun xos bo‘lgan yangilanishlarda namoyon bo‘ladi.

Ta’lim genezisini tadqiq qilganda, ijtimoiy hayotning o‘zgarib borishi bilan insonlarda ong, dunyoqarash va tafakkur tarzining o‘zgarib borishi, shuningdek, yangi ilmiy taraqqiyotning vujudga kelishi bilan dunyo tillarini o‘zlashtirishga intilish hamda tadqiqotlarni yangi umumjahon tillarida e’tirof etish odat tusiga aylanib bordi. Mazkur jarayonlarning vujudga kelishi bilan bog‘liq vazifalar ta’lim jarayonini davriy ravishda yangilab borish imkoniyatini yarata boshladi. Natijada jamiyatda insonlarga ta’lim berishning eng keng qamrovli sohasi bo‘lgan oddiy mashg‘ulotlar o‘tishdan boshlab, inson ijtimoiy ongini rivojlantirishga qaratilgan barcha chora-tadbirlar, tajribalar, an’analar, tizimlar va infratuzilmalar modernizatsiya qilib borildi.

Buyuk Sharq mutafakkiri Abu Nasr Forobiyning o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida ta’lim to‘g‘risida fikr bildirib, “Tarbiyaning asosiy vazifasi shogirdlari, ya’ni, xalqni baxtga erishish yo‘llarini izlashga tayyorlashdan iboratdir”, deb ta’rif bergan bo‘lsa, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkirlar ta’lim-tarbiyaning inson kamolotidai ahamiyati borasida teran fikrlarni bildirib o‘tganlar [1. 91].

O‘rta asrlarda Yevropada ta’limning rivojlanib borishi bilan J.Russo, P.Gegel, I.Kant, V.Gumboldt va G.Gegel kabi olimlar ta’limning nazariyasi va amaliyotini yangi bosqichga olib chiqqan bo‘lsalar, XVIII–XIX asrlarga kelib, Y.A.Komenskiy kabi olimlarning tadqiqotlari pedagogikaning “mumtoz”, ya’ni klassik tizimining vujudga kelishiga xizmat qilgan. Aynan shu davrdan boshlab, ta’lim tizimida sifat va samaradorlikni ta’minlash, ta’lim tizimini tashkil etish, bilimlarni nazorat qilishga qaratilgan ilg‘or g‘oyalarini ishlab chiqish, darsliklar asosida ta’lim samaradorligini oshirish borasidagi fikrlar ilgari surilgan [2].

Oliy ta’lim tizimida mezonlarga asoslangan nazorat pedagogik jarayolarnining muhim tarkbiy qismlaridan biri sanaladi. Mezonlarga asoslangan nazorat jarayonlarining o‘ziga xos mohiyati va xususiyatlari mahoratli pedagoglarda adolatlilik mas’uliyatini shakllantirib, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o‘qituvchida talabalarning belgilangan o‘quv materiallarini o‘zlashtirish darajasini mezonlarga asoslangan nazorat turlari orqali aniqlab berish ko‘nikmasi shakllanib boradi.

O‘zbekistondagi bugungi ta’lim tizimi islohotlarga boy siyosiy jarayonlar bilan qorishiq holda olib borilayotgan ekan, oliy ta’lim jarayonida mezonlarga asoslangan nazorat ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash, o‘lchash va baholash jarayonining zamonaviy, shaffof mexanizmi sifatida baholanadi. O‘ziga xos pedagogik nazorat esa uning yetakchiligi va tashkilotchiligi asosida o‘qituvchilar va talabalarning metodik faoliyatlarini o‘zaro birlashtirish xususiyatini shakllantitradi. Shuning uchun, bugungi kunda o‘quv hamda tarbiya jarayonlarining natijalarini mezonlarga asoslangan nazorat orqali baholash zamonaviy pedagogikada yagona didaktik va metodik tizim sifatida e’tirof etiladi.

Mezonlarga asoslangan nazorat yordamida talaba o‘quvchilar bilimini baholash oliy ta’lim muassasasining pedagog o‘qituvchilari zimmasiga talabalar yutuqlarini xolisana baholash, bilimlarni o‘zalshti-

rishda yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarlarni vaqtida aniqlash va bartaraf etish, ta’lim dasturlari orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ta’minlash, innovatsion xarakterdagi o‘qitish metodlarining afzalliklarini ko‘rsatib berish kabi bir qancha mas’uliyatli vazifalarni yuklaydi.

Mezonlarga asoslangan nazorat muayyan fan mazmunini o‘zlashtirish talablarini standartlashtirish ahamiyatiga ega bo‘lib, alohida fanlar bo‘yicha o‘quv jarayoni natijalarini nazorat qilishning davlat ta’lim standartlari asosida olib boradi. Bunda majburiy minimal mazmun va talabalarning o‘zlashtirish darajasiga qo‘yiladigan talablar mohiyati asosiy o‘rin egallaydi. Shuningdek, ta’lim natijalarini mezonlarga asoslangan nazorat va baholash tizimi orqali boshqarish talabalarning intellektual salohiyatlarini oshirishi bilan birga, ta’lim mazmuni va sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Ta’lim dasturlari mezonlariga asoslangan nazoratning mazmuni nafaqat o‘qitiladigan fanlarda, balki barcha mashg‘ulotlar natijasida sifatning oshganligini o‘zida aks ettiruvchi jarayondir. Nazorat jarayonida olingan bilimlarni baholash hamda ma’muriy qarorlar qabul qilish ta’lim tizimidagi yutuqlariga qo‘yiladigan talablarning bir qismi bo‘lib, har bir o‘qituvchining kundalik ishida ko‘rsatmasining tarkibiy qismini tashkil etadi.

Nazorat va bilimlarni baholash faoliyati muayyan tarkibiy asoslardan tashkil topgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

– o‘tiladigan mavzular, fanning bo‘limlari va talablarni ajratib ko‘rsatish orqali mezonlarga asoslangan baholash ko‘rsatkichlarni belgilash;

– empirik ko‘rsatkichlarni shakllantirish orqali (savol, topshiriq va boshqalar) mezonlarga asoslangan baholash ko‘rsatkichlarni belgilash;

– kutilayotgan natijalarni qo‘lga kiritish jarayolarini nazorat qiluvchi modellarni yaratish;

– mezonlarga asoslangan nazorat turlari va ularni o‘tkazish shakllarini asoslash;

– belgilangan standart model va talabalarning haqqoniy javoblarini prognozlashrish;

– belgilangan mezonlardan tashqari baholash mumkin bo‘lgan amallar g‘oyasini shakllantirish va ular yordamida nazorat yoki baholash tizimini ishlab chiqish va ushbu amaliyot yuzasidan qarorlar qabul qilishdan iborat [3.91].

Ushbu qayd etilgan mezonlarga asoslangan nazorat yoki baholash turlarining tarkibiy asoslari professor-o‘qituvchilar nazorat rejasining talabalar bilimini mezonlar asosida baholash bo‘limida batafsil keltirilib tarkibiy tuzilmaning mas’ul shaxslari tomonidan mezonlarga mos kelish shartlariga muvofiqligi o‘quv yili boshidan tasdiqlab qo‘yiladi.

Bugungi kunda pedagogik amaliyot talabala va o‘quvchilarni yetuk kadr bo‘lib yetishishida muhim tarkibiy amaliyot sanalar ekan, unda pedagogik amaliyotning tarkibiy qismlarini to‘g‘ri shakllantirish muhim ahamiyat kasb etuvchi jarayondir. Qonun normalariga muvofiq, yurtimizda umume’tirof etilgan pedagogik amaliyot jarayonida talablar va o‘quvchilar faoliyatlarini baholash maqsadida mezonlarga asoslangan nazorat turlarining quyidagi shakllari mavjuddir:

1) og‘zaki so‘rov – nazoratning ushbu turida talabalar yoki o‘quvchilarning tafakkur doirasidan kelib chiqqan holda, fanning maxsus qoidalari va atamalarini qo‘llash orqali bildirgan fikrlari aniqlanadi. Og‘zaki so‘rov frontal va individual tarzda amalga oshiriladi hamda u tez-tez, qayta nazorat qilish imkonini beradi. Shuningdek, og‘zaki so‘rov talabalarning tasavvuri, tafakkuri, xotirasi va nutqini rivojlantirib ularda individual hikoya qilish, tavsif berish, sharhlash kabi xususiyatlarni shakllantiradi. Shuning uchun ham nazoratning bu turi eng samarali usullardan biri sanaladi;

2) turli xil interaktiv mashqlar bajarish orqali baholash. Nazoratning ushbu turi talabalarda fanga va mashg‘ulotga doir ish qurollarini qo‘llagan holda, badiiy materiallar bilan ishlash, turli viktorina savollariga javob qaytarish orqali malakasini shakllantirib, bir vaqtning o‘zida, ularda ijodiy ko‘nikmalar darajasini ham orttirib boradi. Ushbu nazorat turi, bir vaqtning o‘zida, bir necha talabalarni jalb qilish va baholash imkonini berib, ularning aqliy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

3) tasavvuriy-ijodiy mustaqil ishlarni bajarish orqali baholash. Nazoratning ushbu turida talabalarning badiiy tafakkuri va qobiliyatlarining rivojlanish darajalari individul ijodiy mashqlarni bajarish orqali aniqlab olinadi. Bu nazorat turlari, odatda, mashg‘ulot davomida qisqa muddatli vaqtda ma’lum vazifalarni bajarish shaklida amalga oshirilib, talabaning ijodiy izlanishi hamda tafakkur doirasini kengaytirishga imkon beradi. Odatda, bunday amaliyot turlari amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llanilib, umumiy xulosalar chiqa-rish va baholash bilan xarakterlanadi;

4) yozma mustaqil ishlar orqali baholash. Talabalarni baholashning ushbu turida olingan bilimlarni qanchalik o‘zlashtirilganligi aniqlanadi. Bunda muayyan fan doirasida yoki muayyan tilda ijodiy insholar va mustaqil ishlanmalar yozashish orqali talabalar bilimi baholanadi;

5) test sinovi. Nazoratning ushbu turida talabalarga muayyan faning nazariy asoslari, funksiyalari, maxsus atamalar ularning ilmiy ishlanmalar tarkibi, yangi va xorijiy asrlar tahlili kabi ma'lumotlar borasida savolllar yo'llanib, ularning o'zlashtirish darajasi aniqlanadi. Testlardan foydalanish dastur bo'yicha muayyan fanning barcha turlari va yo'nalishlari bilan bog'liq holda amalga oshiriladi [4.47].

Mezonlarga asoslangan nazoratning ushbu turlaridan barcha bosqich talabalarida bir xilda foydalanib bo'lmaydi. Talabalar tahsil oladigan bosqich dasturlari va muayyan fanning o'zlashtirish bosqichlariga qarab, ularning bilim va malakalari mezonlarga asoslangan nazorat orqali baholanib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qaroriga muvofiq, "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom 2018-yil 26-sentabrda ro'yxatdan o'tkazilib qabul qilingan.[1] Mazkur nizomda oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimini belgilash maslalari qayd etilgan.

Shuningdek, nizom talablari qonunchilik hujjatlariga muvofiq, o'quv jarayoni modul tizimiga asoslangan oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashda qo'llanilmasligi alohida e'tirof etilgan. Mazkur nizom talablariga muvofiq, talabalar oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari tomonidan birinchi mashg'ulot davrida nizom talablari bilan tanishtirilishi lozim. Nizomga ko'ra, talabalar bilimini baholashda malakaviy amaliyot, kurs ishi, fan (fanlararo) davlat attestasiyasi, bitiruv malakaviy ishi, shuningdek, magistratura bosqichida ilmiy tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar hamda magistrlik dissertatsiyasida nizom talablariga muvofiq baholash mezonlari qo'llanilishi e'tirof etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Tarjimonlar: Abdusodik, Irisov, Markam Mahmudov, Urfon Otajon. Mas'ul muharrirlar M.Xayrullayev, M.Jakbarov. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2016, 320 bet.
2. Коменский Ян Амос. Великая дидактика. Издательство "RUGRAM", 2016, с. 320.
3. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. Darslik, Toshkent, "Fan va texnologiya", 2008, 91 bet.
4. Usmonov B.Sh., Xabibullayev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma, Toshkent, "Tafakkur", 2020.
5. https://lex.uz/docs/3916793

Bozorov Zavqiddin Ravshanovich (Buxoro davlat universiteti katta ilmiy xodimi (PhD),
Mamatoxunova Yulduzxon Abduraimjon qizi (Buxoro davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti)

ZAMONAVIY O'QITISH METODIKALARINING "MATRITSANING RANGI" MAVZUSIGA TATBIQI

Annotatsiya*. Rivojlanayotgan zamonaviy ta'lim tizimida matematika fanini o'qitishning ham bir qancha samarili usullari mavjud. Talabalarga ma'ruza mashg'ulotlarida ta'rif va teoremalarni amaliy jarayonda qo'llashda professor-o'qituvchilar tomonidan hamon bir qancha metodik muammolarga duch kelinmoqda. Ushbu maqolada zamonaviy o'qitish metodlaridan biri case-study yoritilib, undan foydalangan holda,"Matritsaning rangi"ni topishda mini-caselar taqdim etiladi. Ketma-ket taqdim etilgan qadamlar orqali talabalar qo'yilgan masalaning yechimiga yetib keladi. Ushbu usul bizga ma'ruza mashg'ulotida ta'rif va teoremalarni talabalarga oson tushuntirish imkonini beradi.*

Аннотация. *В развивающейся современной системе образования существует несколько эффективных методов обучения математике. Профессора и преподаватели до сих пор сталкиваются с рядом методологических проблем при применении определений и теорем со студентами во время лекций. В данной статье рассматривается один из современных методов обучения кейс-стади, с его помощью представлены мини-кейсы по нахождению «Ранг матрицы». Студенты приходят к решению данной проблемы через представленные последовательные шаги. Этот метод позволяет легко объяснять определения и теоремы во время лекционных занятий.*

Annotation*. There are several effective methods of teaching mathematics in the developing modern education system. Professors and teachers are still faced with a number of methodological problems in the application of definitions and theorems in the practical process of lectures to students. In this article, one of the modern teaching methods, case-study, is covered, using it, mini-cases on finding the "Rank of*

[1] https://lex.uz/docs/3916793


the Matrix" are presented. Students arrive at a solution to the given problem through successive steps presented. This method allows us to explain and analyze definitions and theorems easily and clearly to students during lecture sessions.

***Kalit so'zlar**: case-study, muammoli ta'lim metodlari, matritsa, determinant, minor, algebraik to'ldiruvchi, yig'indi, satr, ustun, matritsa rangi, Laplas teoremasi.*

***Ключевые слова:** кейс-стади, проблемные методы обучения, матрица, определитель, минор, алгебраическое дополнение, сумма, строка, столбец, ранг матрицы, теорема Лапласа.*

***Key words:** case-study, problem-based learning methods, matrix, determinant, minor, algebraic complement, sum, row, column, matrix rank, Laplace's theorem.*

Zamonaviy o'qitish metodlaridan samarali foydalanayotgan professor-o'qituvchilar hozirda 200 dan ortiq ta'lim metodlarini o'quv jarayonlariga tatbiq etmoqda. Mamlakatimizda ilmiy izlanishlar olib borgan bir qancha olimlarning tatqiqotlarini kuzatar ekanmiz, matematika fanini o'qitishda ta'lim metodlari, muammoli o'qitish texnologiyalari yetarlicha qo'llanilayotganiga guvoh bo'lamiz. "Case-Study" texnologiyasini qo'llab o'qitish bo'yicha ham ilmiy tadqiqot ishlari yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, har bir fan uchun qo'llay olish alohida ahamiyat kasb etadi [1]. "Case-Study" texnologiyasi bo'yicha o'qitishni rivojlantirish samarali usullardan biridir. Algebra va sonlar nazariyasi fanini o'qitishda duch kelinayotgan bir qancha muammoli vaziyatlarni Case-Study texnologiyasi orqali mavzuni talabaga taqdim etish–talabalarning umumlashgan holatda vaziyatni o'rganishga, aniq ish jarayonida "Case"ni tahlil qilish, ishlab chiqish va xulosalash imkonini beradi [2]. Ushbu maqolada "Matritsaning rangi" mavzusini Case-Study texnologiyasini qo'llash orqali darsning samaradorlik ko'rsatkichini oshirib, ma'ruza jarayonida barcha talabalarni faolligini oshirish haqida so'z yuritamiz.



Agar berilgan matritsa kvadrat shaklda bo'lsa, uning eng katta tartibli minori o'ziga teng. Agar berilgan matritsa $n \times m$ tartibli bo'lsa, u holda uning eng katta tartibli minorining tartibi $k = \min(n \times m)$ bo'ladi. Agar berilgan matritsa $n \times m$ tartibli bo'lsa, u holda bu matritsadan ajratish mumkin bo'lgan k-tartibli minorlar soni

$$C_n^k + C_m^k$$

formula bilan topiladi, bu yerda:

$$C_n^k = \frac{n!}{k!(n-k)!} \text{ va } C_m^k = \frac{m!}{k!(m-k)!}.$$

Talabalarga quyidagi case ni taqdim etish orqali dars mashg'ulotimizni boshlaymiz.

1-case

Matritsa uchun berilgan qiymatlarni toping.		Talabaning yechimi	Javob
1	$A = \begin{pmatrix} 4 & 5 & 7 & 7 \\ 2 & 1 & 4 & 3 \\ 3 & 7 & 0 & 8 \end{pmatrix}$ 1. $C_3^1 \times C_4^1$, 2. $C_3^2 \times C_4^2$, 3. $C_3^2 \times C_4^2$		1)birinchi tartibli minorlar 12 ta 2)ikkinchi tartibli minorlar 18 ta 3)uchichi tartibli minorlar 4 ta

Keyingi caseda talabalarga berilgan matritsaning yuqori tartibli minorlarini topish masalasini qo‘yamiz.

2-case

Berilgan matritsaning 3-tartibli minorini toping.		Talabaning yechimi	Javob
1	$A=\begin{pmatrix}4&5&7&7\\2&1&4&3\\3&7&0&8\end{pmatrix}$		$M_1=-45,$ $M_2=-80,$ $M_3=-5,$ $M_4=55$

Ma’lumki, ixtiyoriy nolmas matritsadan qandaydir noldan farqli minorlar tanlab olish mumkin.

1-tarif. Matritsaning rangi deb uning noldan farqli minorlarining eng katta tartibiga aytiladi va $rang(A)$ kabi belgilanadi.

Yuqorida keltirilgan keysimizdagi matirtsa rangi $rang(A)=3$ ga teng.

Bizga $A_{m\times n}$ matritsa berilgan bo‘lsin. Matritsaning rangini bevosita ta’rifdan foydalanib topish algoritmini keltiramiz:

1) berilgan matritsaning eng katta $k=min(m,n)$ tartibli minorlarini topamiz. Agar bu minorlar orasidan birorta noldan farqlisi topilsa, u holda bu jarayonni to‘xtatilib, matritsaning rangi $r=A_{m\times n}=k$ teng deb olamiz;

2) agar bu minorlar orasida birorta ham noldan farqlisi mavjud bo‘lmasa, u holda bu matritsaning ixtiyoriy a_{ij} elementini tanlab, shu element turgan satr va ustunni ochiramiz. Natijada $(n-1)\times(m-1)$ tartibli matritsa hosil bo‘ladi. Bu matritsadagi $(k-1)$ tartibli minorlarini tekshirib chiqamiz. Agar bu minorlar orasidan birorta noldan farqlisi topilsa, u holda bu jarayonni to‘xtatib, matritsaning rangi $r(A_{m\times n})=k-1$ ga teng deb olamiz va shu kabi davom ettiramiz.

Talabalar bilimlarini mustahkamlashi quyidagi caseni havola qilamiz.

№	Matritsaning rangini toping.	Talabaning yechimi	Javob
1	A=$\begin{pmatrix}-1&0&2&0\\4&5&-2&3\\1&0&3&0\end{pmatrix}$		$rang(A)$=3
2	$B=\begin{pmatrix}4&5&3&3\\1&1&0&3\\1&7&0&8\end{pmatrix}$		$rang(A)$=3

1-eslatma. Agar qaralayotgan matritsa nol matritsa bo‘lsa,

$$A=\begin{pmatrix}0&0&\cdots&0\\0&0&\cdots&0\\\cdots&\cdots&\cdots&\cdots\\0&0&\cdots&0\end{pmatrix}$$

uning rangi nol deb olinadi.

2-eslatma. Agar (2×2) tartibli 0 bo‘lmagan matirtsaning determinanti 0 ga teng bo‘lsa, uning rangi 1 deb olinadi.

Yuqoridagi tarifimizga alternativ ta’rif keltirsak.

2-tarif. Matritsaning satrlar jamlanmasidagi chiziqli erkli vektorlarning maksimal soniga bu satrlar jamlanmasining rangi deyiladi. Matritsaning satrlari jamlanmasining rangi matritsaning rangi deyiladi.

Faraz qilaylik, bizga $A=\begin{pmatrix}a_{1,1}&a_{1,2}&\cdots&a_{1,n}\\a_{2,1}&a_{2,2}&\cdots&a_{2,n}\\\cdots&\cdots&\cdots&\cdots\\a_{m,1}&a_{m,2}&\cdots&a_{m,n}\end{pmatrix}$ berilgan bo‘lsin. Bu matritsaning satrlari $u_1,u_2\ldots\ldots\ldots,u_m$ kabi ustunlari esa $v_1,v_2\ldots\ldots\ldots,v_m$ kabi belgilaymiz.

3-ta’rif. Agar, bir vaqtning o‘zida, nolga teng bo‘lmagan $c_1,c_2\ldots\ldots\ldots,c_m$ koeffitsiyentlar mavjud bo‘lib $c_1u_1+c_2u_2+\cdots\ldots\ldots+c_mu_m=0$ bo‘lsa, $u_1,u_2\ldots\ldots\ldots,u_m$ satrlar chiziqli bog‘liq bo‘ladi.

4-ta’rif. Agar, bir vaqtning o‘zida, nolga teng bo‘lmagan koeffitsiyentlar mavjud bo‘lmasa, ya’ni $c_1u_1+c_2u_2+\cdots\ldots\ldots+c_mu_m=0$ tenglikdan barcha $c_1,c_2\ldots\ldots\ldots,c_m$ koeffitsiyentlarning nolga tengligi kelib chiqsa, u holda $u_1,u_2\ldots\ldots\ldots,u_m$ chiziqli erkli deyiladi.[3]

Ushbu case orqali biz satrlarni chizqli bog‘liq yoki erkli ekanini topamiz:

3-case

Matritsaning satrlari chiziqli bog‘liqmi yoki chiziqli erklimi		Talabaning yechmi	Yechim
1	$A = \begin{pmatrix} 1 & 1 & 1 \\ -1 & 2 & 1 \\ -1 & -4 & -3 \end{pmatrix}$		Chiziqli bog‘liq
2	$B = \begin{pmatrix} 1 & 1 & 1 \\ -1 & 2 & 1 \end{pmatrix}$		Chiziqli erkli

Ko‘p hollarda, matritsaning rangini topish murakkab bo‘lib, unda turli tartibdagi determinantlarni hisoblashga to‘g‘ri keladi. Ushbu matritsalarni hisoblashda esa quyidagi ketma-ketliklar bajariladi:

Biror $$A = \begin{pmatrix} a_{1,1} & a_{1,2} & \dots & a_{1,n} \\ a_{2,1} & a_{2,2} & \dots & a_{2,n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{m,1} & a_{m,2} & \dots & a_{m,n} \end{pmatrix}$$

matritsa berilgan bo‘lsin. Bu matritsada:

1. Ikki yo‘l (ustun)ni o‘zaro almashtirish.
2. Biror yo‘li (ustun)ni o‘zgarmas songa ko‘paytirish.
3. Biror yo‘li (ustuni)ga boshqa yo‘li (ustun)ni o‘zgarmas songa ko‘paytirib qo‘shish.

A matritsaning elementar almashtirishlar deyiladi. Elementar almashtirishlar yordamida matritsaning rangi o‘zgarmaydi [4].

Demak, matritsaning rangini topishda uning berilish tartibiga ko‘ra, yuqoridagi usullardan birini tanlab yechish samarali va qulay hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xoliqov S.H. Birinchi tartibli oddiy deferensial tenglamalar mavzusini case-study texnologiyasi asosida o‘qitish. Nukus, № 3–1, 2020, 110-bet.
2. Abduqodirov A. “Case-study” uslubi. Toshkent, 2012, 28 – 36-betlar.
3. Ayupov Sh.A., Omirov A.X., Xudoyberdiyev A.X. Algebra va sonlar nazariyasi. Toshkent, 2019.
4. T.Jo‘rayev, A.Sadullayev, G.Xudoyberganov. Oliy matematika asoslari. Toshkent, 1995.

Avazov Jo‘rabek Donayevich (Termiz Muhandislik-texnologiya instituti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); e-mail: jurabek-avazov@mail.ru)

ARALASH TA’LIM TEXNOLOGIYASINI TALABALARNING FAZOVIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA QO‘LLASH

Annotatsiya. *Maqolada muhandislik va kompyuter grafikasi fanida aralash ta’lim texnologiyasini qo‘llash, aralash o‘qitishning eng samarali modellarini tasvirlash, ta’lim jarayonini tashkil etishning samaradorligiga ijobiy ta’siri va kamchiliklarini aniqlash, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqib, masofaviy va aralash ta’lim shaklidan ham foydalanish istiqbollari yoritilgan.*

Аннотация. *В статье рассмотрено применение технологии смешанного обучения по предмету «инженерная и компьютерная графика», описаны наиболее эффективные модели смешанного обучения, выявлены положительные эффекты и недостатки организации учебного процесса, значение обучающихся в вузах, учебных заведений исходя из их потребностей, выделены перспективы использования дистанционного и смешанного образования.*

Annotation. *The article considers the use of blended learning technology in the subject “engineering and computer graphics”, describes the most effective models of blended learning, identifies the positive effects and disadvantages of the organization of the educational process, the importance of students in universities. educational institutions, based on their needs, highlighted the prospects for the use of distance and blended education.*

Kalit so‘zlar: *masofaviy ta’lim, aralash ta’lim on-line muloqot, AutoCAD, ArchiCAD, C+, SolidWORKS, illustrativ, hemis, fayl, chat.*

Ключевые слова: *дистанционное (on-line) обучение, смешанное обучение (blended-learning), онлайн-общение, AutoCAD, ArchiCAD, C+, SolidWORKS, иллюстративный, hemis, файл, чат.*

Key words: *distance (on-line) learning, blended-learning, online communication, AutoCAD, Archi CAD, C+, SolidWORKS, illustrative, Hemis, file, chat.*

Bugun dunyoni yuqori texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar professional kadrlar tayyorlashga qo‘yiladigan talablarning mohiyatini o‘zgartirdi. Bugungi taraqqiyot eng zamonaviy ilmiy-texnik g‘oyalar, yuqori texnologiyalar va ishlanmalarni ishlab chiqarishga qodir, ijodiy faol, kasbiy rivojlanishga tayyor shaxsni shakllantirishni talab qiladi. Mehnat bozorida raqobatbardosh, malakali, o‘z kasbini mukammal biladigan mutaxassis tayyorlash va uning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga qo‘yiladigan talablarni bajarish uchun talabalarga nafaqat tayyor bilimlarni berib qolmasdan, yangi o‘qitish uslublari va texnologiyalaridan foydalanib ma’lum bilimlarni, balki ishlab chiqarishda shakllanadigan muammolarni mustaqil, oqilona hal qilish, o‘zlashtirgan bilimlar asosida yangi muammolarga qisqa muddatda hal qilish muhim va dolzarb hisoblanadi.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalari qo‘llanilgan mashg‘ulotlar talabalar egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o‘quv jarayonida ta’lim faoliyatining faol subyektiga aylanadi [6].

Muhandislar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarida birinchi kursdan boshlab muhandislik va kompyuter grafikasi, axborot texnologiyalari fanlari o‘qitiladi, ularga, odatda, AutoCAD, ArchiCAD, SolidWORKS, C+va illustrativ grafik texnologiyalari kiradi. Talabalarning fazoviy tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish muammosi oliy ta’limda “Muhandislik va kompyuter grafikasi” fanini o‘rganishga yangi kompetensiyaviy yondashuvlarni ishlab chiqish bilan bog‘liq o‘qitish nazariyasi va metodlari asosida amalga oshirildi.

Talabalarni mustaqil fikrlashga yo‘naltiruvchi texnologiyalardan biri – aralash ta’lim texnologiyasi, o‘quv jarayonida talabalarga an’anaviy va masofaviy ta’lim tizimidan aralash holda foydalanishga to‘liq ruxsat beriladi. Bu tizimda on-line kutubxonalar va manbalardan ko‘proq foydalaniladi [7].

Oliy ta’lim tizimiga kirib kelayotgan ushbu texnologiyadan foydalanish talabaning kompyuter texnologiyalarini yaxshi bilishlari, ularda mustaqil shug‘ullanish va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalari kuchli rivojlantirir ekan. Bu texnologiyada bilim olishning yuqori bosqichida ta’limning samarali amaliy va izlanish usullarini mustaqil ravishda qo‘llash uchun foydalaniladi. Bunda talabalar dalillar to‘plash va ularni nazariy tahlil qilish, tizimga solish, umumlashtirish kabi amaliy ishlarni bajaradilar. Berilgan topshirig‘larni talabalar o‘qituvchining tavsiyasi asosida mustaqil ravishda o‘zlari bajaradilar. Bu metodda ma’lumot to‘plashdan tortib, uning tahliligacha mustaqil ravishda, yangi bilimlarni amaliyotda qo‘llash asnosida amalga oshirish nazarda tutiladi. “Muhandislik va kompyuter grafikasi” faniga ajratilgan soatlarda talabaga berilgan topshiriqlar yechimini hal qilishda mazkur texnologiyani ta’lim jarayonida ko‘rish mumkin bo‘ladi.

Bugungi kunda OTMlarda ta’limning kunduzgi, sirtqi va kechki shakllari keng qo‘llanilmoqda. Xorijiy OTMlarda ta’lim oluvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqib, masofaviy va aralash ta’lim shaklidan ham foydalaniladi. Avstraliyalik ish beruvchilar masofaviy (on-line) va aralash ta’lim (blended-learning) usulida ta’lim olgan talabalarni ko‘proq ishga olishar ekan. Chunki ular, nafaqat kompyuter texnologiyalarini yaxshi bilishar ekan, balki ularda mustaqil shug‘ullanish, hamkorlikda ishlash ko‘nikmalari va ijodkorlik qobiliyatlari kuchli rivojlangan bo‘lar ekan [3].

Ushbu texnologiyani tashkil etishda ma’ruza mashg‘ulotlari uchun materiallar to‘liq bo‘ladi, har bir mavzu bo‘yicha slaydlar ham tayyorlanadki, talabaning mustaqil shug‘ullanishi uchun yetarli darajada ta’minot bo‘lishi zarur. Seminar, amaliy mashg‘ulotlari eng qiziqarli, munozalarlarga boy mavzularni o‘zlashtirishda va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda qo‘llaniladi. On-line muloqot yo‘lga qo‘yiladi. Hemis tizimida o‘quv materiallarini joylashtirgandan so‘ng, topshiriqlar beriladi va chat shaklida o‘qituvchi va talaba, talaba va talaba o‘zaro muloqot qilishadi va hamkorlikda ishlashadi. O‘qituvchiga xohlagan vaqtda savol berish va qisqa muddatlarda javob olish imkoni bo‘ladi. Bilim olishda talabalar maslahatlashib ishlash, fikr almashib, mustaqil yechim topishlari juda katta yutuqlarga olib keladi.

Ushbu ta’lim texnologiyasi talabalarga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- on-line rejimida o‘quv materiali bilan xohlagan vaqtda tanishish;
- sinov testini topshirib, bilimini sinash;
- nazorat testini topshirish;
- o‘tilgan mashg‘ulotlarga mos qo‘shimcha manbalar bilan tanishish;
- audio va videoyo‘zuvlardan, animatsiya va simulatsiyalardan foydalanish;

- e-maildan foydalanish va forumlarda ishtirok etish;
- ma’ruzadan tashqari, ozqituvchi-talaba va talabalar o‘rtasida muloqot tashkil etish [4].
- an’anaviy ta’lim elementlari ming yillardan beri mavjud, biroq aralash ta’lim paydo bo‘lganiga hali 10 yilcha ham bo‘lgani yo‘q. Shu sababli bu ta’lim turlarini aralash tarzda olib borish maqsadga muvofiq.

Talaba o‘quv yili boshlangan kundan darsga kelib, ofis registratordan ro‘yxatdan o‘tadi. Fanlarni tanlab, o‘zining traektoriyasini shakllantiradi. O‘qituvchi bilan ko‘rishadi va fanning kirish darsini tinglaydi. Zarur ma’lumotlarni elektron shaklda oladi. Adabiyotlar ro‘yxati bilan birga, web-sayt manzilini hamda login va parollarni oladi.

“Muhandislik va kompyuter grafikasi” fanidan ma’ruza mashg‘ulotlarida ma’lumotlar qisqa beriladi va havola etilgan manbalarda juda ko‘plab qiziqarli materiallar, sinov va imtihonlarni topshirish uchun zarur topshiriqlar, mustaqil bajarish uchun hisob-grafik ishlari ta’lim (Hemis) platformasiga yuklangan bo‘ladi. Ma’ruzalar, asosan, PowerPoint taqdimotlari shaklida beriladi.

Darslarning bir qismi on-line rejimida bo‘ladi. Bunday materiallarni talabalar yakka tartibda mustaqil yoki guruh bo‘lib, o‘zlari o‘zlashtirishlari zarur bo‘ladi. On-line darslar savol-javob tarzida bo‘lishi mumkin. Ishlangan ma’lumotlar o‘qituvchiga fayl tarzida yuboriladi va o‘qituvchi tomonidan baholanib qaytariladi. Muddatidan kechikkan ishlarni o‘qituvchi qabul qilmaslikka haqlidir. Nazorat ishlari o‘qituvchi nazorati ostida ham o‘tkazilishi mumkin. Yakuniy imtihonlar o‘quv kursi tugagandan so‘ng, auditoriyalarda o‘tkaziladi.

‘Muhandislik va kompyuter grafikasi” fanini o‘qitishda aralash ta’lim metodini qo‘llanganda savol-topshiriqlar oldindan joylashtirilgan bo‘ladi. Bu fanlarni chuqur o‘zlashtiruvchi talabalar uchun mo‘ljallangan metod bo‘lib, muammolarni hal etishda o‘z-o‘zini nazorat qilish va tekshirish, o‘qituvchi-talaba, talaba-talaba, kompyuter-talaba hamkorlikda ishlash usuli sanaladi. O‘zlashtirishi nisbatan sustroq bo‘lgan talabalar kursdoshlari yoki o‘qituvchining o‘zi bilan chat orqali yoki on-layn muloqotga kirishishlari qo‘shimcha tushunchalar olishlari mumkin. Topshiriqlar hamma uchun bir xil va har bir talabaga individual variantlar asosida taqsimlanadi.

O‘quv mashg‘ulotlari, nazorat topshiriqlari mazmuni ham amaliy mashg‘ulotlarda talabalarga berilgan topshiriqlar to‘plami mazmuni bilan uyg‘unlashtiriladi. Shu asosda har bir mavzuni to‘la o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan tarqatma materiallar, matematik va texnologik usullar, talabalarga mustaqil ishlash uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar mazmuni mashg‘ulotlar uchun moslashtiriladi. Shu asosda har bir mavzu uchun ma’ruza mashg‘ulotlari mazmuni bir xil mezonlar asosida tahlil etilib, videoaudioyozuv shaklida havolalar orqali talabalarga bayon etiladi.

O‘quv jarayonining kuchaytirish omili sifatida “Muhandislik va kompyuter grafikasi” darslarida talabalar mavzu haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishlari uchun muammoli vaziyatlardan foydalaniladi. Muammoli mashqlarni bajarish jarayoni talabani yangi “ixtirochi” pozitsiyasiga qo‘yadi. Bu grafik elementlarning yig‘ilish holati yoki ilgari talabalarga noma’lum bo‘lgan usullar va uslublar bilan bog‘liq [5].

Taqdimot paytida yangi materialni taqdim etishdan oldin, grafik ma’lumotlarning noma’lum elementlarini qidirishni o‘z ichiga olgan taqdimot vazifalari taqdim etiladi. Vazifalar shunday tuzilganki, yechim yaratishning grafik elementlari ma’ruzaning yangi mavzusining elementlari bo‘ladi, shu bilan birga, bu mavzular o‘quvchilarga maktab chizmachilik va geometriya kurslaridan tanish bo‘ladi.

Mustaqil o‘rganishni ta’minlovchi va amaliyotlarni o‘tkazishga yo‘naltirilgan o‘quv materiallarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. O‘quv materiallari talabalarning fanga tegishli faoliyat usuli bo‘yicha nazariy ma’lumotlar bilan bir qatorda, yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari uchun turli xildagi, hajmdagi va murakkablikdagi savol va topshiriqlar tizimini qamrab olinishini e’tiborga olish lozim.

Tadqiqotimiz natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarga “Muhandislik va kompyuter grafikasi” fanidan ta’lim berish jarayonida muntazam bilim olishning ahamiyatini uqdirish, mustaqil o‘rganish asosida o‘quv axborotlarining ilmiy sig‘imini kengaytirishga da’vat, umuman olganda, mustaqil ta’lim olishga yo‘naltirish yaxshi natijalar berdi. Berilgan topshiriqlar yuzasidan bajarilgan vazifalar amaliy mashg‘ulotlarda mustahkamlanib borildi. Chizmalarni bosqichli bajarilishi esa mustaqil ta’limning elementlaridan foydalanish orqali amalga oshirilishi natijasida talabalarning bilimlari mustahkam bo‘lib, yuqori natijalarga erishildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 20-dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2023-yil 20-dekabr.

2. Chou A.Y., Chou D.C. (2011). Course management systems and blended learning: An innovative learning approach. Decision Sciences Journal of Innovative Education, 9(3), p. 463–484. https://doi.org/10.1111/j.1540-4609.2011.00325.x

3. Абрамова С.В., Бояров Y.H., Станкевич П.В. Реализация смешанного обучения в современном образовательном процессе. Современные проблемы науки и образования. 2020.

4. Cleveland-Innes M. Facilitation and Teaching Presence: Using the Community of Inquiry in Blended and Online Learning Environments. Stockholm, KTH Royal Institute of Technology, 2017.

5. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). T., "Iste'dod", 2008, 180 bet.

6. N.N.Alimov, J.R.Turmatov. Pedagogik texnologiyalar. O'quv-uslubiy qo'llanma, Jizzax, 2007, 87 bet.

7. M.R.Sobirova. "Blended learning" – zamonaviy ta'lim texnologiyasi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal Impact Factor Advanced Sciences Index Factor, 292–297. VOLUME 2|ISSUE 5/2 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 ASI Factor=1.7.

Ergasheva Durdona Safarali qizi (Farg'ona davlat universiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi; durdonaergaseva372@gmail.com)

FARZAND TARBIYASIDA KO'ZGA KO'RINGAN XATOLAR

Annotatsiya. *Har bir bola ruhiyati, aqli, qalbi bilan hamohanglikda o'z olamiga ega va boshqalardan farqli hisoblanadi. U hech qachon boshqalar kabi bo'lishga majbur emas. Ushbu maqola bolaning maktabda muvaffaqiyatga erishishi uchun yozilgan bo'lib, unda jamiyatda uchraydigan ayrim muammolarga yechimlar berilgan.*

Аннотация. *Каждый ребенок имеет свой собственный мир в гармонии с его психикой, разумом и сердцем и считается отличным от других. Он никогда не должен быть как другие. Эта статья написана, чтобы помочь ребенку добиться успеха в школе и предлагает решения некоторых проблем, с которыми сталкивается общество.*

Annotation. *Every child has his own world in harmony with his psyche, mind, and heart and is considered different from others. He never has to be like others. This article is written to help the child to succeed in school and provides solutions to some of the problems faced by society.*

Kalit so'zlar: *ishonch, dars, ruhiyat, tarbiya, ruhlantirish, maqsad, muvaffaqiyat.*

Ключевые слова: *уверенность, урок, дух, обучение, поощрение, цель, успех.*

Key words: *confidence, lesson, spirit, training, encouragement, goal, success.*

Kirish. Fors xalqining mashhur bir maqoli bor: "Birinchi g'ishtni qiyshiq qo'ygan bo'lsang, devorni Zuhro yulduzigacha ko'tarsang ham, qiyshiqligicha qoladi". Bola ulg'ayish davomida turli shaxslar, turli xarakter va odatlar bilan tanishadi. Bola yoshidan kelib chiqqan holda, har bir yangilik u uchun qiziq va qiziqqanini sinab ko'rish unga zavq bag'ishlaydi. Bola o'zi o'rganayotgan narsalardan zavq ola boshlaydi. Bu holat maktab yoshiga yaqinlashganda yanada kuchayadi. Har bir ishni mustaqil bajarishni, kelajakda ota-onasi qilayotgan yumushlarni o'zi qilishini xayol qiladi. Ayrim ota-onalar esa bolasining bu qadar qiziquvchanligidan xavotir oladi yoki unga mustaqil ish qilishiga ruxsat berishmaydi. Bilish kerak bo'lgan asosiy jihat shuki, bolalarda xatti-harakat ta'limidan oldin ishonch va xotirjamlik ta'limi berilgan bo'ladi. Chunki bolalarda "ichki intizom" shakllanmasdan avval "tashqi intizom" shakllanmaydi.[1]

Farzand tarbiyasi – oltindan qimmat. Kattalar o'zlari bilmagan holda tug'ma aql egalarining yo'liga to'sqinlik qilib qo'yishi mumkin. Ularning talab hamda vazifalaridan charchagan bolalar bora-bora hafsalasiz, umidsiz bo'lib, o'z dunyolariga berkinib oladilar, qalblarida borini o'rtoqlashmay qo'yadilar. Bolaga bunday munosabatda bo'lish ularning o'z ichki olamiga badarg'a qilish demakdir. Natijada ularni u olamdan qaytarish qiyin kechadi.

Albatta, bola tarbiyasi o'ta murakkab va mas'uliyatlidir. Bu har bir ota-onadan o'z ustida muntazam ishlashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma'lumotlardan boxabar bo'lib borishni talab etadi. Farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko'rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o'z ichiga diniy-axloqiy bilimlar, tibbiyot, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalariga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayondir.[2]

[1] Adam Gunesh. Tarjimon Dilbar Rajabova. Shaxsiyat va xarakter rivojlanishida farzand tarbiyalash siri.. Toshkent, "Tasnim", 2022, 54-bet.

[2] Bowlby J. (1988). A secure base: Parent-child attachment and healthy human development. Basic Books.

Adabiyotlar sharhi. Tarbiyali, ma'naviyatli inson bugungi kun va kelajak haqida qayg'uradi, shuningdek, kelgusi hayot va turmushning ravnaqi uchun o'z hissasini qo'shishga intiladi. Ta'lim-tarbiya haqida so'z ketganida, Abdulla Avloniyning: "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir", degan chuqur ma'noli fikri yodimizga tushaveradi. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham shunchalik, balki undan ham ko'proq ahamiyatga ega.

Tarbiya butun mohiyati bilan milliy, umuminsoniy va gumanistik mazmunga egadir. Har bir jamiyat o'z oldiga yetuk, har tomonlama kamol topgan, o'zida butun ijobiy, oliyjanob fazilatlarni birlashtirgan avlodni tarbiyalashni orzu qiladi.

Zamonamizning mashhur yozuvchilaridan biri Ziyovuddin Rahim "Farzand tarbiyasidagi xatolar" mavzusida quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tadi:

– ota-onaning bolaga: "Lapashang", "Ahmoq", "Odobsiz" kabi yoqimsiz so'zlar bilan murojaat qilishi eng katta xatodir. Aslida, kamchilik farzandning o'zida emas, ishida;

– bolalarni bir-biriga qarama-qarshi o'stirish. Bir oilada tug'ilib o'sgan bolalarning ham shaxsiyati turlicha bo'ladi. Ularni zehni, qobiliyati past-balandiga qarab yo'naltirish lozim. Aks holda, bir-biriga solishtirish bilan oralari buzilishi mumkin;

– va'da berib bajarmaslik. Ota-ona va'dasida turmasa, ishonchini yo'qotadi. Masalan, "Kel, urmayman", deydi. Ammo kelganida uradi. "Bunday qilsang, uni olib beraman", deydi, lekin so'zida turmaydi.

– farzandini yomon holatlarga guvoh qilishi. Sha'nini yuksaltirish, botirlikka o'rgatish o'rniga tahqirlaydigan manzaralarni ko'rsatish bola qalbini sindiradi;

– yolg'on gapirish. Odatlarning eng yomoni yolg'on so'zlashdir. Bola o'rnak oladigan kishilar yolg'on gapirib tursa, uyam shunga odatlanadi.[1]

Oilada bolani tarbiyalashda uchraydigan xatoliklarga ahamiyat qaratadigan bo'lsak, ular turli-tumandir. Har bir xatoning ham bir yechimini topish mumkin, ammo befarqlik bilan hech birini o'rniga qaytarib bo'lmaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot bolalarni tarbiyalashda keng tarqalgan xatolarni o'rganish va ularning asosiy omillari va potensial oqibatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda ota-onalar va tarbiyachilarning turli namunalaridan ma'lumotlarni to'plash uchun sifat va miqdoriy usullarni birlashtirgan aralash usullardan foydalaniladi. Aniqlangan xatolarni chuqur tahlil qilish orqali ushbu tadqiqot bolalarni tarbiyalash amaliyotini takomillashtirish va bolalar farovonligini oshirish uchun qimmatli tushunchalarni berishga intiladi.

Potensial tadqiqot savollariga misollar:

Bolalarni tarbiyalashda qanday xatolarga yo'l qo'yiladi?

Ushbu xatolarga qanday omillar sabab bo'ladi?

Bu xatolarning bolalar rivojlanishiga qisqa muddatli va uzoq muddatli oqibatlari qanday bo'lishi mumkin?

Tahlil va natijalar muhokamasi. Bir inson o'zi belgilab olgan maqsadga, tashqi motivatsiyaga ehtiyoj his qilmay erishadigan bo'lsa, erishgan o'sha joyi uni qanoatlantirsa, bu muvaffaqiyatli bo'lganini anglanadi.[2]

Xavotirlanishimiz lozim bo'lgan asosiy masala "Matematika fanidan bahosini qanday qilib ko'tarib olsam ekan?"dan ko'ra "Qanday qilib farzandimni yaxshiroq bilib olsam bo'ladi?" degan o'y-xayol bo'lishi kerak.

Bola qaysi yumushni maroq bilan bajaradi?

Kelajak haqida nimani o'ylaydi?

Qanday orzu-xayollari bor?

Eng yaqin do'sti kim?

Nimani bajarishni yoqtirmaydi?

Eng yaxshi ko'rgan taomi qaysi?

Eng yaxshi ko'rgan o'yinchog'i, kitobi qaysi?

Maktabda qaysi fanni yaxshi ko'radi?

Maktabda nimani zavq bilan bajaradi?

[1] Ziyovuddin Rahim. Baxtli hayot sari. Toshkent, "Sharq", 64 – 65-betlar.

[2] Shaymo Chekiji. Darslar oramizni buzolmaydi. Toshkent, "Misbah", 2022, 29-bet.

Mazkur savollarning javobi har bir bolada turli-tuman bo‘ladi. Har bir bola alohida bir olamdir. Ota-onalar tasavvuridagi bolaga qarab nishonni belgilaydi va farzandini ana shunday inson bo‘lishi uchun majburlay boshlaydi.

Biroq nima uchun? Nega faqat o‘qisin?

Ushbu savol bilan ota-onalarga murojaat qilarkanmiz, turlicha javoblar oldik:

“O‘zi mustaqil oyoqqa tura olsin, deyman”.

“Tartib shu bo‘lgach, bolam o‘qimay nima ham qilardi?”

“O‘z ustida ishlashini, salohiyatini rivojlantirishini xohlayman”.

“Erining oyligiga qarab qolmasin”.

“Yaxshi kasb-hunar egasi bo‘lsin”.

“Yaxshi ko‘rgan kasbida ishlashi uchun o‘qishi shart”.

“Yaxshi pul topadigan ish egasi bo‘lsin”.

“Hamma o‘qiyapti, odamlar “Nega bolangizni o‘qitmadingiz?” deyishmasin, dedim”.

*“*Jamiyatda obroga va hurmatga sazovor bo‘lsin”. “O‘zim o‘qiy olmaganman. Bolam qanday qilib bo‘lsa ham o‘qisin”.

“Juda aqlli bola. Iqtidori uvol ketishini istamadim”.

“Jamiyatga foydasi tegadigan odam bo‘lsin” va hokazo.

Ota-onalarning sabablari turlicha bo‘lishiga qaramay, muvaffaqiyatga olib boruvchi yo‘l ko‘pchiligimiz uchun maktab ostonasidan boshlanadi.

Agar o‘quvchi maktab borasida mas’uliyatni to‘liq his qilishini xohlasak, avvalo, maqsadlarini belgilab olishiga ko‘maklashishimiz, erishmoqchi bo‘lgan maqsadlari ota-onasi orzu qilgan maqsadlar emas, farzandlari istagan maqsadlar bo‘lishiga yo‘l ko‘rsatishimiz kerak.

Xulosa va takliflar. Bolani tarbiyali qilish uchun, ko‘pincha, ota-onalar qo‘llaydigan, biroq, aslida, uning dushmani bo‘lgan ba’zi usul va xatti-harakatlar mavjud.

Bola har sohada muvaffaqiyatli bo‘lishini istab, “4 baho oldingmi? Nega 5 baho emas? Nega ikkitagina xato qilding?” tarzida dakki berilar ekan, aslida, harakatchan, tirishqoq bolani mukammal bo‘la olmagani uchun so‘roq qiluvchi bunday gaplar bilan hech qanday ruhlantira olinmaydi. Aksincha, vaqti kelib, “Eng yaxshisi bo‘la olmasam, unda harakat qilmay qo‘ya qolay. Axir nima qilsam ham, yetarli bo‘lmayapti” deya beparvo bo‘lib qolishiga, o‘zini horg‘in va zerikkan his qilishiga sabab bo‘ladi. Bu ba’zan maqsad belgilayotganida ham eng yaxshisini bajarmasam, unda ovora bo‘lib, bu ishni boshlamay qo‘ya qolay, deya harakat qilishni to‘xtatishiga yo‘l ochishi mumkin.

Bolani asta-sekin va murakkablik darajasini ko‘paytirgan holda harakat qilishga yo‘naltirishimiz kerak. Faqat maktabdagi darslar borasida emas, balki har bir sohada, fe’l-atvorida ham “Men buni uddalayman”, degan xayol paydo bo‘lishini ta’minlashimiz darkor. Ba’zan to‘rtta g‘ildirakli velosipeddan ikki g‘ildirakli velosipedga o‘tishi, o‘zi bemalol do‘konga bora olishi, qisqa she’rlarni mustaqil yodlay olishi, oddiy muammolarni mustaqil hal qila olishi, o‘zini-o‘zi qiziqqan kasbi tomon tayyorlay olishi bolada o‘ziga ishonch va mukammallik tuyg‘usini uyg‘otadi. Faqat maktab emas, oila ham javobgarlikni his qilgan holda ishonch tuyg‘usi shakllanishiga ko‘maklashishi, yo‘naltirishi, biror vazifani uddalay olganida: “Mana ko‘rdingmi? Bu qo‘lingdan keldi, bajara olding!” deya xursandliklarini ifodalay olishlari muhimdir. Shu o‘rinda “Juda ajoyib, o‘zing zo‘r bolasan, juda aqllisan”, degan bo‘rttirilgan maqtovlardan uzoq bo‘lish ham kerak.

“Barakalla, qanday ajoyib bajarding” deyish bilan tashqi ruhlantirish, “Ha, ko‘rdim. Murakkab savolni yechish uchun ko‘p harakat qilding va uddalading”, deyish orqali ichki ruhlantirish paydo bo‘ladi.

Bolada o‘zi bajara oladiganidan ortig‘ini talab qilib, qiynab qo‘ymaslik, uni majburlamaslik lozim. Ba’zan bundan ham kamroq bajarishini so‘rab, buning zavqi o‘zida qolishini ta’minlashimiz to‘g‘ri bo‘ladi. Uning bir qadam oldinga yurishini xohlasak-da, buni mayda qadamlar bilan, ayniqsa, bola oldinga qadam tashlashga tayyor bo‘lganini sezgan chog‘da amalga oshirishga harakat qilishimiz maqsadga muvofiq.

Yozganlarimizning barchasini jamlaydigan bo‘lsak, muvaffaqiyat qoidasini ko‘zdan kechirib, haqiqiy muvaffaqiyat nima ekanligini tushunib yetamiz. Bolaning shijoati kuchli bo‘lishi uchun, sa’y-harakat qiladigan biror maqsadni belgilab olishi uchun yo‘l ko‘rsatishimiz, ana shu maqsadga erishishida dalda bo‘lib, yordam qo‘lini cho‘zishimiz darkor. Shuni, also, unutmasligimiz lozim: “Maqsadi bo‘lmagan kemaga hech qanday shamol yordam bera olmaydi”.[1]

[1] A.Gunesh. Bola nimani nega qiladi? Toshkent, “Book Media Nashr”, 2022, 118-bet.

Farmonova Shabon Muhamadovna (Buxoro davlat universiteti dotsenti,
p.f.f.d. (PhD); sh.m.farmonova@buxdu.uz)

O‘QUVCHILARDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVDAN FOYDALANISH

Annotatsiya*. Maqolada integrativ yondashuvning metodologik strategiyalari ta’lim-tarbiya muammolarini hal qilishning yagona hamda turli-tuman ko‘rsatkichlarini uyg‘unlashtirishning nazariy asoslari xususida fikr bayon etilgan. Ta’limdagi integrativ yondashuv uning mazmunidagi bir qator integratsiyalashtiruvchi birliklar yordamida to‘ldirish va takomillashtirish ehtiyoji mavjudligini anglatadi. Shu jumladan, o‘quv fanlari orasidagi integratsiya o‘zining muayyan maqsadlariga ega bo‘lib, umumlashmalarni uyg‘unlashtirish, o‘quv fanlari orasidagi tarkibiy qismlarni birlashtirish, faoliyat usullarini ajratish, ularni turli fan sohalariga o‘tkazishni nazarda tutadi.*

Аннотация*. В статье изложены методологические стратегии интегративного подхода к теоретическим основам гармонизации как единых, так и различных районных показателей решения учебно-воспитательных задач. Интегративный подход в образовании подразумевает необходимость дополнения и совершенствования с помощью ряда интегрирующих единиц его содержания. В том числе интеграция между учебными дисциплинами имеет свои конкретные цели и предполагает гармонизацию обобщений, объединение компонентов между учебными дисциплинами, разделение способов деятельности, перенос их в разные предметные области.*

Annotation*. The article presents methodological strategies of an integrative approach to the theoretical foundations of harmonization of both unified and various district indicators of solving educational tasks. The integrative approach in education implies the need to supplement and improve with the help of a number of integrating units of its content. In particular, integration between academic disciplines has its own specific goals and involves the harmonization of generalizations, the unification of components between academic disciplines, the separation of methods of activity, their transfer to different subject areas.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim, ta’lim modellari, o‘quv fanlari, kompetensiya, tayanch kompetensiya, o‘quvchi.*

Ключевые слова: *образование, образовательные модели, учебные дисциплины, компетенция, базовая компетенция, ученик.*

Key words: *education, educational models, academic disciplines, competence, basic competence, student.*

Bugungi kunda ta’lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa texnologik jarayonni amaliy faoliyatga yo‘naltirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Ta’limda amaliy-texnologik yo‘nalishning zarurligi o‘quv predmetining mantiqiy, majmuaviy, tizimli, o‘quv fanlariaro xarakterga egaligidan kelib chiqadi. Kompetensiyaviy yondashuv o‘quv fanlariaro tizimli tahlil hamda uni amalga oshirishning yaxlit modelini shakllantirishni taqozo qiladi. O‘quv predmetlariaro integratsiya, uni amalga oshirishning turli modellari orqali ro‘yobga chiqariladi. Jumladan:

– o‘quv fanlarini integratsiyalash, bunday o‘quv predmetlari bitta ta’lim sohasi tarkibiga kirishi lozim. Masalan, aniq va tabiiy turkumdagi o‘quv fanlari, gumanitar turkumdagi o‘quv fanlari, ijtimoiy turkumdagi o‘quv fanlari kabi.

–turli ta’lim sohalariga kiruvchi o‘quv fanlarini integratsiyalash, integratsiyaning mazkur turi o‘quv rejasi doirasidagi tabiiy hamda gumanitar turkumdagi o‘quv fanlarini integratsiyalashni anglatadi;

– o‘quv fanlaridan birining yetakchiligiga asoslangan integratsiya, bu o‘rinda boshqa o‘quv fanlari qo‘shimcha, yordamchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. O‘quv fanlariaro integratsiya sharoitida o‘quvchilarda o‘rganilayotgan obyekt haqidagi yaxlit tasavvur hosil bo‘ladi. Bunda bilishning umumilmiy usullaridan foydalaniladi. Ayni bir vaqtning o‘zida, bir qator psixologik operatsiyalar: tahlil, umumlashtirish, uyg‘unlashtirish, abstraksiyalash, tasniflash, qiyoslash, induksiya, deduksiya, modellashtirish, o‘xshatish kabilar amalga oshiriladi.

Kompetensiyaviy yondashuv ta’lim natijasini umumiy, integratsiyalashgan xulq-atvor hodisasi sifatida aniqlaydi. Uning tarkibini motivli-qadriyatli, kognitiv, interfaol hamda empirik sifatlar majmuyi tashkil qiladi. Inson oldiga yangi talablar qo‘yilayotgan bugungi kunda ta’lim jarayonida shaxsda alohida sifatlarni shakllantirish taqozo qilinmoqda. Ular:

1. Siyosiy, ekologik, madaniyatlararo muammolarni yechish layoqatiga ega bo‘lgan shaxslarni shakllantirish.

2. Madaniy, etnik, diniy qadriyatlar va farqlar, ijtimoiy turli-tumanliklarni hisobga olgan holda, qadriyatshunoslik sohasidagi muammolarni yechishga layoqatli shaxslarni shakllantirish. Shuningdek, millatlararo muloqot vositalari va usullarini o‘zlashtirish uchun qulay didaktik vaziyatlarni yaratish.

3. O‘quvchilarni ijtimoiy hayotdagi turli rollarni, chunonchi, fuqaro, saylovchi, ota-ona, oila a’zosi kabilarni bajarishga tayyorlash.

4. Axborotlarni izlash, tahlil qilish imkonini beradigan umumiy ko‘nikmalarni hosil qilish.

5. Ko‘pvariantli vaziyatlar sharoitida qarorlar qabul qilish layoqatini shakllantirish, shu bilan bir qatorda, noaniq vaziyatlarda qabul qilgan qarorlari uchun mas’uliyatni zimmasiga olish, jamoada ishlash va jamoa faoliyatini tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantirish.

6. Uzluksiz ta’lim olish layoqatiga ega bo‘lish, bilish faoliyatining rivojlanishini ta’minlash kabilar [1].

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan kompetensiyalarni shakllantirishga qo‘yiladigan talablar ta’lim mazmunida bir turkumdagi fanlar integratsiyasini ta’minlash asosida o‘z ifodasini topishi kerak. Chunonchi:

– ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi; uning tarkibiga siyosiy hamda ijtimoiy bilimdonlik, shaxsning mas’uliyatli bo‘lishi, guruh ichidagi ziddiyatlarni kuch ishlatmasdan bartaraf etish layoqatini egallash imkoniyatlari kiradi;

– milliy va umummadaniy kompetensiya, ushbu kompetensiya doirasida ko‘p madaniyatli jamiyatda hayot kechirish uchun zarur bo‘lgan bilimlar, tolerantlik muhitini rivojlantirish, boshqa din va millat vakillari bilan jamiyatda birgalikda yashash va mehnat qilish layoqatiga ega bo‘lish kabilarning shakllantirilishi nazarda tutiladi;

– kommunikativ kompetensiya; mazkur kompetensiya doirasida bir va undan ortiq tilda yozma va og‘zaki muloqot qila olish ko‘nikmalari shakllantiriladi;

– axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi, ushbu kompetensiya doirasida jamiyatdagi axborotlarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq bilimlar, axborot texnologiyalarini o‘zlashtirish, ularning imkoniyatlari va qo‘llashdagi to‘siqlarni anglab yetish, axborotlarga nisbatan tanqidiy-tahliliy munosabatda bo‘lish, targ‘ibot-tashviqot vositalarini ommaviy tarzda yoyish ko‘nikmalari shakllantiriladi;

– o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi, mazkur kompetensiya doirasida o‘quvchilarni jadal tarzda o‘zgarayotgan texnologiyalar muhitiga moslashtirish, ijtimoiy-kasbiy sohada muvaffaqiyat qozonish uchun imkoniyat yaratish ko‘zda tutiladi. Ko‘rsatib o‘tilgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirish natijasida o‘quvchilarni ijtimoiy hayot va istiqboldagi mehnat faoliyatiga jadal tayyorlash amalga oshirilib, u shaxsning har qanday faoliyat sohasida muvaffaqiyat qozonishini ta’minlaydi [2]. Shuning uchun ham o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda integrativ yondashuvdan foydalanish shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim sharoitida alohida dolzarblik kasb etmoqda.

O‘zbekiston ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish bir qator muammolarni yechishni taqozo etadi. Jumladan:

– ta’limdagi yangi metodologik asosning kategorial tizimini oydinlashtirish;

– “kompetensiya” va “kompetentlilik” tushunchalarining asosiy negizi va mohiyatini ochish;

– ta’lim jarayonida o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart -sharoitlarini asoslash;

– o‘quvchilarda kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini diagnostika qilish va uning rivojlanish dinamikasi monitoringini amalga oshirish kabilar. Mazkur muammoni tadqiq etishga oid yondashuvlarni tizimlashtirish va ommalashtirish alohida ahamiyatga ega. Ushbu muammoni hal qilishga nisbatan bir qator qarashlarni ilgari surish talab qilinmoqda.

Kompetensiya insonning muayyan faoliyatni amalga oshirishi uchun asos bo‘ladi. Jumladan, mehnat faoliyati, kasbiy faoliyati, o‘quv faoliyati, ijodiy faoliyat, muloqot faoliyati, mustaqil bilim olish faoliyati kabi. Kompetensiyalar, ularning komponentlari tarkibiy tuzilishi orqali aniqlanadi. Kompetensiyalar tarkibiga bilimlar, mazkur bilimlarni qo‘llash metodologiyasi hamda ushbu metodologiyani egallash, amaliy ko‘nikmalar kiradi. Kompetentlilikning tarkibiy tuzilishini tahlil qilish uning muntazam rivojlanuvchi faoliyatli tavsifi sifatida faoliyatga xos bo‘lgan jihatlariga ko‘ra farqlashni talab qiladi. Insonning mehnat ko‘nikmalari motivli-qadriyatli, bilishga asoslangan kognitiv, faoliyatli, refleksiv qismlardan iborat. Bu o‘rinda ikkita muhim holatni inobatga olish lozim. Birinchidan, har qanday kompetensiya insonning shaxsiy tavsifini ifodalaydi. Kompetensiyalar insonning shaxsiy tavsifi sifatida muayyan o‘quv predmetini o‘zlashtirishga oid faoliyat jarayonida shakllanadi. Jumladan, texnologiya ta’limi jarayonida, ona tilini o‘rganish asosida, matematik bilimlarni egallashda. Bu uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, insonning shaxsiy sifatlari o‘zgarishiga asos bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda, o‘quvchilarda tayanch kompetensi-

yalarni to‘liq shakllantirish uchun ayni bir o‘quv predmetining imkoniyatlari yetarli emas. Buning uchun o‘quv fanlarining ayrim mavzularini integratsiyalash lozim. Kompetensiyalar o‘quv jarayonida fanlararo aloqadorlik va darajali integratsiya asosida shakllantiriladi. Ikkinchidan, har bir o‘quv fanining mazmuni tayanch kompetensiyalarni shakllantirish uchun muayyan asos yaratib, yaxlit tarzda tayanch kompetensiyalar klasterini vujudga keltiradi.

Ta’limning sifati va samaradorligini ta’minlash uchun unga ta’sir ko‘rsatadigan muayyan omillarni o‘rganish lozim. Bu omillar rivojlangan mamlakatlar va O‘zbekiston ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettirib, barkamol avlodni shakllantirishga bo‘lgan yangi ehtiyojlar va talablarni o‘zida mujassamlashtiradi. 2030-yilgacha ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi [1]da zamonaviy ta’limning rivojlanishini boshqarish yo‘nalishlari belgilab berilgan:

– ta’lim va fanni globallashtirish;

– ta’lim muassasalarini jamiyat va hududning rivojlanishiga muvofiqlashtirish;

– ta’limning amaliyotga yo‘nalganligini ta’minlash;

– fan, moddiy borliq, texnika va texnologiyalarning o‘zgaruvchanligini hisobga olgan holda, ta’limni tashkil etish;

– ta’limiy va ilmiy kontentni raqamlashtirish. Globallashuv jarayoni insonning kasbiy, ijtimoiy sohalardagi faoliyatini kengaytirib, olamning yangi modelini yaratish imkonini beradi. Yangi axborotlar va axborot texnologiyalari integratsiyalashgan ta’lim uchun qulay sharoit yaratadi. Bunday ta’lim tizimi, bir tomondan, o‘qituvchi va o‘quvchilarning faollashuvi, ikkinchi tomondan, o‘quv materiallarining rang-barangligi, o‘qitishning moslashuvchan tartib asosida amalga oshirilishini ta’minlaydi. Bularning barchasi xalqaro tajribalarga tayangan holda, ta’lim mazmunini yangilash va muntazam takomillashtirishni taqozo etadi. O‘quv dasturlaridagi mavzularni integratsiyalash, o‘quvchilarning kompetentliligini yuqori darajada rivojlantirish modernizatsiyalashtirilgan ta’limning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Jamiyat va inson faoliyatining barcha jihatlarini eng yangi axborotlar bilan ta’minlash asosida o‘quvchilarda zarur kompetensiyalarni shakllantirish umumiy o‘rta ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. O‘quvchilarda zarur kompetensiyalarni shakllantirish, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash bilan bir qatorda, eng zarur mehnat ko‘nikmalari va kasbiy bilimlarni ham shakllantirishni nazarda tutadi.

Ko‘rinib turibdiki, bilimlarni integratsiyalash asosida o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish murakkab hodisa bo‘lib, o‘zining pedagogik talqinini talab qilmoqda. Bilimlarni integratsiyalash asosida o‘quvchilarning bilish imkoniyatlari kengayadi, ularda tahlil qilish, umumlashtirish, voqea-hodisalarni munosib baholash, kreativ fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi. Bunday yondashuvni amalga oshirish uchun bir qator talablarni bajarish lozim. Mazkur talablarni bajarish natijasida o‘quvchilarning o‘quv faoliyati jadallashadi, mantiqiy fikrlash imkoniyatlari kengayadi. Ushbu talablar, imkon qadar, obyektiv bo‘lishi lozim. O‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda, birinchi navbatda, jahon tajribasiga tayanish zarur [4]. Tayanch kompetensiyalarni shakllantirish jarayonining shakllari va metodlarini tanlashga qo‘yiladigan talablar o‘zaro muvofiq kelishi kerak.

Kompetensiyalar o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘zida mujassamlashtiradi. O‘quvchilarning shaxsiy sifatlari, ularning ijtimoiy, refleksiv xulq-atvorini o‘zida uyg‘unlashtiradi. Tahlillarning natijasi kompetensiyalar majmuyi va ular orasidagi integratsiyada namoyon bo‘ladi. Biz o‘z tadqiqotimiz davomida tayanch va fanga oid kompetensiyalar bilan ish ko‘ramiz. Muayyan o‘quv predmetini o‘rganish jarayonida tayanch va fanga oid kompetensiyalarni integrativ yondashuv asosida tahlil qilamiz hamda kompetensiyalarni shaxs amaliy faoliyatining ifodasi sifatida talqin etamiz. Tayanch va fanga oid kompetensiyalar bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish natijasida hosil bo‘ladi. Shuningdek, kompetensiyalarning shakllanishida ijodiy faoliyat tajribasi hamda shaxsning his-tuyg‘ulari ham muhim o‘rin egallaydi. Kompetensiyaviy yondashuvning vujudga kelishi ko‘nikmalarga ega bo‘lish ehtiyoji bilan bog‘liq hodisa hisoblanadi. Kompetensiyalar insonning kundalik faoliyati uchun nihoyatda zarur. Ushbu yondashuv doirasiga kiradigan kompetensiyalar predmetli harakatlardan farqli tarzda, ijtimoiy harakatlarning tabiiy asosini tashkil etadi va “bilim”, “ko‘nikma”, “malaka” atamalari orqali ifodalanadi. Kompetensiyalar shaxsning ijtimoiy harakatlarini tavsiflovchi hodisa hisoblanadi. Bunday harakatlar muhim va o‘ziga xos tarzda baholanadi. Boshqa bir tomondan, insonning ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan harakatlarini muayyan sohaga oid bilimlarsiz baholash mumkin emas. Shu bilan bir qatorda, faoliyatli yondashuv nuqtai nazaridan bilim, ko‘nikma, malakalar pedagogikada o‘lchovchi vosita hisoblanadi va ta’limning sifat ko‘rsatkichlarida o‘z ifodasini topadi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarda muayyan kompetensiyalarni shakllantirish o‘zlashtirgan bilimlarni integratsiyalash natijasida vujudga keladi. Bu esa o‘zlashtirgan bilimlar va amaliy harakatlarning tabiiyligini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги “Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси тўғрисида”ги ПФ-5712-сонли фармони. https://lex.uz

2. Боярский, Е.А. Компетенции: от дифференциации к интеграции. “Высшее образование сегодня”, 2007, № 1, с. 46 – 49.

3. Ваҳобов М.М. Компетенциявий ёндашувга асосланган давлат таълим стандартларини жорий этиш – замонавий таълим парадигмаси сифатида. “Замонавий таълим”, 2016, 6-сон, 3 – 10-бетлар.

4. Джураев Р., Зуннунов А. Таълим жараёнида ўқув фанларини интеграциялаштириш омиллари. Т., “Шарқ”, 2005.

5. Иванова Д.И. Компетентности и компетентностный подход в современном образовании. “Воспитание. Образование. Педагогика”, 2007, № 6 (12), с. 32.

6. Мясников В. Компетенции и педагогические умения. “Народное образование”, 2006, № 9, с. 147–153.

7. Пардаева М. Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандартлари ва ўқув дастурларини компетенциявий ёндашув асосида жорий этиш самарадорлиги: муаммо ва ечимлар. “Мактаб ва ҳаёт”, Тошкент, 2018, 3-сон, 88 – 89-бетлар.

Yuldosheva Saodat Azizovna (Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi dotsenti)

ADABIYOT TA’LIMI JARAYONIDA IFODALI O‘QISHNING DOLZARBLIGI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada milliy o‘quv dasturiga ko‘ra, ta’lim oluvchilarda badiiy so‘zdan ta‘sirlanish, uning jozibasini his etish, badiiy asarni tanish va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish masalalarining dolzarbligi qayd etilgan. Adabiyotni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda mutolaa qilish va tinglash, ifodali nutq va o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasiga e’tibor qaratilgan. Adabiy jarayonda og‘zaki ijrochilik va uning tarixiy ildizi, ifodali nutq san’atining turli davrlarlardagi rivoji to‘g‘risida fikr yuritilgan.*

Аннотация. *В данной статье отмечена актуальность вопросов формирования у обучающихся навыков художественного слова, чувства его привлекательности, познания и анализа художественного произведения в соответствии с Национальной учебной программой. Уделяется внимание развитию у учащихся навыков чтения и прослушивания, выразительной речи в процессе преподавания литературы. Рассмотрено развитие устного исполнения, выразительного искусства речи в разные периодыи его исторические корни в литературном процессе.*

Annotation. *This article noted the relevance of the issues of formation of the skills of the artistic word among students, the sense of its attractiveness, knowledge and analysis of the work of art in accordance with the National Curriculum. Attention is paid to the development of students' reading and listening skills, expressive speech in the process of teaching literature. The development of oral performance, expressive art of speech in different periods and its historical roots in the literary process are considered.*

Kalit so‘zlar: *milliy o‘quv dasturi, “Adabiyot” fani, asar mutolaasi, ifodali o‘qish, o‘qish texnikasi, badiiy so‘zdan ta‘sirlanish, idrok etish va ruhiy-estetik zavq olish.*

Ключевые слова: *национальная учебная программа, предмет «Литература», тематика произведения, выразительное чтение, техника чтения, влияние художественного слова, восприятие и получение психо-эстетического удовольствия.*

Key words: *national curriculum, science “Literature”, subject matter of the work, expressive reading, reading technique, influence of the artistic word, perception and receiving psycho-aesthetic pleasure.*

Bugungi kun talabiga ko‘ra, sifatli ta’lim berish va sifatli ta’lim olish muammosi, ayni paytda, dolzarb masalalardan biriga aylandi. Aynan sifatli ta’limgina jamiyatni rivojlantirishda fundamental asos vazifasini o‘tashi hech kimga sir bo‘lmay qoldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-sonli farmonida [1] o‘qituvchilar oldiga maktab o‘quvchilarining bilimi va ko‘nikmalarini milliy o‘quv dasturi talablari asosida shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash ustuvor vazifa etib belgilab berildi.

Maktab ta’limiga joriy etilayotgan milliy o‘quv dasturining mazmun-mundarijasida o‘quvchilarda rivojlantirilishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar qatorida nutqiy-kommunikativ kompetensiyalarni o‘stirish maqsad qilib belgilangan. Darhaqiqat, yoshlarni har taraflama barkamol tarbiyalashda so‘z san’atining o‘rni va roli beqiyosdir. Badiiy adabiyot mutolaasi orqali, Navoiy tili bilan ayt-

ganda, “ko‘ngil xazinasining qulfi” (“Mahbub ul-qulub”)ga ta’sir etilib, kitobxon qalbida o‘y-fikr uyg‘otiladi, mulohaza yuritish va tahlil qilish, mantiqiy xulosalar chiqarishda hayotga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga o‘rgatiladi, yorqin obrazlarga boy asarlar yuksak g‘oyalarga, ulkan va porloq ishlarga ilhomlantiriladi, ruhiy-axloqiy jihatdan komillikka yetaklanadi, ona-Vatanga va mehnatga muhabbat, yaqinlariga sadoqat ruhida tarbiya beriladi.

Diqqatimizni boshlang‘ich ta’limning “Ona tili va o‘qish savodxonligi” milliy o‘quv dasturiga qarartadigan bo‘lsak, o‘qish savodxonligi doirasida o‘quvchilarda to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakalarini shakllantirish, ularni oddiy kitob o‘quvchisidan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish; o‘qish orqali tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitish; tafakkurida elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish; har qanday uslubdagi matnni o‘qish va uni anglash, tanqidiy va kreativ fikrlash ko‘nikmasini egallash nazarda tutilgan.

Umumiy o‘rta ta’limning “Adabiyot” fanini o‘qitishda badiiy asarlar yordamida sog‘lom e’tiqodli, mustaqil fikrli, o‘tkir hissiyotli, yuksak didli, axloqan barkamol, aqlan yetuk, o‘zga insonning tuyg‘ularini anglaydigan, o‘z xatti-harakatlariga xolis baho bera oladigan shaxsning ma’naviy dunyosini shakllantirishda maqsad qilib olingan. Milliy o‘quv dasturga ko‘ra ta’lim jarayonida o‘quvchilarning badiiy so‘zdan ta‘sirlanish, uning jozibasini his etish, haqiqiy badiiy asarni tanish va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish; o‘qilgan badiiy asarni tushunish, undan hayotiy xulosalar chiqarish, badiiy asar o‘qishni hayotiy ehtiyoj hisoblash tuyg‘ularini tarbiyalash, uzluksiz ta’lim bosqichlarida badiiy asar mutolaasiga erkin yondashuv tamoyilini shakllantirish, ularda turli janrlardagi badiiy asarlarni o‘qish, bitiklarning saviyasini ajrata bilish, qahramonlar tutumlariga aksiologik baho berish ko‘nikmalarini qaror toptirish asosiy vazifa qilib olingan. O‘quvchilarning yoshi, ruhiy va jins xususiyatlarini hisobga olgan holda dastur va darsliklarga kiritilgan o‘zbek va jahon adabiyotining turli janrdagi matnlari bilan ishlashda o‘qish texnikasi orqali asar mazmunini idrok etish hamda ruhiy-estetik zavq olishga sharoit yaratilib beriladi.Ushbu ko‘nikmalarni shakllantirish qatorida adabiy ta’lim jarayonida matnlarni ifodali o‘qish ko‘nikmasi ham rivojlantirilib boriladi.

Badiiy asar to‘g‘ri va ifodali o‘qilgandagina, kishida estetik zavq uyg‘otaqi, uning ma’naviy olamini boyitadi. Insonning ifodali o‘qish ko‘nikmasi uning nutqiy ko‘nikma va malakalarining shakllanishi hamda rivojlantirilishi bilan bog‘liqdir. Hayotda hech bir inson tug‘ma notiq bo‘lib tug‘ilmaydi. Ta’lim va tarbiya, oila muhitida hamda ijtimoiy munosabatlar jarayonida nutqiy ko‘nikmalar shakllanib boradi.

Ifodali o‘qish nutqiy ko‘nikmasini rivojlantirishga e’tiborning tarixiy ildiziga bir nazar tashlasak. Ifodali o‘qish xalq san’ati darajasigacha ko‘tarilgan va e’tirof etilgan. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, xalq orasida ertakchilar, doston aytuvchi baxshilar, qissaxonlar, roviylar kabilar bo‘lganki, ular ma’lum darajada og‘zaki ijod namunalarining saqlanib qolinishiga hissa qo‘shganlar hamda og‘zaki namunalarni ifodali, mazmunli o‘qish orqali avom xalq va mansabdor kishilarning diqqatini tortganlar. R.Jumaniyozovning ta’kidlashicha, mutolaa qilishdan ko‘ra, tinglashni afzal bilgan mansabdor shaxslar, xonlar o‘z huzurida biror baxshi yoki qissaxonga mashhur asarlarni o‘qittirishni ma’qul ko‘rganlar [2.79]. Asrlar davomida yaratilgan asotir, afsona va rivoyatlar, maqol va matallar, xalq qo‘shiqlari va dostonlar og‘zaki ijrochilik, ya’ni ifodali nutq san’ati tufayligina bizgacha yetib kelgan.

Mazmundor va ifodali nutq hamma davrlarda kishilarni o‘ziga jalb etib, ijtimoiy hayotda alohida o‘rin egallab kelgan. Ifodali, jozibador va ta’sirchan o‘qish davrlar osha yozma adabiy namunalarni o‘qish jarayonida ham muhim o‘rin tutdi. Badiiy adabiyot namunalarini kishining o‘z ichida o‘qishidan ko‘ra og‘zaki ifodali o‘qishi orqali estetik ta’siri yorqinroq namoyon bo‘ladi.

XV asrlarda mustaqil badiiy ijrochilar toifasi voyaga yeta boshlagan. Jumladan, Alisher Navoiy badiiy so‘z ijrochiligi san’atining voizlik, qissaxonlik, badihago‘ylik, bazalgo‘ylik (latifago‘ylik), dostonxonlik, qasidaxonlik, g‘azalxonlik san’ati shakllanib yetilganligi to‘g‘risida ma’lumotlar keltiradi. Bu davrda badiiy zabardast so‘z ijrochilaridan Husayn Voiz Koshifiy, Muin Voiz Hiraviy, Xoja Muayad Mehnagiy, Mulla Kalon Voiz Samarqandiy, Qozi O‘shiy, Mavlono Riyoziy, Bahovuddin Valad, Jaloliddin Rumiy kabi so‘z san’atkorlari Sharqda mashhur bo‘lgan. O‘zbek badiiy so‘z ijrochiligi san’atiga xos bo‘lgan bedilxonlik, navoiyxonlik, fuzuliyxonlik, mashrabxonlik bilan birga qissago‘ylik, hikoyago‘ylik, latifago‘ylik, ertakchilik taraqqiyoti bu san’atning juda qadimiy va boy tarixga, an’anaga ega ekanligini anglatadi [3.11]. So‘z ijrochiligi san’atkorlari adabiy namunalarni shunchaki jo‘n tilda, badiiy tasvir vositalarsiz, xilma-xil ovoz tovlanishlarsiz bir tarzda ijro etganlarida, ehtimol, bu asarlar bizning davrimizgacha saqlanib yetib kelmagan bo‘lar edi. Ilmiy manbalarga ko‘ra, ifodali o‘qishga doir nazariy ta’riflar so‘z ijrochiligining “ilmi tajvid”, “ilmi kalom”, “ilmi munozara” kabi maxsus fanlar doirasida o‘qitilgan.

Ilmi tajvid. O‘rta asrlarda adabiy talaffuz me’yorlarini o‘rgatuvchi fan. “Tajvid” arabchadan “ko‘-chirish” degan ma’noni bildirib, harflarni barcha sifatlari bilan to‘g‘ri talaffuz qilish va turli an’anaviy o‘qish usullarini qo‘llash qoidalar to‘plamini anglatadi. Islom dini keng yoyilishi bilan ko‘plab arab bo‘l-maganlarning islomga kirishi tufayli Qur’on so‘zlarini talaffuz qilishda xatoliklarga yo‘l qo‘yganlar. Shu bois Qur’on olimlari intonatsiya qoidalarini nazariy asoslarini “Tajvid” ilmida ifodalaydilar [4].

Ilmi kalom – jonli nutq asoslarini o‘rgatuvchi fan. “Kalom” (arab. – ravon nutq, jumla, gap, so‘z) – islom ilohiyot ilmi. Kalom ilmi atamasi diniy-aqidaviy g‘oya va mafkuralarni ishonchli dalillarga tayanib o‘rganishga aytiladi. Kalom islom diniy ta’limotini asoslashga harakat qiladi.

Ilmi munozara – ilmiy va adabiy munozarani o‘rgatuvchi fan.

XVIII asrlarga kelib, g‘arb xalqalari madaniyatida badiiy o‘qish san’ati teatr sahnalaridan, adabiy kechalardan keng o‘rin ola boshlagan. Bu davrada **deklamatsiya** san’atkorlar tomonidan badiiy o‘qish deb nomlana boshladi.

Deklamatsiya (lot. declamation – notiqlik mashqi) – badiiy o‘qish, notiqlik san’atining muhim turlaridan biri. Sharqda deklamatsiya qadimdan rivojlangan [5]. Xitoy, Hind podsholari, Xorazmshohlar, so‘g‘d, sak xonlari saroylarida deklamatsiya ustalari ishlagan. O‘zbek xonliklari hududida ham deklamatsiya san’atining mohir ustalari (maddohlar, qissaxonlar, dostonchi, ertakchi va otinlar) yashab ijod etgan. Saroylarda tez-tez uyushtirib turilgan she’rxonlik ham, aslida, deklamatsiyaning bir ko‘rinishidir. XVII–XVIII asr g‘arb mumtoz teatrida deklamatsiya tushunchasi aktyorlik ijro vositalarini umumlashtirgan.

Estradadagi badiiy asarlarni o‘qish keng qamrovli o‘ziga xos san’at bo‘lib, deklamatsiyaning zamonaviy ko‘rinishlaridan deyish mumkin. XX asr boshlarida vatandoshlarimiz Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Mannon Uyg‘ur, N.Isomiddinxo‘jayev, Sh.Inoyatov, X.Yunusov singari ijodkorlar badiiy o‘qishni sahnaga olib chiqqanlar.

XIX asrning o‘rtalarida “ifodali o‘qish” iborasi faol qo‘llanilib, u so‘z san’atini mahoratli ifodalashni bildirgan, bu mahoratni ta’lim oluvchilar (bolalar, o‘quvchilar, talabalar)ga o‘rgatish tartibini anglata boshladi.

XX asr boshlarida maktab va maorif tizimi rivojlanib, 1918-yilda yetti yillik ta’lim uchun ilk bor adabiy o‘qish dasturlari ishlab chiqildi. Ushbu dasturda ta’lim oluvchilarning og‘zaki va yozma nutq malakalarini rivojlantirishga qaratilgan masalalarga e’tibor qaratildi. Bugungi kunga kelib, davr talabiga ko‘-ra, milliy o‘quv dasturida ham bolalarda ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish masalasi dolzarb vazifalardan biri ekanligi qayd etildi.

“Ifodali o‘qish” tushunchasiga qator tilshunos olimlar ta’rif berib o‘tganlar. S.Inomxo‘jayev, A. Zunnunovlar quyidagicha ta’rif berganlar: “Ifodali o‘qish adabiy asarni tushunarli va ta’sirchan o‘qish demakdir. Bu o‘qish san’ati yod olingan matnni ifodali o‘qishni ham o‘z ichiga oladi. Ifodali o‘qishda fikrlarni yanada silliq, aniq, go‘zal shaklda talqin etish uchun emotsional bo‘lishi uchun o‘quvchi-ijrochi asar mazmuni, g‘oyaviy-badiiy jihatlari haqida tasavvurga ega bo‘lishi lozim” [6.58]. Ifodali o‘qish mohiyatan kishining his-tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatishga qodir bo‘lgan muhim jarayon hisoblanadi. Badiiy adabiyot mutolaasi insonning ichki his-tuyg‘ulari, ehtiroslariga ta’sir qiladi: kuldiradi, yig‘latadi, o‘ylashga majbur qildiradiva hayotiy qarashlarini shakllantiradi, kamolotga yetkazadi. Shu bois ham badiiy adabiyot bilan ifodali o‘qish san’ati asrlar osha yonma-yon yashab, insonning ma’naviy hamrohi bo‘lib kelgan.

Ifodali o‘qish muayyan intonatsiya yordamida asarning mazmuni, g‘oyasi va jozibasini to‘g‘ri, aniq, yozuvchi niyatiga mos ravishda ifodalay bilishdir. Ifodali o‘qishning asosiy vazifasi muayyan matnning mazmuni va emotsionalligini ohang orqali tinglovchiga yetkazib berishdir.Hammada ham ifodali nutq qobiliyati bo‘lavermaydi. Biroq har bir inson o‘z nutqi ustida muntazam ishlashi, to‘xtovsiz mashqlar qilishi natijasida ifodali nutq qobiliyatini shakllantirish mumkin. Avvalo, ifodali nutq asoslarini egallash uchun quyidagi muhim shartlarga rioya qilish lozim:

1. Nutq jarayonida nafasni to‘g‘ri olish va to‘g‘ri taqsimlay bilish.
2. Har bir tovushning to‘g‘ri artikulatsiyasi va diksiya (burro gapirish) malakasini egallash.
3. Adabiy talaffuz me’yorlarini egallash.

Ifodali o‘qishning asosiy vositalaridan biri ovozdir. Ovoz nafas bilan uzviy bog‘lanadi. Shuning uchun o‘qituvchi maktab o‘quvchilarining ifodali nutqi ustida ishlashni talaffuz qilayotganda o‘z nafasini boshqara olish va ovozdan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatishdan boshlaydi. Ovoz kuchi baland-pastlik, uzun-qisqa, tezlik (temp), yoqimli-yoqimsizlik xususiyatlari bilan xarakterlanadi. O‘quvchilar matn mazmuniga qarab, baland yoki past ovozda o‘qish (gapirish)ga, nutqda tez, o‘rtacha yoki sekin tempni tanlashga, biror tuyg‘uni ifodalashga o‘rganadilar. Ifodali o‘qishga o‘rgatishda o‘quvchilar pauza va logik urg‘u bilan ham tanishtiriladi.

Ifodali o‘qishga tayyorlanish shartli ravishda uch bosqichga bo‘linadi:

♦asarning aniq mazmunini tushunish, unda qatnashgan qahramonlarning xatti-harakatini tahlil qilish, asarning g‘oyasini belgilash, ya’ni, asarning g‘oyaviy-mavzuviy asosini, uning obrazlarini badiiy vositalari bilan yaxlit holda tushunish;

♦matnning qaysi joyida to‘xtam (pauza) qilishni, mantiqiy urg‘uning o‘rnini, o‘qish tempini belgilab olish;

♦o‘qishni mashq qilish, muallif fikrini, uning tasvirlangan voqea-hodisalarga va qatnashuvchi shaxslarga munosabatini ovoz bilan ifodalay olish uchun matnni qayta o‘qish.

Asarning mazmuni va g‘oyaviy yo‘nalishini tahlil qilish ifodali o‘qishga o‘rgatish bilan bog‘lab olib boriladi. Ifodali o‘qishga o‘rgatishda matn mazmunini tushunish, muallif hikoya qilgan voqealarga o‘z munosabatini bildirish asosiy vazifa hisoblanadi. Har bir matnda qanday mazmun aks etgan bo‘lsa, uning o‘ziga xos ohangini ham ifodalash zarur bo‘ladi. Bunda nafas olish, nafas chiqarish, tovushning rang-barangligi, baland-pastligi, talaffuzdagi o‘ziga xosliklar, hatto to‘xtam pauzalar o‘z ta’sirini ko‘rsatib turadi. Ifodali o‘qilgan matnni tushunish ham oson bo‘ladi.Ifodali o‘qish orqali muallif ko‘zda tutgan maqsad, ruhiyat va kayfiyatni to‘la darajada anglash imkoni paydo bo‘ladi.Uning vositasida asar qahramonlarning ruhiy kechinmalari ham to‘laroq namoyon bo‘ladi. Xursand yoki xafa bo‘lgan, shod yoki qayg‘urayotgan odamning o‘ziga xos tuyg‘ulari ifodali o‘qish vositasida nozik darajada ilg‘ash mumkin boladi. Ifodali o‘qish jarayonida o‘quvchi aktyorlik qobiliyatini namoyon qiladi: bir vaqtning o‘zida ham muallif nutqi, ham obraz nutqini “jonli” ifodalaydi.

O‘quvchilarda ifodali o‘qish malakasini shakllantirish uchun asarni o‘qituvchining ifodali o‘qishi muhim ahamiyatga egadir. Adabiyot darslarida o‘quvchilarning badiiy adabiyotga bo‘lgan mehrini oshirish, mutolaa qilishga bo‘lgan ishtiyoqini o‘stirish, dunyoqarashini kengaytirish, o‘qiganlarini og‘zaki bayon qildirish orqali adabiy tilda gapirish ko‘nikmalari rivojlantiriladi hamda ifodali o‘qish san’atini egallashga zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022-yildagi “2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-sonli farmoni.https://lex.uz/docs/6008663
2. Жуманиёзов Р. Халқ ижоди – ҳақ ижод. Тошкент, “Ўзбекистон”, 1993, 79-бет.
3. Soatov B., Usmonova M., Hamidova G. Ifodali o‘qish. Jizzax, “Sangzor”, 2015, 11-bet.
4. Абдулҳаким қори Комилжон ўғли. Тажвид (Қуръон ўқиш қоидалари). Тошкент, Имом Бухорий халқаро маркзи, 2018, 64-бет.
5. https://qomus.info/oz/encyclopedia/d/deklamatsiya/
6. S.Inomxo‘jayev, A.Zunnunov. Ifodali o‘qish asoslari. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1978, 58-bet.

Soliyev Erkin Mamatkarimovich (Toshkent Milliy universiteti doktaranti; soliyev2013@mail.ru)

BO‘LAJAK MUHANDISLIK YO‘NALISHI TALBALARIGA CHET TILI O‘QITISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqotning maqsadi texnik oliy o‘quv yurtlari nofilologik yo‘nalishi talabalariga, ayniqsa, muhandislik yo‘nalishi talabalariga chet tili o‘qitishning ahamiyati va mohiyatini o‘rganishdir. Talabalar boshqa mintaqaviy tillar orasida ikkinchi til sifatida ingliz tilini afzal ko‘rishga odatlanganlar. Ushbu tanlovning sabablarini aniqlash, shuningdek, amaliy qiyinchiliklar va ehtimolliklarni bartaraf etish juda muhimdir. Shu sababli ham muhandislik yo‘nalishi talabalari uchun maxsus va umumiy chet tili o‘qitish masalasi diqqat markazida bo‘lib qolmoqda.*

Аннотация. *Целью данного исследования является изучение важности и сущности обучения иностранному языку студентов нефилологических специальностей технических вузов, особенно инженерных специальностей. Студенты привыкли отдавать предпочтение английскому как второму языку среди других региональных языков. Важно определить причины такого выбора, а также исключить практические трудности и вероятности. По этой причине вопрос обучения специальному и иностранному языку будущих студентов инженерных специальностей остается в центре внимания.*

Annotation*. The purpose of this study is to study the importance and essence of teaching a foreign language to students of non-philology majors of technical higher educational institutions, especially engineering majors. Students are accustomed to prefer English as a second language among other regional languages. It is important to determine the reasons for this choice, as well as to eliminate practical dif-*

ficulties and probabilities. For this reason, the issue of special and foreign language teaching for future engineering students remains in the center of attention.

Kalit so‘zlar: *chet tilini o‘rgatish, o‘rganish maqsadi va AKT.*

Ключевые слова: *преподавание иностранного языка, цели обучения и ИКТ.*

Key words: *foreign language teaching, learning objectives and ICT.*

1. Kirish. 1.1. Chet tili o‘qitishning ahamiyati. Bugungi kunda ingliz tili Lingua Franca (umumiy til) sifatida tanilib, butun dunyoda juda muhim maqom va dolzarblikka erishmoqda. Ingliz tili turli ona tili va turli xalq tillari o‘rtasidagi aloqa tili va kommunikativ til sifatida xizmat qiladi. Shunday qilib, ingliz tili Lingua Francaga aylanadi. Ayniqsa, savdo, biznes, adabiyot, ilm-fan va boshqa sohalar uchun muloqot til sifatida foydalanib kelmoqda. Boshqa dunyo tillari mahalliy xalq tomonidan so‘zlashilib kelayotgan bir paytda, ingliz tili esa keng tarqalgan foydalanuvchilarga ega. Globallashuv va global iqtisodiyotning kelishi ingliz tili mavqeyining shu darajada o‘sishiga olib keldi. Ingliz tili hayotning deyarli barcha jabhalarida keng tarqalgan. Shu sababga ko‘ra insonlar ingliz tilida so‘zlashishni afzal ko‘rishadi; Bu tanlovning asosiy sabablaridan biri, albatta, uning soddaligi bilan bog‘liq. Zamonaviy dunyoda ingliz tili eng ko‘p tanlangan uchinchi tildir. Insonlar va talabalar ingliz tilini o‘rganish va gapirish, birinchi navbatda, oson tushunishligi va moslashuvchanligi tufayli uni afzal ko‘rishadi.

Ingliz tilining ahamiyati. Britaniya imperiyasi hayotiy kuch sifatida paydo bo‘lgandan keyingina ko‘zga tashlandi. Mustamlakachilikni kengaytirish konsepsiyasi oqibatida ingliz tili juda ko‘p mamlakatlarda tarqaldi. Mustamlaka qilingan davlatlar rasmiy til, ya’ni, ingliz tili hayotiy jarayonning bir bo‘lagi sifatida yashashga majbur qilindilar. Ingliz tilini qamrab olishining yana bir ajoyib sababi Ikkinchi jahon urushi mobaynida G‘arb davlatlari va Amerikaning ulkan ta’sir ko‘rsatishi bo‘ldi. Urush davridagi ilmiy o‘sish bilan bir qatorda, ixtirolar, sanoatlashtirish va boshqa tegishli masalalar ingliz tilinining ustun mavqega ega bo‘lishi bilan bog‘liq edi. Qisqa muddat ichida ingliz tili global savdo va savdo tilini darajasiga ko‘tarildi. AQSH va Buyuk Britaniyaning iqtisodiy kuchi va madaniy va texnologik eksporti bilan ingliz tili asta-sekin xalqaro yozishmalar va muloqotning asosiy tiliga aylandi.[1] Ko‘pgina texnik qurilmalarning kelishi, xususan, internet tarmoq ingliz tilini har bir sohaga ancha yaqinlashtirdi. Yigirmanchi asr davomida texnologik ixtirolar va ishlanmalar, masalan, telefon, faks, eng muhimi, kompyuterlar va internet har bir qit’adan odamlarni yaqinlashtirdi va ingliz tilini eng qulay muloqot vositasi sifatida tarqalishiga yordam berdi. Natijada ingliz tili boshqa tillar orasida ancha sezilarli obro‘ga ega bo‘ldi. Buni boshqa tillarda gaplashishga va o‘rganishga qiziqayotganlarni ingliz tilini o‘rganayotgan barcha yoshdagi odamlar soniga nisbatan osongina ko‘rish mumkin.[2] Zamonaviy hayotda ingliz tilining o‘rni juda muhim. Bugungi kunda ingliz tili biznes, iqtisodiyot, savdo, sport, fan va texnologiya, muloqot tilidir.

Bizga ma’lumki, barcha ilmiy ixtirolar va innovatsion tadqiqot natijalari ingliz tilida taqdim etilmoqda. Ushbu ma’lumotlarni ta’minlash va saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Xavotirli jihati shuki, deyarli barcha darsliklar ingliz tilida. Muhandislik talabalarining, ayniqsa, texnik oliy o‘quv yurti talabalari ingliz tilidagi texnik muhandislik kitoblaridan o‘rganishlari kerak. Ingliz tilining ahamiyati, asosan, uning qaysi sohada foydalanishi bilan bog‘liq. Misol uchun, ko‘pchilik muhandislik talabalari uchun ancha mashaqqatli jarayondir. Ular texnik sohada yaxshi bo‘lishlari mumkin, lekin ular ingliz tilida muloqot qilishda ancha qiyinchiliklarga uchraydilar. Ko‘pincha, ular ingliz tilini texnika sohasi bo‘yicha bilishadi, lekin ularda ingliz tilini biznes sohasida bilish yetarlicha emas.

1.2. Ingliz tili – akademik til. Ingliz tilining akademik til sifatida ancha muhum rol o‘ynaydi. Ingliz tili o‘qitish nafaqat sinfda, balki o‘quv dasturini tuzishda ham o‘z roliga ega. Ingliz tilining roli aniq. Muhandislik yo‘nalishi talabalari ingliz tilini nafaqat soddaligi, balki global ssenariyda ham qo‘llanilishi uchun afzal ko‘radi. Ingliz tili chet tilidir, lekin u kundalik suhbat va muloqotda ajralmas qismiga aylandi. Har qanday chet tilini bilish, haqiqatan ham, shaxsga ustunlik va qadr-qiymat beradi. Biroq hozirgi ssenariyda ingliz tilining holati muhandislik talabalarini ingliz tilini tanlashga majbur qildi. Ular ishlayotgan soha ingliz tili bilan bog‘liq va quvvatlangan. Muhandislarga yangi narsalarni o‘rganish yoki imtihonlar yoki loyihalar, tadqiqot ishlari, hatto marketing sohasida ham ingliz tili kerak bo‘ladi. Ingliz tilini mukammal bilish va biznes sohasida ingliz tilidan foydalanish olimlarni birlashtiradi. Muhandislar soha bo‘yicha ingliz tilida yetarlicha bilim olish uchun ilmiy va texnik bilimlarni o‘rganishlari zarur.


Olimlar ingliz tilini o‘rganish zarur. Tilni o‘zlashtirish tabiiy jarayon bo‘lib, u tinglash tushunish, gapirish, o‘qish va yozishning to‘rtta asosiy ko‘nikmani o‘z ichiga oladi. Ingliz tilini qiziqishdan tashqa-

[1] Walters J. (2002). Why Is English the International Lingua Franca?

[2] Shu manba

ri, o‘rganish maqsadini uchta umumiy, maxsus va ijtimoiy maqsadlarga bo‘lish mumkin. Ta’lim maqsadi, agar biron-bir sabab bo‘lmasa, umumiy bo‘ladi. Buni esa aniq sabablarsiz ingliz tilini o‘rgatishdir. Ijtimoiy maqsadlar uchun o‘rganish muloqot qilish maqsadlarini o‘z ichiga oladi. U esa og‘zaki va yozma usullarda g‘oyalarni tushunish, javob berish va taqdim etishni o‘z ichiga oladi. Shu sababga ko‘ra, muayyan maqsadlar uchun ingliz tilini o‘rganish ommalashib bormoqda.

Mashinasozlik muhandisligi talabalari uchun ingliz tilini o‘rgatishning ahamiyati.



2. Ingliz tili o‘qitishning ehtimoldan yiroqliligi. Bo‘lajak mashinasozlik muhandisligi talabalari uchun ingliz tilini o‘qitishga bo‘lgan e’tibor muayyan maqsasdlardan kelib chiqadi. Bu esa talabalarning zarur va yetarli til ko‘nikmalariga ega bo‘lishni talab qiladi. Talabalarning til qobiliyatini o‘qitishda va baholashda, yondashuvlarni shakllantirish yoki ingliz tilini o‘rgatish metodlarini e’tiborga olish kerak. Muhandislik yo‘nalishi talabalarining ta’lim ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, o‘quv rejasini belgilash kerak. Bu o‘quvchining ingliz tilini o‘rganishdagi oldingi bilimlariga bog‘liq. Talabaning turli xil ta’lim turlari va atrof-muhit sharoiti sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Yuqorida aytib o‘tilgan fikrlar inobatga oladigan bo‘lsak, muhandislik yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini o‘rgatishda talabalarining ingliz tilini tanlashdagi asosiy maqsadi aniqlab olish muhim rol o‘ynaydi. U maxsus akademik maqsadlarga ega. Tinglash tushunish va o‘qish qobiliyatlari bilan tanishish juda oson, gapirish va yozish ularda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Tilni bilish to‘rtta ko‘nikmani o‘z ichiga oladi va ingliz tilini o‘rgatish ham to‘rtta ko‘nikmaga e’tibor qaratish kerak. Maxsus va umumiy ingliz tilini o‘qitish ham ingliz tilini o‘qitishda qiyinchilik tug‘diradi. Muayyan vazifa talabaning kompyuter ko‘rsatmalari orqali ilmiy bilimlarni tushunish qobiliyati, terminlar, matematika, kimyoviy va fizikaviy nazariyalarini takomillashtirishdir. Talabalarning ehtiyojlarini tushunish va ularning ingliz tilini tanlash tanlovi e’tiborga olinishi zarur.

3. Akt–ingliz tili o‘qitishning yechimli yo‘li. Til o‘qituvchilari uchun ingliz tilini o‘rgatishda ma’lum qiyinchiliklar mavjud, masalan, sinflarning kuchliligi, turli o‘rganish darajasiga ega o‘quvchilar, turli xil o‘rganish qobiliyatlari, kamroq dars soatlari va boshqa tegishli masalalar. Yuqoridagi muammolarni hal qilishning samarali usuli bu AKT (axborot va kommunikatsiya texnologiyalari)ni o‘quv jarayoniga joriy qilishdir. AKTning joriy etiishi talabalarda motivatsiya beruvchi, qiziqarli, va jozibali ta’lim muhitini keltirib chiqaradi. AKTga asoslangan ta’lim olsih va ta’lim berish juda samarali, chunki u kompyuter va internet vositalarining afzalliklaridan foydalanadi. Til o‘rganishning to‘rtta ko‘nikmalari ham bir paytda texnologiyalar yordamida o‘rganiladi. Onlayn ta’lim, kurs materiallari va amaliyotni sinfda o‘qitish bilan olib borish mumkin, ingliz tilini o‘rgatish va o‘rganishdagi nomutanosibliklari bartaraf qiladi.

4. Xulosa. Bugungi kunda Ingliz tilini o‘rganish har bir inson uchun asosiy vazifasi bo‘lib qolmoqda. Mashinasozlik yo‘nalishi talabalari ingliz tilini o‘rganishlari zamon talabidir, bu esa bir qancha muddatni talab qiladi. Mashinasozlik yo‘nalishi talabalarinig akademik va ish bilan ta’minlanish darajasi AKT yordamida ortadi. Talabalar ingliz tilini tanlash uchun maxsus sabablarga ega bo‘lishi mumkin. Xulosa qiladigan bo‘lsak, o‘qituvchilarning asosiy vazifasi o‘quvchini global talablarga ko‘tarishdir.

Xudoykulov Rustam Quchqorovich (Termiz Muhandislik-texnologiya instituti katta o‘qituvchisi; email: rustam85terdu@mail.ru)

BO‘LAJAK QURILISH MUHANDISLIKLARIDA TEXNOLOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA FANLARNING TAVSIFI

Annotatsiya. *Talabalarni innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlashda umumkasbiy fanlarni o‘qitish orqali ularni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan umumkasbiy fanlar tavsifi keltirib o‘tilgan.*

Аннотация. *При подготовке студентов к инновационной инженерно-профессиональной деятельности дается описание общепрофессиональных предметов, которые служат формированию у них профессиональной компетентности путем преподавания общепрофессиональных предметов.*

Annotation. *When preparing students for innovative engineering and professional activities, a description of general professional subjects is given that serve to form their professional competence by teaching general professional subjects.*

Kalit so‘zlar: *rompetensi, bino, quruvchi muhandislar, inshootlar, konstruksiyalar, mustahkamligi, bikrligi, ustuvorligi, zo‘riqishlar, deformatsiyalar, innovatsion muhandislik, tashqi yuklar, salqilik, ko‘chish.*

Ключевое слова: *грузоподъемность, строительство, инженеры-строители, конструкции, сооружения, прочность, особенность, приоритет, напряжения, деформации, инновационная техника, внешние нагрузки, прохлада, перемещение.*

Key words: *load capacity, construction, civil engineers, structures, structures, strength, feature, priority, stresses, deformations, innovative technology, external loads, coolness, displacement.*

Hozirgi paytda uzluksiz ta’lim tizimida texnika yo‘nalishidagi fanlarni o‘qitish jarayonida interfaol metod va usullarning qo‘llanilishi bilan bir vaqtda, texnologik kompetentlikni ham rivojlantirishga e’tibor qaratilmoqda. Misol uchun, arxitektura va qurilish sohasini ko‘rib chiqaylik. Bu sohadagi o‘zgarishlar, yangiliklar, albatta, fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi yutuq va natijalari asosida baholanadi. Dunyo miqyosida qurilish sohasining bugungi kundagi holati misli ko‘rilmagan zamonaviy konstruksiyalar, innovatsion texnologiyalar asosida mustahkam bino-inshootlar barpo etilayotganligi bilan ajralib turadi. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida arxitektura va qurilish sohasidagi innovatsion yondashuvlar, yangiliklar, ixtiro va yutuqlar deb baholash mumkin.


Arxitektura va qurilish ta’lim yo‘nalishlarida “Nazariy mexanika”, “Materiallar qarshiligi” fanlari umumiy holda “Qurilish mexanikasi” fanida birlashadi. Bu tasodifiy hol emas, chunki ana shu qayd etib o‘tilgan fanlar muhandislik bilimlarining asosiy mazmuni tashkil etadi va aynan shular orqali talabalarda mos hamda zaruriy innovatsion-muhandislik kasbiy faoliyatiga bo‘lgan qobiliyatni aniqlovchi kompetensiyalar shakllantiriladi. Xususan,“Qurilish mexanikasi” o‘quv fani sifatida arxitektura va qurilishning barcha sohalaridagi detal va konstruksiyalarning eng ko‘p uchraydigan, ya’ni, eng ko‘p ishlatiladigan konstruksiyalarning tuzilishi, ishlatilish sohasi, afzalliklari va kamchiliklari, ularni mustahkamlikka, ustuvorlikka hamda bikirlikka hisoblash va loyihalashni o‘rganadi.

O‘quv rejadagi majburiy va tanlov fanlarini o‘rganishlarida umumkasbiy fanlarning ishtiroki mazmun jihatdan o‘quv jarayoniga bosqichma-bosqich singdirilgan [3]. Talabalarda, avvalo, kasbiy sifatlarni shakllantirish, undan keyin muhandislik kompetensiyalarini shakllantirish orqali kasbiy kompetentligi hosil qilinadi va rivojlantiriladi.

Biz o‘z tadqiqot ishimizda yuqoridagi umumkasbiy fanlar orqali talabalarda innovatsion-muhandislik kasbiy faoliyatiga bo‘lgan qobiliyatlarini rivojlantirdik. Quyida bu fanlarni o‘rganish orqali talabalarda innovatsion-muhandislik kasbiy faoliyatni rivojlantirishning tasnifini keltiramiz.

“Qurilish mexanikasi” o‘quv rejadigi majbiriy fanlarning muhandislik fanlaridan bo‘lib, u quruvchi-muhandislarga inshoot va uning elementlarini tejamli, mustahkam, chidamli va muqobil shakllarini topib, loyihalash va qurishni o‘rgatadigan fanlardan hisoblanadi.

1-rasmda 60730300-Qurilish (bino va inshootlarni loyihalash, qurish) ta’lim yo‘nalishida majburiy va tanlov fanlarini o‘qitishning ketma-ketligi keltirilgan [2]. Majburiy va tanlov fanlarini o‘qitish orqali talabalarda muhandislik kasbiy kompetensiyalari shakllantiriladi.



1-rasm. “60730300-Qurilish (bino va inshootlarni loyihalash, qurish)” ta’lim yo‘nalishida majburiy va tanlov fanlarini umumkasbiylik bo‘yicha o‘qitishning ketma-ketligi.

Arxitektura va qurilish ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejasidagi majbiriy fanlarning muhandislik fanlaridan o‘zlashtirilgan bilimlarga tayangan holda, “Qurilish mexanikasi” fanining o‘zi ham fundamental bilimlarni maxsus fanlar uchun yetkazuvchi hisoblanadi. Uning mazmunini quyidagilar tashkil etadi:

–dalillar, tushunchalar, kattaliklar, fundamental qonunlar, ilmiy-nazariy qonunlar;

–bino, inshootlar va konstruksiyalar elementlarida hosil bo‘loladigan kuchlanganlik holatini va deformatsiyalanishni muhandisona tahlil qilishni, konstruksiya uchun hisobiy sxema tanlashni ularning ko‘ndalang kesimlaridagi ichki kuchlarni aniqlash uchun kerakli usullarni qo‘llay olishni, konstruksiya materiallarining fizik-mexanik xarakteristikalarini aniqlash usullarini talabalarga o‘rgatish;

–inshoot va uning elementlarida tashqi yuklar ta’siridan hosil bo‘ladigan salqilik, ko‘chish, chekli kuch miqdorini aniqlash, tebranish amplitudalari va vaqtini aniqlash

–quruvchi muhandislarga inshoot va uning elementlarini tejamli, mustahkam, chidamli va muqobil shakllarini topib loyihalash va qurishni o‘rgatish;

–inshootlar va konstruksiyalarning mustahkamligi, bikrligi va ustuvorligini hisoblash;

–inshoot elementlarida, konstruksiyalarida hosil bo‘ladigan zo‘riqishlar va deformatsiyalarni aniqlash;

–mustahkamlikka, bikirlikka va ustuvorlikka mazkur konstruksiyalarni hisoblash usullari bo‘yicha mos bilim, ko‘nikma va malaka shakllantirish;

–qurilish mexanikasida barcha masalala ikkiga bo‘linadi, ya’ni, statik masalalarda vaqt hisobga olinmagan holda, dinamik masalalarda vaqt hisobga olingan holda hisoblash;

–o‘ziga xos qoidalar va tafakkur qilish usullari hamda amaliy faoliyat;

–innovatsion muhandislik kasbiy faoliyati muammolarini yechimiga yo‘naltirilgan bilim va ko‘nikmalardan amaliyotda foydalanish.

Mazkur holatlar talaba ijodiy potensiali hisoblangan zamonaviy innovatsion-muhandislik ta’limi talablariga javob berishi lozim. O‘z navbatida, “Qurilish mexanikasi” fanining birinchi galdagi vazifasi –

o‘ziga xos bilimlarni taqdim etish bilan birga, talabalarda innovatsion-muhandislik kasbiy faoliyatiga bo‘lgan qobiliyatni mos kompetensiyalar asosida shakllantirish hamdir.

Shuni qayd etishimiz lozimki, fanlararo bog‘liqlik nafaqat fan bloklaridagi fanlarda namoyon bo‘ladi, balki bitta blokdagi fanlar o‘rtasida ham amalga oshadi.

Masalan, “Qurilish mexanikasi” fanining bo‘limlaridagi “Nazariy mexanika” fanini o‘zlashtirishda, u fizika kursida o‘rganiladigan jism va moddiy nuqtaning statika, kinematika va dinamikasi tushunchalari hamda tasavvurlariga asoslanadi. “Materiallar qarshiligi” kursi fizikadan o‘rganilgan “Elastik kuchlar”, “Jismlar muvozanati” mavzusi asosida o‘qiladi. Nazariy mexanika va materiallar qarshiligidan o‘zlashtirilgan bilimlar esa “Qurilish mexanikasi” fanini o‘rganish uchun asos bo‘ladi. “Nazariy mexanika”, “Materiallar qarshiligi” bloklarida rivojlantirilgan asosiy tushunchalar “Qurilish mexanikasi” fanida transformatsiyalanadi va integratsiyalanadi. Bularning barchasi maxsus fanlarni o‘zlashtirish uchun tayanch vazifani bajaradi.

Umumkasbiy fanlardan har birining ta’lim jarayonidagi o‘rnini, ahamiyatini va ta’sirini aniqlash mumkin. Xususan, matematika va tabiiy-ilmiy fanlar orqali taqdim etiladigan bilimlarning iste’molchisi umumkasbiy fanlar bo‘lsa, o‘z navbatida, umumkasbiy fanlar tomonidan taqdim etiladigan bilimlarning iste’molchisi maxsus fanlar sanaladi [1].

Bakalavrlarni tayyorlashning asosiy ta’lim dasturidagi minimum talablarini tahlil qilib, unga mos ravishda innovatsion-muhandislik kasbiy faoliyatiga bo‘lgan qobiliyatlarni shakllantiruvchi komponentlar tadqiq qilindi [4]. Ularni shakllanish va rivojlanish bosqichlari mashg‘ulotlarni o‘tkazish turlarini, ya’ni, ma’ruza, laboratoriya, amaliy kabilarni hisobga olgan holda qarab chiqildi. Yuqorida qayd etilgan fanlarning o‘rnini baholash qiyin, shu sababli ularning har biri ustida tadqiqot vazifalariga mos ravishda tahliliy yondashuvni amalga oshiramiz.

Jumladan, “Qurilish mexanikasi” fani hozirgi ko‘rinishida majmuaviy fan hisoblanadi, undagi tarkib, inshoot va uning elementlarida tashqi yuklar ta’siridan hosil bo‘ladigan salqilik, ko‘chish, chekli kuch miqdorini aniqlash, tebranish amplitudalari va vaqtini aniqlash bilan uyg‘unlashib ketgan. Sohaga mo‘ljallangan qurilish konstruksiyalarini loyihalashtirish bo‘yicha maxsus kurslarning ilmiy asosi bo‘lib, talabalarning mexanik va matematik tayyorgarligiga asoslanib, DTS malaka talablari ularning oldiga quyidagilarga ega bo‘lish vazifalarini qo‘yadi:

–matematik va tabiiy-ilmiy fanlar bilan ixtisoslik fanlari o‘rtasida ilmiy va nazariy bog‘liqlikni ta’minlashi;

–ixtisoslik fanlarini o‘rganish va chuqur egallash uchun zarur bo‘lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko‘nikma va o‘quvlarni shakllantirishi;

–umumkasbiy vazifalarni hal etishda fan va ta’limning zamonaviy muammolariga doir bilimlardan foydalanishga tayyorlash;

–talabalarni berilgan shartlarga ko‘ra, qurilish mexanikasida quruvchi muhandislarga inshoot va uning elementlarini tejamli, mustahkam, chidamli va muqobil shakllarini topib, loyihalashga o‘rgatish;

–davlat standartlashtirish tizimi va konstruktorlik hujjatlarining yagona tizimi talablari asosida muhandislik chizmalarini tuzish tartibi va qoidalarini, qurilish chizmalarini o‘qish va konstruksiyaga ajratish talablarini, qurilish chizmalarini bajarish talablarini bilishi va ulardan foydalana olishi;

–konstruksiya va konstruksiya elementlarini mustahkamlikka, bikrlikka, ustuvorlikka va chidamlilikka hisoblashni bilish;

–bino, inshootlar va konstruksiyalar elementlarida hosil bo‘ladigan kuchlanganlik holatini va deformatsiyalanishni muhandisona tahlil qilishni, konstruksiya uchun hisobiy sxema tanlash ko‘nikmasi shakllangan bo‘lishi;

–talabalarni Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida ma’naviy-axloqiy tarbiyalash va ta’limni samarali tashkil etishga o‘rgatish lozim.

O‘quv materialining bunday tarkiblashtirilishi invariant va variatsiyalanadigan komponentlar bilan birgalikda arxitektura va qurilish yo‘nalishi ta’lim oluvchilarining “Qurilish mexanikasi” kursi dasturini tashkil etadi.

Shunday qilib, fan mazmuni invariant komponentni o‘zida namoyon etib, u nazariya asosini, qisman empirik bazisni, o‘zlashtirilgan qonunlarni, ilmiy-texnik nazariyalarni hamda variatsiyalanadigan komponentni aks ettiradi. Variatsiyalanadigan komponent kasbiy oliy ta’limning turli ta’lim muassasalari uchun muhandislik yo‘nalishi mahsuloti ko‘rinishiga bog‘langan holda, bir necha ko‘rinishga o‘zgarishi mumkin. “Qurilish mexanikasi” fani umumkasbiy fan sifatida muhandislik faoliyatdagi kasbiy sifatlarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi va aynan shu fanga tayangan holda, qurilish (bino va in-

shootlarni loyihalash, qurish) ta’lim yo‘nalishi talabalarining kelgusi kasbiy faoliyatida multifanlararo tizimli fikrlash qobiliyatlarining rivojlanishida alohida o‘rin tutadi. Ixtisolik fanlari va ishlab chiqarish korxonalari tomonidan kiritilgan paradigmalarga ko‘ra, tayyorlash maqsadida keltirilgan maxsus fanlarni o‘qitishda umumkasbiy bilimlarni puxta egallashida “Qurilish mexanikasi” fanining ahamiyati beqiyosdir.

Xulosa qilib aytganimizda, maqolamizda talabalarni innovatsion-muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlashda umumkasbiy fanlarni o‘qitish orqali ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan umumkasbiy fanlar tavsifi keltirib o‘tildi. Xususan, “Qurilish mexanikasi” fani umumkasbiy fan sifatida talabalarda innovatsion-muhandislik kasbiy faoliyatiga bo‘lgan qobiliyatlarini rivojlantiruvchi muhim jihatlarini o‘zida jamlagan, kasbiy masalalarni yechish imkoniyatini beruvchi mantiqiy tugallan predmet ekanligi asoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Qurilish mexnikasi” fan dasturi. 60730300-Qurilish (bino va inshootlarni loyihalash, qurish) ta’lim yo‘nalishi malaka talablari. Toshkent, 2021.
2. R.Mavlonova, O.To‘rayeva, K.Xoliqberdiyev. Pedagogika. Darslik, Toshkent, “O‘qituvchi”, 2001.
3. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. Ўқув қўлланма, “Адабиёт жамғармаси” нашриёти, Тошкент, 2006, 160 бет.
4. Авлаев О.У., Жўраева С.Н., Мирзаева С.П. Таълим методлари. Ўқув-услубий қўлланма, “Наврўз” Тошкент, 2017, 226 бет.

Kirgizova Nargiza Xudoyberdiyevna (Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi o‘qituvchisi; e-mail-kuldasheva80@bk.ru)

TO‘GARAK MASHG‘ULOTLARIDA VISUAL O‘QITISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama tarbiyalash, dunyoqarashini shakllantirish, ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlar, texnologiya fanidan to‘garak mashg‘ulotlarida o‘qitish usullari, vizual o‘qtish texnologiyalari haqida tushuncha va uning mazmuni, texnologiya fanidan visual o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish usullari yoritilgan.*

Аннотация. *В данной статье освещаются намеченные меры по всестороннему воспитанию молодого поколения в стране, формированию мировоззрения, широкому внедрению инновационных технологий в образовательный процесс, методы обучения на кружковых занятиях по предмету Технология, понятие и содержание технологии наглядного обучения, способы использования технологий наглядного обучения по предмету технология.*

Annotation. *This article covers the established measures for the comprehensive education of the younger generation in our country, the formation of a worldview, the wide introduction of innovative technologies into the educational process, methods of training in the field of technology, understanding of Visual Reading technologies and its content, methods of using visual teaching technologies in the subject of technology.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim tizimi, texnologiya fani, interfaol metodlar, visual o‘qitish usullari, amaliy usullar, vosita.*


Ключевые слова: *образовательная система, наука о технологиях, интерактивные методы, наглядные методы обучения, практические методы, инструмент.*

Key words: *educational system, technology science, interactive methods, visual teaching methods, practical methods, tool.*

Hozirgi davrda ta’lim tizimida juda qisqa vaqt oralig‘ida bir necha barobar axborot oqimining ortishi, juda ko‘p axborotlar bilan tez ishlash, inson xulq-atvoridagi ko‘p parametrlarning o‘zgarishi va nostandart yechimlarni qabul qilish zaruratlari bilan xarakterlanadi. Texnologiya fanidan to‘garak mashg‘ulotlarida o‘qitish usullarining barchasini uchta guruhga ajratish mumkin – ma’lumotni uzatish va o‘zlashtirish usuliga muvofiq, og‘zaki, vizual va amaliy (1-rasm).


Har bir guruh o‘ziga xos funksional farqlar va didaktik yukni ko‘taradi. Bundan tashqari, ularni texnologiyani o‘qitishda qo‘llash metodologiyasining xususiyatlari bo‘yicha amaliyot tomonidan ishlab chiqilgan aniq tavsiyalar mavjud. Berilgan usullar guruhlarini batafsil ko‘rib chiqiladi.

Og‘zaki o‘qitish usullari keng qo‘llaniladi, shuning uchun ularning har birining xususiyatlarini va ularni qo‘llash usullarini aniq ajratish kerak.



1-rasm. O‘qitish usullarining tasnifi.

Hikoya tavsiflovchi, faktik o‘quv materialining rivoyat bayoni sifatida texnologiya darslarida o‘quvchilarga individual texnik hodisalar yoki jarayonlarning mohiyatini ochib berishni talab qilmaydigan ma’lumotlarni yetkazishda qo‘llaniladi. Hikoya o‘qitish usuli sifatida kirish darsida, dasturning bir qismidan boshqasiga o‘tishda foydalanish mumkin. Masalan, ma’lum bir texnik ixtiro yoki kashfiyot tarixi haqida hikoya.



2-rasm. Vizual usullar tizimi.

Texnologiyadan to‘garak mashg‘ulotlarida turli xil hikoyalar tez-tez ishlatiladi. Tushuntirish, o‘quv materialining taqdimotida yangi texnik tushunchalar va qonuniyatlarning mohiyati ochib berilganda, texnologik operatsiyalar, texnik qurilmalarning dizayni ilmiy talqini berilganda. Tushuntirish, ko‘pincha,

amaliy ishlarni tashkil qilishdan oldin qo‘llaniladi. Bu turli xil vizual vositalar yordamida mehnat texnikasi va harakatlarini namoyish etish bilan birga keladi. Mazkur usulning samaradorligi, asosan, materialni taqdim etishning hissiyligi bilan belgilanadi.

Maktab o‘quvchilari bilan ishlashda ular, ko‘pincha, ma’ruza usulidan foydalanadilar. Ma’ruza hikoyadan farq qiladi, chunki u nafaqat tasavvur va his-tuyg‘ularga ta’sir qiladi va aniq majoziy fikrlashni rag‘batlantiradi, balki taqdim etilgan materialni tanlash va tizimlashtirish qobiliyatini faollashtiradi.

O‘quvchilarning texnik va o‘quv adabiyotlari bilan mustaqil ishlashi so‘zga asoslangan o‘qitish usuli bo‘lib, bilimlarni bilish va mustahkamlashning eng muhim vositalaridan biridir.

Texnologiya o‘qituvchisi to‘garak mashg‘ulotlarida vizual o‘qitish usullari eng muhim o‘rinlardan birini egallaydi (2-rasm).

Deyarli barcha ishchi va o‘lchash asboblari, asboblar, moslamalar, dastgohlar, boshqa mashinalar va texnik qurilmalar ularning tabiiy namunalari yoki haqiqiy va shartli tasvirlari, modellari, maketlari namoyishlari orqali o‘rganiladi. Ish texnikasi, strukturaviy materiallar namunalari va boshqalar namoyish etiladi.

Chizmalar, eskizlar, diagrammalarni o‘z ichiga olgan shartli tasvirlarni ko‘rsatish obyektlar va jarayonlarning haqiqiy obyektlar va ularning tasvirlarida ko‘rinmaydigan tomonlarini vizual ravishda namoyish etishga imkon beradi [2].

Namoyish (namoyish) o‘quvchilarda ular taqlid qiladigan mehnat harakatlarining aniq va aniq namunasini shakllantirishga, u bilan o‘z harakatlarini tekshirishga qodir. Namoyish samaradorligi ko‘p jihatdan to‘g‘ri namoyish qilish texnikasiga bog‘liq. Sizga rahbarlik qilish uchun bir nechta qoidalar:

♦maktab o‘quvchilariga nimani kuzatishlari va nima maqsadda xabardor qilish;

♦barcha o‘quvchilar namoyish etilayotgan mavzuni ko‘rishlari uchun kuzatuvni tashkil qiling;

♦obyektlarning eng muhim xususiyatlari o‘quvchilarda eng kuchli taassurot qoldirishiga harakat qiling;

♦o‘quvchilarga obyektlar va jarayonlarni o‘ziga xos harakatlar va o‘zgarishlarda ko‘rishga imkon berish [3].

To‘garak mashg‘ulotlarida amaliy usullar ustun rol o‘ynaydi. Amaliy o‘qitish usullari orasida mashqlar, texnik muammolarni hal qilish, laboratoriya ishlari va turli xil amaliy ishlar eng ko‘p qo‘llanilgan.

Mashqni bajarish, muammoni hal qilish, laboratoriya yoki amaliy ishlarni bajarish uchun o‘quvchi ushbu faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni eslab qolishi, yangilashi kerak.

Amaliy usullar yordamida o‘quvchilar texnologik ko‘nikmalarni shakllantiradilar. Har qanday faoliyatning asosi ko‘nikmalardir. Qobiliyat deganda insonning bilim va elementar shaxsiy tajriba asosida olingan ushbu harakatni ongli ravishda amalga oshirish qobiliyati tushuniladi.

To‘garak mashg‘ulotlarini o‘tkazishda pedagogik mahorat muhim ahamiyatga ega. Bu mashqlar bilan mustahkamlangan va ma’lum harakatlarni bajarish, asosan, avtomatlashtirilgan qobiliyat uchun. Mehnat ko‘nikmalarining quyidagi turlari ajratiladi:

–vosita (qo‘llar, oyoqlar, magistralning ma’lum mehnat harakatlari to‘plami), sensor–obyekt, mashina, mexanizmning holatini turli xil belgilar bilan aniqlashga imkon beradigan turli xil sezgi organlarining ishiga asoslangan;

–indikativ (tez o‘zgaruvchan sharoitlarda bir qator maqsadga muvofiq harakatlarni amalga oshirishga imkon beradi) va aqliy – hisob-kitoblar, chizmalar ishlab chiqish, reja tuzish kabi operatsiyalarni bajarishda muhim ahamiyatga ega. Umumiy mehnatga quyidagi ko‘nikmalar (universal o‘quv faoliyati) kiradi:

–ish joyingizni tashkil qilish;

–adabiyot va texnik hujjatlar bilan ishlash;

–ishni rejalashtirish;

–xavfsiz ishlash qoidalariga rioya qilish;

–mehnat madaniyati; o‘zini-o‘zi boshqarish.

Texnik muammolarni hal qilish o‘quvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni loyihalash, texnik obyektlarni modellashtirish va texnologik rejalashtirish masalalarini o‘rganishda qo‘llaniladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, texnologiya fanidan to‘garak mashg‘ulotlarida visual o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish natijasida o‘quvchilarga taqdim etilishi kerak bo‘lgan bilimlar turiga qarab, diagramma turini tanlash imkonini beradi. Shuningdek, mehnat asbob va texnikasining turlari bo‘yicha vizualizatsiyada qanday bilim turi kerakligini tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, 2021.
2. Абдухаиров Р.А. Меҳнат таълими ўқитувчиларида касбий маданиятни шакллантириш. Методик қўлланма, Тошкент, “Фан ва технологиялар”, 2011, 86 бет.
3. Раҳимов Б.Х. Бўлажак ўқитувчида касбий-маданий муносабатларнинг шаклланиши. Пед. фан ном. ... дис. автореф., Тошкент, 2005, 24 бет.
4. Холлиев И., Хусанов Ж. Касб-ҳунар таълими. Технология. Маънавият. Маҳорат. Т., 2003, “Ўқитувчи”, 256 бет.

Davlatova Sayyora Toshpo‘latovna (Termiz Agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti o‘qituvchisi; e-mail:davlatovasayyor@gmail.com)

EKOLOGIK XAVFSIZLIK MADANIYATINI FANLARARO SHAKLLANTIRISHDA EKOPEDAGOGIK TASHXIS

Annotatsiya. *Maqolada oliy ta’lim talabalarida ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirishda ekopedagogik tashxis ikki xil yondashuv asosida, birinchidan, atrof-muhitning insonga qay darajada ta’sir ko‘rsatishini baholash, ikkinchidan, talaba tomonidan egallangan fazilat va sifatlarining namoyon qilinishi qay darajada atrof-muhitning o‘zgarishiga ta’sir etishi masalalari atroflicha yoritib berilgan.*

Аннотация. *В статье эколого-педагогическая диагностика в формировании культуры экологической безопасности у студентов высшей школы основывается на двух различных подходах: во-первых, на оценке того, в какой степени окружающая среда влияет на человека, во-вторых, в какой степени проявляются качества, приобретаемые учащимся, влияют ли они на изменение окружающей среды, подробно освещаются вопросы влияния.*

Annotation. *In the article, ecological and pedagogical diagnostics in the formation of a culture of environmental safety among students of higher education is based on two different approaches, firstly, on the assessment of the extent to which the environment affects a person, and secondly, to what extent qualities and qualities are manifested, acquired by the student, affects the change in the environment, the issues of influence are covered in detail.*

Kalit so‘zlar: *modernizatsiya, mezon, motivatsiya, komponent, atrof-muhit, ekologik xavfsizlik, ekologik ma’naviyat, model aksiologik yondashuv.*

Ключевые слова: *модернизация, критерий, мотивация, компонент, окружающая среда, экологическая безопасность, экологическая духовность, модельный аксиологический подход.*

Key words: *modernization, criterion, motivation, component, environment, ecological safety, ecological spirituality, model axiological approach.*

Kirish. Ekologik xavfsizlik madaniyati talabaning hayoti davomida shakllanib, rivojlanib boradigan ekopedagogik faoliyati bo‘lib, uni fanlararo aloqadorlik asosda shakllantirishda shaxsiy fazilatlar bilan bir qatorda, hosil bo‘lgan ekologik bilim, ko‘nikma [5], malaka va kompetensiyalar asosiy rol o‘ynaydi. Kulturologik-madaniy yondashuv biz tomonimizdan talabaning ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish mexanizmi sifatida qaraladi. Oliy ta’lim talabalarida ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirishda ekopedagogik tashxis ikki xil yondashuv asosida qaralishi kerak. Birinchidan, atrof-muhitning insonga qay darajada ta’sir ko‘rsatishini baholash, ikkinchidan, talaba tomonidan egallangan fazilat va sifatlarining namoyon qilinishi qay darajada atrof-muhitning o‘zgarishiga ta’sir etishini aniqlash.

Adabiyotlar tahlili. N.Y.Vasyukova va O.I.Chexoninalarning izlanishlariga ko‘ra, fanlararo integratsiyalashgan sinflar bir-birini to‘ldiradigan turli xil ta’lim yo‘nalishlaridagi bilimlarning teng asosda kombinatsiyasi sifatida aniqlanadi. N.Y.Vasyukova, O.I.Chexonina ushbu faoliyat turlariga quyidagicha izoh beradilar: kombinatsiyalangan darslar har xil faoliyat turlari yoki bir-biri bilan mantiqiy aloqaga ega bo‘lmagan bir nechta didaktik vazifalarning kombinatsiyasi (rasm chizilgandan so‘ng, ochiq havoda o‘yin o‘ynash yoki sayr qilish), majmuali darslar vazifalarni turli xil faoliyat turlari orqali ular o‘rtasidagi assotsiativ aloqalar orqali amalga oshirish (yong‘in xavfsizligi qoidalari haqida suhbat mavzu bo‘yicha plakat chizishga aylanadi). Bunda faoliyatning bir turi ustunlik qiladi, ikkinchisi esa uni to‘ldiradi, hissiy kayfiyatni yaratadi, fanlararo integratsiyalashgan darslar turli xil ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha bilimlarni teng asosda birlashtiradi, bir-birini to‘ldiradi (musiqa, adabiyot, rasm asarlari orqali “kayfiyat” kabi tushunchani hisobga olgan holda) [4.10].


Bu borada ekolog olim O.Krassovning aholining ekologik xavfsizligini ta’minlashning asosiy sharti–ekologik talablarga qat’iy rioya qilish, ekologiya borasidagi qonun-qoidalarga amal qilish muhim aha-

miyat kasb etishini qayd etishi, bu esa, o‘z navbatida, ekologik savodxonlikni, ekologik madaniyatni kuchaytirishni, to‘g‘ri va maqsadli tarzda yo‘lga qo‘yishni talab qiladi [2].

Asosiy qism. Quyidagi 1-jadvalda mazkur komponentlarning mazmun va mohiyatini batafsilroq tushuntirib o‘tamiz.

1-jadval

Ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish jadvali



Motivatsiyali komponentni ishlab chiqishda, birinchi navbatda, biz talaba shaxsida xavfsizlikni anglashga nisbattan ehtiyoj va qiziqishni shakllantirish muhim deb topdik. Mazkur komponent talaba faoliyatini rejalashtirish, qunt bilan o‘qish, ehtiyoj, qizig‘uvchanlik va shaxsiy munosabatlar, bilim sifatini oshirishda mustaqil o‘qish, qadriyatlar va shaxsiy qarashlarni o‘z ichiga olib, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarda shakllangan e’tiqodga asoslangan mas’uliyat, burch, vijdonlilik, zo‘ravonlik qilmaslik, tabiatning yaxlitligini saqlash, har birimizni tabiatning ajralmas qismi ekanligimizni his qilish, xavf-xatarlardan himoya qilish, atrof-muhitdagi tahdidlardan himoyalanish, hayotga muhabbat, kelajak avlodlar uchun tabiatni asrash kabi e’tiqodlarni tarbiyalashga asoslanadi.

Kognitiv (kompetentlikka asoslangan) komponent talabaning ekologik mazmundagi o‘quv topshiriqlarini anglash, qo‘llash va mulohaza yuritish ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bilishga oid kognitiv sohada talaba o‘quv materialini tushunish, yodga olish, xotirlash, tasvirlash hamda hayot bilan bog‘lab, amaliy misollar keltirish ko‘nikmalari o‘stiriladi. Qo‘llashga oid kognitiv sohada talabalar o‘quv materialini taqqoslaydi, tasniflaydi, bog‘liqlikni aniqlashtiradi, ma’lumotni talqin qiladi, izohlaydi, tabiiy modellardan samarali foydalanadi. Mulohaza yuritishga oid kognitiv sohada o‘quv materialini tahlil qilish, sintezlash, muammoli savollar qo‘yish, g‘oya va farazlarni ilgari surish, baholash, asoslash, xulosalash, bashoratlash, umumlashtirish, kichik tadqiqotchilik va loyihalash malaka va kompetensiyalari shakllantiriladi. Bunda talabalar uchun xavfsiz muhit va yashash sharoitlari mavjudligini ilmiy bilish, favqulodda vaziyatlarda qaror qabul qilishni o‘rganishadi.

Modelning kognitiv komponenti uslubiy yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Biz ekologik xavfsizlik madaniyatining quyidagi jihatlarini ajratib ko‘rsatdik: aksiologik, kulturologik (madaniy), vaziyat bilan bog‘liq muammoli, faoliyatga asoslangan [4]. Mazkur uslubiy yondashuvlarga mos tarzda ekopedagogik ta’lim maqsadi aniqlandi hamda talaba shaxsining ekopedagogik faoliyatidan kelib chiqib, aniq vazifalar belgilandi. 2-jadvalda kognitiv komponent uslubiy yondashuv tuzilmasi aks ettirilgan. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ekologik ta’lim maqsadi talabalarning ekopedagogik bilimlarni o‘zlashtirishi hamda dars jarayonidagi subyektiv faolligini namoyon etishini ko‘rsatadi (2-jadval).

2-jadval

Ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirishda kognitiv komponentning uslubiy yondashuv tuzilmasi

Uslubiy yondashuvlar	Ekopedagogik ta’lim maqsadi	Talaba faolligi
Aksiologik	Ekologik qadriyatlarni asrashga	Ekologik qadriyatlarga ehtirom, ularni asrash,

	intiluvchanlikni tarbiyalash	sog‘lomturmush tarzi, xavfsiz hayot ko‘nikmalari
Kulturologik (madaniy)	Atrof-muhitga nisbattan yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash	Mas’uliyat, vatanparvarlik va ona tabiatga mehr-muhabbat, tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish
Vaziyat bilan bog‘liq muammoli	Atrof-muhitga nisbattan teran fikrlashni tarbiyalash	Intuitsiya, bilimdonlik, tabiatdagi obyekt va hodisalarni qiyoslash, ziyraklik, vijdoniylik, burchga sadoqat
Faoliyatga asoslangan	Atrof-muhitni asrab-avaylashda qat’iyatlikni tarbiyalash	Mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish

Ekologik madaniyat kulturologik (madaniy) yondashuvga ustuvorlik berish asosida shakllantirildi. Mazkur yondashuvda talabalarni tahliliy faoliyatga undovchi o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish, ekopedagogik muammoli vaziyatlarni yaratish, muammoli vaziyatlar yechimini topish hamda ularni hal qilish jarayonida talaba nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikma va malakalarni, asosiy hayotiy kompetensiyalarni egallashi uchun qulay vaziyatlar vujudga keldi.

Natijalar. Aksiologik yondashuv ijtimoiy hayot va atrof-muhitni muhofaza qilishda har bir talabada ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish naqadar muhim ahamiyat kasb etishi, shuningdek, ta’-lim va tarbiya jarayonida talabaning hayotiy tajribasini hisobga olishga qaratilgan [4].

Vaziyat bilan bog‘liq muammoli yondashuvning ahamiyati beqiyos, chunonchi, darsda muammoli vaziyatlarning yechimini topish talabada egallagan nazariy bilimlarini amaliy faoliyatda qo‘llash ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarni egallash imkonini yaratadi, bunda vaziyatni tahlil qilish, muammoni anglash, muammo yechimiga doir variativ yo‘llarini izlash, qaror qabul qilish mezonlarini aniqlash, muammoning yechimini topish, qaror samaradorligini baholash kabi asosiy bosqichlar bajariladi.

Faoliyatga asoslangan yondashuv tajriba-sinov jarayonida tashkil etilgan dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda yuzaga kelgan o‘qitish muammolarini tahlil qilish va bartaraf etishga yo‘naltirildi. Talabalarda ekologik xavfsizlik nuqtayi nazaridan o‘quv faoliyatiga yuqori darajada qiziqishni shakllantirish, o‘quv topshiriqlarini mustaqil bajarish ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar rivojlantirildi.

Kognitiv komponent xavfsiz ekotizimlar, asosan, atrof-muhit holatini tahlil qilish, ularni tartibga solish mexanizmlari, ekologik xavfsizlik muammolarini ilmiy asoslash bo‘yicha didaktik materiallar orqali ishlab chiqilgan. Shuningdek, talabalarning mehnat natijalaridan qoniqish, yon-atrofdagilarga hamdardlik, atrof-muhit muhofazasini saqlash va tiklash bo‘yicha ijodiy ekologik loyihalarda faol ishtirok etish istagi hamda ekologik madaniyatni tarbiyalash mazkur mezonning asosiy ko‘rsatkichidir. Ushbu mezonning g‘oyasi fanlararo o‘quv dasturlari asosida talabalarning ekologik bilimlarni izchil va har tomonlama egallashiga qaratilgan.

Xulosa. Ushbu maqolaning ilmiy natijalaridan kelib chiqib, atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog‘liq xavfsizlik madaniyatini o‘quv jarayonida aks ettirish, talabalarda xavfsiz ekologik ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishning muhim jihati – tabiat bilan uyg‘unlikda yashash, mavjud ekologik sharoitlarni e’zozlash, tabiiy muhitni muhofaza qilish, to‘g‘ri ovqatlanish, shaxsiy gigiyena qoidalarini o‘rganish, sog‘lom ekologik xulq-atvor madaniyati “Xavfsiz sog‘lom ko‘nikmalar” tashxis materialini o‘zlashtirish orqali tahlil qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5712-сонли фармони. ПФ-5712-сон 29.04.2019. (lex.uz)

2. Богданова Е.П., Куприянова Т.С. Культура экологической безопасности и ее формирование у детей как условие бесконфликтных отношений с окружающей средой. Фундаментальные исследования. Академия Естествознания, № 9, Москва, 2014, с. 1602.

3. Васюкова Н.Е., Чехонина О.И. Интеграция содержания образования через планирование педагогической деятельности. Детский сад от А до Я. Москва, 2004, № 6, с. 8 – 13.

4. Кузнецов Е.Г. Личностный компонент культуры экологической безопасности инженерно-управленческих кадров водного транспорта. Известия южного федерального университета. Педагогические науки. Ростов-на-Дону, № 5, 2015, с. 63 – 69.

5. Несговорова Н.П., Савельев В.Г., Иванцова Г.В., Богданова Е.П., Недюрмагомедов Г.Г. Формирование культуры экологической безопасности: содержательно-методический аспект. “Научное обозрение”, Москва, 2015, № 2, с. 184–185; URL: https://science-pedagogy.ru/ru/article/view?id=1120 (дата обращения: 04. 05.2022).

6. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonligini baholash. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi, T., 2019, 112 bet.
7. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik, T., «Sano-standart», 2017, 416 bet.

Xudayberganov G‘ayrat Quranboyevich (Urganch davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi)

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASHNI FANLARARO ABSSESSIAL VA ORDINATAL BOG‘LAB SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. *Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni fanlararo abssessial va ordinatal bog‘lab shakllantirishda interfaol ta’lim metodlaridan foydalanish mantiqan ketma-ket bayon qilingan.*

Аннотация. *В статье последовательно излагается логика использования интерактивных методов обучения в формировании креативного мышления у учащихся начальных классов посредством междисциплинарных абсцизионных и ординатальных связей.*

Annotation. *The article consistently outlines the logic of using interactive teaching methods in the formation of creative thinking in younger schoolchildren through interdisciplinary abscissa and ordinatal connections.*

Kalit so‘zlar: *fikr, muammo, vaziyat, kreativ, jarayon, topshiriq, tushuncha, kuzatish, ta’lim, bosqich, daraja, xususiyat, talab, faol, mantiq, holat, xotira.*

Ключевые слова: *мысль, проблема, ситуация, креатив, процесс, задача, понятие, наблюдение, обучение, этап, уровень, характеристика, требование, актив, логика, состояние, память.*

Key words: *thought, problem, situation, creative, process, task, concept, observation, training, stage, level, characteristic, requirement, asset, logic, state, memory.*

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni fanlararo abssessial va ordinatal bog‘lab shakllantirishning muhim asosi sifatida o‘quv faoliyatida interfaol ta’lim metodlaridan, ya’ni muammoli ta’lim (muammoli ma’ruza, muammoli vaziyatlar, muammoli misol va masalalar yechish, muammoli ishbilarmonlik o‘yinlari, aqliy hujum metodi va boshqalar), izlanish tadqiqotchilik (tadqiqotchilik masalalarini qo‘yish va yechish, muammoli izlanish, izlanish tadqiqotchilik faoliyati tashkil etish va boshqalar) mexanizmlaridan foydalanish ijobiy samara beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlashini shakllantirishda interfaol metodlarni qo‘llash uchun quyidagi jarayonlar amalga oshiriladi: o‘qituvchi muammoli vaziyatning yechimini tayyor holda bermaydi, u ta’lim mazmuni bilan bog‘liq muammoli vaziyat yaratadi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari esa muammoni hal etish yo‘llari va vositalarini qidiradilar. Bu esa o‘quvchilarni mustaqil matematik kreativ fikrlashga undaydi. O‘qituvchi tomonidan tashkil etiladigan, yo‘naltiriladigan va nazorat qilinadigan fikrlashga oid masalalarni yechish uchun muammoli vaziyat yaratiladi [1].

Matematik kreativ fikrlash asta-sekin kreativ jarayonga aylanadi. Materialni tahlil qilish, keys-stadi metodi, muammo va masalani shakllantirish, mustaqil o‘rganish, kuzatish va o‘lchashni amalga oshirish, kreativ yechimni qidirish va tadqiqotchilik tavsifidagi harakatlarni bajarish uchun muammoli vaziyatlar tashkil etiladi. Muammoli–vaziyatli topshiriqlar mustaqil bilim olishni, matematik kreativ fikrlashni shakllantirishga imkon beruvchi topshiriqlar to‘laligini yaratishga asos bo‘ladi. Muammoli ta’lim o‘zining maxsus tushunchalariga ega bo‘lib, ularning mohiyatini bilmasdan turib, mashg‘ulotlarni muammoli tashkil etib bo‘lmaydi. Muammoli ta’lim quyidagi asosiy tushunchalarni o‘zida mujassamlashtiradi: muammo, muammoli savol, muammoli vazifa, muammoli topshiriq, muammoli vaziyat. Muammoli ta’limda tayyor bilimlarning o‘qituvchi tomonidan berilishi yoki o‘quvchining mustaqil bilim egallashi izohli-ko‘rgazmali metod yordamida aniq tasavvurlar hosil qiladigan, ongda saqlanadigan, zarur bo‘lganda qayta tiklanishini aniqlaydigan axborot shaklidagi savolni tushunish o‘rinli. Axborot shaklidagi savol tayyor javobi bo‘lgan, xotiradagi bilimlarga tayanib yechimi topiladigan holat bo‘lib, unga “Nima? Kim? Qachon? Qayerda? Qanday? Qancha? Qaysi?” kabi so‘roqlar yordamida zarur javob olinadi.

Muammoli ta’limning asosi muammo hisoblanadi. Muammo yunoncha “probet” so‘zidan olingan bo‘lib, vazifa, topshiriq ma’nosini anglatadi. Tayyor javobga ega bo‘lmagan, o‘rganish, tadqiq etish, yechimini topishni talab qiladigan nazariy yoki amaliy masala muammo hisoblanadi [2].

Inson kundalik faoliyati davomida turli xildagi shaxsiy, ijtimoiy, ta’lim-tarbiyaga oid bo‘lgan va shu kabi boshqa ko‘plab muammolarga uchraydi. Mazkur muammolarning har biri o‘zining yechim yo‘llariga ega. Ta’limga oid muammolar o‘quvchidan bir qancha aqliy jarayonlarni bajarishni talab etadi. Bu

jarayonlar muammoni xususiyatidan kelib chiqib, bir-biridan farq qiladi. Muammoli savolda bajariladigan aqliy jarayon muammoli vazifanikidan muammoli topshiriqda bajariladiganlari muammoli vaziyatnikidan o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Hayot davomidagi bunday muammoli vaziyatlardan chiqishning asosiy yo‘li inson kreativ fikrlashi va intellekt hisoblanadi.

Muammoli ta’limning keyingi asosiy tushunchasi muammoli savol bo‘lib, u axborot shaklidagi savoldan farqli, kreativ fikrlash yo‘li bilan izlangan noma’lumni topishni ta’minlaydigan so‘roq hisoblanadi. U alohida holatlarda muammoli vaziyat hamda vazifalarning tarkibida bo‘lishi mumkin. Muammoli savolga fikr yuritish orqali javob topiladi. “Nima uchun? Nima sababdan? Buni qanday tushunsa bo‘ladi? Bundan qanday xulosa chiqarish mumkin?” kabi so‘roqlar muammoli savol paydo bo‘lishi va yechimini topishni ta’minlaydi.

Bir nechta yechimni kutayotgan muammoli savolning bir-biriga bog‘liq holda qo‘yilishi muammoli vazifani keltirib chiqaradi. Muammoli vazifa sharti aniq bo‘lgan, o‘qituvchi tomonidan hosil qilingan, javobini topish doirasi cheklangan didaktik tushuncha. Muammoli vazifa mazmuni o‘quvchiga aniq bo‘lgan masalaning noaniqligi bilan ziddiyatlashuvidan iborat. Topilishi zarur bo‘lgan noaniq masala izlanish, fikrlash, mantiqiy xulosalar chiqarishni ta’minlaydi. Muammoli vazifa, albatta, vazifa beruvchi tomonidan hosil qilinadi.

Muammoli savol va vazifalar birgalikda muammoli topshiriq tarkibiga kiritiladi. Muammoli topshiriq o‘qituvchi, ta’lim beruvchi, darslik muallifi tomonidan muammoli savol va vazifa shaklida bilim oluvchini muammoli vaziyatga tushiradigan o‘quv topshirig‘i [2].

Boshlang‘ich ta’lim metodikasi muammolikni amalga oshirishda o‘qituvchidan quyidagilarga e’tibor berishni talab etadi: a) o‘quv masalalari va ularni qo‘yish yo‘li bilan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida muammoli vaziyatni yaratish va anglatish; b) muammoli vaziyatga xos xususiyatlarni o‘rnatish va yo‘naltirish; d) o‘quv mazmunini ochib berish uchun ish shaklini tanlash.

Matematikaning o‘quv fani sifatidagi o‘ziga xosligi ta’limda muammolilik jarayonining o‘ziga ham ta’sirini ko‘rsatadi [4].


Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik kreativ fikrlashni fanlararo abstsessial va ordinatal bog‘lab shakllantirish bosqichlari va ularning mazmuniga qo‘yilgan didaktik talablar, shuningdek, tadqiqot ishining mazkur qismidagi o‘ziga xos xususiyatlar hamda matematik kreativ fikrlashni shakllantirish darajalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari matematik kreativ fikrlashini shakllantirishni talab etmoqda. Buning uchun o‘quvchilar bilan birgalikda boshlang‘ich sinf darsliklaridagi masalalarni muammoli vaziyat usullarida yechishni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Muammoli masalalarga misol keltiramiz.

1-masala. Sinfxonada har qatorda 12 tadan 6 qator stul bor. Sinfxonaga 30 nafar o‘quvchi bo‘lgan ikki guruh o‘quvchilari kelishdi. Stullar hamma o‘quvchilarga yetadimi? Agar ortsa, nechta stul ortib qoladi?

Yechilishi: 1-usul.
1) 12*6=72 (stul) – sinfxonadagi mavjud stullar;
2) 30*2=60 (stul) – o‘quvchilar band qiladi;
3) 72>60. Stullar yetadi;
4) 72-60=12 (stul) – ortib qolgan stullar.
Javob. Stullar yetadi, 12 ta stul ortib qoladi.
2-usul:
1) 30*2=60 (stul) – o‘quvchilar band qiladi;
2) 60:12=5 (qator) – o‘quvchilar band qiladi;
6 qator stullar bor edi, o‘quvchilar 5 qatorni band qilishdi, stullar yetadi;
3) 6-5=1 (qator) – ortib (bo‘sh) qoladi; ya’ni,
4) 12*1=12 (o‘rin) ortib qoladi;
Javob. Stullar yetadi, 12 ta stul ortib qoladi.
3-usul:
1) 12*6=72 (stul) sinfxonadagi mavjud stullar;
2) 72:2=36 (o‘quvchi) ikki guruhdan kelishi mumkin bo‘lgan o‘quvchilar soni;
Ikkala guruhdan 30 nafardan o‘quvchi kelganda stullar yetadi;
3) 36-30=6 (o‘quvchi);
4) 6*2=12 (stul);
Javob. Stullar yetadi, 12 ta stul ortib (bo‘sh) qoladi.
4-usul:

1) 12*6=72 (stul) sinfxonadagi mavjud stullar;
2) 72:30=2 (qoldi 12) – ikkala guruh joylashadi va 12 ta stul ortib qoladi;
Javob. Stullar yetadi, 12 ta stul ortib qoladi.

2-masala. Ovqatlanish uchun kirgan 12 nafar sayyoh 4 tadan uchta stolga o‘tirib, to‘rtinchi stolga oshxona xo‘jayini joylashdi. Ovqat yeb bo‘lishgach, ular shunday kelishib olishdi: soat strelkasi yo‘nalishi bo‘yicha aylantirib sanalganda har yettinchi o‘rnidan turib ketadi va boshqa sanashda ishtirok etmaydi. Oxirgi qolgan xo‘randa hamma uchun pul to‘laydi. Sayyohlar shunday sanashdiki, oshxona xo‘jayini pul to‘ladi. Ular hisobni qaysi xo‘randadan boshlashgan?



Javob. 8-sayyohdan boshlashgan.

3-masala. Sutchilik firmasining sut sog‘uvchilari 4 oy davom etadigan yaylov mavsumida har bir bosh sigirdan 2400 kg.dan sut sog‘ib olish majburiyatini olishdi. Agar ular kuniga har bir sigirdan 20 kg sut sog‘ib olishsa, o‘z majburiyatlarini bajarishadimi? (Har oyni 30 kun deb hisoblang).

Masalaning qisqacha sharti quyidagicha yoziladi:
Olingan majburiyat – har bir sigirdan 5 oyda 200 kg sut sog‘ib olish.
Kuniga sog‘ib olish – 20 kg.
Sut sog‘uvchilar olgan majburiyatlarini bajara olishadimi?
1-usul:
1) 30*20=600 (kg) – bir oyda sog‘ib olingan;
2) 600*4=2400 (kg) – 4 oyda sog‘ib olingan;
3) 2400 kg=2400 kg.
Javob. Majburiyat bajariladi.
2-usul:
1) 2400:4=600 (kg) – bir oylik majburiyat;
2) 600:3=20 (kg) – bir kunlik majburiyat;
3) 20 kg=20 kg.
Javob. Majburiyat bajariladi.
3-usul:
1) 30*4=120 (kun) – 4 oydagi kunlar soni;
2) 2400:120=20 (kg) – bir kunlik majburiyat;
3) 20 kg=20 kg.
Javob. Majburiyat bajariladi.

Muammoli masalalarni yechish odatdagi masalalarni yechishdan bir muncha farq qiladi. Bunda masalalarni yechish talab qilinmasdan, balki masalada nima haqida gap borayotganligi hamda munosabatlarni taqqoslash, isbotlash, qonuniyatni to‘g‘ri o‘rnatish talab etilishi mumkin [5]. Bunday ko‘rinishdagi masalalarni yechishda o‘quvchilarning topqirligi, zehnining o‘tkirligi, matematik kreativ fikrlashlari shakllanadi, matematik kreativ fikrlashi rivojlanadi.

Tadqiqot ishida muammoli o‘qitish vositalaridan foydalanib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik kreativ fikrlashini abssessial va ordinatal bog‘lab shakllantirishning quyidagi pedagogik shart-sharoitlari aniqlangan: boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tayyorlashda matematik kreativ fikrlashini fanlararo abssessial va ordinatal bog‘lab shakllantirishga moslab o‘quv materialini muammolashtirish; o‘quvchi faolligini tashkil etish; o‘qitishning o‘quv hayoti, turmush tarzi, mehnati bilan aloqadorligini o‘rnata olish.

Muammoli ta’lim tarbiyaviy jarayonni faollashtirishda boshlang‘ich sinf o‘quvchisining o‘quv-bilish jarayoniga qiziqishi va xohish-istagining ortishiga sabab bo‘ladi.

Yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchi tajribasining mohiyati muammoli ta’limda ko‘rinadi, u o‘z-o‘zidan muvaffaqiyat keltirgan o‘quv jarayoni shakli metodik jihatdan amalda qo‘llanilganda texnik jihatdan jihozlanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Didaktik jihatdan yaxshi tayyorlangan o‘quvchi yaxshi hisoblanadi. O‘quv jarayonini oliy cho‘qqi darajasiga olib chiqish muammoli ta’limning nazariy va amaliy jihatlarini atroflicha o‘rganish demak, shu bilan birga, ta’lim mazmunini to‘la o‘zlashtirib olishda, kreativ fikrlashning shakllanishida kafolatlovchi omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bikbayeva N.U. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. T., “O‘qituvchi”, 2007, 208-bet.
2. Махмутов М.И. Организация проблемного обучения в школе. М., “Просвещение”, 1977, 240 с.
3. Леонтьев А.Н., Пономарев Я.А., Гиппенрейтер Ю.Б. Опыт экспериментального развития исследования мышления. М., 1981, с. 269 – 280.
4. Jumayev M.E. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. T., “Yangi asr avlodi”, 2006, c.186.
5. Хабиб Р.А. Организация учебно-познавательной деятельности учащихся. М., “Педагогика”, 1979.

Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich (Termiz davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc); e-mail:shomirzaevm@tersu.uz)

UMUMTA’LIM MAKTAB O‘QUVCHILARINI KASHTACHILIK SAN’ATI BILAN TANISHTIRISHNING MUHIM JIHATLARI

Annotatsiya. *Maqolada muallif o‘quvchilarni Toshkent, Xiva, Buxoro va Samarqand kashtachilik san’ati maktablari bilan tanishtirib, ularning yanada rivojlanishiga o‘ziga xos kompozitsiyalarning yaratilishi, ranglar majmuasi nafisligi va ranglarning bir-biriga asta-sekin o‘tishi, aniq bir koloritga qat’iy rioya qilinishi qoidalarining ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatini yoritib bergan.*

Аннотация. *В статье автор познакомил учеников с Ташкентской, Хивинской, Бухарской и Самаркандской школами вышивального искусства, осветил образовательную и воспитательную значимость для их дальнейшего развития правил создания оригинальных композиций, изящества цветовых комплексов и постепенного перехода цветов друг к другу, строгого соблюдения определенного колорита.*

Annotation. *In the article, the author introduced readers to the schools of embroidery art of Tashkent, Khiva, Bukhara and Samarkand, highlighting the educational and educational significance of the rules for the creation of specific compositions, the elegance of the color complex and the gradual transition of colors to each other, strict observance of a specific Colorite.*

Kalit so‘zlar: *kashta, kashtachilik maktabi, jarayon, tamoyil, metod, rang, kolorit, qonuniyat, girix.*

Ключевые слова: *вышивка, школа вышивки, процесс, принцип, метод, цвет, цвет, регуляр-ность, гирих.*

Key words: *embroidery, school of embroidery, process, principle, method, color, color, regularity, weights.*

O‘quvchilarni kashtachilik san’ati maktablari bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Xonliklar davrida xalq amaliy san’ati ustalari Xiva, Qo‘qon, Buxoro, Samarqand kabi shaharlarga yig‘ila boshladilar. Ko‘pincha, Farg‘ona va Buxoro naqqoshlari Samarqandga, Qo‘qon, Marg‘ilon ustalari Toshkentga kelib binolarni bezar edilar. Bu esa kashtachilik maktablarining yanada rivojlanishiga o‘ziga xos kompozitsiyalarning yaratilishiga, ranglar majmuasini boyitishda katta rol o‘ynaydi. Lekin bu kashtalar bir-biriga o‘xshasa-da, har bir kashtachilik maktabi o‘zining aloxida kompozitsiya hosil qilish qonuniyatlari, prinsiplari, ish metodi, rang koloriti bilan ajralib turadi.

Toshkent kashtachilik maktabi. Toshkent kashtalari o‘zlarining nafisligi va ranglarning bir-biriga asta-sekin o‘tishi, aniq bir koloritga qat’iy rioya qilinishi, geometrik va o‘simliksimon kashtalarning ko‘p ishlatilishi bilan ajralib turadi. Kashtalar, ko‘pincha, yashil gammada ishlanadi [3]. Islomiy kashtalarda oygul, paxta, bofta, uch barg, shukufta, bargli gul va boshqa elementlar aniq stillashtirilgan murakkab girix kashtalari ham keng qo‘llanilgan.

Xiva kashtachilik maktabi. Xiva kashtasi Samarqand, Toshkent, Farg‘ona, Buxoro usulidan tubdan farq qiladi. Xiva kashtasida, asosan, zangori va yashil ranglar juda ko‘p ishlatilgan [1]. Islimiy kashta kompozitsiyasi novda, marg‘ula, shukufta, barg, no‘xat, gul, oddiy oyguldan tashkil topadi. Ko‘pgina yul-

duz hosil qiluvchi girixlar ishlatilib, orasi spiralsimon islimiy kashta bilan boyitilgan. Xiva kashtalari, umuman, madohilli kompozitsiyalar asosida tuziladi.

Buxoro va Samarqand kashtachilik maktablari. Buxoro kashtasi kompozitsiyalarining murakkabligi va jozibadorligi bilan ajralib turadi. Buxoro kashtalarida murakkab girixlar aniq va puxta o‘lchamda ishlatilishi, o‘simliksimon kashtalarning yaproq, meva, gul barglar ritmiga alohida e’tibor berilishi bilan farqlanadi. Samarqand kashtalari Toshkent, Farg‘ona usullariga o‘xshab ketadi. Samarqand kashtalari o‘ta guldorligi, barg va gullarining o‘ta harakatchanligi, jonliligi bilan farq qiladi. Kashtalar avval zangori, keyin esa yashil rang gammasida ishlangan. Yuqoridagi ma’lumotlarni o‘quvchilar ongida yanada mustahkamlash uchun quyidagi o‘quv topshirig‘ini bajarish muhim o‘rin tutadi (1-jadval) [7].

Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi:

1. Ma’ruza matnini o‘qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo‘yib chiqing:

V – bilaman;

+ men uchun yangi ma’lumot;

- men bilgan ma’lumotni inkor qiladi;

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo‘shimcha ma’lumot.

2. Olingan natijalarni jadval shaklida rismiylashtiring.

1-jadval

Mavzu savollari	V	-	+	?
1. Xalq amaliy san’ati turlari.				
2. Kashtachilik san’ati maktablari.				
3. Amaliy san’atda kashtachilikning tutgan o‘rni.				
4. Kashtachilik san’ati tarixi.				

2-jadval

Jonlantirish uchun savollar:

–O‘zbek xalq amaliy san’ati turlarini sanab bering.

–Naqsh nima?

–Amaliy san’at qanday fan va uning mohiyati nimaga qaratilgan?

–Kashtachi ustalardan kimlarni bilasiz?

O‘quv jarayonida o‘quvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarning qo‘llanilishi, ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas’uliyatni his qilish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o‘qishga, fanga va o‘zi tanlagan kasbiga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Bunday natijaga erishish o‘quv jarayonida axborot texnologiyalarini qo‘llashni taqozo etadi. Texnologiyalar juda xilma-xil. Biz ulardan ba’zilarini tashkil etish va ularni o‘tkazish tartibi haqida to‘xtalamiz.

“Blis-so‘rov” metodi o‘quvchilarning harakatlari ketma-ketiligini to‘g‘ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o‘rganayotgan fani asosida xilma-xil fikrlar, ma’lumotlar ichidan kerakligini tanlab olishni, shu bilan bir qatorda, o‘zgalar fikrini hurmat qilish va ularga o‘z fikrini o‘tkaza olish hamda o‘z faoliyati, kunini rejashlashtira olishni o‘rganishga qaratilgan. ushbu metod orqali o‘quvchilarga tarqatilgan qog‘ozlarda ko‘rsatilgan harakatlar ketma-ketligini avval yakka tartibda mustaqil ravishda belgilash, kichik guruhlarda o‘z fikrini boshqalarga o‘tkaza olish yoki o‘z fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikr bo‘la olish kabi ko‘nikma va malakalar shakllantiriladi [6.32].

“Charxapalak” texnologiyasi o‘quvchilarda o‘tilgan mavzularni yodga olish, mantiqan fikrlash, berilgan savollarga mustaqil ravishda to‘g‘ri javob berishga va o‘z-o‘zini baholashga o‘rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarning egallagan bilimi, ko‘nikma va malakalarini baholashga yordam beradi. Ushbu texnologiyani mashg‘ulot jarayonida yakka, kichik guruh va jamoa shaklida tashkil etish mumkin.

O‘quvchilarni dasturda belgilangan mavzular bo‘yicha yakka va kichik jamoa bo‘lib fikrlash hamda xotiralash, o‘zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to‘plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko‘rinishda ifodalay olishga o‘rgatishda “Zinama-zina” texnologiyasi samarali natija beradi [2.17]. Bu texnologiya o‘quvchilar bilan yakka holda yoki guruhchalarga ajratilgan holda, yozma ravishda o‘tkaziladi va taqdimot qilinadi.

O‘quvchilarga zamon talablariga mos ravishda ta’lim-tarbiya berish, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo‘llash, ularni mustaqil va erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashishga undaydi.

Har bir sohaga axborot texnologiyalari shiddat bilan kirib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida”gi farmonida buning tasdig‘ini ko‘rishimiz mumkin [7.27]. Darhaqiqat, hozirgi kunda ta’lim sohasida kompyuter imkoniyatlaridan foydalanmaydigan o‘quv fanlarini topish mushkul. O‘quv jarayonidagi barcha fanlarga tatbiq etilgan axborot texnologiyalarining turli dasturlari ishlab chiqilib, ular amaliyotda keng qo‘llanilmoqda.

Xususan, kashtachilik san’atida kashta kompozitsiyalarini tuzish va ranglashda Corel Draw grafik dasturi qulayliklar yaratadi. Bu dastur grafik dizayn sahifalarini ishlab chiqish, fotosuratlarni tahlil qilish va vektor animatsiyasi borasida ko‘plab imkoniyatlar beradi. Shuningdek, dastur kompozitsiya yaratish va uni bajarishda kerak bo‘lgan harakatlarni bir necha bor qisqartiradi. Masalan, yangi elementlar: ellips, to‘g‘ri burchak va egri chiziqlar orqali “sichqoncha” tugmasining ikki marta bosilishi natijasida kerakli o‘lcham va burilish burchagiga ega bo‘linadi.


Kashta kompozitsiyalarini tuzish va ranglashda Corel Draw professional grafik dasturi katta imkoniyatlarga ega bo‘lib, ushbu dastur orqali qisqa vaqt ichida kashta kompozitsiyasini turli tusda ranglab, mos koloritni tanlab olish mumkin. Bu jarayonni girix kashta kompozitsiyasini hosil qilish va ranglash orqali ko‘rib chiqamiz.

Corel Draw dasturini ishga tushirish uchun uning yorlig‘i rasmini ish stolidan topib, ustiga sichqoncha ko‘rsatkichi olib kelinadi va sichqonchaning chap tushgmasini ikki marta bosiladi. Bu rasmcha ekrandan topa olinmagan taqdirda, quyida joylashgan masalalar panelidagi “Pusk” menyusi ustiga sichqoncha ko‘rsatkichini olib kelib, chap tugmasi bir marta bosiladi. Namoyon bo‘lgan ro‘yxatdan “programmы” qismi tanlanadi. O‘ng tomondagi ro‘yxatdan Corel Draw qatori topiladi va ustiga sichqonchaning chap tugmasi bir marta bosiladi. Bu amallarni bajargandan so‘ng Corel Draw dasturi ishga tushadi. “Nabor instrumentov” (uskunalar) menyusidan “pryamougolnik” buyrug‘i tanlanadi va “ctrl” tugmasi yordamida kvadrat shakli chiziladi.

So‘ngra “Nabor instrumentov” menyusidan “svobodnaya forma” buyrug‘i tanlanadi, “ctrl” tugmasi yordamida vertikal va gorizontal chiziqlar chiziladi. Keyin “ellips” buyrug‘ini tanlab, “ctrl” tugmasi yordamida kvadratning o‘ng quyi nuqtasi markaz qilib, aylana chiziladi. Aylananing radiusi kvadratning tomoniga teng. Menyuning “duga” (yoy) buyrug‘i yordamida o‘lchamlarning biri 900, biri 1800 ga teng bo‘lgan yoy hosil qilinadi va hosil bo‘lgan nuqtadan gorizontal chiziq chiziladi. Shu chiziq bilan kvadrat chap tomoni tutashib, b nuqta hosil bo‘ladi. Keyin “ellips” buyrug‘i “ctrl” tugmasi menyusining “duga” buyrug‘i yordamida kvadratning V nuqtasini markaz qilib yoy hosil qilinadi. Hosil bo‘lgan s nuqtadan vertikal chiziq o‘tkaziladi va d nuqtani hosil bo‘ladi. Keyin “ellips” buyrug‘i “ctrl” tugmasi, menyuning “duga” buyrug‘i yordamida kvadratning A nuqtasi markaz qilib yoy chiziladi. Hosil bo‘lgan ye nuqtadan gorizontal chiziq o‘tkazilib, j nuqta topib olinadi. So‘ng “ellips” buyrug‘i, “ctrl” tugmasi, menyuning “duga” buyrug‘i yordamida kvadratning D nuqtasi markaz qilib yoy chiziladi. Hosil bo‘lgan z nuqtadan vertikal chiziq o‘tkazib, i nuqtani hosil qilamiz. Gorizontal va vertikal chiziqlar kesishidan hosil bo‘lgan I nuqtadan D nuqta markaz qilib, yuqorida ko‘rsatilgan tartibda yoy chiziladi. Yoy bilan kvadrat kesishib, r va r nuqtalar hosil bo‘ladi.

R nuqtadan j nuqtani markaz qilib, yuqorida ko‘rsatilgan tartibda yoy chiziladi, s va t nuqtalar hosil bo‘ladi, r dan p nuqtaga, undan esa yarim aylana bilan vertikal chiziq kesishishidan hosil bo‘lgan t nuqtaga to‘g‘ri chiziq o‘tkaziladi va u nuqta hosil bo‘ladi. Shu chiziqqa parallel ravishda r nuqtadan ham chiziq chiziladi va f nuqta hosil qilinadi, u va f nuqtalar tutashtiriladi, natijada to‘g‘ri to‘rtburchak hosil bo‘ladi. Xuddi shu to‘g‘ri to‘rtburchakni qarama-qarshi diagonal yo‘nalishida ham hosil qilinadi. Navbatdagi bosqichda j nuqtadan o va n nuqtalarga, E nuqtadan m va l nuqtalarga, Z nuqtadan o va l nuqtalarga hamda I nuqtadan m va n nuqtalarga chiziqlar o‘tkaziladi. Endi kerakli nuqtalarni tutashtirib, kvadratning barcha tomonlarida geometrik shakl hosil qilamiz. Nihoyat, bu geometrik shakllarning yig‘indisidan biz kutgan girix kashtta kompozitsiyasi hosil bo‘ladi (2-rasm).

Bunday mashg‘ulotlar kelajakda ilmiy-ijodiy ishlarni tashkil etishda va tadqiqot ishlarini olib borishda, eng asosiysi, ta’lim olishga, fanga va o‘zi tanlagan kasbga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi. Bugungi kunda axborot texnologiyalari va ularning tushunchalari birmuncha ommabop hisoblanib, ular amaliyotga kirib ulgurganligini ko‘pchiligimizga ma’lum. Aytish mumkinki, ular zamirida noan’anaviy o‘qitish tizimi yotadi.



1-rasm. Corel Draw grafik dasturi yordamida hosil qilingan girix kashta kompozitsiyasi.

Mashg‘ulotlar davomida noan’anaviy metodlarni qo‘llash, uning imkoniyatlaridan foydalanish har bir o‘qituvchi uchun mas’uliyatli vazifadir. Bu vazifalarni amalga oshirishda quyidagi jihatlarga jiddiy e’tibor qaratish lozim bo‘ladi:

–eng avvalo, kashtachilik san’ati o‘quv jarayonini ijodkorlik, izlanuvchanlik ruhida tashkil etish uchun o‘qituvchilarning mantiqiy tafakkuri, kasbiy mahoratini takomillashtirish;

–o‘qituvchilarga kashtachilik san’atini o‘rgatishda axborot texnologiyalarini qo‘llash, ma’naviy-axloqiy va ma’rifiy tarbiyalarning ta’sirchan metod va usullarini izlab topish hamda ulardan samarali foydalanish;

–o‘qituvchining kashtachilik san’ati bo‘yicha zamonaviy ijodkor sifatida faoliyat ko‘rsata olishi orqali o‘quvchilar ijobiy, iqtisodiy tashabbuskorligi, layoqat va iqtidorini tarbiyalash, ularning milliy g‘ururi, ma’naviy-axloqiy hamda estetik dunyoqarashini yuksaltirish;

–insonparvar fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lida millatimizning ma’naviy-axloqiy va madaniy yutuqlarini tiklash, saqlab qolish, mustahkamlash va rivojlantirishga nisbatan talablar ixlosini oshirish [5.6].

Bu kabi masalalarni muvaffaqiyatli hal etish o‘quvchilarning ushbu sohaga doir bilim saviyasi, savodxonligi yuqori bo‘lishiga hamda ular tanlagan kasblarini egallashga yo‘naltirilgan faoliyatining samarali yakunlanishiga oid keladi.

Umumta’lim maktablarida xalq hunarmandchiligi mashg‘ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshirilishi, amaliy san’at ta’limining yangi mazmunini shakllantirishda zamonaviy o‘quv-metodik majmualar va o‘quv-tarbiya jarayonining didaktik jihatlarini ta’minlash va mazkur soha o‘qitilishining ilmiy-amaliy masalalarini to‘g‘ri hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, umumta’lim maktablari o‘quvchilari amaliy va badiiy bezak san’atidan muammoli masalalarning mohiyatini anglab yetishi, ma’lum topshiriqlar yechimini topish yo‘lida ularning shaxsiy ehtiyoji, qiziqishi, qobiliyati, iste’dodi, salohiyati bilan bog‘liq ravishda olib borilishi, bu o‘z o‘rnida mustaqil ijtimoiy foydali faoliyatning yo‘lga qo‘yilishi, mustaqil fikrlaydigan, ma’naviyatli, ma’rifatli insonlarni tarbiyalash imkonini beradi.

Ta’kidlash joizki, bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar tarbiyasiga, ularning kelajakda yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishlariga katta e’tibor berilmoqda. Shu munosabat bilan, ta’lim jarayoniga axborot texnologiyalarining keng ko‘lamda tatbiq qilinishi, ta’lim mazmunini boyitishga, uni takomillashtirishga va o‘quvchilar bilimini o‘zlashtirishda jadallashtirish, jamoaviy hamda yakka tartibda mashg‘ulotlar olib borish orqali, ta’limni majmuali loyihalashtirish muammolarini yechishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sotiboldiyev Z.Sh. Dizayn asoslari. T., “Iqtisod-moliya”, 2008, 7-bet.
2. Стефановская Т.А. Педагогика: наука и искусство. М., “Совершенство”, 1998, с. 17.
3. Tolipov O‘.Q., Sharipov Sh.S., Islamov I.N. O‘quvchilar dizaynerlik ijodkorligi. T., “Fan”, 2006, 24-bet
4. Habibullo Solih. Ramziy bezaklar ma’nosi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2003, 3-son, 32-bet.

5. Ходжабоев А.Р. Научно-педагогические основы учебно-методического комплекса подготовки учителя труда. Автореф. дисс…д-ра пед. наук, Т., 1992, с. 6.

6. Нишаналиев У.Н. Формирование личности учителя трудового обучения: проблемы и перспективы. Ташкент, “Ўқитувчи”, 2000, с. 32.

7. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Darslik, T., “TerDU NMMN”, 2021, 27-bet.

Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich (Urganch davlat Pedagogika instituti katta o‘qituvchisi)

YOSHLARNI MA’NAVIY BARKAMOL SHAXS QILIB TARBIYALASHDA OILA IJTIMOIY INSTITUTINING ROLI

Annotatsiya. *Maqolada jamiyatimizning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan yoshlar ijtimoiy-ma’naviy muhitining shakllanishida oila ijtimoiy institutining roli va ahamiyatining nazariy jihatlari, mamlakatimizda oila institutiga bo‘lgan e’tibor, shuningdek, o‘sib kelayotgan yosh avlodni axloqiy jihatdan barkamol inson qilib voyaga yetkazishda buyuk mutafakkir olimlarimizning qarashlari yoritib berilgan.*

Аннотация*. В статье рассматриваются теоретические аспекты роли и значения социального института семьи в формировании социально-духовной среды молодежи, которая является основным звеном нашего общества, внимание к институту семьи в нашей страны, а также развитие молодого поколения в нравственно здоровых людей.*

Annotation. *In the article, the theoretical aspects of the role and importance of the social institution of the family in the formation of the socio-spiritual environment of the youth, which is the main link of our society, attention to the institution of the family in our country, as well as the development of the young generation into morally sound people The views of our great thinkers have been highlighted in the process of bringing to adulthood.*

Kalit so‘zlar*: oila, jamiyat, qadriyat, oilaviy munosabatlar, tarbiya, institut, ijtimoiy hayot, turmush, farzand tarbiyasi.*

Ключевые слова: *семья, общество, ценность, семейные отношения, образование, институт, общественная жизнь, брак, воспитание детей.*

Key words: *family, society, value, family relations, education, institution, social life, marriage, child rearing.*

Kirish. Oila – jamiyatning tayanchi. Yoshlarimiz ongida el-u yurtga, Vatanga muhabbat tuyg‘ulari, avvalambor, oiladan shakllanadi. Mamlakatning ertangi kuni, tinch va obod bo‘lishi o‘sib kelayotgan yoshlarimizga bog‘liqdir.

Darhaqiqat, oila, mahalla, maktab bolalar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Farzandlarimizni chiroyli odob-axloq, yaxshi ta’lim-tarbiyali insonlar qilib voyaga yetkazish davlatimiz miqyosidagi eng dolzarb masalalardan biri ekanini har birimiz yaxshi tushunamiz. Umumbashariy taraqqiyot rivojiga va milliy tarixchiligimizga unutilmas hissa qo‘shgan olimu fuzalolarning, oila, farzand va uning tarbiyasi haqida qoldirgan merosi, falsafiy qarashlarini har tomonlama o‘rganmog‘imiz darkor. Shu bois xalqimizning asrab-avaylab, rivojlantirib kelgan qadriyatlarini tiklash va yangi jamiyat qurishga tatbiq etish hayotiy zaruriyatga aylanib bormoqda.

Muhokama va natijalar. Dunyoda “Shayx ul-rais”, ya’ni, “Donishmandlar sardori” nomi bilan e’zozlangan buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino bola tarbiyasi va tarbiya usullari haqida o‘zining qimmatli fikrlarini bildirgan. Bolani tarbiyalash ota-onaning asosiy maqsadi va vazifasidir. O‘z kamchiliklarini tuzatishga qodir bo‘lgan ota-ona tarbiyachi bo‘lishi mumkin.

Axloqiy tarbiyada eng muhim vositalar bolaning nafsoniyatiga, g‘ururiga tegmagan holda, yakkama-yakka suhbatda bo‘lish unga nasihat qilishdir. Ibn Sino bolada axloqiy xususiyatlarni mehnat, jismoniy, aqliy tarbiya bilan uzviy birlikda shakllantirishni, uni inson qilib kamol toptirishda asosiy omil deb biladi.[1]

Oila tarbiyasi jamiyatdagi tarbiya jarayonining eng muhim, eng nozik nuqtalaridan ekani buyuk bobokalonimiz Amir Temur davriga oid tarixiy manbalar mazmun-mohiyatida yanada yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Yirik markazlashgan davlat barpo etgan Amir Temur uni oqilona va odilona boshqarishda ham adolatli yo‘l tutgani, hududi nihoyatda katta bo‘lgan mamlakatda qonun ustuvorligini ta’minlagani,

[1] O‘rol Nazar Mustafo. Oilada farzand tarbiyasida odob-axloq o‘rni. Oliy Mahad, 2017, 2-bet.

obodonchilik ishlariga katta ahamiyat berganini tasdiqlovchi manbalar bugun ko‘pchilikka tanish.[1] Sohibqiron jamiyatni olg‘a yetaklovchi, rivojlantiruvchi ichki omil – oila ekanini juda teran his etgan. El-yurt va oddiy fuqaro tashvishi, insonparvarlik, mehr-muruvvat, mamlakat ichkarisi va tashqarisida tinchlik-osoyishtalikni saqlash, yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini o‘rnatish sohibqiron boshqaruvida markaziy o‘rinlarni ishg‘ol qilgan.

Jamiyat va oila muhiti mushtarakligi, oila va kishilik jamoalari dialektikasi so‘z mulkining sultoni Mir Alisher Navoiyni ham ko‘p o‘ylantirgan muammolardan ekani bizga sir emas. Mutafakkir shoir deyarli barcha asarlarida, ya’ni, she’r va dostonlari, didaktik hikoyalari, tarixiy asarlarida insonparvarlik, ezgulik g‘oyalarini kuyladi. Ayniqsa, «Xamsa» asariga kirgan dostonlarda Navoiy shaxs va jamiyat, inson taqdiri, adolatli jamiyat va bu jamiyat asosini tashkil etuvchi komil insonlar obrazlarini yaratdi. “Hayrat ul-abror”da Hotam Toyi, No‘shiravoni odil, Ayyub, Iskandar haqidagi va adablilik odati, qanoat, vafo haqidagi falsafiy hikoyatlarda biz ezgulik va qabohat, yaxshilik va yomonlik, oliyjanoblik va munofiqlik o‘rtasidagi murosasiz bahslarni ko‘ramiz. Bu go‘zal hikoyatlarga ulug‘ shoirning falsafiy didaktik o‘ylari hamda orzulari singdirilgan bo‘lib, biz ulardan hozirgi davrimiz uchun ibrat namunalarini topamiz. “Yosh bolaga nisbatan eng zarur ish, – deb yozadi u, – bilki, uni kichkinaligidan parvarish qilishdir. Qatrani sadaf tarbiya qilgani uchun odamlarning boshiga chiqib sharaf topdi”, “Tarbiyaning yana biri ota-onani hurmat qilish, buni bajarish uning uchun majburiyatdir. Bu ikkisiga xizmatni birdek qil, xizmating qancha ortiq bo‘lsa ham, kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun butun jismingni sadaqa qilsang arziydi!”[2] Ushbu fikr va mulohazalar oila va uning mustahkamligi nafaqat bugungi kunda balki eng qadimgi davrlarda ham muhim omil bo‘lganligi o‘z tasdig‘ini topmoqda.

Jaloliddin Davoniy ham ota-onaning bolani tarbiyalashdagi ahamiyatiga keng to‘xtalgan. Uning fikricha, farzand tarbiyasida ota ham, ona ham teng huquqli, teng ishtirok etishi bolaning yaxshi xulq-odob qoidalarini muayyan bir kasbni egallashiga ko‘maklashishi ilm-fan va kasb-hunar egallashining moddiy asosi bo‘lmish oziq-ovqat, kiyim-kechak, kerakli buyum va jihozlarni yetkazib berish uchun jozibalik ko‘rsatishi kerak.[3]

Islom dini ta’limotida farzand Alloh taolo insonga bergan eng ulug‘ ne’matlardan bo‘lishi barobarida, u omonat hamdir. Bu buyuk ne’matga sazovor bo‘lgan ota-onalar uning qadriga yetishlari, shukrlar aytib, farzand oldidagi ota-onalik burchlarini puxta ado etishlari, ya’ni, unga chiroyli ism qo‘yishlari, yaxshi ta’lim-tarbiya berishlari va oxir-oqibatda Alloh roziligini topadigan, millati, Vatani, ota-onasiga munosib o‘g‘il-qiz, tengdoshlari hurmati va muhabbatini qozongan yetuk bir inson bo‘lishi borasidagi mas’uliyatli vazifalarini chin ixlos va sadoqat bilan ado etishlari lozim bo‘ladi.

Nosog‘lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan “ma’naviy kasal”[4] insonlar shakllanadi. Bugungi g‘oyat tahlikali, ham iqtisodiy, ham ma’naviy inqirozlar kuchayib borayotgan, yoshlar ongini yolg‘on va soxta axborot xurujlari daxl qilayotgan, ularning qalbiga din niqobi ostidagi zararli ta’sirlar ortib borayotgan xatarli zamonda barchamizdan uyg‘oqlik, hushyorlik talab qilinadi. Farzand tarbiyalayotgan ota-onaning har bir harakati, yurish-turishi, muomalasi, boshqalar bilan o‘zaro munosabatida oliyjanob fazilatlarni namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo‘ladi. Shuning uchun uning atrofdagilari o‘z odatlari bilan ba’zan o‘zlari sezmagan holda ularga ta’sir qiladilar. Oiladagi qo‘pol munosabatlar, ko‘p yolg‘on gapirish, yoqimsiz xatti-harakat bola tarbiyasiga salbiy ta’sir qiladigan nosog‘lom muhitni keltirib chiqaradi. Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o‘rin tutadi.

Bola ota-ona tomonidan qo‘pol, dag‘al so‘zlar eshitib, kaltak yeb katta bo‘lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta’sir qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, oiladagi nosog‘lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan “ma’naviy kasal” insonlar shakllanadi. Ular esa jamiyat ma’naviyatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Oilada ota-onalar “ommaviy madaniyat” ta’siriga berilib ketishi oqibatida farzandlarning tarbiyasiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Albatta, bola tarbiyasi o‘ta murakkab va mas’uliyatlidir. Bu har bir ota-onadan o‘z ustida muntazam ishlashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma’lumotlardan xabardor bo‘lib borishni talab etadi. Farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko‘rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o‘z ichiga

---

[1] Mo‘minov I. Amir Temurning O‘rta Osiyo hayotida tutgan o‘rni va roli. Toshkent, “Fan”, 1993; Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi, 2-jild, Toshkent, “Mehnat”, 1992; Temur tuzuklari. Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991.

[2] Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989, 261 – 262-betlar.

[3] Jaloliddin Davoniy. Axloqi jaloliy. 135-bet.

[4] Ibragimov D.A. Oila, mahalla va o‘quv muassasalarida yoshlar tarbiyasi. Texnika. Texnologiya. Injeneriya. 2017.

diniy-axloqiy bilimlar, tibbiyot, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalariga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayondir.[1]

Bugungi kunda oilaviy tarbiyaning qiyinlashuvi shundaki, birinchidan, jamiyat taraqqiy etib borgani sari har tomonlama yetuk insonni shakllantirish talablari ortib boraveradi. Bu esa oilada bolaga estetik, jinsiy tarbiya, axloqiy tarbiya berish sifati va ko‘lamini oshirish talabini qo‘yadi.

Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismonan sog‘lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Jumladan, maktabgacha ta’limning zamonaviy tizimi, 11 yillik umumiy o‘rta ta’lim joriy qilinmoqda, zamonaviy oliy ta’lim muassasalari hamda nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda.

Yoshlarning bandligini ta’minlash va ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish bo‘yicha ishlarni mutlaqo yangi tizim asosida tashkil etish va amalga oshirish maqsadida «Yoshlar – kelajagimiz» davlat dasturi qabul qilindi.

Yoshlar bilan doimiy muloqot qilish mazkur sohadagi dolzarb muammolarni aniqlash va hal etishda davlat organlari va jamoat tashkilotlari faoliyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Shu bilan birga, amalga oshirilgan ishlarning tahlili bu borada ayrim muammolar saqlanib qolayotganligini ko‘rsatmoqda. Xususan:

♦birinchidan, yosh avlod ongiga Vatanga sodiqlik va uning taqdiri uchun daxldorlik hissini singdirishga, ularda yot g‘oya va qarashlarning salbiy ta’siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar yetarli darajada samara bermayapti;

♦ikkinchidan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash, shuningdek, ekstremizm, terrorizm va boshqa buzg‘unchi g‘oyalarga nisbatan murosasizlikni shakllantirish yuzasidan davlat organlari va jamoat tashkilotlarining faoliyati hamon talab darajasida emas;

♦uchinchidan, o‘quvchi-yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun zarur bo‘lgan madaniy-ko‘ngilochar obyektlar, maktabdan tashqari ta’lim muassasalari, shu jumladan, joylarda turli ijodiy va ta’lim to‘garaklari, sport seksiyalarining yetishmasligi bolalarning sog‘lom ruhda tarbiyalanishiga va to‘g‘ri hayot yo‘lini tanlashiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda;

♦to‘rtinchidan, o‘qituvchi va murabbiylarning ijtimoiy mavqeyi va nufuzi pasayib ketganligi, ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish tizimi bugungi kun talabiga mutlaqo javob bermasligi yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash hamda mustaqil dunyoqarashini shakllantirish borasida jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda;

♦beshinchidan, yoshlarning oliy ta’lim muassasalariga qamrab olinish darajasi pastligi, yetakchi xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorlik yetarlicha yo‘lga qo‘yilmaganligi malakali kadrlarning yetishmasligiga va olib borilayotgan islohotlardan ko‘zlangan maqsadga to‘liq erishilmasligiga sabab bo‘lmoqda;

♦oltinchidan, sohada qonun buzilishi holatlarining saqlanib qolayotganligi, shu jumladan, yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga ajratilayotgan mablag‘larning maqsadli sarflanishida nazoratning yetarli darajada emasligi tizimli muammolarni yuzaga chiqarmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, oila – avlodlar davomiyligi, qadriyatlar, urf-odatlar va an’analarni, qolaversa, xalqimiz ma’naviy merosining avloddan avlodga o‘tishini ta’minlovchi omildir. Shu tufayli oilani qo‘llab-quvvatlash masalasi davlatimizning doimiy diqqat-e’tiborida turibdi. Oila qanchalik mustahkam bo‘lsa, jamiyat ham shunchalik mustahkam bo‘ladi va rivojlanadi. Shuning uchun ham Birlashgan Millatlar Tashkilotninig Bosh Assambleyasi 1994-yildan e’tiboran, har yili 15 may kunini “Xalqaro oila kuni” sifatida nishonlashga qaror qilgani bejiz emas. “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi”ning 16-moddasida shunday deyilgan: “Balog‘atga yetgan erkaklar va ayollar irqi, millati va diniga qarab biror-bir cheklovlarsiz nikohdan o‘tish va oila qurish huquqiga egadirlar. Ular nikohdan o‘tayotganlarida ham, nikohda bo‘lgan vaqtda ham va nikoh bekor qilinayotganda ham bir xil huquqlardan foydalanadilar”. Davlatimiz rahbarligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma’naviy islohotlarning bosh maqsadi inson, oila manfaatlarini qanoatlantirishdan iboratdir.

Hukumatimiz tomonidan har yili ushbu sohaga oid davlat dasturlari qabul qilinib, sobitqadamlik bilan amalga oshirilib kelmoqda. Bularning o‘ziga xos ramziy sabablari bor, albatta. Jumladan, 2012-yil fevral oyida qabul qilingan “Mustahkam oila yili” davlat dasturi to‘g‘risidagi qaror oila institutini yanada

[1] Shu manba.

mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarni, ayniqsa, yosh oilalarni huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatalarini himoya qilish hamda qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish borasida olib borilayotgan barcha ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk, har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini oshirishga qaratilgan muhim dasturiy hujjat bo‘lib xizmat qiladi.

Darhaqiqat, insondagi ilk hayotiy tushunchalar, dunyoqarash, bokira tuyg‘ular, avvalo, oilaviy muhitda shakllanadi. Xalqimizda keng tarqalgan “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan maqolning mazmun-mohiyati ham shunga ishora.

Bekimbetova Gulbaxar Risbaevna (Ajiniyoz nomidagi NDPI “Umumiy pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori)

QORAQALPOQ TILINI O‘QITISHDA LINGVOMETODIKA ISHLARI MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya. *Maqolada qoraqalpoq tilini o‘qitish metodikasi, shuningdek, ushbu muammoga doir o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari farazi aks etgan.*

Аннотация. *В статье отражены гипотезы научно-исследовательских работ по методике чтения на каракалпакском языке, методики чтения, связанной с узбекском языком.*

Annotation. *The article reflects the hypotheses of research works on the method of reading in the Karakalpak language, the method of reading associated with the Uzbek language.*

Kalit so‘zlar: *lingvistik kompetensiya, metodik ishlar, yozish ko‘nikmalari, nutqiy faoliyat.*

Ключевые слова: *лингвистическая компетенция, методическая работа, навыки письма, речевая деятельность.*

Key words: *linguistic competence, methodical work, writing skills, speech activity.*

Respublikamizda qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘qitish masalalari bo‘yicha Y.Berdimuratov, Q. Pirniyazovlar[1] umumta’lim maktablarida qoraqalpoq tilini o‘qitish metodikasi bo‘yicha S.Ahmetov,[2] A. Paxratdinov, A.Pirnazarov, K.Palimbetov, I.Pirniyazovlar qoraqalpoq adabiyotini o‘qitish metodikasi bo‘yicha, A.Djaksibayev dars darayonida rus va qoraqalpoq tillarini solishtirish masalalarida, M.K.Koshanov, B.Qutlimuratovlar qoraqalpoq maktablarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini qoraqalpoq tilida o‘qitish, yozish ko‘nikmalariga o‘rgatish masalalari bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan.

So‘nggi yillarda filolog-talabalarning lingvistik kompetensiyasini takomillashtirish bo‘yicha D. Seytkasimov, Q.Yusupov va A.Tobanazarovlar akademik litseylarda va kasb-hunar maktablarida qoraqalpoq adabiyotini o‘qitish metodikasi bo‘yicha ilmiy tadqiqot va metodik ishlar olib borigan.

J.Sagidullayeva, J.Qaniyazovalar esa adabiyot nazariyasini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar tayyorlagan. Ushbu tadqiqotlarda aynan bizning mavzuimizga yaqin keladigan G.Jumasheva[3] ikki tillilik sharoitida qoraqalpoq tilida so‘zlashish ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi bo‘yicha, A.Naurizbayeva[4] ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarning boshlang‘ich sinflarida qoraqalpoq tili o‘qitish metodikasi bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. Bizning tadqiqot ishimizda ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o‘qitish metodikasi bo‘yticha ilmiy tadqiqot ishi olib borilmagan.

Ta’lim rus tilida olib boriladigan umumta’lim maktablarida o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar, metodik ishlar sanoqli.

Tadqiqotchi R.A.Yo‘ldoshevning “Ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” nomli monografiyasida ta’lim rus va boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o‘zbek tilini o‘qitishda o‘quvchilarga nutqiy faoliyatning to‘rtala turini (gapirish, o‘qish, nutqni tinglab tushu-

[1] Бердимуратов Е., Пирниязов Қ. Орта мектеплерде қарақалпақ тилин оқытыў методикасы. Нөкис, “Билим”, 1988; Джаксыбаев А. О сопоставлении русского и каракалпакского языков в учебных целях. Нукус, “Каракалпакстан”, 1982.

[2] Ахметов С., Пахратдинов Ә., Пирназаров Ә. Қарақалпақ әдебиятын оқытыў методикасы. Нөкис, “Қарақалпақстан”, 1988, 160 бет; Әлеўов О. Қарақалпақстанда тәлим-тәрбиялық ойлардың қәлиплесиўи ҳәм раўажланыўы. Нөкис, “Билим”, 1993, 504 бет.

[3] Жумашева Г. Икки тиллилик шароитида қорақалпоқ тилида сўзлашиш кўникмаларини шакллантириш (таълим рус тилида олиб бориладиган мактабгача таълим ташкилотларида ва умумтаълим мактабларининг бошланғич синфларида). Пед. фан. докт. дисс. автореф., Нукус, 2021, 68 бет.

[4] Наурызбаева А.С. Методика обучения конструированию предложении на уроках каракалпакского языка в начальных классах школ с русским языком обучения. Автореф. дис. …канд. пед. наук, Т., 2002.

nish, yozma nutq) o‘rgatish mashg‘ulotlardagi asosiy ish turlari ekanligini ta’kidlagan. Shuningdek, M. Ernazarovaning “Ta’lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning 2-sinfida o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” ilmiy tadqiqotida ta’lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning 2-sinflari uchun bilim, malaka, ko‘nikmalari, talaffuz me’yorlari, imlo savodxonligi, so‘z zaxirasi va nutqini shakllantirish va rivojlantirish metodlarini ishlab chiqqan.

B.To‘xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodovalarning «O‘zbek tili o‘qitish metodikasi» o‘quv qo‘llanmasida «talaba–ta’lim–o‘qituvchi» munosabatlarini to‘g‘ri tashkil etish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini ta’kidlagan. Ayniqsa, talabalarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘rgatish, ularning lug‘at boyligini oshirish, o‘zgalar nutqini tinglay olish masalalariga kengorq to‘xtalgan.

Shuningdek, professor X.S.Muhitdinova, F.H.Aminova, G.X.Jumasheva, A.X.Jo‘rayev, R.O. Nabiyeva, V.I.Andriyanova, O‘.H.Islamov, M.M.Bazarova va boshqa olimlarning ishlarida o‘zbek tilini o‘qitishda uzluksizlikni ta’minlashning ilmiy-metodik asoslari bo‘yicha, o‘quvchilarni muloqot matn yaratishga o‘rgatishning didaktik asoslari, yoshlarning dialogik nutq o‘stirishi xususida ayrim mulohazalar tatbiq qilingan. Shuningdek, G.Z.Muhamedjanovaning “Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda rusiyzabon o‘quvchilarning o‘zbekcha nutqini o‘stirish metodikasi (5–9-sinflar misolida)” mavzusidagi tadqiqot ishida dialogik nutq o‘stirish xususida ayrim mulohazalar bayon qilingan.

Muloqot madaniyati bilan bog‘liq ayrim masalalar A.X.Jo‘rayev, R.O.Nabiyeva, V.I.Andriyanova, O‘.H.Islamov, M.M.Bazarova va boshqa olimlarning ishlarida tilga olingan.

Pedagogik texnologiyalar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari N.N.Azizxo‘jayeva,[1] V.L.Golish, N. G‘ulomova, J.G‘.Yo‘ldoshev, M.Kamoldinov, T.Madumarov,[2] M.Ochilov,[3] Q.O‘.Tolipov,[4] M.Usmonboyeva, S.A.Usmonov, N.Yusupova, Sh.Yusupovalarning ilmiy tadqiqotlarida pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilingan.[5] MDH davlatlarida til metodikasi bo‘yicha V.A.Slastenin, I.A.Zimnyaya, V.M.Klarin, N.E.Sinichkina, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, V.A.Artemova, B.A.Belyaeva, Z.F.Zeer, A.M.Pavlova, E.E.Simanyuk, V.S.Setlin, A.A.Mirolyubovlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Xorij olimlardan Raven Dj., Gabriela Kelemen, Francisco J.Lozano, N.Tsankov, L.Klark, M.Korotkov, A.Sjober, B.Ingeborg, A.Durdu, Sh.Taslemlar tomonidan tadqiq qilingan.

D.Dyuining fikricha, insonni hayotga tayyorlash vositasi emas, u hayotning o‘zi. Tarbiya odamlarni birlashtirishi, yoshlarni ijtimoiy tinchlik va totuvlik ruhida tarbiyalash lozim. Shunday ekan:

1. Qoraqalpoq tilini o‘qitishga innovatsion yondashuvlarni joriy etishga doir ishlarni faollashtirish.

2. Qoraqalpoq tilini o‘qitish uchun ilmiy, metodik, psixologik va pedagogik yordam tizimini rivojlantirish ishlarni takomillashtirish.

3. Qoraqalpoq tili ta’lmida etnolingivistikaning so‘nggi yutuqlaridan foydalanish muhim ahamiyatga egaligi, maqsadiga muvofiq mustaqil izlanishga undashi lozim.

Biz talabalarning lingvometodik kompetensiyalarini rivojlantirishda oliy ta’lim muassasalarining o‘quv rejalari va u yerdagi o‘quv soatlari bilan tanishib chiqdik. O‘rganish jarayonida Qoraqalpoq davlat universitetida 60230100 – Filologiya va tillardi o‘qitish (qoraqalpoq tili), Nukus davlat Pedagogika instituti 5111300 – Ona tili va adabiyoti (Qoraqalpoq tili va adabiyoti) va Navoiy davlat Pedagogika instituti 6011500 – Qoraqalpoq tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi talabalarining lingvistik kompetensiyalarini takomillashtirishda olib boriladigan o‘quv rejalari bilan tanishib chiqdik.

Tajriba-sinov ishlari Qoraqalpoq davlat universiteti filolog-talabalarining lingvistik kompetensiyalarini takomillashtirish pedagogik shart-sharoitlar kompleksidagi tizim hosil qiluvchi element bo‘lib, «Qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi» fani, o‘quv-metodik kompleksining va modulli o‘qitish pedagogik texnologiyasini kiritish xizmat qildi.

Loyihalangan pedagogik protsessda «Qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi» nomli yozuvga o‘rgatish metodikasi bo‘yicha o‘quv dasturi markaziy metodik hujjat hisoblanadi.

Ta’kidlagan o‘quv dasturini ishlab chiqishda biz quyidagilarga asoslandik:

– ushbu o‘quv-metodik jamlanmaga obyektiv zarurat mavjudligi;

---

[1] Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. Тошкент, 2003, 142 бет.

[2] Мадумаров Т., Камолдинов М. Инновацион педагогик технология асослари ва уни таълим-тарбия жараёнида қўллаш. Тошкент, “Талқин”, 2012, 143 бет.

[3] Очилов М. Янги педагогик технологиялар. Қарши, “Насаф”, 2000, 112 бет.

[4] Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. Т., “Фан”, 2006, 262 бет.

[5] Юсупова Ш. Она тили таълими самарадорлигини ошириш ва илғор педагогик технологияларни жорий этиш. Пед. фан. номз. ... дисс., ТДПИ, Тошкент, 1998, 137 бет.

– o‘quv dasturi uning mazmunini amalga oshirish va qo‘yilgan maqsadga erishishda aniq pedagogik texnologiyaga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur.

«Qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi» o‘quv-metodik kompleksi bo‘lajak o‘qituvchining metodik, kasbiy, intellektual ishga layoqatlilikni amalga oshirishga muhayyo ekanligini, tushunishga mos turda ishlab chiqildi.

Talabalarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishda samarodor yondashuvlar sohasidagi o‘tkazilgan izlanishlar natijasida o‘qituvchining moyillashuvini hisobga olib tayyorlandi:

– ilmiy bilimlar taraqqiyotining kumulativ xossasi: psixologiya, fiziologiya va metodikaning yangi ma’lumotlar avvalgilari bilan to‘ldirib birlashtirildi.

«Qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi» o‘quv dasturini tuzishda biz quyidagi prinsiplarga suyandik.

«Qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi» o‘quv dasturini tuzishda foydalanilgan tamoyillar

№	Tamoyillar	Tamoyillarding mazmun-mohiyati
1.	Ilmiy konseptual asoslangan	Maxsus ilmiy qoidalarga yo‘naltirish
2.	Qadriyatli va maqsadli yo‘naltirish	Belgilangan natijalarga erishishga yo‘naltirish
3.	Prognozlik va faollik	O‘quv-tarbiya jarayoni samaradorligini ta’minlash, shu bilan birga, ertangi kun zaruratini avvaldan ko‘ra olish
4.	Shaxsiy yo‘naltirilgan yondashuv	Talabati shakllanish bosqichida bo‘lgan to‘la rivojlanuvchi shaxs sifatida yo‘naltirish
5.	Holatli va optimallashgan yondashuvlar	Yagona turmush holatlari uchun muhayyo nazariya va amaliyotlarni bekor etish, ma’lum holat uchun eng yaxshi konsepsiyalar va izlanishlarga tayyorgarlik

O‘tkazilgan pedagogik texnologiyalarning tahlili, oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari va talabalarining «Qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi» o‘quv dasturi asosidagi ishlari farqli pedagogik texnologiya hisoblanishi haqidagi yakunga kelish imkonini berdi. Shu sababli «Qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi» o‘quv dasturi mazmunini aniqlash uchun asos bo‘lib, filolog-o‘qituvchining lingvistik kompetentligi professiogrammasi va tuzilmasi xizmat qiladi. Bunda quyidagi asoslarga suyandik:

a) tizimlilik – mantiqiy tartiblilik, avvalgi ma’lumotlarga tayanish, axborot bloklari o‘rtasidagi aloqalarni ochib berish;

b) uzluksizlik – tinimsiz va mustaqil izlanuvchilik;

d) umumiylik – aniq fanlarni umumlashgan bilimning bo‘lagi sifatida qabul qilish qobiliyati, har xil fanga tegishli bilimlarni yagona majmualarda birlashtirish;

e) tezkorlik – turli holatlarda bilimlarni qo‘llashga tayyorgarlik;

f) moslashuvchanlik – o‘z bilimlarini o‘zgargan holatda qo‘llash usullarini mustaqil topish qobiliyati.

Ishlab chiqilgan «Qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi» fani maxsus fan sifatida bo‘lishi sababli u o‘quv dasturining tipologiyasini fanga tegishli turdagi dastur sifatida o‘rganib chiqildi:

– jadval shaklidagi tuzilmaga ega dastur sifatida qayd etdik, sababi o‘quv materiali takrorlashlarsiz va ilgari o‘tilganlarga qaytishlarsiz joylashtirilgan;

– o‘quv vaqtida bir marotaba ishlab chiqiladigan bir-biri bilan bevosita bog‘langan uzliksiz ketma-ketlikni hosil qiladi.

Dasturning amaldagidan farqi takomillashtirish asosida ishlab chiqilgani sababli «Qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi» fani bo‘lim va modullarga ajratilgan. Modullarning har biri bo‘yicha talabalarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishda nimani bilishi va muammoni yecha olishi, qanday tajribalarni egallashi kerakligi ochib berilgan.

Fanni o‘qitish jarayonida keltiritgan mavzular nazariylik qoidalardan uning aniq metodik amalga oshirishga o‘tishni ketma-ket ochib beradi. Ushbu mavzu to‘satdan emas, u talabalarning lingvistik kompetensiyalarini takomillashtirishning sifatini yaxshilash talabi bilan belgilangan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, qoraqalpoq tilini o‘qitish metodikasi ona tili o‘qituvchilarini tayyorlash ko‘zda tutilgan paytda, ularning kasbiy mahoratlarini oshirishga xizmat qiladigan o‘qitish metodikasi bo‘yicha yaratiladigan ilmiy-nazariy manbalarni o‘rganish zarur. Ularning turli jihatlari o‘rtasidagi bog‘liqliklar, ularning mohiyatini ochib berish, ta’lim metodi va vositalarini qo‘llash me’yorlarini aniqlash asosida didaktika amaliy-me’yoriy hamda tashkiliy-texnologik vazifani bajaradi va tajriba, ta’lim resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Жанонова Ситора Бердиназаровна (докторант Самаркандского филиала Ташкентского государственного аграрного университета: jsb87@mail.ru)

НЕОБХОДИМОСТЬ ПОВЫШЕНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ЛИЧНОСТИ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy ta'lim jarayonlarida shaxsda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning ahamiyati muhokama qilinadi. Muallif e'tiborni zamonaviy dunyo, nafaqat bilim, balki samarali muloqot qilish va boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatini ham talab qilayotganligiga e'tibor qaratgan. Maqolada muloqot nazariyasini o'rganish, muloqot mashg'ulotlarida qatnashish, muloqotni mashq qilish, madaniy farqlarni o'rganish, empatiyani rivojlantirish va tinglash qobiliyatlarini yaxshilash kabi kommunikativ kompetensiyani yaxshilashning turli usullari keltirilgan.*

Аннотация. *В статье рассматривается важность развития коммуникативной компетентности личности в современном образовательном процессе. Авторы обращают внимание на то, что современный мир требует от людей не только знаний, но и умения эффективно общаться и взаимодействовать с другими людьми. В статье представлены различные способы повышения коммуникативной компетентности, такие как изучение теории общения, участие в тренингах по коммуникации, практика общения, изучение культурных различий, развитие эмпатии и улучшение слушательских навыков.*

Annotation. *The article discusses the importance of developing communicative competence in individuals in modern education processes. The authors draw attention to the fact that the modern world requires not only knowledge but also the ability to communicate effectively and interact with others. The article presents various ways to improve communicative competence, such as studying communication theory, participating in communication training, practicing communication, learning about cultural differences, developing empathy and improving listening skills.*

Kalit so'zlar: *kommunikativ компетентлик, ijtimoiy, madaniy, his-tuyg'uli, jamoaviy intellekt, informatsion va ta'limiy texnologiyalar.*

Ключевые слова: *коммуникативная компетентность, социальный, культурный, эмоциональный, коллективный интеллект, информационные и образовательные технологии.*

Key words: *communicative competence, social, cultural, emotional, collective intelligence, information and education technology.*

Введение. В современном мире коммуникация является ключом к успеху во всех сферах жизни. Интеграция образования и обучения сделала необходимым для личности иметь высокий уровень коммуникативной компетентности. В данной статье рассмотрим необходимость повышения коммуникативной компетентности личности в условиях интеграции образования и обучения.

Современный мир характеризуется быстрым технологическим прогрессом и все более высоким уровнем конкуренции во всех сферах жизни. Личности, обладающие высоким уровнем коммуникативной компетентности, имеют преимущества в сфере образования, работы, бизнеса и личной жизни. Интеграция образования и обучения требует от личности не только знаний и умений в различных областях, но и способности эффективно общаться с другими людьми. Коммуникативная компетентность включает в себя не только умение говорить, но и слушать, понимать и адекватно реагировать на сообщения других людей. Кроме того, коммуникативная компетентность включает умение адаптироваться к различным культурным и социальным контекстам, умение убеждать и договариваться.

Литература и методы. В исследовании использовалась система методов:

♦теоретические: анализ философской, психологической, педагогической и методической, лингвистической литературы; моделирование, синтез эмпирического материала;

♦обобщение педагогического опыта преподавателей вуза;

♦эмпирические: обсервационные–прямое, косвенное, включенное наблюдение, изучение результатов учебной деятельности студентов;

♦диагностические – анкетирование, интервью, тестовые задания.

Результаты. Таким образом повышение коммуникативной компетентности личности должно начинаться в школе и продолжаться на протяжении всей жизни. Школы и университеты долж-

ны уделять большое внимание развитию коммуникативных навыков учеников, организовывать тренинги, семинары и курсы по развитию коммуникативной компетентности.[1]

Развитие коммуникативной компетентности также является важным аспектом социального развития личности. Люди, обладающие высоким уровнем коммуникативной компетентности, способны лучше понимать других людей, сотрудничать с ними и строить успешные отношения. Это особенно важно в современном мире, где социальные связи и взаимодействия становятся все более важными для достижения успеха.

Коммуникативная компетентность является одним из важнейших аспектов личностного развития. Способность эффективно общаться с другими людьми не только позволяет лучше понимать окружающий мир, но и является ключевым фактором в достижении успеха в различных сферах жизни, включая личную, профессиональную и общественную.

Обсуждение. Коммуникативная компетентность является способностью человека эффективно общаться с другими людьми, используя различные языковые и нелингвистические средства. Она включает в себя не только навыки связанные с грамматикой, лексикой и произношением, но и умение выбирать правильные слова и использовать правильные интонации, жесты, мимику и другие нелингвистические средства коммуникации.

Способы повышения коммуникативной компетентности. Существует множество способов повышения коммуникативной компетентности личности. Ниже рассмотрены некоторые из них:

Развитие навыков общения. Один из самых эффективных способов повышения коммуникативной компетентности – это развитие навыков общения. Это может быть достигнуто путем улучшения понимания своего стиля коммуникации, участия в тренингах по общению, просмотра образовательных видеоуроков и чтения книг по теме коммуникации.

Практика коммуникации. Другой важный способ повышения коммуникативной компетентности – это практика коммуникации. Это может включать в себя участие в различных группах общения, общение с иностранными друзьями, прослушивание подкастов и другие формы общения.

Изучение культурных различий. Еще одним способом повышения коммуникативной компетентности является изучение культурных различий. Это позволяет лучше понимать и адаптироваться к различным культурным контекстам, учитывать культурные нюансы в общении и избегать конфликтов на этой почве.

Развитие эмпатии. Развитие эмпатии также является важным аспектом повышения коммуникативной компетентности. Это позволяет лучше понимать и учитывать чувства и потребности других людей, а также устанавливать более глубокие и продуктивные отношения в общении.

Улучшение слушательских навыков. Улучшение слушательских навыков также может помочь повысить коммуникативную компетентность. Это включает в себя активное прослушивание и понимание собеседника, умение задавать уточняющие вопросы и выражать свое мнение таким образом, чтобы собеседник был услышан и понят.

Заключение. В современном мире коммуникативная компетентность является необходимым навыком для успешной жизни. Она может быть развита путем изучения теории общения, участия в тренингах по коммуникации, практики общения, изучения культурных различий, развития эмпатии и улучшения слушательских навыков. Каждый из этих методов может помочь личности стать более эффективным в общении, улучшить качество своих отношений и достичь успеха в различных сферах жизни.

Однако, следует помнить, что развитие коммуникативной компетентности является процессом, который требует времени, терпения и постоянной практики. Кроме того, успешное общение требует не только знания правил коммуникации, но и умения применять их в практических ситуациях.[2]

Также следует отметить, что различные люди могут иметь разный уровень коммуникативной компетентности, что может привести к трудностям в общении. В таких случаях необходимо

---

[1] Аухадеева Л.А. Коммуникативная культура студентов педагогического вуза. М., ВИНИТИ, 2006, 224 с.

[2] Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. Авторская версия. М., Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004, 42 с.

проявлять терпимость и понимание, а также применять подходящие методы общения для эффективного взаимодействия.

Таким образом, развитие коммуникативной компетентности является важным аспектом личностного роста и успеха в жизни. Это может помочь личности эффективнее общаться, лучше понимать и адаптироваться к различным ситуациям, и строить продуктивные отношения.

Toshkentova Sharofatbonu (Master of KSU; btoshkentova@gmail.com)

LINGUISTIC AND PRACTICAL FEATURES OF E-LEARNING TOOLS

Annotatsiya. *Ushbu maqola elektron ta'lim vositalarining muhim lingvistik xususiyatlari haqida yozilgan. Bundan tashqari, ushbu maqolada yana bir jihat talab qilingan: dasturlardan foydalanish jarayonlari va xavfsizlik talablariga ham e'tibor qaratildi. Bundan tashqari, muhokama qilingan mobil aloqa vostalari yordamida tillarni o'rganish va ularning lingvistik til jihatlari ham muhokama qilindi. Shu bilan birga, tillarni o'qitish dasturlarini o'rganishning lingvistik yo'nalishi va uning asosiy muammolari, matnni shakllantirishda parametrlash va optimallashtirish usullarining roli bo'yicha Z.Yaxshiyevaning amaliy qo'llanmasi va uning matndagi lingvistik kompetensiyaning o'rnini o'rganishdagi ahamiyati jihatlari inobatga olingan holda ba'zi tavsiyalar berilgan.*

Аннотация. *Данная статья рассказывает об основных лингвистических особенностях инструментов электронного обучения. Кроме того, мы также обратили внимание на некоторые требования к процессу и безопасности использования запрашиваемых приложений, обсуждалось мобильное обучение и их лингвистические сферы. В то же время, даны некоторые рекомендации по лингвистическому направлению изучения этих программ обучения языку и его основным проблемам, роли методов параметризации и оптимизации в формировании текста, Проанализировано Практическое пособие Якшиевой и его значение для изучения места лингвистической компетенции в тексте.*

Annotation. *This article was written about the essential linguistic features of e-learning tools. Furthermore, we also paid attention some process and security demand of using requested applications. In addition, discussed mobile learning discussed and their linguistic language spheres. At the same time, given some recommendations for the linguistic direction of the study of these language teaching programs and its main problems, the role of parameterization and optimization methods in the formation of the text, Z.Yaxshiyeva's practical manual and its importance in studying the place of linguistic competence in the text.*

Kalit so'zlar: *internet, lingvistik munozara, mobil o'quv vositalari, o'quv modeli.*

Ключевые слова: *интернет, лингвистическая дискуссия, мобильные средства обучения, модель обучения.*

Key words*: internet, linguistic discussion, mobile learning tools, learning model.*

The Internet today is a window into its users' perceptions, their ideas and their way of life. The emergence of wireless networks and mobile devices has aided this. These technologies are influencing our social habits. Learning systems can only respond to these shifts in order to better support students, their needs, and preferences. Mobile learning or learning via mobile devices makes this possible today. Mobile learning is a novel paradigm that has sparked a slew of research efforts over the last decade. The first work performed was completely techno centered. It began by focusing on the use of new mobile technologies and users' perceptions of them, before moving on to the application of well-established learning theories (theory of activity [1]. In order to formalize this paradigm through new models and approaches, we are currently more interested in mobile learning teaching and learning challenges.

Today's youth may choose what they want to learn and set their own learning goals using their mobile devices. They enable them to train their learning communities and employ the methods and means that are most appropriate for them. The present modifications have reduced learners to mere consumers of information. In turn, teachers must place a greater emphasis on contextual knowledge, problem-solving skills, and creative processes. Mobile learning presents novel learning circumstances that encourage key competencies in this context. Mobile learning encourages the introduction of connectivity approach. "The traditional learning models no longer reflect the reality that we live in our digital age, "said the approach's creators, George Siemens and Stephen Downs. We are continually gaining new knowledge and exchanging, sharing, and criticizing it through social media and blogs. This condition of generalized connectivity

is a learning process in and of itself, difficult to achieve through linear paths and unilateral understanding and memorization from a small, preset corpus of facts" [2].

The present study investigated the effectiveness of e-learning mode as a platform for teaching English among students based on learners opinions. Based on the study findings, universities in the world should continue to embrace e-learning as a platform for teaching English because it is considered by learners of English as effective. It is an appropriate and better means for acquiring vocabulary, developing speaking skills, English language grammar, reading skills, writing skills, listening skill. It is also a better mode of enhancing performance, and a better tool for testing and evaluation. However, as revealed in this study, universities in the world should be cognizant of the shortcomings of using e-learning as a mode of teaching English. In this purpose each learning tools requires to include some aims:

Emotion is the expression of human feelings, experiences and emotions in units of language.

Emphases-the presence of speech in a high spirit, the strength of emotionality: Command, Tajik, command... The emphases is coming to the surface using a repeat.

Enantiosemia is the occurrence of conflicting meanings in the semantic structure of a word. Exit-moving from the inside to the outside, moving inward in transport. Beginning and end of the main road

Epiphora is the opposite of anaphora. A methodological tool consisting of the repetition of the same element at the end of Parallel structured speech fragments

Analogy-based on the similarity between two things or phenomena, through one of them to show the sign, essence of the other more fully, more clearly, exaggerating [3.32].

They should find a way to overcome such shortcomings as doing so would help make the teaching of English effective. The implication of the findings of this study is that universities in the world can facilitate learning of English by embracing e-learning platform.

All over the world that new technologies supported by devices are growing rapidly, wireless communication technology is no exception in this regard. Since mobile phones are highly expandable in all spheres of human life, it is expected that this wireless computing device will soon become available to all urban and rural areas of every country. So, widespread access to such an inexpensive and sophisticated device has quite changed the e-learning landscape in many ways. In fact, mobile learning can be seen as the next generation of e-learning. Mobile devices do not replace existing learning devices, but they serve as an extension for learning in a new environment with new opportunities, however, not all learning content and activities are suitable for mobile devices [4]. Mobile learning is characterized by its potential for learning to be spontaneous, informal, personalized and ubiquitous. Such learning is enhanced when people face a lack of free time as a result of working more hours. In such an environment, busy people tend to use portable devices to learn new materials rather than taking the time for traditional classroom-based courses.

If we learn some data about the process of e- learning apps, mobile application developed using the Kotlin programming language in the Android Studio environment. The database of the application was developed in the SQL language in the SQLite program. The program is designed in XML and has a user-friendly interface. The mobile application takes up less space than the memory of the mobile phone. It can be installed without too much difficulty.

This project on the English language consists of slides intended for students studying information technology and all fields. We tried to develop the topics in these slides filled with videos and exercises to help students learn English in 3 languages. The translation forms for the sufficient mastery of the subjects have been prepared in accordance with the translation, audio reading and transcription forms of English, Russian and Uzbek languages. The methodological program is intended for students studying in specific, natural and social directions and independent learners of the English language.

In order to master the topics, the program includes the text view of the lessons and a video on the topic. Tests are placed on the subject to check the level of mastery of the subject. Depending on how well the user has mastered it, he can move on to the next topic.

The main interface of the mobile application:

3.4-picture. Logo (5).

This application was created using the Kotlin programming language in the Android Studio environment.

The database of the application was developed in the SQL language

in the SQLite program. The program design is created in XML.

Creation of perfect and safe equipment intended for people, organi-zation of the workplace and prevention of concussions, comprehensive study of work activities, sanitary regulations and technical safety measures are protected by law.

According to the law of labor protection: in many factories, enterpri-ses and firms, a person should have a condition for peaceful and safe tran-sfer of labor activity. These conditions are established by the administration.

There is a need to provide safer equipment and prevent industrial injury than the new modern predecessor.

Labor hygiene studies how people's production environment affects their health. In production, ergonomics and aesthetics are part of the culture of production, that is, the correct organization of the workplace. For example, the correct planning of the workplace or the desktop should be done so that the monitor stands comfortably, the shelf for the keyboard has a roller that goes inside the table, and the processor should be on its side under the table.

We must pay attention as sum up to article to norms and sanitary rules for employees in computers and other organizational techniques.

Workers with CTs may be exposed to harmful and extreme factors of the production environment and the work process:

–electromagnetic field – EMM (radio frequency, low power x-ray radiation, ultraviolet and infrared radiation);

– electrostatic of fields strength;

– of the air ionization;

– chemical factor, azan, laser printers toner paint when used of substance dust

– meteorological factor: local climate to himself characteristic, year season _ ventilation and heating system and others;

– a mechanic and e lecture on devices when working harvest will be noise ;

– electric from the current injury danger;

– spiritual emotions of strength increased leave

– see of the analyzer stress

– fingers and paw muscular in cooperation fast at pace executable one different limited movement;

– of the body mandatory, one different worker in case posture, hyperemesis. TTs with at work of air ionization, e electromagnet of fields strength, call to prayer, paint of substances powder, mandatory worker condition harmful and dangerous factors is considered

Technique task and to the profession looking, work order of work individuality in consideration received case is different to be possible (one or two shift and a day during). One shift duration 6 hours, 36 hours weekly shift during 40 minutes break for meals less not to be need shift during micro breaks input they should the work on time is entered.

Computer in technique workers work weight and stress according to mostly level 2 harmful and stress to work includes [6].

To conclude, we can say that linguistic features of mobile e-learning devices is developing day by day. But every researcher has to create some new methods or even attitude to enhancing them. At the same time, the linguistic direction of the study of these language teaching programs and its main problems, the role of parameterization and optimization methods in the formation of the text, Z. Yaxshiyeva's practical manual and its importance in studying the place of linguistic competence in the text, Indirect Speech Communication and the attitude of the text to semantics and pragmatics, types of Indirect Speech Acts in terms of expression and content, their relationship with the text, the theory of Speech Act and ways of expressing the communicative purpose in the text, a number of issues, such as the formation of the content of the speech act and its perception in the text, are counted from the problem, which is waiting for its solution in the future.

References:

1. Hamdamov R., Begimkulov U., Tayloqov N. Ta'limda axborot texnologiyalari. Oliy ta'lim muassasalari uchun, O'zME davlat ilmiy nashriyoti, T., 2010, 120 bet.

2. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. Toshkent, TDPI, 1999.

3. "Beginning Android 4 Application Development", by Wei-Meng Lee, printed at Radha Offset, Delhi in 2015, p. 533.

4. http://www.tutorialspoint.com/Android/index.html
5. Z.R.Yaxshiyeva. English for IT applicants “Fan va ta’lim” nashriyoti, 180103, 2021, 143 bet.
6. Labor conditions indicators according to hygienic classification Uzbekistan Republic Health storage Ministry approved by on March 19, 1996.
7. Android app course laboratory (https://sites.google.com/site/ Androidappcourse/labs/lab-7).

Umarova Sarvinoz Sardorovna (PhD student of Urgench State University)

THE CONCEPT OF PEDAGOGICAL TOLERANCE IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotatsiya. *Pedagogik bag‘rikenglik o‘quv jarayonidagi hayotiy tushuncha bo‘lib, inkluziv va qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitini yaratishga qaratilgan. Ushbu maqolada pedagogik bag‘rikenglikning nazariy asoslari, uning o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida ijobiy munosabatlarni shakllantirishdagi ahamiyati, o‘quv yutuqlari va ijtimoiy rivojlanishga potensial ta’siri o‘rganiladi. Tushunish, hamdardlik va ochiq fikrlashni targ‘ib qilish orqali o‘qituvchilar turli xil va uyg‘un sinf muhitini tarbiyalashlari mumkin, bu esa ta’limning umumiy sifatini oshiradi.*

Аннотация. *Педагогическая толерантность является жизненно важной концепцией в образовательном процессе, направленной на создание инклюзивной и поддерживающей учебной среды. В статье исследуются теоретические основы педагогической толерантности, ее значение для формирования позитивных отношений между учащимися и учителями, а также ее потенциальное влияние на академические достижения и социальное развитие. Способствуя пониманию, сочувствию и непредубежденности, преподаватели могут создать разнообразную и гармоничную обстановку в классе, тем самым повышая общее качество образования.*

Annotation. *Pedagogical tolerance is a vital concept in the educational process that aims to create an inclusive and supportive learning environment. This article explores the theoretical foundations of pedagogical tolerance, its significance in fostering positive relationships among students and teachers, and its potential impact on academic achievements and social development. By promoting understanding, empathy, and open-mindedness, educators can nurture a diverse and harmonious classroom setting, thus enhancing the overall quality of education.*

Kalit so‘zlar: *bag‘rikenglik, madaniyatlararo muloqot, chet tili, ta’lim, madaniyatshunoslik, muloqot, empatiya.*

Ключевые слова: *толерантность, межкультурная коммуникация, иностранный язык, образование, культурология, коммуникация, эмпатия.*

Key words: *Tolerance, intercultural communication, foreign language, education, cultural studies, communication, empathy.*

In a diverse and interconnected world, fostering a sense of tolerance and acceptance is essential for nurturing well-rounded individuals and creating harmonious societies. Within the educational context, pedagogical tolerance refers to the deliberate effort made by educators to create a safe and inclusive environment where students from various cultural, social, and intellectual backgrounds can thrive and develop to their full potential. This article delves into the theoretical framework and practical implications of pedagogical tolerance in the educational process.

The concept of pedagogical tolerance is rooted in various educational theories and philosophies. It draws inspiration from social constructivism, which emphasizes the significance of social interactions and collaboration in the learning process. Jean Piaget's cognitive development theory, for example, highlights the importance of a supportive environment in which students can construct their understanding of the world through interactions with others.

Additionally, Lev Vygotsky’s sociocultural theory emphasizes ’the role of culture in shaping individuals’ cognitive development. Pedagogical tolerance encourages educators to acknowledge and respect students' diverse cultural backgrounds and beliefs, fostering an environment that values the richness of diverse perspectives”.[1]

While, V.A.Tishkov’s believes that “the tolerance is a personal or social characteristic that implies the realization that the world and the social environment are multidimensional and, therefore, views on

[1]Vygotsky L.S. (1978). Mind in society. The development of higher psychological processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.

this world are different and cannot and should not be reduced to uniformity or in someone's favor"[1]. The author emphasizes that tolerance is expressed in the form of an internal attitude, in the relationship of an individual in a team, which is acquired through education, information, and life experience.

The concept of "pedagogical tolerance" was offered by P.Kolgomorov, in particular, it was noted that it involves mastering the skills and abilities of tolerant interaction and setting tolerance in the process of pedagogical activity in order to achieve the goals of tolerant development of the individual's personality (Kolmohorov, 2000). This type of tolerance is a professional personal quality of a teacher and one of the norms of his behavior, as well as an important component of pedagogical ethics.

The Significance of Pedagogical Tolerance in the Educational Process:

1. Creating Inclusivity. Pedagogical tolerance ensures that all students feel welcomed and respected, regardless of their race, ethnicity, religion, gender, or socio-economic status. An inclusive environment encourages students to engage actively in their learning, leading to improved academic performance and overall well-being.

2. Nurturing Empathy and Understanding. Through pedagogical tolerance, students learn to empathize with others' experiences and challenges. This heightened sense of understanding fosters positive relationships and reduces instances of discrimination, bullying and conflict.

3. Encouraging Critical Thinking. In a tolerant classroom, students are more likely to express their thoughts and opinions freely. This open exchange of ideas encourages critical thinking and the exploration of diverse perspectives, promoting a richer learning experience.

4. Enhancing Social Skills. Tolerance in education helps students develop strong interpersonal skills by collaborating with peers from different backgrounds. These enhanced social skills are invaluable in preparing students to thrive in a multicultural world.

Our theoretical and practical researches, the experience of other scholars and the analysis of the structure of tolerance allowed us to implement the pedagogical tolerance in practice:

Student Engagement. Teachers can encourage pedagogical tolerance by organizing classroom discussions, group activities, and projects that highlight the importance of understanding and embracing diversity. The concepts of pedagogical tolerance should be connected to real-life situations and current events. By discussing relevant examples, students can see the practical application of tolerance and understand its significance in society. Furthermore, events, celebrations, or projects should be organized that highlight and honor different cultures, languages, religions, and traditions. This fosters a sense of belonging, encourages students to share their unique experiences, and promotes understanding and acceptance among peers.

Addressing Bias. Educators must be vigilant in addressing any bias or discriminatory behavior that may arise in the classroom. This involves creating a safe space for students to express their concerns and learn from one another's experiences. Diverse voices, perspectives, and cultural references should be incurporated into teaching materials. Resources can be used that reflect a variety of backgrounds and experiences to provide a well-rounded education.

Measuring the impact of pedagogical tolerance can be challenging, but educators can track indicators such as improved student-teacher relationships, increased student engagement, and reduced instances of conflicts or discriminatory behavior. Moreover, academic performance and the development of social skills can be observed to assess the overall success of pedagogical tolerance implementation.

In conclusion, pedagogical tolerance plays a pivotal role in fostering an inclusive and supportive learning environment. By incorporating principles of tolerance and understanding into the educational process, educators can empower students to thrive academically, emotionally, and socially. As our society becomes increasingly diverse, embracing pedagogical tolerance becomes not only an ethical imperative but also a practical necessity for ensuring a brighter and more harmonious future.

[1] Tishkov V.A. Essays on the theory and politics of ethnicity in Russia. M., Institute of Ethnology and Anthropology of the Russian Academy of Sciences, 1997.

ILMIY AXBOROT

Achilov Abror Niyatqobilovich (Farg‘ona Politexnika instituti “Menejment” kafedrasi dotsenti; e-mail: niyatqobil@mail.ru),
Najmiddinova Muslima Azamat qizi (Farg‘ona Politexnika instituti 64-22M guruhi talabasi)

O‘ZBEKISTONDA KORXONA, TASHKILLOTLARNI XUSUSIYLASHTIRISH VA ISHLAB CHIQARISHNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekistonda real sektor korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish. Korxonalarni tubdan yangilash masalasi qo‘yilgan. Bugungi kunda mamlakatda 2819 ta davlat ishtirokidagi korxonalar mavjud. Ularning aksariyati eski usulda, samarasiz ishlagani sababli, hatto dividend to‘lay olmaydi. Shuningdek, korxonalarning yillar davomida modernizatsiya va rekonstruksiya ishlari amalga oshirilmagan. Xususiylashtirish tufayli korxonalarga beriladigan imkoniyatlari va rivojlantirish yo‘llari yoritib berilgan.*

Аннотация. *В статье рассмотрен вопрос выведения предприятий реального сектора Узбекистана из-под государственного контроля. Ставится вопрос о коренном обновлении предприятий. Сегодня в стране насчитывается 2819 государственных предприятий. Большинство из них не могут даже выплачивать дивиденды из-за своих старых, неэффективных методов работы. Более того, работы по модернизации и реконструкции предприятий не проводились годами. Выделены возможности и пути развития, предоставленные предприятиям благодаря приватизации.*

Annotation. *In the article, the enterprises of the real sector of Uzbekistan are taken out of state control. The question of a radical renewal of enterprises is being raised. Today there are 2819 state-owned enterprises in the country. Most of them can't even pay dividends because of their old, inefficient ways of working. Moreover, work on the modernization and reconstruction of enterprises has not been carried out for years. The opportunities and ways of development provided to enterprises due to privatization are highlighted.*

Kalin so‘zlar: *xususiylashtirish, neft va gaz sohasi, bozor iqtisodiyoti, xususiy mulkchilik, davlat mulki, ishlab chiqarishi, mahsulotlar, modernizatsiya, rekonstruksiya, xomashyo, ish o‘rinlari.*

Ключевые слова: *приватизация, нефтегазовая отрасль, рыночная экономика, частная собственность, государственная собственность, производство, продукция, модернизация, реконструкция, сырье, рабочие места.*

Key words: *privatization, oil and gas industry, market economy, private property, state property, production, products, modernization, reconstruction, raw materials, jobs.*

Kirish. O‘zbekistonda korxona va tashkilotlarni xususiylashtirishga dastlabki mustaqillik yillaridan buyon katta e’tibor qaratilmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonini keltirishimiz mumkin. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning “O‘zbek modeli”ga binoan, mamlakat va xalqning ijtimoiy, ma’naviy va madaniy tomonlari hisobga olingan holda, xususiylashtirish dasturi ishlab chiqarildi va tadbiq etilmoqda. Bundan tashqari, bozor iqtisodiyoti xususiy mulkchilikka asoslangan bo‘lib, har bir iste’molchi o‘z mulkiga nisbatan ehtiyotkorlikni oshiradi. Bu esa, o‘z navbatida, mulkning uzoq yillar davomida sifatli va samarali xizmat ko‘rsatishini ta’minlaydi.

O‘zbekistonda 1991-yil 19-noyabr sanasida qabul qilingan 425-XII sonli “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida”gi qonunga asoslangan holda, xususiylashtirish bo‘yicha ko‘plab jarayonlar amalga oshirilmoqda. Bunga misol tariqasida mamlakat hududidagi banklarning davlat tasarufidan chiqarilib, AJ (Aksiyadorlik jamiyat)lariga aylanishini keltirishimiz mumkin.

Tadqiqod mavzusining dolzarbligi shundaki, xususiylashtirishga oid yondashuvlarni tubdan yangilash, xalqaro ekspertlarni jalb etib, bu borada bozor iqtisodiyotiga xos va mos tizimga o‘tish zarurligini inobatga olish zarur. Xususiylashtirish va korporativ boshqaruv bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash hamda malakasini oshirish, davlat ishtirokidagi korxonalar rahbarlarini shu borada o‘qitish muhimligini qayd etishimiz kerak. Bu bilan bir qatorda, davlat tasarrufidagi zavodlarni xususiylashtirish ham asosiy o‘rinlarni egallamoqda. Bugungi kunda aynan shu omillarni qo‘llash vaqti yetdi.

Ilmiy muammoning qo‘yilishi. Farg‘ona hududida joylashgan, “O‘zneftmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasining sho‘ba korxonasi hisoblangan “Farg‘ona neftni qayta ishlash” zavodi ham bundan mustasno emas. Zavod 1959-yil 27-yanvar kunidan boshlab ishga tushirilgan bo‘lib, oktanli benzin, aviatexnik kerosin, dizel yonilg‘isi, kokos, turli xil motor va dizel moylari, paraffin kabi 56 dan ziyod mahsulot-

larni ishlab chiqaradi. Bunday mahsulotlarni ishlab chiqarishiga qaramasdan, korxona o‘z imkoniyatlarining faqatgina 50%dangina foydalanadi, xolos. Korxonaning o‘tgan 20 yil mobaynida modernizatsiya va rekonstruksiya ishlari amalga oshirilmagani hamda zavodning to‘liq ishlashi uchun asosiy xomashyoning O‘zbekiston hududida yetishmasligi va (COVID-19) pandemiyasi sababli korxona mahsulotlariga bo‘lgan talab keskin pasaydi.

Tadqiqod maqsadi. Neft va gaz sanoatining ahamiyati har bir mamlakatning iqtisodiy erkinligini ta’minlashda bosh o‘rinni egallaydi. Neft va gaz sanoatining xomashyo bazasi sifatida neft, gaz, uglevodorod, ko‘mir singari foydali qazilmalar sanaladi. Neft va gaz sanoati xomashyo bazasi boshqa sanoat tarmoqlariga qaraganda ko‘proq daromad keltiradi.

Shularni inobatga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-fevraldagi “Davlat aktivlarni xususiylashtirish jarayonlarini yanada jadallashtirish to‘g‘risida”gi PF-6167-sonli farmoniga muvofiq, “UzAssets” AJ, “FNQIZ” MCHJ ustav kapitalidagi 100 foiz ulushini oshkora sotuv jarayoni orqali sotish istagini e’lon qilgan edi.

Ilmiy mohiyati. Xorijiy korxonalarning tajribasini o‘rganish xususiylashtirish borasidagi yutuklari va kamchiliklarni inobatga olgan holda, diversifikatsiya qilish lozim. Neft va gaz sanoatining xomashyo bazasining tarkibi jahon iqtisodiyotida doimiy talab yuqori bo‘lgan resurslar sanaladi. Uning daromadliligini oshirish hozirgi kunda muhimliligini saqlab kelmoqda. Resurslarning mo’lligi aynan neft qazib olish resurslarining yuqori o‘sish sur’atini namoyon etuvchi mamlakatlarga nisbatan ishlatilgan bo‘lib, u aynan neft sohasiga nisbatan qaratilgan. Dunyoda tabiiy resurslarga boy mamlakatlarning eng yirik vakillari AQSH, Kanada, Avstraliya, Ispaniya, Fors ko‘rfazi mamlakatlari, Malayziya, Norvegiya, Livan, Rossiya singari davlatlar sanaladi.[1]

Qo‘llanilgan metodologiya. Tadqiqot ishida guruhlash, turkumlash, taqqoslash, induksiya, deduksiya, kuzatuv, statistik tahlil, monografik kuzatish o‘tkazish kabi usullardan keng foydalanildi.

Asosiy qism. «Davlat ishtirokini hech zarurat bo‘lmagan sohalarda ham saqlab turibmiz. Davlat korxonalarini boshqarish, faoliyati samarasini oshirish, ularning funksiyalarini xususiy sektorga berish bo‘yicha hali sezilarli o‘zgarishlar bo‘lmadi», dedi Shavkat Mirziyoyev.[2]

Xususiylashtirish bo‘yicha “KPMG Valuation and Consulting” konsultantning qabul qilingan takliflarni o‘rganish natijalari asosida tavsiyalarini inobatga olgan holda, mustaqil baholash natijalaridan yuqori bo‘lgan narx parametrlari hamda barcha belgilangan malaka me’zonlariga javob beradiga eng maqbul taklif tanlab olindi. Ushbu zavod “Sanoat Energetika Guruhi” (sobiq Jizzakh Petroleum) xorijiy kompaniyasiga 100 million AQSH dollariga sotildi. Kompaniya O‘zbekiston hududidagi neft va gaz sohasi bo‘yicha eng yirik xususiy korxona hisoblanadi.

“Sanoat Energetika Guruhi” kompaniyasining boshqa talabgorlaridan ustun jihati sifatida neft va gaz sanoatidagi katta tajribasi, zavod faoliyati uchun zarur bo‘lgan xomashyo konlarining mavjudligidir. Shu bilan bir qatorda, “Sanoat Energetika Guruhi” kompaniyasi zavodni modernizatsiya qilishga doir 380 million AQSH dollaridan ortiq investitsiya majburiyatlarni bajarishni o‘z zimmasiga oldi. Korxonada 6500 ishchi bo‘lganligi, bundan tashqari, “Davlat tasarrufidan chiqarish to‘g‘risida”gi qonuning 3-moddasiga binoan, 2 yil mobaynida korxonada mavjud ish o‘rinlarini va ishchilar sonini saqlab qolish, xodimlarning ish haqlarini bitim imzolash sanasidagi miqdordan kamaytirmaslik kabi ijtimoiy majburiyatlarni ham oldi.

Kompaniyaning zavod faoliyati uchun zarur bo‘lgan xomashyo konlarining mavjudligi va katta tajribasi tufayli mamlakat uchun ilgarigi holatga nisbatan ko‘plab foydalar keltiradi. Bular jumlasiga:

–zamonaviy va ekologik toza benzin;

–Yevro-5 talablariga javob beradigan dizel yonilg‘isi;

–Jet A-1 reaktiv yonilg‘isi;

–suyultirilgan tabiiy gaz ishlab chiqarishlarni ko‘paytirish.

–neft agregatlarini modernizatsiya qilish hamda ishlab chiqarish quvvatini kamida 2 millin tonnaga oshirish kabilar kiradi.

---

[1] Ваҳобов Ш.В Нефть ва газ саноатида ишлаб чиқаришни ресурслардан фойдаланиш усулларининг илмий-назарий асослари. “Экономика и социум”, №11(90), 2021.

[2] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 11 декабрь куни давлат иштирокидаги корхоналарни ислоҳ қилиш натижадорлиги ва бу йўналишдаги устувор вазифаларга бағишланган йиғилиши.

Xususiylashtirilgan neft korxonasi () rivojlantirish jahon talablari darajasidagi maxsulotlarni yaratishda quyidagi taklif va tavsiyalarga amal qilish kerak deb o‘ylaymiz:

LNG (suyultirilgan gaz bo‘lib, uni bosimsiz tashish ancha qulayligi bilan ajrilib turadi) mahsulotini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va texnologiyasini uchun investitsiyalar olib kirish;

–neft va gaznining boshqa manbalarni qidirish;

–neft va gazni qayta ishlash, neft kimyosi, gaz kimyosi kabi yangi bo‘limlarni korxonada tashkil qilish;

–yoqilg‘i quyish stansiyalari uchun uskunalar va texnologiyalarni jalb qilish;

–buzilmaydigan sinov (NDT), yangi ACS sinov uskunalarini sotib olish;

–neft va gaz sanoati uchun ITlarni keng joriy etish orqali neft xomashyosini to‘la ravishda chuqur qayta ishlashga erishish hamda korxona ishlab chiqarishini rivojlantirish mumkin.

Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna (O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, t.f.f.d. (PhD)

XX ASR OXIRI – XXI ASR BOSHLARI TARIXSHUNOSLIGIDA ELEKTRLASHTIRISH MASALASINING YORITILISHI

Annotatsiya. *Elektrlashtirish iqtisodiy va sanoat tarixining muhim bir qismi, tarixiy jarayoni sifatida tadqiqotchilar tomonidan faol o‘rganib kelinmoqda. O‘tgan asrning oxiri va asrimiz boshlarida yaratilgan ko‘plab ilmiy adabiyotlarda elektrlashtirishga doir ma’lumotlar mavjud bo‘lib, ular bevosita ijtimoiy-iqtisodiy tarix bilan bog‘liq holda mazmun-mohiyati o‘rganilgan. Mazkur maqolada ularni tarixshunoslik tahlili batafsil ochib berilgan.*

Аннотация. *Электрификация как важная часть экономической и промышленной истории и исторический процесс довольно интенсивно изучаются исследователями. Во многих научных литературах, созданных в конце прошлого и начале нынешнего века, содержатся сведения об электрификации, которые изучались непосредственно в связи с социально-экономической историей. В данной статье подробно раскрывается их историографический анализ.*

Annotation. *Electrification, as an important part of economic and industrial history and the historical process, is being studied quite intensively by researchers. Many scientific literatures created at the end of the last and the beginning of this century contain information about electrification, which were studied directly in connection with socio-economic history. This article details their historiographical analysis.*

Kalit so‘zlar: *tarixshunoslik, tadqiqot, elektr energetika, sanoat, xalq xo‘jaligi.*

Ключевые слова: *историография, исследования, электроэнергетика, промышленность, народное хозяйство.*

Key words: *historiography, research, electric power industry, industry, national economy.*

So‘nggi yillarda chop etilgan qator ilmiy ishlarda masalani oydinlashishi uchun mahalliy hamda xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ilmiy bahs va munozaralar hamon davom etayotganligini, uning yechimi turli jarayonlar (ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy) orqali atroflicha yoritilayotganligini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Mustaqillik yillarida chop etilgan ilmiy adabiyotlar o‘zida o‘lka tarixi, xususan, uning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini kengroq va xolislik, muammoga xalqimiz va mintaqa manfaati nuqtayi nazaridan yondashilganligi bilan alohida ajralib turadi.

N.U.Musayevning Turkistonning Rossiya imperiyasi mustamlakasi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy, kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari vujudga kelishiga bag‘ishlangan monografiyasida muallif arxiv ma’lumotlariga asoslangan holda, 1917-yili Turkistondagi (Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan birga) jami 1428 ta sanoat korxonasining 34 tasi elektrostansiyadan iborat ekanligini, yana bir asarida esa mustamlaka davri Kaspiyorti va Yettisuv viloyatlarining sanoat korxonalari haqidagi ma’lumotlar to‘liq yetib kelmaganligi hamda turli manbalar, statistik sharhlarga tayanib, 1915-yilga qadar o‘lkada jami 45 ta elektr stansiyasi faoliyat ko‘rsatganligini yozadi.[1]

O‘zbekistonning yangi tarixi markazi tomonidan tayyorlanib, chop etilgan ishlarda Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi va sovet davrida Turkistonning iqtisodiy tarixi yoritilgan bo‘lib, sanoatga tegishli

[1]Мусаев Н.У. Туркистонда капиталистик ишлаб чиқариш муносабатларининг вужудга келиши (XIX асрнинг охири ва XX асрнинг бошлари). Тошкент, 1995, 89-бет; Ўша муаллиф. XIX асрнинг II ярми – XX аср бошларида Туркистонда саноат ишлаб чиқаришининг шаклланиши. Тошкент, “Iqtisodiyot-moliya”, 2008,. 103-бет.

ma’lumotlar ham uchraydi.[1] Jumladan, 1-kitobda sanoat ishlab chiqarishning sotsialistik sektorida yetakchi bo‘lgan “NEP yo‘nalishi” sanoatda va korxonalarda qat’iy rejalashtirishni va xo‘jalik hisobini joriy etish asosida boshqaruvni keng miqyosda qayta qurishga qaratildi, u so‘m bilan nazorat qilishni va ishlab chiqarish demokratiyasini bir qadar kengaytirishni ta’minlashi ta’kidlangan.[2]

C.Xolboyevning Turkiston Xalq universiteti (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti)ning tashkil topishiga oid monografiyasida texnika fakulteti va unda kadrlar tayyorlash masalasi qisman kelirilgan, 1918-yilning 11-aprelida universitet texnika fakultetining birinchi yig‘ilishi o‘tkazilib, “shu tariqa, rus yoki ruscha so‘zlashuvchilarni o‘z bag‘riga olgan Turkiston Xalq universitetining tabiiy, matematika va texnika fakultetlarida 9 maydan dars mashg‘ulotlari boshlanib ketdi”, deb yozadi muallif.[3]

Shuningdek, taniqli adabiyotshunos olim Sh.Turdiyevning “Ular Germaniyada o‘qigan edilar” nomli hamda tadqiqotchi B.Irzayevning “O‘zbek yoshlari va xorijiy ta’lim” kitoblarida o‘tgan asrning 20-yillari boshlarida Germaniyaga o‘qishga yuborilganlar orasida To‘lagan Mo‘min va Sultonbek Matqul kabi mahalliy yoshlar bo‘lgani va ular, keyinchalik, O‘zbekistonda elektrlashtirish sohasi bo‘yicha ishlayotgan mahalliy ishchi kadrlarni tarbiyalash, respublikada elektrotexnika tarmoqlarini rivojlantirish, elektr quvvatidan sanoat obyektlarida ratsional foydalanish hamda elektr tizimini zamonaviy ilm asosida boshqarish ishlariga rahbarlik qilganliklari, 1938-yilda esa qatag‘on qurboni bo‘lganliklari arxiv hujjatlari va jonli xotiralar asosida batafsil yoritilgan.[4]

Turkistonda ASSRda sanoat, “asosan, birinchi galda, paxtani qayta ishlaydigan korxonalar va xomashyo tayyorlashga alohida e’tibor qaratilgan”ligi mualliflar jamoasi tomonidan chop etilgan kitobda (2019) ham o‘z aksini topgan.[5]

Rossiyalik arxivchi B.I.Kozlov o‘z maqolasida kadrlar masalasi sanoat va elektrlashtirish sohasida yosh sovet davlatining 20-yillarda olib borgan siyosatida ancha og‘riqli kechganligi, RKP(b) rahbariyati tomonidan podsho davridagi taniqli texniklarga ishonchsizlik, ularning qatag‘on etilishi va bularning mamlakat texnik salohiyatga salbiy ta’sirini ochib bergan.[6]

So‘nggi yillarda Rossiyada chop etilgan boshqa qator ishlarda imperiya, qolaversa, Turkistonni elektrlashtirish tarixiga doir qimmatli materiallar berilgan bo‘lib, ularda ham avval ma’lum bo‘lmagan yangi tarixiy dalillarga asoslanganligi, masalaga jahon elektrlashtirish taraqqiyoti konteksti asosida yondashuvning ustunligi bilan ajralib turadi.[7]

---

[1] Ўзбекистоннинг янги тарихи. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. 1-китоб, Тошкент, “Шарқ”, 2000, 464 бет; Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. 2-китоб, Т., “Шарқ”, 2000, 688 бет.

[2] Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб, Тошкент, “Шарқ”, 2000, 188 бет.

[3] Холбоев С. Миллий университетнинг тарихий илдизлари ва ташкил топиши. Т., “Шарқ”, 2003, 70-бет.

[4] Турдиев Ш. Улар Германияда ўқиган эдилар. Тошкент, 2006, 82–96-бетлар; Ирзаев Б. Ўзбек ёшлари ва хорижий таълим. Тошкент, Академнашр, 2018, 144 – 145-бетлар.

[5] Ўзбекистон тарихи (1917–1991 йиллар). Ўзбекистон 1917–1939 йилларда. 1-китоб, масъул муҳаррирлар Р. Абдуллаев, М.Раҳимов, Қ.Ражабов. Т., «O‘zbekiston», 2019, 570 бет.

[6] Козлов Б.И. Вклад Академии наук в индустриализацию России. Вестник Российской Академии наук, М., 2000, т. 40, № 12, с. 1060.

[7] Гвоздецкий В.Л. План ГОЭЛРО. Мифы и реальность. «Наука и жизнь», 2005, № 5; Его же. План ГОЭЛРО – стратегическая программа социально-экономического и научно-технического развития Советского государства.https://www.portal-slovo.ru; Его же: К 95-летию плана ГОЭЛРО: исторические реалии и сложившиеся трактовки. Институт истории естествознания и техники им. С.И.Вавилова. Годичная научная конференция (2016). М., ИИЕТ РАН, 2016, с. 33–40; Бурдин Е.А. Гидроэнергетика в плане ГОЭЛРО (1920–1935). Вестник УлГТУ, Ульяновск, 2010, №1, с. 17 – 20; Мезенцев С.Д. Проблемы территориального планирования и градостроительства: социально-философский аспект. Вестник МГСУ, Москва, 2014, № 6, с. 17–26; Симонов Н.С. Развитие электроэнергетики Российской империи: предыстория ГОЭЛРО. М., Русский фонд содействия образованию и науке, 2016, с. 320; Его же. Начало электроэнергетики Российской Империи и СССР, как проблема техноценоза. М., “Инфра-Инженерия», 2017, с. 640; Марков Н.В. План ГОЭЛРО в оценках современников. Документ в современном обществе: между прошлым и будущим: тезисы X Всероссийской студенческой научно-практической конференции. Екатеринбург, изд-во Урал. ун-та, 2017, с. 344–348; Никифорова Н.В. Лампочка и символические аспекты в пропаганде электрификации. «Общество. Среда. Развитие», Санкт-Петербург, 2017, № 4, с. 102–109; Щербинин Н.Д. Электрификация России в конце XIX в. как пример внедрения инновационных технологий. Институт истории естествознания и техники им. С.И.Вавилова. Годичная научная конференция (2018), М., ИИЕТ РАН, 2018. с. 277–280; Соловьева Т.В. Проблема авторства

Ishda mustaqillik yillarida himoya qilingan hamda Turkiston o‘lkasining sanoat tarixi tahlil etilgan qator dissertatsiya tadqiqotlari ham ko‘rib chiqildi. Xususan, N.A.Abdurahimovaning doktorlik dissertatsiyasida XIX asrning ikkinchi yarmida erkin iqtisodiy rivojlanish va sanoat sivilizatsiyasi bilan tanishishga yo‘naltirilgan texnik o‘zgarishlar metropoliyaning o‘zida ham ijtimoiy kuchsizligidan, bu jarayonlar Turkistonda juda sust kechganligi ta’kidlangan.[1]

R.N.Tursunovning nomzodlik dissertatsiyasida XX asrning boshida Turkistondagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga jadidlarning qarashlari tadqiq etilgan bo‘lib, tadqiqotchi fan va texnikaning tez rivojlanishi hamda sanoat ishlab chiqarishida yangi texnologiyalarning joriy etilishidan o‘zlarini zamona yetakchilari deb hisoblashgan o‘lka jadidlari ham chetda turmaganliklarini qayd etib o‘tgan.[2]

Turkistonning XIX asr oxiri–XX asr birinchi choragidagi ijtimoiy-iqtisodiy tarixiga bag‘ishlangan boshqa bir qator ilmiy tadqiqotlarda o‘lka sanoati va texnik holatining quyi pog‘onalarda bo‘lganligi, mustamlaka va sovet boshqaruvining asosiy e’tibori qishloq xo‘jaligidan olinadigan xomashyo zaxiralariga qaratilganligi atroflicha tahlil etilgan. Xususan, S.B.Shodmonovaning doktorlik dissertatsiyasida esa Rossiya imperiyasidagi sanoat korxonalarining soni va texnik jihozlanganligi bo‘yicha Yevropa mamlakatlari va AQSHdan ortda qolganligi, bu ham uning Turkistonning mustamlakachilik holatiga ta’sir etmay qolmagani ochib berilgan.[3]

Tadqiqotchi K.A.To‘xtabekov nomzodlik dissertatsiyasida Rossiya imperiyasining Birinchi jahon urushi yillarida Turkiston o‘lkasida o‘tkazgan iqtisodiy siyosatining mustamlakachilik mohiyatini tadqiq etgan bo‘lib, “mustamlaka ma’muriyati Turkistonda ishlab chiqarish sanoati rivojiga turli xil sun’iy to‘siqlar qo‘yib, bor kuchi bilan o‘lkada paxtachilikni rivojlantirishga harakat qilgan”ligi qayd etilgan.[4]

Tadqiqot mavzusining davriy chegarasiga bog‘liq M.M.Haydarovning doktorlik dissertatsiyasida Yangi iqtisodiy siyosat uzoq davom etmagan bo‘lsa ham, iqtisodiy o‘sish kuzatilgani, mohiyatan yangi sanoat korxonalari ishga tushganligi bayon etilgan.[5]

N.B.Mahmudovaning tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasida senator K.K. Palen taftish komissiyasi ma’lumotlari asosida o‘lkada paxta ekin maydonlarining miqdori muttasil oshib borganligi, sanoatga kam e’tibor qaratilganligi bayon etilgan.[6]

Mustaqillik yillarida yaratilgan asarlar, himoya qilingan qator dissertatsiya tadqiqotlaridagi ma’lumotlar qiyosiy taqqoslangan, asosli xulosalarga ega, muammoga haqqoniylik tamoyilidan kelib chiqqan holda yondashuvning ustunligi bilan ajralib turadi.

Ismailov Shuhrat Atamurodovich (O‘zMU tayanch doktoranti)

XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLARNI IJTIMOIY HIMOYA QILISH TIZIMI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish tizimi hamda ijtimoiy himoya masalasi odil fuqarolik jamiyatini barpo etayotgan mamlakatimizning bugungi kundagi muhim vazifalaridan biri ekanligi haqida fikrlar keltirilgan.*

Плана ГОЭЛРО. Документ. Архив. История. Современность: Материалы VII Всероссийской научно-практической конференции. Екатеринбург, изд-во Урал. ун-та, 2018, с. 512–519; Еряшева М.С. План ГОЭЛРО как успешный проект: факторы реализации. Документ. Архив. История. Современность: Материалы VII Всероссийской научно-практической конференции. Екатеринбург, изд-во Урал. ун-та, 2018, с. 395-404.

[1] Абдурахимова Н.А. Колониальная система власти в Туркестане (вторая половина XIX–начало XX вв.). Автореф. дис... д-ра ист. наук, Ташкент, Институт истории АН РУз, 1994, с. 59.

[2] Турсунов Р.Н. Воззрения национальных прогрессистов на социально-экономических процессы в Туркестане в начале XX века. Автореф. дис... канд. ист. наук, Ташкент, Институт истории АН РУз, 2008, с. 18.

[3] Шадманова С.Б. Вопросы социально-экономического и культурного положения Туркестана на страницах периодической печати (1870–1917 гг.). Автореф. дис... д-ра ист. наук, Ташкент, Институт истории АН РУз, 2011, с. 30.

[4] Тўхтабеков К.А. Чор Россиясининг Биринчи жаҳон уруши йилларида Туркистон ўлкасида ўтказган иқтисодий сиёсатининг мустамлакачилик моҳияти. Тарих фан. номзоди дис... автореферати, Тошкент, ЎзМУ, 2011, 22 бет.

[5] Ҳайдаров М.М. Ўзбекистонда совет давлати бошқарув тизимининг шаклланиши, босқичлари ва моҳияти (1917–1941 йиллар). Тарих фан. доктори (DSc) дис... автореферати, Ташкент, ЎзМУ, 2018, 24-бет.

[6] Маҳмудова Н.Б. XX аср бошида мустамлака Туркистонда маъмурий бошқарув, ижтимоий-иқтисодий ва маданий жараёнларнинг ривожланиши (сенатор К.К. Пален ревизияси материаллари асосида). Тарих фан. фалсафа доктори (PhD) дис... автореферати, Ташкент, ЎзМУ, 2018.

Аннотация. *В данной статье система социальной защиты инвалидов и вопрос социальной защиты являются одной из важных задач нашей страны, строящей справедливое гражданское общество.*

Annotation. *In this article, the system of social protection of disabled persons and the issue of social protection are one of the important tasks of our country, which is building just a civil society.*

Kalit so‘zlar: *imkoniyati cheklangan bolalar, psixologik holatlar, ijtimoiy muhofaza omillari.*

Ключевые слова: *дети с ограниченными возможностями здоровья, психологические состояния, факторы социальной защиты.*

Key words: *children with disabilities, psychological conditions, social protection factors.*

“Nogiron” atamasi hozirgi kunda eskirib qolgan va qo‘pol bo‘lgan so‘z hisoblanadi. Shuning uchun ham bunday shaxslarga nisbatan “imkoniyati cheklangan insonlar“ yoki ”nogironligi bo‘lgan shaxslar” deb murojaat qilish to‘g‘ri bo‘ladi.

Hozirgi kunda ko‘plab davlatlar qatori, O‘zbekistonda ham imkoniyati cheklangan bolalarning ta’lim va tarbiya olishlari, tibbiy muolajalar olib borishlari uchun imkoniyatlar yaratib kelinmoqda va bunday insonlar va bolalarning haq-huquqlari qonun hujjatlari bilan mustahkamlab qo‘yilgan va himoya qilinmoqda. BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyaning xalqaro standartlari, shuningdek, “nogiron” so‘zi o‘rniga “nogironligi bo‘lgan shaxs” atamasidan foydalanishni nazarda tutuvchi “Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risida”gi qonun yurtimizda yuqoridagi toifaga mansub shaxslarning huquq va manfaatlarini ifodalashga xizmat qiladi.[1]

Oramizda shunday insonlar borki, ularning jismoniy imkoniyati cheklangan, lekin ma’naviyati yuksak, ruhi esa juda kuchli va matonatli. Afsuski, nogironligi bo‘lgan shaxslar, ko‘pincha, ishlash, ta’lim darajasini oshirish va jamiyat hayotida to‘laqonli ishtirok etish imkoniyatidan mahrum bo‘ladilar. Hozirgi paytda ularning soni jahon miqyosida, taxminan, 1 milliard nafarni tashkil etadi. Aksariyat hollarda ular kamsitish va “qo‘li kaltalik”dan aziyat chekadilar. Albatta, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasidagi eng katta mas’uliyat davlat zimmasiga tushadi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi tomonidan BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasini 2009-yil 27-fevralda imzolagan, biroq uni ratifikatsiya qilish masalasi hal etilmagan edi. Davlat rahbarining 2017-yil 1-dekabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[2] farmonida ushbu masala ilgari surilib, imkoniyati cheklangan shaxslar huquqlarini xalqaro normalarga muvofiqlashtirish, alohida qonun qabul qilish lozimligi ta’kidlangan edi.

Bugungi kunda dunyoning ko‘pchilik mamlakatlarida aholining keksayishi jarayonining rivojlanishi qariyalaming ijtimoiy muhofazasiga alohida e’tibor qaratishni taqozo etmoqda. Bunga misol tariqasida Yevropa mamlakatlarini keltirish mumkin. Yevropaning ko‘pchilik rivojlangan mamlakatlari ikkinchi jahon urushidan keyin bu jarayonga yuz tutganligi bois yolg‘iz keksa va nogironlarni qo‘llab-quvatlashning ijtimoiy ta’minot dasturlari ishlab chiqdi va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning maxsus tizimlari yaratildi. Chunonchi, Buyuk Britaniyada keksa va nogironlarga ijtimoiy tibbiy yordam ko‘rsatuvchi muassasalar sifatida poliklinikalar, shifoxonalar, qariyalar uylari, davlat va xususiy sektordagi hamshira parvarishlash uylari, nogironlar uylari, nogiron va ruhiy kasalga chalingan kishilar uchun mehmonxona tipidagi yotoqxonalar faoliyat ko‘rsatadi.[3] Keksa va nogironlarga yordam ko‘rsatuvchi ijtimoiy xodimlar, umumiy amaliyot vrachi, gerontolog, patronaj hamshirasi, psixolog, klinika vrachi, tuman tibbiyot hamshiralaridan tashkil etilgan guruhlar keng tarqalgan. Bu guruhlar o‘z faoliyatida har bir holatga alohida yondashib, uni har tomonlama va chuqur o‘rgangan holda, mijozga uning ehtiyoji e’tiborga olingan shaxsiy reja asosida yordam ko‘rsatadi. Shuningdek, mijozning ijtimoiy va ruhiy zaiflik darajasini aniqlash maqsadida uning axloqiy tavsifi ham o‘rganiladi. Buyuk Britaniyada yolg‘iz keksa va nogironlarga tibbiy-ijtimoiy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha asosiy mas’uliyat mahalliy hokimiyatga yuklatilgan bo‘lib, moliyaviy mablag‘ning katta qismini ham u ajratadi. Mamlakatda tibbiy yordam sohasida umumiy amaliyot

[1]Abdurahmonov K.X., Tohirova X.T., Sharipov B.M. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish. O‘quv qo‘llanma, T., 2006, 42-bet.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 01.12.2017-yildagi PF-5270-sonli “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

[3] Nargiza Shayusupova Turg‘unovna, Nurali Arabov Uralovich, Dilmurod Nasimov Abdullayevich. Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy himoya (o‘quv qo‘llanma). “Iqtisodiyot”, 308 bet.

vrachi faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida “hamshiralik ishi menejeri” lavozimi ta’sis etilgan.[1] Bu mutaxassis yordam ko‘rsatish jarayonini muvofiqlashtiradi va zarur xizmatlar bo‘yicha maslahatlar beradi.

Fransiyada yolg‘iz keksalar oila homiyligiga olingan, Boltiq bo‘yi mamlakatlari: Litva, Latviya va Estoniyada esa yolg‘iz qariyalarga uy sharoitida yordamning patronaj xizmati rivojlangan. Shuningdek, bu mamlakatlarda maxsus tayyorlangan ijtimoiy xodimlar yolg‘iz keksa bemorlarga kerakli tovarlarni xarid qilishda, ovqat tayyorlashda, xonalarni yig‘ishtirishda yordam beradi, ular bilan birga mutolaa qiladi va suhbatdosh bo‘ladi. Maltada qariyalarni ijtimoiy qo‘llab-quvatlashning oilaviy shakli rivojlangan.[2] Bundan 50 yil oldin mamlakatda ko‘pchilik oilalar kengaytirilgan tipga tegishli edi. Hozirgi kunda oilaning bunday shakli qishloq joylarida keng tarqalgan. Bu yerda nikoh qurish an’anasiga ko‘ra, yosh oilalar. odatda. ota-onalari bilan qo‘shni yashaydi. Bu esa, o‘z navbatida, keksalarga oilaviy yordamning ko‘p bo‘lishini bildiradi. Maltada davlat qariyalarni boqish uchun asosiy xizmatni ta’minlovchi hisoblanadi. Mamlakatda 1987-yilda keksa kishilarning muammolari bilan shug‘ullanuvchi departament tuzilgan. Departament jamiyatdan ajralmagan holda qariyalarga quyidagi qator xizmatlarni taqdim etadi:

– kunduzgi muloqotda bo‘lish markazlari;

– qariyalarga ijtimoiy yolg‘izlikdan xalos bo‘lishda yordam beradi;

– uy sharoitida yordam ko‘rsatish, ovqat tayyorlash, xarid qilish, uy tozalash va idish yuvish, dorixonaga borib kelish;

– usta xizmati;

– uyda ta’mirlash xizmatlarini taqdim etadi;

– tibbiy xizmat ko‘rsatish – bu xizmat, odatda, xususiy muassasalarda, qisman MMDNA tibbiyot hamshirasi assosiatsiyasida ko‘rsatiladi;

– “Kartanjan” xizmati – qariyalarga turli xizmat va tovarlar haqini to‘lash uchun diskont kartalar taqdim etadi;

– vaqtinchalik parvarish qilish – qariyaning qarindoshlarini ma’lum muddatga biror yoqqa chiqishiga zarurat tug‘ilganda, uning “St Vincent de Paule” qariyalar uyida yoki xususiy muassasalarda vaqtinchalik turishini ta’minlashni o‘z ichiga oladi.

Hindistonda keksa erkaklarni parvarish qiluvchi 20 ta, keksa ayollarga xizmat qiluvchi 68 ta, keksa erkak va ayollami parvarish qiluvchi aralash tipdagi 230 ta markaz faoliyat ko‘rsatadi. Mamlakatda qariyalar uchun qurilgan jami uylarning 46 foizi barcha qariyalar uchun, 35 foizi faqat muhtojlar uchun, 11 foizi nochorlar uchun, qolgan 8 foizi esa kasal va nogironlar uchun mo‘ljallangan. Qariyalar uylarining 66,5 foizida bepul, qolganlarida esa kirish badallari hisobidan xizmat ko‘rsatiladi. Jahon mamlakatlarida yolg‘iz keksalar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilish tajribalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, har qanday mamlakat ijtimoiy himoya qilish tizimini rivojlantirish orqali aholi bu guruhining ijtimoiy muammolarini hal etish imkoniyatiga ega bo‘lgan.

Fikrimizcha, O‘zbekistonda xorij tajribasidan foydalanib, chunonchi:

– Buyuk Britaniya tajribasida ko‘rilgan “Ijtimoiy xodim”, “Patronaj hamshirasi” singari mutaxassis kadrlarni tibbiyot kollejlarida, “Gerontologiya” ixtisosligi bo‘yicha kadrlarni oliy o‘quv yurtlarida tayyorlashni amaliyotga kiritish va shu bilan bog‘liq holda, davlat ta’lim standartlariga o‘zgartirishlar kiritish;

– Latviya, Litva va Estoniya tajribasi asosida respublikamizning shahar, qishloq va ovullarida yashovchi yolg‘iz keksa va nogironlarga uy sharoitida xizmat ko‘rsatuvchi tibbiy-ijtimoiy yordam patronaj brigadalarini tashkil etish va ularning faoliyatlarini yo‘lga qo‘yish;

– Fransiya tajribasi bo‘yicha yolg‘iz keksalarni oila homiyligiga olish tizimini kengaytirish;

– Yaponiya tajribasiga tayangan holda keksalarga qarashda oilaga vaqtincha yordam beruvchi kunduzgi statsionarlar tashkil qilish;

– Hindiston tajribasidan kelib chiqib, respublikamizda mavjud “Nuroniy” jamg‘armasi qatori “Qariyalarga yordam”, “Qariyalarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish” jamiyati, shuningdek, “Baxtli keksalik” singari jamg‘armalarni tashkil etish maqsadga muvofiq.

[1] Шодиев Ж.Ж. Мамлакатимизда инсон қадрини юксалтиришнинг ижтимоий-фалсафий масалалари. “ҚарДУ хабарлари», илмий-назарий, услубий журнал, махсус сон (ижтимоий фанлар).

[2] Abdurahmonov K.X., Tohirova X.T., Sharipov B.M. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish. O‘quv qo‘llanma, T., 2006, 142-bet.

Umuman olganda, bugungi kunda ta’lim muassasalarida va boshqa tashkilotlarda ham xuddi xorij tajribasiga muvofiq tarzda imkoniyati cheklangan bolalarga g‘amxo‘rlik qilish ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Sobirova Nasiba Erkinjonovna (Samarqand davlat Chet tillar instituti
Ingliz filologiyasi o‘qituvchisi; e-mail: fe.nasiba.s@gmail.com)

TAHDID AKTINING PRAGMATIK VAZIFALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tahdid faktorlarining pragmatik sabablari tahlili keng yoritilgan, ya’ni, tahdidning pragmatik ifodalanishi birinchi o‘rinda vaziyatlar, voqea-hodisalar jarayonida yuzaga keladigan konflikt hamda ushbu konfliktga sabab bo‘ladigan emotsional holatga bog‘liq bo‘ladi. Albatta, shu o‘rinda turli ijtimoiy muhit ham tahdidning muhim pragmatik omili sifatida qaraladi.*

Аннотация*. В данной статье широко освещается анализ прагматических причин факторов угрозы, то есть прагматическое выражение угрозы зависит прежде всего от конфликта, возникающего в ходе ситуаций, событий, и эмоционального состояния, вызывающего это конфликт. Безусловно, иная социальная среда также рассматривается как важный прагматический фактор угрозы.*

Annotation*. In this article, the analysis of the pragmatic causes of threat factors is widely covered, that is, the pragmatic expression of the threat depends primarily on the conflict that occurs in the course of situations, events, and the emotional state that causes this conflict. Of course, different social environment is also considered as an important pragmatic factor of threat.*

Kalit so‘zlar: *tahdid akti, emotsional holat, emotsional kauzatsiya, pragmatik sabablar, konflikt.*

Ключевые слова*: акт угрозы, эмоциональное состояние, эмоциональная обусловленность, прагматические причины, конфликт.*

Key words: *act of threat, emotional state, emotional causation, pragmatic reasons, conflict.*

Kirish. Aniq maqsadga ega bo‘lgan, “so‘zlovchi o‘zi aytgan narsani aniq va to‘g‘ridan to‘g‘ri anglatsa”, nutqiy aktlar nazariyasida to‘g‘ridan to‘g‘ri nutqiy harakat deyiladi. Agar nutqiy aktda so‘zlovchi “ham to‘g‘ridan to‘g‘ri ma’noni ham, bundan tashqari, ko‘proq narsani bildirsa”,[1] bunday nutqiy harakat bilvosita nutqiy akt sifatida tavsiflanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shunday qilib, nutqiy aktlarning bevosita va bilvosita bo‘linishi nutq aktining tasviriy kuchini tushuntirish darajasiga qarab amalga oshiriladi. To‘g‘ridan to‘g‘ri nutq harakatlarining illokutsion xususiyatini ifodalash vositasi – bajaruvchi formula (shaxs olmoshi 1-shaxs+1 shaxsga birikadigan fe’l, birlik hozirgi, indikativ) bo‘lib, bu ifodalovchi vazifa va bajaruvchi fe’l o‘rtasidagi bir qiymatli moslikni ko‘rsatadi.[2] Odatda, gapning yashirin mazmuni uni ifodalash uchun maxsus vositalarga ega bo‘lmaganda, uning ma’nosi nutqning mazmunidan, nutqning umumiy holatidan yoki muloqot ishtirokchilarining umumiy ma’lumotidan kelib chiqadi.

Illokutsion kuch lokatsion aktdan ko‘ra ko‘proq ma’lumotni o‘z ichiga olishi mumkin, shuning uchun nutqning semantikasi faqat cheklaydi, lekin uni tugatmaydi. Shu bilan birga, so‘zlovchi bayonotga faqat shaklning semantik mazmuniga zid bo‘lmagan o‘sha tasviriy kuchni berishi mumkin. To‘g‘ridan-to‘g‘ri nutq aktlarida bayonotning semantikasi pragmatik komponent bilan mos keladi, bilvosita ular farqlanadi.

Turli mualliflarning lingvistik tadqiqotlarida jumlalarning turli kommunikativ funksiyalarni bajarish xususiyati bir necha bor ta’kidlangan. Demak, so‘roq gaplarning[3] buyruq vazifasida yoki so‘rov vazifasida qo‘llanishi qayd etilgan.[4] Til tuzilishi va kommunikativ maqsad o‘rtasidagi bunday nomuvofiqlik iboraning mavjudligidan dalolat beradi, deb ishoniladi. Nutq aktlarining lingvistik xususiyatini ko‘rib chiqish uchun uning aniq va yashirin ma’nolari faollashuviga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi.

Tahdid nutqiy aktini talqin qilishda M.G.Bezyayeva tomonidan berilgan “Tahdid so‘zlovchining tinglovchi (yoki uchinchi shaxs) uchun nomaqbul harakatni amalga oshirish istagi haqida ogohlantirishdir, agar u mavjud bo‘lsa. ma’ruzachi uchun nomaqbul narsani qilgan, qilgan, qilgan yoki davom ettirgan yoki uchinchi shaxs biron-bir harakatni bajarmagan, so‘zlovchi uchun kerakli harakatni bajarishni xohla-

[1] Серль Дж.Р. Что такое речевой акт? Новое в зарубежной лингвистике. М., 1986, вып. 17, с. 195.
[2] Долинин К.А. Имплицитное содержание высказывания. “Вопросы языкознания”, 1983, № 6, с. 40.
[3] Почепцов Г.Г. Фатическая метакоммуникация. Семантика и прагматика синтаксических единств. Сб. науч. тр. Калинин, 1981, с. 52 – 59.
[4] Дементьев В.В. Непрямая коммуникация. М., 2006.

maydi yoki davom ettirishni istamaydi (kamroq – uchinchi shaxs), bu, odatda, so‘zlovchining faol emotsional holatida amalga oshiriladi”,[1] degan ta’rifiga tayanamiz.

Tahdidga tinglovchining ikkinchi yoki uchinchi shaxs tomonidan amalga oshirilgan nomaqbul harakatlariga nisbatan keskin reaksiya sifatida ta’rif berishimiz mumkin. Natijada tahdid, ko‘pincha, replika-reaksiya sifatida namoyon bo‘ladi. Odatda, bu istak ifodasi, suhbatdoshning nomaqbul harakatni amalga oshirish yoki davom ettirish niyati, chaqiruv, amalga oshirishni rad etishdan oldin bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Nutq tahdid aktining o‘ziga xosligi shundan iboratki, tahdid so‘zlovchi nutqining maqsad qo‘yilishi tahdid qilish fe’li yordamida bevosita ifodalanmaydi. Z.Vendlerning fikricha, bu fe’l kvazi-ijro etuvchi tarkibga ega bo‘lib, uning semantikasida buzg‘unchi omil[2] bor bo‘lganda yuzaga keladi.

Shunday qilib, tahdid nutq aktini ifodalashning eng tipik quyidagi modellarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) aniq talab+(a) boshqa narsa+aniq yoki yashirin harakat-jazo;

2) yashirin talab (keyin)+salbiy oqibatlar va’dasi;

3) bilvosita yoki aniq ifodalangan talab(lar)+salbiy oqibatlarni va’da qilish.

Tahdidning yuzaga kelishida emotsional-psixologik jarayonlar muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Tahdid faktorlarining pragmatik sabablarining tahlili ikki xil ekstarlingvistik faktorlarning yuzaga kelishini ko‘rsatadi:

1) subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar;

2) subyektlar o‘rtasidagi munosabatda ijtimoy masofaning yuzaga kelishi. Subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar vaziyat qatnashuvchilarining emotsional holatiga, ularning munosabatidagi konfliktning yuzaga kelishidagi omillarga bog‘liq hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Tahdid subyektlar o‘rtasida turli emotsional vaziyatlarning tasvirlanishi yoki emotsional holatning salbiy tomonga qaratilgan xususiyati sifatida baholanadi. Tahdid vaziyatlarning tasvirida uch boqichli jarayon bilan bog‘liq bo‘ladi. Birinchi jarayon subyektlar o‘rtaidagi konfliktning yuzaga kelishi. Konflikt voqea-hodisaning vaziyat momentida yuzaga kelishi mumkin, shuningdek, vaqt jarayonida to‘planilgan raqibga nisbatan ichki salbiy emotsional tuyg‘uning yuzaga chiqishi, subyektlarning iqtisodiy-ijtimoy kelishmovchiligi kabi bir necha omillarni qamrab oladi. Ikkinchi jarayon subyektlar o‘rtasidagi konflikt verbal ko‘rinishga ega bo‘lishi, ya’ni, subyektlarda emotsional tahdid holatlarining yuzaga chiqishi: subyekning yuz ifodasining o‘zgarishi, tahdid so‘zlar va iboralarning qo‘llanilishi, ifoda planiga ko‘chishi, tana harakatlarida tahdidga moyillikning oshishi bilan ifodalanadi. Uchinchi bosqichda esa to‘planilgan nafrat, g‘azab va shu kabi salbiy emotsional xususiyatlarning aktlarga ko‘chishi, kulminatsion vaziyatning yuzaga kelishi hamda agressiv harakatlarning boshlanishi hisoblanadi. Ko‘rinib turibdiki, tahdid xatti-harakatlar, o‘z navbatida, ma’lum biri jarayon, voqea-hodisalar rivojining kulminatsion nuqtasida hosil bo‘ladi.

Kommunikativ vaziyatdagi ijtimoiy-psixologik munosabatdagi tahdid holatlarining pragmatik sabablari quyidagicha ko‘rinish olishi mumkin.

Ijtimoiy-psixologik holatga bog‘liqlik jihati tahdid holatidan yiroqroqda bo‘lishi (1): It was not his fault; it was simply the way life was lived part of the general horror of the established order (ph).

Tahlil jarayoni shuni ko‘rsatadiki, tahdid vaziyat, tahdid holatlarning ifodalanishi subyekt va kommunikantlarning emotsional holati bilan bog‘liq bo‘ladi. Emotsional holatning salbiy ko‘rinishga kelishi tahdid vaziyatlarning rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Tahdid, birinchi navbatda, nutqga ko‘chsa, ikkinchi navbatda, subyektning xatti-harakatlari orqali namayon bo‘la boshlaydi. Keyingi jarayon esa tahdidni ifodalovchi so‘zlarning qo‘llanilishi va so‘ngra tana harakatlariga o‘tadi. Bu hol tahdidning kulminatsion nuqtasi hisoblanadi. Albatta, tahdid jarayon har doim ham bir xil ko‘rinishda rivojlanmaydi. Jarayonnning tahdid tasodifan yoki kutilmaganda yuzaga kelishi kommunikantlarning emotsional holati, psixologik holati, xarakteriga ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Har qanday tahdidning yuzaga kelishida sabab yotadi. Sabab ma’lum vaqt oralig‘ida to‘planilgan hissiyotlarning yuzaga chiqishi, shuningdek, subyektning raqibiga nisbatan dominantlik qilish maqsadidagi xatti-harakatlari bilan bog‘liq jarayon sifatida ham aks etishi mumkin.

---

[1] Безяева М.Г. Семантика коммуникативного уровня звучащего языка. Волеизъявление и выражение желания говорящего в русском диалоге. М., 2002, с. 480.

[2]Vendler Zeno. 1967. Verbs and times. In Linguistics in philosophy, ed. Zeno Vendler, 97–121. Ithaca, Cornell University Press.

Emotsional kauzatsiyaning ijtimoiy vaziyatdagi o‘rini orqali belgilanadigan va qarindoshlik xususiyatiga ega bo‘lgan tahdidning yuzaga kelish omili (2): Out of fear for the welfare of their families, man devised the scheme of insurance (lon4). Subyekt ongida yuzaga kelgan qurquv emotsional xususiyati bilan bog‘liq vaziyat: (3) Now that she had lost, greater than her sense of lost, was the fear that she had made a public spectacle of herself (GWW: 121). Subyektga nisbatan o‘tkazilgan tahdid ta’sir natijasida hosil bo‘lgan psixoemotsional holatning berilishi (4): With a sensation of terror instead of fear she thought that the dreaded crisis was about to burst (ph).

Emotsionallik bilan bog‘liq vaziyatdagi qatnashuvchilarning o‘rni o‘sha subyektning ijtimoiy mavqeyiga bog‘liq holda, ijtimoiy munosabat infrastrukturasi belgilanadi.[1] Dominant jihat, tahdid aynan ijtimoiy statusi yuqori bo‘lgan shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, rahbar xodimning o‘z qo‘l ostidagilariga nisbatan tahdid holati ham ko‘p bor kuzatiladi (5): The wide rooms were too narrow for his rolling gait, and to himself he was in terror lest his broad shoulder should collide with the doorways or sweep the bric-a-brac from the mantel. He recoiled from side to side between the various objects and multiplied the hazards that in reality lodged only in his mind (lonS).

Ijtimoiy vaziyatda shaxsning jins bilan bog‘liq xususiyatlar ham emotsional agressivllik vaziyatlarni yuzaga kelishida muhim o‘rin tutadi (6): She was torturing her mother and father with the dread that she should leave the family in the lurch and enter the house of prostitution (ph) (7), She added that Thea's bad manners with the older girls were being talked about all over town, and that if her temper did not speedily improve she would lose all her advanced pupils. Thea was full of fear. She felt she could never bear the disgrace if such thing happened (crth).

Ijtimoiy jamiyatdagi, muhitda shaxsning statusi bilan bog‘liq holatlar, shaxsni o‘rab turgan ijtimoy vaziyatlar ham subyektda tahdid holatning sababchisi bo‘lishi mumkin 8): Ne was simply the average roan of small intelligence, great vanity, and snobbishness, so he felt terror of public opinion. There could be only one reason for the flight of Lorella’s daughter – rottenness. The only point to consider now was how to save the imperiled family standing, how to protect his own daughter, whom his good nature and his wife's weakness had thus endangered (ph).

Jamiyatda yuzaga kelgan biror vaziyat subyektning o‘ziga nisbatan agressiv holatning mavjudligini his etadi. Mazkur hol subyektning jamiyatdagi o‘rni, shaxslar o‘rtasidagi munosabatning salbiy tomonga o‘zgarishi bilan izohlanadi (9): It was... mental or moral fear of the great social mistake he had committed in allowing himself to fall into this unhallowed relationship with her (ShAT: 190).

Oilaning jamiyatdagi o‘rnini yo‘qotish, munosabatlarning chigallashuvi o‘sha oila a’zolarida qo‘rquvni kabi emotsional holatning vujudga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu esa munosabatlarning o‘ziga xos salbiy tomonga o‘zgarishiga olib keladi (10): Dick gave up hovering between a general scorn of the whole thing and a fear that Alice would shame the family (LBS: 350).

Emotsional konsentratsiya (consternation) qo‘rquv, shaxsga nisbatan tahdid vaziyatlarda yuzaga keladi. Mazkur hol faqatgina jamiyatdagi subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarda emas, balki diniy odatlarning ijtimoiy ko‘rinish olganligi bilan ham izohlanadi (11): To the consternation of his congregation, his first sermon was quite similar to the address given before the Convention. Again he said, and at length and with distressing detail, that the Church had wandered away from the Master's teaching, and that Mammon had been instated in the place of Christ (lon4).

Jamiyatdagi biror jarayon, odatda, salbiy (shaxs tomonidan amalga oshirilgan) o‘sha subyekt ongida o‘ziga nisbatan salbiy bosimni, ya’ni, qurquv, shu bilan birga, tahdid vaziyatning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin:

(12) As her personal mannerism grew more and more odious to him, he began to dull his perceptions with champagne. He had it for tea, he drank it with dinner, and during the evening he took enough to insure that he would be well insulated when he got home. It was scandalous, and it did not occur among brewers. He was violating the NOBLESSE OBLIGE of his guild. His father and his father's partners felt alarm (crth).

Emotsional qo‘rquv subyektning jamiyatdagi o‘rnini yo‘qotib qo‘yish bilan bog‘liq vaziyat larda ham ko‘zga tashlanadi. Mazkur emotsional vaziyat subyektga nisbatan tashqi bosimning kuchayishiga bo‘g‘liq hisoblanadi (13): To sage about one’s reputation means fear of what the world says (ph).

[1] Падучева Е.В. Родительный субъекта в отрицательном предложении: синтаксис или семантика? “Вопросы языкознания”, 1997, № 2, с. 24.

(14) My dread is, however, that in your eyes and in the others I may appear to be compromised (dlO).

(15) The fear of the tongue, that terror of little towns, is usually felt more keenly by the minister's family than by other households. Whenever the Kronborgs wanted to do anything, even to buy a new carpet, they had to take counsel together as to whether people would talk (catherl).

Turli ijtimoiy sath vakillari o‘rtasidagi kontaktning aniqlovchi xususiyati kauzativ emotsional konsentratsiya sifatida qaraladi. Bu kabi vaziyatlarda tahdid kauzatsiyaning asosi bo‘lib xizmat qiladi: (16) The next afternoon, accompanied by Arthur, she arrived in a carriage, to the unqualified delight of the Silva tribe and of all urchins of the street, and to the consternation of Maria (lonS).

Xulosa va takliflar. Tahdidning pragmatik ifodalanishi, birinchi o‘rinda, vaziyatlar, voqea-hodisalar jarayonida yuzaga keladigan konflikt hamda ushbu konfliktga sabab bo‘ladigan emotsional holatga bog‘liq bo‘ladi. Albatta, shu o‘rinda turli ijtimoiy muhit ham tahdidning muhim pragmatik omili sifatida qaraladi.

Tahdid holatlar kommunikantlar o‘rtasidagi emotsional vaziyat, shuningdek, psixologik xususiyatlarning inikosi sifatida yuzaga chiqadi. Albatta, voqea-hodisalar jarayonida yuzaga keladigan konflikt emotsiyalarning jilovlay olmaslik sabab qilib ko‘rsatiladi. Mazkur kommunikatsiya jarayonida dominant subyektning raqibiga nisbatan verbal keyinchalik esa kontaktli vaziyatlarni keltirib chiqarishi aniqlandi.

Jabborova Saodat Sattorovna (Turon Zarmed universiteti “Tarix” kafedrasi o‘qituvchisi)

MA’NAVIY SALOHIYAT – IJTIMOIY TARAQQIYOT MANBAYI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi rivojlanish boqichida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan birga, ma’naviy-ma’rifiy jabhalarda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati yoritib berilgan.*

Аннотация. *В данной статье раскрывается содержание и сущность реформ, осуществляемых в духовно-просветительском аспекте, наряду с социальными, экономическими и политическими факторами современного развития Нового Узбекистана.*

Annotation. *In this article, the content and essence of the reforms implemented in the spiritual and educational aspects, along with social, economic and political factors in the current development of New Uzbekistan.*

Kalit so‘zlar: *bag‘rikenglik, siyosiy-iqtisodiy, madaniy, ma’naviyat, qadriyat, ta’lim-tarbiya, barkamollik, yetuk kadr.*

Ключевые слова: *толерантность, политико-экономическая, культурная, духовность, ценность, воспитание и образование, совершенствование, зрелые кадры.*

Key words: *tolerance, political-economic, cultural, spirituality, value, education, perfection, mature staff.*

O‘zbekistonning mustaqillikka erishuvi siyosiy-iqtisodiy, madaniy sohalarda tamoman yangi davrni boshlab berdi. Xalqimizning uzoq tarixiy madaniyati ma’naviyatimizni shakllantirishda tarixdan ko‘p saboqlar olish mumkinligini va bu saboqlar kelajak uchun, shubhasiz, foydali ekanligini ko‘rsatdi. Binobarin, o‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo‘q. Bu haqiqat kishilik tarixida ko‘p bora o‘z isbotini topgan.

Avvalambor, haqiqiy ma’naviy yuksalish madaniy taraqqiyot uchun xalqimiz mustaqil davlatga ega bo‘lishi, qaramlik siquvidan ozod bo‘lishi zarur edi. Qaram bo‘lib yashagan xalq ma’naviy erkinlikka, taraqqiyotga erisha olmaydi, chunki u o‘zligidan, o‘z ruhiy qudratidan mahrum bo‘ladi.

Biz o‘z taqdirimizni o‘z qo‘limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, mana shunday oliyjanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yo‘lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgani – bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik berganini xalqimiz yaxshi biladi. Ma’naviyat va qadriyatlar o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq tushunchalar, ya’ni, “Ma’naviyat va qadriyat, aslida, ilohiy bo‘lib, oila, avlodlar, mahalla, millat, davlat va davr qadriyatlari va ma’naviyatlari orqali bayon qilinadi” [1].

Qadriyatlarni o‘zlashtirish insonning qay darajada ma’naviy shaxsga aylanganligini ko‘rsatadi, unga ichki kuch, e’tiqod bag‘ishlaydi. Falsafa fanlari doktori, professor, taniqli faylasuf olim M.Imomnazarov esa uni “ilohiy nur” deb hisoblaydi va tushunchaning mazmunini ochishga intilmaydi. “Ma’naviyat inson qalbidagi ilohiy nur. Oliy haqiqat nuri bo‘lib, shu sababdan buyuk bobokalonlarimiz inson qalbini

“Haqiqat asroring ganjinasi”, deb ataganlar (ganjina–xazina, boylik, xazina egasi yoki tengsiz, bebaho-S.S.Jabborova). Haq asrori esa shunday sehrli tilsimki, uni tugal yechishga ahli bashar qudrati yetmaydi” [2]. Biroq, bizning fikrimizcha, ma’naviyat faqat insonga xos. U ilohiy yoki g‘ayritabiiy hodisa emas, balki u ijtimoiy hodisa bo‘lib, inson faoliyati bilan bog‘liq.

Insonning har qanday faoliyati, har qanday xatti-harakati yo tabiat bilan, yo jamiyat bilan, oila a’zolari, boshqa kishilar bilan muayyan munosabati yuzaga keltirishdir, muayyan aloqani, o‘zaro ta’sirni amalga oshirishdir. Shu bois insonning ongli faoliyati, avvalo, axloq va huquq, qolaversa, umuman, ma’-naviyat nuqtayi nazaridan baholanadi. Inonning ishlab chiqarish faoliyati ham nafaqat iqtisodiy, shuning-dek, o‘zining ma’naviy jihatlariga ega. Iqtisodiyot bilan ma’naviyatga bir xil katta ahamiyat bergan ja-miyat o‘zining uyg‘un yirik ijtimoiy ziddiyatlarsiz va qarama-qarshiliklarsiz barqaror taraqqiy etishi uchun zamin yaratadi.

Iqtisodiyotning ma’naviyat bilan aloqalari juda murakkabdir. Iqtisodiyot ma’nviyat rivojlanishi uchun moddiy shart-sharoitlar yaratatadi. Iqtisodiyot ehtiyojlari, talablari ma’naviyatga nisbatan “buyurt-machi” vazifasini o‘taydi.

Avvalambor, ma’naviyatning negizi va ma’no-mazmunini belgilaydigan asosiy xususiyatlar, birin-chi galda insonning ruhiy poklanishi va qalban ulg‘ayishi haqida fikr yuritar ekanmiz, albatta, bu dunyoda halol va pok yashashni o‘zi uchun hayotiy e’tiqod, oliy maqsad deb biladigan odamlar ko‘pchilikni tash-kil qiladi. Aynan ana shunday insonlar va ularning ezgu ishlari tufayli bu yorug‘ olamda ma’naviyat ha-misha barqaror bo‘lib keladi. Shuningdek, ma’naviyat insonning qon-qoni, suyak-suyagiga yillar davo-mida ona suti, oila tarbiyasi, ajdodlar o‘giti, Vatan tuyg‘usi, bu hayotning ba’zida achchiq, ba’zida qu-vonchli saboqlari bilan qatra-qatra bo‘lib singib boradi. Ayniqsa, tabiatga, odamlarga yaqinlik, doimo yaxshilikni o‘ylab yashash, halol mehnat qilish, dunyoning tengiz ne’mat va go‘zalliklaridan bahramand bo‘lish, ma’naviyatga ozuqa beradi, uni yanada kuchaytiradi.

Shuni e’tirof etish joizki, Yangi O‘zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo‘lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimo-iy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy vaziyatning o‘zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to‘la javob beradigan obyektiv zaruratdir.

Biz bu yo‘lda islohotlarimizning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lgan jamiyatimiz a’zolarining bilim va salohiyati, kuch va imkoniyatlarini, butun azmu shijoatimizni ishga solishimiz lozim. Shunda-gina mamlakatimiz, xalqimiz orzu qilgan, jahon maydonida kuchli salohiyat, munosib obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan, har tomonlama obod va farovon davlatga aylanadi [3].

Butun insoniyat kabi, jahondagi har bir xalq va millat ham o‘zining taraqqiyotiga qarab intiladi. Ta-biatning buyuk hodisasi bo‘lgan Quyoshning ham erta saharda olamga yuz ko‘rsatishi qanchalik go‘zal va jozibali bo‘lsa, dunyodagi xalqlar va davlatlar rivojida yangi tonglarning boshlanishi ham shu qadar fayzli va tarovatlidir. “Dunyoda hech qachon bir xil tong otgan emas” [4].

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, o‘tgan tarixan qisqa davrda yurtimizning Markaziy Osiyo mintaqasi va jahon miqyosidagi siyosiy o‘rni, obro‘si va nufuzi juda keskin tarzda oshdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta’kidlaganidek, “Dunyoda Yangi O‘zbekistonga nisbatan ishonch ruhi va mam-lakatimiz bilan hamkorlikka intilish tamoyillari kuchaydi” [5].

Bugungi kunda biz mamlakatimizda inson erki va farovon yashaydigan ma’naviy makon, ma’rifatli jamiyat qurish uchun qat’iyat bilan harakat qilmoqdamiz. Qanday qiyinchilik va sinovlarga duch kelmay-lik, shu maqsadda boshlagan barcha islohotlarimizni, qabul qilgan dasturlarimizni izchil davom ettirmoq-damiz. Shu o‘rinda Yurtboshimizning ma’naviyat to‘g‘riida bildirgan fikrlarini keltirishni joiz deb topdik: “Mening nazarimda insoniyat dunyosining buyuk bir yoritqichi–ma’naviyat chirog‘i bor. Bu chiroqning boshqalardan farqi shuki, u insonnig ongi va tafakkurini yoritadi, qalbi va vijdonini uyg‘otadi, odamiylik hissini kuchaytiradi.

O‘zbekistonning yangi uyg‘onish davrini yaratishga kirishgan ekanmiz, har bir yurtdoshimizning qalbi va ongida ana shunday ma’naviyat shu’lasi porlashi va u bizni ezgu ishlarga undab, yuksak mas’-uliyat tuyg‘usi bilan yashashga da’vat etishi zarur” [6].

Tomirlarda buyuk bobolarimizning qoni oqayotgan yoshlarimiz ulug‘ ajdodlarimizning munosib vorislari bo‘lishi, ular kabi ulkan maqsadlar sari intilb yashashi va yuksak marralarga erishishi uchun bar-cha zarur shart-sharoitlarni yaratishimiz zarur. Yangi O‘zbekiston yoshlari ana shunday yuksak daraja-larga ko‘tarilishi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston–taraqqiyot strategiyasi” nomli asarida: “Bizning taraqqiyot strategiyamizda har jihatdan barkamol rivojlangan, erkin fikrlaydigan,

vatanga sodiq, qat'iy hayotiy qarashlarga ega yigit-qizlarni tarbiyalash–eng ustuvor vazifalarimizdan biri sifatida belgilangan" [7].

Haqiqatdan ham, bugungi yoshlarimizning iste'dodi, qobiliyati, bilimi, ma'naviyati va ezgu intilishlarini to'liq ro'yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, kelajakda o'zlarining munosib o'rin egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish jamiyatimizning bosh maqsadidir. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi milliy rivojlanishimizning yangi bosqichini boshlab beradi hamda xalqimizni umumiy maqsadlar yo'lida birlashtirib turadigan yaxlit ma'naviy asos va mezonga aylanadi.

Fikrimizga yakun yasar ekanmiz, biz ishonamizki, yoshlarimiz ulug' ajdodlarimizning munosib vorislari bo'lishi, ajdodlarimiz kabi yuksak maqsadlar sari intilib yashashi va yuksak marralarga albatta erishadilar. Biz Yangi O'zbekiston yoshlarini yuksak marralarga ko'tarilishi uchun qo'limizdan kelgan barcha imkoniyatlarni yaratib berishimiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T., 2022.
2. Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. "O'zbekiston" gazetasi, 2022-yil 21-dekabr.
3. Yangi O'zbekiston–demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. T., 2021.
4. A.Erkayev. Ma'naviyat va taraqqiyot. T., 2009.
5. Шодиев Ж. (2022). Илк уйғониш даврида–комил инсонни шакллантириш ва тарбиялашда тасаввуф таълимотининг ўрни. Scientific Bullettin of NamSU, Научный вестник НамГУ, NamDU ilmiy axborotnomasi–2022-yil 4-сон, 229-bet.
6. Zikrillayev. Ma'naviyat – aql-idrok mahsuli. "Ishonch" gazetasi, 1995, 28-iyul.
7. M.Imomnazarov. Milliy ma'naviyatimizning takomil boqichlari. T., 1996.

Jo'rayev Isomiddin Ismoilovich (Zarmed universiteti "Tarix" kafedrasi o'qituvchisi)

O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI TARMOQLARINI RIVOJLANISH TARIXI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'zbekiston hududida qishloq xo'jaligi sohasining XX asr dastlabki o'n yilliklarida rivojlanish bosqichlari va Sovet hokimiyatining ilk yillarida o'lkamizda o'tkazgan agrar islohotlari xususida adabiyotlar tahlili orqali fikr-mulohaza yuritilgan.*

Аннотация. *В данной статье на основе анализа специальной литературы рассматриваются этапы развития аграрного сектора на территории Узбекистана в первые десятилетия 20 века и аграрные реформы, проведенные в нашем регионе в первые годы советской власти.*

Annotation. *In this article, the stages of development of the agricultural sector in the territory of Uzbekistan in the first decades of the 20th century and the agrarian reforms carried out in our region in the first years of Soviet power are discussed through the analysis of literature.*

Kalit so'zlar: *dehqonchilik, madaniyat, sivilizatsiya, agrar soha, chorvachilik, xalq xo'jaligi, sun'iy sug'orish tizimi, voha, vodiy, islohot, qonun, qaror, nizom, Sovet hokimiyati.*

Ключевые слова: *земледелие, культура, цивилизация, аграрный сектор, животноводство, народное хозяйство, система искусственного орошения, оазис, долина, реформа, закон, решение, постановление, Советская власть.*

Key words: *agriculture, culture, civilization, agrarian sector, animal husbandry, national economy, artificial irrigation system, oasis, valley, reform, law, decision, regulation, Soviet power.*

Insoniyat sivilizasiyasining qadimgi markazlari shakllanishi va taraqqiyotida dehqonchilik madaniyati muhim rol o'ynagan. Jumladan, Quyi Zarafshon daryosi o'zani miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmida chorvador dehqon qabilalari kelib joylashib, ular botqoq yerlarda dehqonchilik qilish bilan birga, yaylovlarda chorvachilik bilan ham mashg'ul bo'lganlar. Arxeologlar Qorako'l tumanidagi Zamonbobo degan joydan mazkur qabilalar dehqonchilik manzilgohlaridan birining qoldiqlarini topib o'rgandilar. Miloddan avvalgi birinchi ming yillikda Buxoro vohasida asta-sekin sun'iy sug'orish tarmoqlari mustahkamlanib, dehqonchilik rivojlanash boshladi [1].

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Sharq sivilizatsiyasida dehqonchilik madaniyati rivoji sug'orma dehqonchilikka asoslanganligi bilan ajralib turadi. Tarixiy tadqiqotlardan ma'lumki, qadimgi Misr va Mesopatamiyada millodan avvalgi VII, Hindiston Eron va O'rta Osiyoning janubiy mintaqalarida esa miloddan avvalgi VI ming yillikdan boshlab insoniyat ilk dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullana boshlagan hamda dastlabki chorvachilikni yo'lga qo'ygan, ya'ni, odam tabiat in'omlarini o'zlashtirib qolmas-

dan, o‘zi ham yaratuvchilik faoliyatini boshlagan. O‘rta Osiyo zaminidagi eng qadimgi ziroatchilik madaniyati “Joytun madaniyati” bo‘lib, u miloddan avvalgi VI–V ming yilliklarda shakllangan [2].

XX asrning so‘nggi o‘n yilligi O‘zbekistonda yashovchi barcha millatlar taqdirida tub o‘zgarishlar davri bo‘ldi. Uzoq yillar davom etgan tuzum asoratlaridan xalos bo‘lish o‘zbek xalqining jahon hamjamiyatida o‘zining munosib o‘rnini egallash imkonini berdi. Istiqlol o‘tmishni o‘rganish, xolisona baholashga keng imkoniyatlar yaratdi. Ayni paytda, mustaqil O‘zbekiston Respublikasida, bir tomondan, tuzumning uzoq yillar mobaynida to‘planib qolgan asoratlarini bartaraf etish, ikkinchi tomondan esa taraqqiyotning yangi bosqichida barcha sohalardagi mavjud muammolarni hal etishda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma`naviy-ma`rifiy sohalarda islohotlar amalga oshirishdan iborat muhim vazifalar turibdi.

Bugungi kunda tarix fanida o‘rganish zaruriyati mavjud mavzulardan biri–sovet hukmronligi davrida O‘zbekistonning iqtisodiy qaramligining vujudga kelish sabablari, kommunistik partiya tomonidan shakllantirilgan tuzilmalar, ish usullari va shakllari, barcha respublikalarning bir-biriga ipsiz chambarchas bog‘lab qo‘yilganligi, umuman olganda, bu davrdagi muammolar, ziddiyatlar va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish qiyinchiliklarini o‘rganishga alohida mas’uliyat bilan yondashish, voqealarni mukammal yoritish, biryoqlamalikdan xoli bo‘lgan tarixiylik, vorisiylik va uzviylikka amal qilish vazifasini qo‘ymoqda. Ayniqsa, sanoat sohasining ahvoli to‘laqonli markazga bog‘liqligi va O‘zbekistonning tobora agrar respublikaga aylanib borishining boshlang‘ich bosqichlaridan, ya’ni, O‘zbekiston SSR yangi tashkil topgan kunlardan boshlab iqtisodiy ahvolini ko‘rsatish masalasi–bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yuqotmagan mavzular sirasiga kiradi [3.4].

Birinchi Jahon urushi, 1917-yildagi fevral va oktabr inqiloblari, 1918–1920-yillardagi fuqarolar urushi bilan bog‘liq vayronagarchiliklar mamlakat iqtisodiyotini izdan chiqardi. 1918-yildan boshlab, Harbiy kommunizm siyosati amalga oshirilishi natijasida harbiylashgan jamiyat vujudga keldi. Uning asosiy belgilari:

1. Mutlaq markazlashtirish va yalpi davlatlashtirish.
2. Xususiy mulkni bekor qilish.
3. Xo‘jalik yuritishning musodara usullari, jazo choralari bilan mehnatga majbur qilish.
4. Mavjud bozor iqtisodiyoti tizimini barbod qilish.
5. Milliy va insonparvarlik qadriyatlarini markscha sinfiy qadriyatlar bilan zo‘ravonlarcha almashtirish.

Ushbu rejani amalga oshirish Sovet hokimiyati vujudga kelgan dastlabki kunlardan boshlanib, fuqarolar urushi yillarida mahalliy o‘ziga xoslikni hisobga olmay, hamma yerda davom ettirildi. Iqtisodiy qonunlarga nisbatan bepisandlik, xo‘jalik organizmini boshqarish, harbiy davrning favqulodda tadbirlari bilan kuchaytirilgan ma’muriy choralar iqtisodiy mamlakatdagi, xususan, mayda tovar qishloq ishlab chiqarishi ustunlik qiladigan hamda mayda tovar qishloq ishlab chiqarishi ustunlik qiladigan hamda yuz minglab xususiy ishlab chiqaruvchilarning faoliyati bozor bilan chambarchas bog‘liq qishloq aholisi orasida bo‘lgan [5].

Respublikada dehqonlarga yordam berish maqsadida irrigatsiyani qayta tiklash, sug‘orish tarmoqlarini ta’mirlash muammolari o‘ta qiyinchilik bilan hal qilinayotgan edi. Hokimiyat organlari suv xo‘jaligini tiklash ishlariga keng dehqonlar ommasini majburan jalb qilishga asosiy e’tibor berdilar. 1921-yil 11-mayda Turkiston Avtonom Respublikasi Xalq Komissarlar Soveti Moskvaning talabi bilan o‘lkadagi irrigatsiya ishlarini harbiylashtirish to‘g‘risida dekret qabul qildi. Ayni vaqtda, 1923-yilga qadar dehqonlar zimmasida mehnat va ot-ulov majburiyati saqlanib qoldi. Keyin u natura majburiyati deb qayta nomlandi.

Dehqonlar 1921-yilda bu majburiyat hisobiga irrigatsiya tizimlarida 2 mln. kishi 30 kundan ortiq tiklash ishlarini bajardilar. Bu pul bilan hisoblaganda 2 mln. 390 ming so‘m oltinni tashkil etar edi.

Turkistonlik dehqonlarning majburiy bepul mehnati irrigatsiya shoxobchalarini ta’mirlash masalalarini qisman hal qilishga yordamlashdi. Lekin suvdan foydalanish tizimini ta’mirlash va tartibga solish sohasidagi asosiy ishlarni faqat aholining kuchi bilangina amalga oshirib bo‘lmas edi. Davlat buni his qilgan holda irrigatsiya ishlariga budjetdan tobora ko‘proq mablag‘ ajrata boshladi. 1923-yilda bu mablag‘lar 5.567 mingni tashkil qilgan bo‘lsa, 1924-yilda esa 6.260 ming oltin so‘mni tashkil etdi. Shu bilan birga, dehqonlarning bepul mehnatidan samarali foydalanishga qaratilgan yo‘l saqlanib qoldi [6].

1923-yilda qishloq ahli natura majburiyati hisobiga qariyb 3,6 mln. kishi ishlab berdi, uning umumiy miqdori 3,8 mln. so‘mdan ortiq edi. Yangi iqtisodiy siyosatni isloh qilish yillarida agrar o‘zgarishlarning muhim yo‘nalishi muvofiqlashtirilgan yer siyosatining o‘tkazilishi bo‘ldi. Biroq, unda avvalgi yillardagi agrar siyosatning ko‘pgina jiddiy nuqsonlari saqlanib qoldi. Ular jumlasiga sinfiy yondashuvning ustuvorligi har tomonlama ijtimoiy tabaqalanishni kuchaytirish, Turkiston qishloqlarini sotsialistik asosda

qayta qurish kirar edi. Bunday yondashuv 1921–1922-yillarda amalga oshirilgan yer-suv islohotida yaqqol ko‘rindi.

Agrar islohot yangi bosqichining umumiy vazifalari TKP V syezdi va Turkiston sovetlarining 9-qurultoyi 1920-yil sentabr qarorlarida belgilab berilgan edi. Bu vazifalarni uch guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi vazifa sotsialistik yo‘nalishda bo‘lib, u mehnat bilan shug‘ullanmaydigan boy quloq xo‘jaliklarini tugatish va ko‘chmanchi aholini o‘troq holatga o‘tkazish, ikkinchi vazifa inqilobiy demokratik xususiyatga ega bo‘lib, u yerlarni yersiz va kam yerli dehqonlar, batraklar, chorikorlar o‘rtasida mehnat normalari bo‘yicha taqsimlashni o‘z ichiga olar edi [7.8.9].

Fikrimizga yakun yasar ekanmiz, sovet davlati hukmronligi yillarida yuzaga kelgan markazlashgan xalq xo‘jaligi majmuasini yaratish jarayoni, uning nazariyasi va tajribasini o‘rganish, tahlil etish, mazkur voqelikni xolisona baholash katta ahamiyatga molik masala hisoblanadi. XX asrning 20-yillaridan boshlab markazlashgan xalq xo‘jaligi majmuasining shakllantirilishi sobiq ittifoqdosh respublikalarni bir-biriga chambarchas bog‘lab, iqtisodiy jihatdan bevosita markazga bo‘ysundirilishiga sabab bo‘ldi. 1925-yilda mamlakatda rejalashtirishga zo‘r berilishi–yangi iqtisodiy siyosatning to‘xtashi va boshqaruvning ma’muriy-buyruqbozlik usulini mustahkam o‘rnashib borishi asosida olib borildi. Ta’kidlash joizki, tadqiq etilayotgan davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida o‘zbek xalqining ehtiyojlari va manfaati hisobga olinmagan.

Faydalanilgan adabiyotlar:

1. Shodiyev J. (2021). O‘zbekistonda ijtimoiy-siyosiy kommunikatsiya rivojlanishida raqamli tpansformatsiya siyosati. Academic research in educational sciences, 2 (2), p. 409 – 416.
2. Anorboyev A. O‘zbekistonda ilk sug‘orma dehqonchilikning shakllanishi va antropogen landshtafning tashkil topishi. O‘zbekiston hududida dehqonchilik madaniyatining tarixiy ildizlari va zamonaviy jarayonlari. T., 2006.
3. Антонова Е.В. Обряды и верования первобытных земледельцев. М., “Восток”, 1990.
4. Кунакова Л.З. Земельно-водная реформа в Узбекистане (1925–1929 гг). М., Фрунзе, 1967.
5. Hayitov J.Sh. Turkistonda yangi ekin navlarining tarqalishi va dehqonchilik madaniyatidagi o‘zgarishlar tarixi. Buxoro, “Kamolot” nashriyoti, 2022.
6. Husanov R. Yer islohoti: imkoniyat va istiqlol. “Muloqot”, 1991, 8-son.
7. G‘oyibnazarov Sh. Ijtimoiy rivojlanish saboqlari. 1920-yillar tahlili. T., “O‘zbekiston”, 1994.
8. O‘zbekiston Milliy enksiklopediyasi. II tom, T., 2001.
9. Aminova R.G. Kollektivlashtirish qashshoqlashtirish demakdir. T., ‘Sharq yulduzi”, 1992.

Abdullayev Begzodbek Xoldaraliyevich (PhD, ADU doktoranti; e-mail: fayllar@bk.ru)

MEDIADISKURS VA MEDIAREKLAMA TUSHUNCHASI

Annotatsiya. *So‘nggi yillarda reklama huquqi asosida yaratilayotgan teleko‘rsatuvlar, kliplar, qisqa metrajli fimlar, film anonslari, audio yoki videoreklama mahsulotlari ham mediareklamaning yorqin na’munasi hisoblanadi. Bular ham taklif qilinayotgan mahsulotlarning sifati, qulayligi, bozor iqtisodiyotidagi o‘rni, turdosh mahsulotlarning orasidagi darajasi va ishlab chiqaruvchi firma yoki tashkilotning maqtashga arzigulik jihatlarini keng yoritishga xizmat qiladi.*

Аннотация. *Телепередачи, клипы, короткометражные фильмы, анонсы фильмов, аудио- или видеорекламная продукция, созданная на основе прав на рекламу в последние годы, также являются ярким примером медийной рекламы. Они также служат для того, чтобы подчеркнуть качество, удобство, место в рыночной экономике предлагаемых продуктов, уровень среди аналогичных продуктов и похвальные аспекты компании-производителя или организации.*

Annotation. *Television shows, clips, short films, film announcements, audio or video advertising products created on the basis of advertising rights in recent years are also a bright example of media advertising. These also serve to highlight the quality, convenience, place in the market economy of the offered products, the level among similar products and the commendable aspects of the manufacturing company or organization.*

Kalit so‘zlar: *mediadiskurs, media, mediareklama, mediabirlik, mediamahsulot, diskursiv munosabat.*

Ключевые слова: *медиадискурс, медиа, медиареклама, медиаблок, медиапродукт, дискурсивное отношение*

Key words: *Media-discourse, media, media-advertisement, media-unit, media-product, discursive relation.*

Reklama mahsulotlari, avvallari, insoniyat ehtiyojlari uchun kerak bo‘lgan mahsulotlarni e’lon qilish bilan namoyish qilingan bo‘lsa, hozirga kelib esa boshqa mahsulotdan farqi va qulayliklarini ko‘rsatib, reklama qilish kengaymoqda. Bu o‘z-o‘zidan iqtisodiy raqobat ta’sirida yuzaga kelayotgan ijtimoy hodisadir. Media o‘zi nima? Media (inglizcha media, lotincha “vositachi” so‘zidan) keng tushuncha bo‘lib, o‘z ichiga aloqa vositalarini, axborotni uzatish usullarini, shuningdek, ular tashkil etuvchi muhitni (media makonini) o‘z ichiga oladi [1].

Media (ommaviy axborot vositalari) – bu ma’lum bir iste’molchiga xabarni (bosma so‘z, musiqiy kompozitsiya, radioeshittirish va boshqalar) u yoki bu shaklda yetkazish uchun xizmat qiluvchi axborot vositalari va texnikalarining butun majmuasini o‘z ichiga olgan keng tushuncha. Qoida tariqasida, media atamasi mustaqil ravishda qo‘llanilmaydi, balki uning shaxsiy varianti bo‘lgan qo‘shma so‘zning bir qismi sifatida xizmat qiladi (media marketing, media reklama, ommaviy axborot vositalari, media-reja, media-xolding) [2].

Yuqoridagi media tushunchasiga bergan ta’riflardan quyidagi xulosaga kelindi. Media – tushunchasi har qanday axborotni ijtimoiyatga yetkazishga ko‘maklashadigan kommunikativ vosita. Media hodisasi madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy, texnik, turizm va sog‘lomlashtirish, reklama va boshqa parametrlarni o‘z ichiga olgan ko‘p o‘lchovli hodisa hisoblanadi. Medianing ko‘p o‘lchovli bo‘lishi uning mohiyati va vazifasi to‘g‘risida har xil nazariyalar va fikrlar ustida izlanishlarga sabab bo‘ladi.

Mediadiskurs tushunchasi – bu tilshunoslik fani bilan kesishadigan ko‘plab fanlarning qiziqishlari va rivojlanishlari doirasida, asosan, ijtimoiy aloqa kommunikatsiyasi mohiyati bilan ta’riflanadi.

Ommaviy axborot vositalari jamoat muhitining vakolati hisoblanib, ayniqsa OAV tili ijtimoiy kuchga ega bo‘lgan vosita sifatida o‘rganilib kelingan [4].

Fanda OAVlarini intensiv-individual o‘rganish lingvistika, sotsiologiya, psixologiya, etika-estetika va komunikatsion aloqa nazariyasi kabi bir qator fanlar kesishmasida olib boriladi. Sotsiologiya fani doirasidagi tadqiqotlar – lingvokulturalogiyaning g‘oyaviy mohiyatini, komunikatsion-aloqa nazariyasi fani –ommaviy kommunikatsiyaning ijtimoiy funksiyasini, psixologiya fani – ijtimoiy muhitdagi iste’molchilarning axborotni qabul qilish prinsiplarini, etika-estetika fani – yetkazuvchining notiqlik darajasini, lingvistika fani – iste’molchi va yuboruvchining lisoniy qismini, so‘z tanlash prinsiplarini, matn va uning jamiyat uchun ahamiyatini aniqlashga qaratilgan tomonlarini o‘rganadi. Yuqoridagi fanlarning vazifalari kesimida mediadiskurs shakllanadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, OAV tilini o‘rganishning psixologik tomoni – komunikatsion vositachilikni, tanlangan ma’lumotlarni idrok etish xususiyatlarini, iste’molchi auditoriyaga ta’sir o‘tkazish jarayonlarini o‘rganish, ularni manipulatsiya qilish holatlarini o‘rganish bilan belgilanadi.

Axborot birliklari sifatida ijtimoiy roliklar, musiqiy kliplar, qisqa metrajli filmlar, kino va unga oid ko‘rsatuvlar, anonslar, reklama mahsuloti, ijtimoiy va siyosiy murojaatlar, multfilmlar, teleko‘rsatuvlar, yangiliklar dasturlari kabilar mediadiskursni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Ammo mediakommunikatsiyaning eng qimmatli axborot birligi reklama mahsuloti sanaladi.


Axborot va ta’sirchanlikdan tashqari, jurnalistik uslubdagi matnlar, albatta, tilga xos bo‘lgan barcha boshqa funksiyalarni bajaradi: kommunikativ; ifodali; estetik [5].

Reklama mahsuloti namoyish jarayoni o‘z auditoriyasini estetik dunyoqarashiga mos holda yaratilishi kerak. Televideniya sohasida reklama vaqti juda qimmat turganligi uchun, keyinchalik, indoor reklamalar rivojlandi. Bunday mediamahsuloti tashkilotlar va xizmat ko‘rsatish binolarining kutish zaliga, avtovokzal va poyezd stansiyalari, iste’molchilar, aeroportlar, bozorlar, svetaforlar atrofiga, ovqatlanish maydonlariga, yo‘lovchi tashishga mo‘ljallangan yirik transport vositalariga monitorlar o‘rnatilib namoyish qilinmoqda. Indoor reklamalarda vaqt reglamenti oddiy reklamalar vaqti va arzonligiga nisbatan qulayligi uchun, eng asosiysi, taqdim qilinayotgan mahsulot yoki xizmat haqidagi ma’lumotlarni iste’molchilarga ko‘proq yetkazish imkoniyati mavjud.

I.V.Aleshanova ta’kidlaganidek, ommaviy-informatsion nutqning asosiy funksiyalari informatsion va ta’sirchan hisoblanadi. Ta’sir etuvchi yetakchi deb tan olinadi va axborot beruvchi uni amalga oshirish uchun kontekst sharoitlarini yaratadi [3].

Ayniqsa, O‘zbekistonda reklama qilinayotgan ko‘plab mahsulotlar dialogik nutq namoyishi orqali iste’molchilar ongiga ta’sir qilishini hisobga olib, “Tajribadan o‘tgan va tavsiya qilinadi” tarzida namoyish qilinishi ko‘payib bormoqda. O‘zbek iste’molchilari orasida reklama qilinayotgan xizmat yoki mahsulotga talab ehtiyoji bor iste’molchi qatlami tavsiya yoki maslahat tarzidagi reklama mahsulotiga ko‘p-

roq ishonishadi. Bunday iste’molchilar uchun mashhur shaxslar ishtirokidagi reklamalar ta’siri deyarli ko‘rinmaydi. Ayniqsa, sog‘lomlashtirish uchun tavsiya qilinadigan reklamalar deyarli dialogik tavsiya asosida namoyish qilinmoqda. Bunday reklamalar iste’molchi bilan kommunikativ-diskursiv munosabatni shakllantishida juda qulay. Chunki iste’molchi reklamadagi tavsiflovchi insonlar mahsulotga munosabatini ko‘rib, o‘z ixtiyori bilan diskuriv munosabatga kirishadi. Misol uchun, “Alhadaya” sedana moyi reklamasi.



“Doktor ALI” damlamasi.



“Urjuza” ko‘z kasalliklari klinikasi.



Bunday reklamalarda noverbal komponentlar o‘rni verbal komponentlardan biroz quyi pog‘onada bo‘ladi. Ya’ni, ko‘proq axborot manbasi bo‘lgan mediamahsulotda matndan foydalaniladi.

Respublikamizda so‘nggi o‘n yillikda tilshunoslik fanining boshqa fanlar bilan aloqasi, xususan, reklama lingvistikasiga doir ko‘plab izlanishlar olib borildi. Bu bilan birga, tilshunoslarning gumanitar fanlar sohasiga oid jamoat aloqalariga bo‘lgan qiziqishi ortdi. Bu qiziqishlar mediaolamida diskursiv jarayonning axborot almashinuvidagi integral tomonlarini yuqori darajaga ko‘tarilishi quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan izohlanadi:

–til tizimi faoliyatining real sohalariga aylangan tilshunoslik fanining ichki ehtiyojlari va bozor iqtisodiyotida reklamaning yuksak o‘rinni egallashi;

–ijtimoiy ong sohasidagi turli tendensiyalarni kuzatib borish uchun reklama va ommaviy axborot vositalarining matnlarini tahlil qilish usullarini ishlab chiqish zarurati;

–jamoat aloqasini, jamoatchilik ongini ommaviy madaniyat xurujlari orqali manipulatsiya qilishdan ozod qilishga urinishlar bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy buyurtmalari;

–ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining keskin o‘sib borishi va yangi reklama auditoriyasining shakllanishi;

–iqtisodiy rivojlanish va raqobatdosh mahsulotlarni ishlab chiqarishning ortishi;

–sotuv jarayonida xaridor bilan sotuvchi o‘rtasidagi psixolingvistik muloqotning samaradorligini oshirishi;

–ilm-fan va texnologiya yutuqlarining milliylashtirishga bo‘lgan ehtiyoji.

Reklama huquqi asosida yaratilgan dasturlar muallif tomonidan qonunchilikda ko‘zda tutilgan me’yorlar doirasida iste’molchilarni ogohlantiradi. Reklama huquqi asosida yaratilgan dasturlar faqatgina televideniya dasturida emas, radiodastur ko‘rinishida ham namoyish qilinadi. Bunday dasturlarning diskursiv munosabati iste’molchilar aurasi ehtiyojidan kelib chiqib, namoyish qilishga qaratiladi. Ya’ni, iste’molchilar ko‘rsatuv ko‘rayotgandek bo‘lib, qiziqishadi, xarid qilishga tayyor bo‘ladi va reklama beruvchi

shu orqali maqsadiga erishadi. Hikoya tarzida yoki yangilik tarzida ham namoyish qilinadigan bunday reklama mahsuloti asta-sekin rivojlanib, kinofilm va kliplar tarzida namoyish qilish bosqichiga ko‘tariladi.

Mediadiskurs olamida reklama huquqi asosidagi yana bir material – bu musiqiy kliplar ham o‘z o‘rniga ega bo‘lmoqda. Avvaliga, reklamalar matni musiqiqy ko‘rinishda 30 yoki 40 sekundli musiqali tarzda ifoda etilsa, keyinchalik, 3–4 minutli musiqiy klip tarzda namoyish qilinmoqda. Misol uchun, estrada xonandasi Jahongir Foziljonovning “Book nomy”, xonanda Farrux Raimovning “Navoiy city” va “Xon saroy” nomli musiqiy kliplari buyurtma asosida tayyorlangan. Bunday kliplar shaklan musiqa, mazmunan esa reklama holatida namoyish qilinadi.

Mediadiskursning reklamadagi o‘rni 2020-yil Covid-19 virusining tarqalishi munosabati bilan, tashkil etilgan karantin davrida yuqori cho‘qqisiga chiqdi. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish yurtimiz aholisi orasida juda kengayishi kuzatildi. O‘zining foydalanuvchilari uchun mediamahsulotni tarqatish juda qulay bo‘lgan Facebook, Tvitter, Tik-tok, Instagram, You tobe, Telegram kabi ko‘plab ijtimoiy tarmoqlar rivojlandi. Yangi Bloger, Tik toker, Vayner, Instablogger kabi lisoniy birliklar ostida kasb egalari paydo bo‘ldi. Bular ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari uchun nafaqat o‘z ijodlarini, shular qatori, reklama mahsuloti tayyorlash va tarqatish uchun xizmat qildilar. Natijada ijtimoiy tarmoq reklamalari ham mediaolamda o‘z o‘rniga ega bo‘ldi. OAV daromad manbasi reklamadan tushgan daromad bo‘lsa, ushbu ijtimoiy tarmoq yurituvchilarining moliyaviy ta’minoti ham reklamalar bo‘lib qoldi. Ammo reklama beruvchilar sonining ortishiga ham olib keldi. Sababi reklama tayyorlash va tarqatishning OAVga nisbatan arzonligi edi. Bugungi kunga kelib ham mediareklama mahsulotining namoyish qilish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar yetakchi o‘rinda turibdi. Reklama diskursining mediaolamda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi xalqimiz orasida OAV tilining keng ommalashuviga olib keldi. El orasidan chiqqan bloger, vayner va tik-tokerlar soni ortdi va reklama mahsulotini tayyorlashda kamera oldida o‘zini tutishi, reklama matnini tayyorlashi va so‘zlashuv uslubidan foydalanish san’ati yuqori cho‘qqiga chiqdi. OAV tili yanada ommalashdi. Ijtimoiy ong nimadan ta’sirlanadi, nimaga qiziqishi ustida izlanishib, xalqimizning sodda iste’mol so‘zlaridan foydalanilgan holat ajoyib reklama mahsulotlari tayyorlandi.

Yuqoridagi vazifalarning mohiyati bozor iqtisodiyotida reklama mahsulotida nutqning ta’sir doirasini shakllantirishda ham qo‘l keladi. Shuning uchun ham ko‘plab reklamalar nutqiy dialog sifatida namoyish qilinmoqda. Bunday holatning ijtimoiy ko‘lamini kengayishida mediatizimning roli kattadir. Albatta, barcha ovozli, tasviri, harakatlangan tasvirli (video) yoki ovoz va videotasviri har qanday mahsulot mediabirlik yoki mediamahsulot sanaladi. Ammo axborot maqsadiga ko‘ra, turlariga ajratiladi. Axborot turlaridan biri bo‘lgan reklamaning bugungi kundagi o‘rni samarali darajada ortib bormoqda. Reklama mahsulotining media orqali namoyish qilinishi verbal va noverbal komponentlarning birlashuvi natijasida iste’molchi-adresatga ta’sir o‘tkazish, ularning irodasini boshqarish, iste’molchi niyatlarini o‘zgartirish, harakatga undash kabi holatlarni, mahsulotning ishonarliligi va haqiqiyligini ko‘rsatib beradi. Namoyish qilinadiga har qanday mediamahsulot reklamaning boshqa turlaridan samaraliroq va ishonchliroq ko‘rinishda ekanligi ijtimoiy-estetik ta’sir doirada yaxshi natija ko‘rsatadi

Izlanishlar davomida mediatushunchasini ko‘plab ta’riflari va nazariyalari bilan tanishildi. Reklama ham axborot birligi sifatida mediatizimga suyanadi. Bozor iqtisodiyotida mediatizimning aynan reklama sohasidagi o‘rni oliy darajadi. Reklamaning vazifasi iste’molchiga e’stetik ta’sir qilish va uning ongini manipulatsiya qilishdan iboratligini hisobga olsak, O‘zbekiston televideniya va radiolarda ulardagi yakuniy estetik ta’sir etish doirasi chegaralanib, qat’iy formula asosida ularning izchilligi va bir biriga mutanosibligi zamonaviy iste’molchiga yetarlicha ta’sir etmaydigan holatlari kuzatildi. Respublika hududidagi mediani tushunish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ilmiy jamoatchilik hali ham “nazariy qoliplilik chuqurligida yoki moliyaviy-iqtisodiy, ijtimoiy aylanmasi sohasida sodir bo‘layotgan voqealarni har qanday to‘liq empirik yoki obyektiv o‘rganishda jiddiy yutuqlar bilan maqtana olmaydi”. Buning uchun sotsiolingvistika va psixolingvistaning ko‘plab ilmiy yutuqlarini hayotga tatbiq etish zarur. Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda til institutlari qoshida “ilmiy qiziqishlar markazi” tashkil qilish tavsiya qilinadi. Bunday markazlar OAVda notiqlik, ommaviy nutqning iste’molchiga ta’sir qilish muammolari, ijtimoiyatdagi lingvistik va paralingvistik ta’sir ko‘rsatadigan vositalar aniqlanib, samimiy bo‘lmagan, siyosiy, marosim, diniy, reklama, ommaviy axborot vositalari nutqi kabi ayrim nutq turlari misollarida tahlil qilinadi. Shu bilan birga, auditoriyaga estetik ta’sir qilish mexanizmlari kabi yo‘nalishlarning aniq tendensiyasini belgilab beradi. Bunday markazlarni tashkil qilish har qanday lingvistik tadqiqotlar uchun asos bo‘lgan ilmiy natijalarni yanada samaraliroq bo‘lishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маклюэн М. Понимание Медиа: внешние расширения человека. Перевод с английского В.Г.Николаева. М., Гиперборея, Кучково поле, 2007, с. 464.

2. «Медиа» [электронный ресурс]. «Записки маркетолога». Словарь маркетинга, url: https://www.Marketch.ru/marketing_dictionary/

3. Актуальные проблемы журналистики. Сборник трудов молодых ученых. Вып. IX, Томск, издательство НТЛ, 2014, с. 180.

4. Mediadiskurs ta'rifi.https: // oimurschool.ru/uz/zdorove/mediinyi-diskurs-opredelenie-koncept-sobytie-i-sposoby-ego/

5. I.D.Faxridinova. Medialingvistika. "Oriental Art and culrure" Scientifi Methodical journal. Volume 3, Issue 4, 2021, december.

Kallibekova Gulnara Palbekovna (Qoraqalpoq davlat universitetining assistenti, PhD),
Allamuratova Dinara Xayraddin qizi (Qoraqalpoq davlat universitetining magistranti)

"QARAQALPAQSTAN JASLARI" GAZETASINING QORAQALPOQ ADABIY TILINI RIVOJLANTIRISHDAGI FAOLIYATI

Annotatsiya. *Maqolada qoraqalpoq adabiy tilida davriy matbuot tili, uslubi bo'yicha tadqiqotlarga tahlil keltiriladi. "Qaraqalpaqstan jasları" gazetasining qoraqalpoq adabiy tilini rivojlantirishdagi faoliyati haqida so'z yuritiladi. Gazeta tilida ruknlar, neologizmlar, frazeologizmlar, dialoglar, maqollar va sonlarning qo'llanish jarayoni o'rganilgan.*

Аннотация. *В статье представлен анализ исследований языка, стиля периодической печати на каракалпакском литературном языке. Рассказывается о деятельности газеты "Каракалпакстан жаслары" по развитию Каракалпакского литературного языка. В языке газеты изучается процесс употребления колонок, неологизмов, фразеологизмов, диалогов, пословиц и поговорок.*

Annotation. *The article analyzes research on the language and style of the periodical press in the Karakalpak literary language. The activity of the newspaper "Karakalpakstan jasları"in the development of literary language of Karakalpak is studied. Also the process of using columns, neologisms, phraseology, dialogues, proverbs and numbers in newspaper language was studied.*

Kalit so'zlar: *ruknlar, neologizmlar, frazeologizmlar, dialoglar, maqollar, son, muallif, lug'at, leksik birliklar, morfologiya.*

Ключевые слова: *колонки, неологизмы, фразеологизмы, диалоги, пословицы, число, автор, лексика, лексические единицы, морфология.*

Key words: *columns, neologisms, phraseology, dialogues, proverbs, number, author, dictionary, lexical units, morphology.*

Qoraqalpoq adabiy tili bir necha asrlardan buyon turkiy tillar orasida o'z o'rniga ega. Tilni toza holatda kelajak avlodga yetkazib berish eng asosiy vazifalardan biri. Qoraqalpoq adabiy tilining lup'at fondi juda boy. Lug'at tarkibida rus tili, ingliz tili orqali neologizmlar, terminlar, xalqaro terminlar kirib kelmoqda. Tilimizda yangidan paydo bolgan neologizmlar ham juda ko'p, shuningdek, ikki tilda birdek ma'noni anglatadigan leksik birliklar ham faol qo'llaniladi. Bunday so'zlar orqali qoraqalpoq tilining leksikasi yanada takomillashib bormoqda. Ayniqsa, *paynet, aksiya, mobile, media, moderator, modem, model, zoom, click, platforma* kabi rus va ingliz tillari orqali kirib kelayotgan so'zlarni qoraqalpoq tilining leksik fondiga olib kirishda qoraqalpoq davriy matbuotining o'rni beqiyos.

Qoraqalpoq adabiy tilida davriy matbuot tili, uslubi qator dissertatsiya ishlarida maxsus o'rganilgan. Filologiya fanlari doktori Z.Orazımbetovaning ilmiy ishida keng fikr bildirilgan [1]. Filologiya fanlari doktori T.Masharipovaning monografiyasida publitsistik uslubning funksional uslublar orasindagi o'rni, faoliyati monografik planda ochib berishga erishilgan [2]. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori G.Kallibekovaning monografiyasida tarmoq gazetalarining lesik, morfologik va sintaktik xususiyatlari maxsus tadqiq etilgan [3]. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori D.Qurbaniyazovning tadqiqat ishlarida gazeta sarlavhalari o'rganilgan bolsa [4], filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktorı A.Najimovning ishida gazeta tilidagi ijtimoiy-siyosiy leksika maxsus o'rganildi [5]. Mazkur ilmiy tadqiqot ishlari qoraqalpoq tili, qoraqalpoq jurnalistikasining hozirgi kundagi eng yuksak muvaffaqiyatlarining biridir.

Qoraqalpoq jurnalistikasida matbuot ancha yillardan buyon jamiyat bilan teng qadam tashlab kelmoqda. Ularning biri "Qaraqalpaqstan jasları" gazetasıdir. Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy gazetasi. Gazeta "Elim dep, jurtım dep, janıp jasaw kerek!" shiori asosida tashkil etilgan. Gazeta 1931-yil 13-fevraldan

chop etila boshladi. Gazetadan jaslar.uz internet sayti orqali foydalanish imkoniyati bor. 2023-yilning 9-fevral 5–6-sonlari (8150, payshanba) soniga e'tibor qaratamiz. Gazetaning bu sonida bir qator xabarlar, reportajlar, intervyular, publitsistik maqolalar berilgan. Jurnalistlar bilan birga yoshlar ham faol qatnashib, kelmoqda. Masalan: Karimjan Abibullayevning "Jaslarǵa subsidiya berildi", Adilbay Orazovning "Taxtakópir: jetiskenlik hám rejeler", Jumagúl Embergenovaning "Xalqımız bul sınaqtı da jeńedi", Zibiyra Abdiniyazovaning "Járdem qolın sozıw-insanıylıq aǵla páziyletimiz", Marjan Dawıtovaning "Mektep kitapxanasındaǵı ushırasıw", Talǵat Nurmaxanovning "2022-jıldıń ekonomikalıq kórsetkishleri", Kewlimjay Pazılbekovning "Maqtawǵa múnásip muǵallim", Babur Qalbayevning "Nızamdaǵı jańalıqlar", Baxıtlı Sarıbayevning "Meniń anam hámmeden jaqsı" mavzusidagi maqolalari chop etilgan. Bu maqolalar mazmunida, tanlangan mavzu bo'yicha aniq faktlarni yetkazib bera olganligini ko'rish mumkin. Maqolalarni gazetalardan olingan misollar asosida tahlil qilamiz.

«Qaraqalpaqstan jasları» gazetasi ruknlari. «Qaraqalpaqstan jasları» gazetasida kunning dolzarb mavzularini gazeta o'quvchisiga yetkazib berishda gazeta muntazam ruknlarni tashkil eta olgan. Masalan: "Jıldıń dóretiwshi studenti" ruknida "Talant jatpas sayada" U.Mustafayevaning muallifligida tayyorlangan. "Kıtap jańalıǵı" ruknida "Qaydasań, Shinara?" Alp Sultan muallifligida, "Debdew" ruknida "Gúbelektiń baxtı jeterli…" Shaxnoza Orazımbetova muallifligida, "Bilip qoyǵanińız jaqsı" ruknida "Nostrifikaciya–bul ne?" Z.Djumabayev muallifligida, "Pikir" ruknida "Maqset húјdanlı hám bilimli jaslardı tárbiyalaw" Kóbeysin Ernazarov muallifligida tayyorlangan. Bu ruknlar gazetaning 2023-yil 23-fevral, 7–8-sonlaridan olindi. Asosiy auditoriyasi yoshlardan iborat bolgan bu gazeta yoshlarning fikrlarini, qiziqishlarini, ijodiy ishlarini matbuotga olib chiqa olgan.

Gazetaning yangi sonlaridagi ruknlar xilma-xilligi gazeta o'quvchisini gazetani o'qib chiqishga chorlaydi. Masalan: "Jańa jıl sáwbeti" ruknida "Sapalı bilimlendiriw–joqarı juwapkershilik talap etedi" Jumagúl Embergenova muallifligida, "Ata duwası" ruknida "Hajı atanıń aq pátiyası" J.Embergenova muallifligida tayyorlangan. "Maqtanashımız" ruknida "Ulbolsın, tabısıń oń bolsın!" Qumar Begniyazova muallifligida, "Jańa jıl debdewi" ruknida "Bayram, bayramday bolsın…" Zibiyra Abdiniyazova muallifligida tayyorlangan. Bu ruknlar gazetaning 2023-yil 5-yanvar 1-sonidan olingan. Ta'kidlab kórsatilganidek, ruknlar orqali ahamiyatli mavzularni bayon eta olgan. Ularning mazmunida ta'sirchanlik, aniqlik va jurnalistik mahoratni ko'rish mumkin. Gazeta matnlarida qoraqalpoq adabiy tilining barcha namunalaridan mahorat bilan foydalana olgan. Gazetada chop etilgan qator publitsistik materiallarning leksikasini va morfologiyasini o'rganib chiqdik.

Gazeta frazeologizmlari. Yoshlar gazetasida frazeologizmlarni, maqollarni va neologizmlarni ko'p uchratamiz. "Apat aytıp kelmeydi" ruknida jurnalist Jumagúl Embergenovaning "Xalqımız bul sınaqtı da jeńedi" maqolasida qoraqalpoq adabiy tilining badiiy va ta'sirchanligini ta'minlovchi vositalarini kuzatish mumkin. Masalan: "*Qas qaǵım payıttıń* ishinde biymezgil "*jan úzildi*" ("Qaraqalpaqstan jasları", 2023.09.02. №5–6), "Eger kúndiz bolsa kishelerimizdiń bosanatın jerine saban ákelisiw, juwırıp barıp baqan, júwen, mıltıq alıp qaytıw usaǵan balalarbap "barıp kel, alıp kel, sheshеńdi shaqırıp kel" degen sıyaqlı jumıslarda "*ayaǵımızdı qolımızǵa alıp*" juwırar edik" ("Qaraqalpaqstan jasları", 2023.23.02. №7–8), "Sol sebepli ol ózin "*Tóbesine kóterip atırǵan*" húkimetti, onıń partiyasın, kósemlerin maqtap biraz shıǵarmalarda dóretti" ("Qaraqalpaqstan jasları", 2000.16.11. №46), "–Sizdi awıllaslarıńız "*arqası jerge tiymegen"* palwan desedi. Sonda siz hesh qashan jıǵılmaǵansiz ba?" ("Qaraqalpaqstan jasları", 2000.16.11. №46).

Mazkur misollardagi *qas qaǵım payıt, jan úzildi, ayaǵımızdı qolımızǵa alıp, ushı-qıyrı joq, tóbesine kóterip atırǵan, arqası jerge tiymegen* singari frazeologizmlar kontekstda qo'llanish orqali ta'sirchanlikni ta'minlashga xizmat qilgan. Xalq so'zlashuv tilida ham bu frazeologizmlar faol ishlatiladi. Ammo yoshlar gazetasida qo'llash orqali mazkur jumlalar yanada ommalashib boraveradi. Publitsistik materiallarni o'qish orqali gazetxon bu kabi leksik birliklarni yanada faol qo'llaydi. Keltirilgan frazeologizmlarning asl mazmunga qaraganda ta'sir etish kuchi yoqori bo'lganligi uchun ham matnlarda ko'proq uchratamiz. Shu jihatdan ham gazeta tili yoshlarning ijodiy ishlarini, nutq madaniyatini, yozuv madaniyatini rivojlantiradi.

Gazeta maqollari. Gazetada maqollar jurnalist va tashqi muallif maqolalarida ham qollanilmoqda. Bu orqali biz xalq maqollarini barcha birdek tushunadi va tahlil qila oladi degan fikrni takidlab ko'rsatish bo'ladi. Yoshlar gazetasida ularning xilma-xil mavzularni olib chiqishida faollik ko'rsatayotganligini bilish mumkin. Jamiyatdagi ijobiy o'zgarishlarni gazetxonga badiiy shaklda yetkazib berishda qator maqollar ishlatilgan. Masalan: "*Saqlıqta qorlıq joq*" degenindey, hár birimiz ózimizge átirapimızǵa hesh waqıtta biyparwa bolmawımız kerekligin áttеń, kesh bolsa da jáne bir márte terеń qayǵırıw menen túsinip atırmız" ("Qaraqalpaqstan jasları", 2023.09.02. №5–6). "Qádirdanlar, "*Kóp jasaǵan bilmeydi, kópti kór-gen*

biledi” (“Qaraqalpaqstan jasları”, 2023.23.02. №7–8). “*Ómir aǵar dáryaǵa megzeydi*” deydi. Sonnan beri de qansha suwlar aǵıp ótti” (“Qaraqalpaqstan jasları”, 2023.23.02. №7–8). “*Jaqsılıq aralıq bilmeydi*” deydi ǵoy. Perzentlerimniń ustaz-muǵallimleri de kelip xabar aldı” (“Qaraqalpaqstan jasları”, 2023.09.02. №5–6). Gazeta tilida maqollarning mazmunida salbiy holatlarni ko‘rsatishda ham ishlatiladi. Gazetxonni doimo harakatda bo‘lishga boshlaydigan maqollardan misollar keltiramiz: “*Qustıń da uyası buzılmasın*” eken. Hár bir úydiń oshaq bası aman bolsın, degen tilekler menen turǵınlarǵa júzlestik” (“Qaraqalpaqstan jasları”, 2023.09.02. №5–6), “*Apat aytıp kelmeydi*”. Azǵana biyparwalıq ta, itibarsızlıq ta usınday ornı tolmas ókinishke alıp keliwi múmkin” (“Qaraqalpaqstan jasları”, 2023.09.02. №5–6), “*Bahalay bilmegenge baq qonbas, quwana bilmegenge qut qonbas*”, deydi ǵoy. Sizler meniń baxtım hám altın taxtımızsızlar! Meniń ǵamxorshılarım aman bolıńlar” (“Qaraqalpaqstan jasları”, 2023.23.03. №11–12), “Shańaraqta ómirlik joldas bolmaǵannan keyin “*qoldan bergenge qus toymaydı*” degenindey, nárestelerdi jegizip, ishkiziwdiń ózi bolama?” (“Qaraqalpaqstan jasları”, 2023.12.01. №2), “Dana xalqımızda “*qıymıldaǵan qır asar*” degen gáp bar ǵoy” (“Qaraqalpaqstan jasları”, 2023.23.02. №7–8), “*Awırdıń astı, jeńildiń ústi*” menen júretuǵınlar da joq emes”. Sebebi, bes barmaq birdey emes” (“Qaraqalpaqstan jasları”, 2023. 23.02. №7–8), “*Qorqaqtı quwa berseń batır boladı*” degenleri sol ma dedim. Qalay da júrekti basıp alǵanbız” (“Qaraqalpaqstan jasları”, 2023.12.01. №2), “*Awırıwına shıdasań mıń jasa*” degenlerindey júre berdim. Tilekke qarsı, kún sayın isip baratır” (“Qaraqalpaqstan jasları”, 2023.12.01. №2), “*Qorshalaǵan kózge shóp túsedi*” degenleri usı shıǵar, Awırǵan kúnleri tún boyı otırıp shıǵatuǵın edim” (“Qaraqalpaqstan jasları”, 2023.12.01. №2).

Bul mısallardaǵı naqıl-maqallar gazeta kontekslerinen alınǵan. Xalıq tilinde jiyi qollanılǵanlıǵınday, gazeta tilinde de emociyallıqtı támiyinlewge xızmet etpekte.“ Yoshlar gazetasida savol gap shaklida sarlavhalarda ham moqollar ishlatilgan: Ata-babalarımız aytqanınday, “*Ózge tildiń bárin bil, óz tilińdi qádirle*”mesek kim bolǵanımız?!” (“Qaraqalpaqstan jasları”, 2023.23.02. №7–8). Gazetadagi maqollar yoshlarning ilimli, hunarli, aql-zakovatli bo‘lishiga ham yo‘naltiriladi. Masalan: “*Jaslıqta alǵan bilimiń, Tasqa jazılǵan xat penen teń*”, “*Oqıy berseń kóziń ashılar, Jata berseń, uyqı basar*”, “*Jigitke qırıq óner de az*” (“Qaraqalpaqstan jasları”, 2000.16.11. №46), “Xalqımızda “*aldıńǵı arba qaydan júrse, sońǵı arba dqa sonnan júredi*”degen gáp tap usı úsh apalı-sıńlilerge aytılǵanday” (“Qaraqalpaqstan jasları”, 2016. 23.06. №26).

Gazeta neologizmlari. Gazetada neologizm terminlarga juda boy. Chunki matbuotda turli sohalarning ish faoliyati muntazam berib boriladi. Jurnalistlar tomonidan tayyorlangan maqolalardan tashqari soha mutaxassislari tomonidan ham maqolalar beriladi. Ularning kontekstni bayon etish uslubiga e’tibor beradigan bo‘lsak, ko‘pgina neologizmlar o‘rin olgan. Masalan: “Sonıń menen birge orayda zamanagóy kompyuterler menen támiynlengen internet klasslar, elektron oqıw zalları, *WiFi zonaları* jaslardıń tereń bilim alıwına, dúnya ilimleri menen tanısıp barıwına úlken járdemin kórsetip kelmekte” (“Qaraqalpaqstan jasları”, 2023.23.02. №7–8), “Jas ilimpaz rus hám qaraqalpaq tili ortasındaǵı *transformaciyanı* úyrenbekshi” (“Qaraqalpaqstan jasları”, 2023.05.01. №1), “Saǵınbay Ibragimovtıń “Mójene óshikken shańǵalaǵına” degen qatarında dáwirdiń *galleriyası* kóz aldına keledi” (“Qaraqalpaqstan jasları”, 2023.05.01. №1). Yoshlar gazetasi tilida mutaxassislar tayyorlagan maqolalarning sarlavhalarida neologizmlarni, terminlar uchiratamiz. Masalan: Z.Djumabayev muallifligida “Bilip qoyǵanıńız jaqsı” ruknidagi “*Nostrifikaciya* – bul ne?” maqolasini mısol qilib ko‘rsatish mumkin. “Sezimlerge berilip kettippen, endi kórgizbe haqqında jazıwdı dawam eteyin, aq kiymeshek penen aq jegde bir-birin toltırıp, káywana analarımızdıń aqıl-parasatınıń, kátqudalıǵınıń belgisindey bolıp *vitrinanıń* ishinde basqalarǵa turmıs tájiriybesin aytqanday kórinişte jarasıp tur” (“Qaraqalpaqstan jasları”, 2023.12.01. №2). Misollardagi *WiFi zona, transformaciya, galleriya, nostrifikaciya, vitrina* singari neologizmlar qoraqalpoq adabiy tiliga kirib keldi. “Qaraqalpaqstan jasları” gazetasining qoraqalpoq adabiy tilini rivojlantirishda faollik ko‘rsatmoqda. Chunki, gazetalarda berilgan publitsistik maqolalarda leksik fondni boyitishga xizmat qiluvchi yangi so‘zlar borligini ko‘rish mumkin.

Gazetalardan olingan dialoglar. Ikki odamning bir-biri bilan o‘zaro suhbati dialog deyiladi. Dialoglar badiiy asarlarda, ocherklarda, xatlarda va matbuot materiallarida ham foydalaniladi. Masalan: “Jaslar maqtanıshımız” ruknida jurnalist Arıwxan Turekeevaning “Talantına súysinemiz, Gúlayım” maqolasida gazeta oquvchisining e’tiborini qaratish maqsadida ishlatilgan. Jurnalist maqolada fikr bildirayotgan qahramonning bolalik davri, qiziqishlari, yutuqlari aniq faktlar asosida yetkazib berishni maqsad qilgan. Maqoladadi dialoglardan misollar keltiramiz: “–Ele altı ayǵa da tolmaǵan. Barı-joǵı 900 grammday, qasıqtan sál ǵaw qızdı dúnyaǵa keltirdińiz–dedi de nárestesin shıpaker alıp ketti. –Bawırımda toǵız ay saqlay almadım. Eń bolmasa, endi onıń jamanlıǵın kórsetpe – hár kúni tilener edi ana. –Ózi bolsa shala,

oǵan úp-úlken etip Gúlayım – dep at qoyıpsańı – dep kúlisti bul adamlar. – Kórersiz ele meniń shala qızım hám meni tańqaldıratuǵın qız boladı –ana-bala úsh kúnnen soń tuwıw úyinen shıǵıp ketedi" ("Qaraqalpaqstan jasları", 2023.23.03. №11–12), "– Jazǵanlarıń ózińdiki me? – dewge haqım bolmasa da bul soraw eriksiz awzımnan shıqtı. – Hámme sol sorawdı beredi. Biraq, bul ózimniń jazǵanlarım – dedi Gúlayım márdana sóylep ("Qaraqalpaqstan jasları", 2023.23.03. №11–12). Bu kabi dialoglar matnning ta'sir etich kuchini orttirishga xizmat qilgan. Jurnalist maqola qahramoni Gúlayim bilan ózining suxbatini gazetxonga yetkazishga harakat qilgan. Demak, har bir maqola qahramoning bayon etish tili kontekst orqali ochib berilsa, ishonchli, aniq yetkaziladi.

Gazetadan olingan sonlar. Faktlarni aniq, ixcham bayon qilishda sonlardan foydalanilgan. Mısalı: "Jaslarǵa subsidiya berildi" maqalasında "–Jıl basınan berli jámi *8 jasqa* óz isbilermenligin baslawı ushın ásbap-úskeneler satıp alıw ushın subsidiya alıwına járdem kórsetildi" ("QJ" 2023-jıldıń 9-fevral №5–6). Bu misolda sonning tuzilishiga qarap, oddiy turi berilgan bo'lsa, ma'nosiga qarab, sanoq son orqali berilgan. Gazetaning yangi sonlarining biridan joy olgan "Taxtakópir: jetiskenlik hám rejeler" sarlavhali maqoladan misol keltiramiz. "Diyqanshılıqtan mol zúráát jetistiriw maqsetinde, *2023-jıldıń* egis mapazına tayarlıq jumısların gúzgi shúdigarlaw hám atızlardı tegislew jumıslarınan baslap jiberdik" ("QJ" 2023-jıldıń 9-fevral №5–6), "Nátiyjede hár bir gektardan ortasha *24,2 centnerden* ónim jetilistirilip, belgilengen reje *102,7 procentke* orınlandı" ("QJ" 2023-jıldıń 9-fevral №5–6), "–Taxtakópir rayonı boyınsha jámi *32 mıń 655 gektar* egislik jerler bolıp, sonnan *19 mıń 299 gektar* jerge awıl xojalıǵı eginlerin jaylastırıw rejelestirilmekte" ("QJ" 2023-jıldıń 9-fevral №5–6), "Xalqımız bul sınaqtı da jeńedi" atlı maqalada "*2023-jıldıń 23-yanvar* sánesi. Paytaxtımız Nókis qalasındaǵı "Temir jol" MPJ aymaǵındaǵı *22-kishi rayon, 8/1 jay* turǵınları da hámme qatarı ádettegidey turmıs tárizinde edi" ("QJ" 2023-jıldıń 9-fevral №5–6), "-Bul tıraq jay *1984-jılı* qurıp pitkerilip paydalanıwǵa tapsırıldı. Men *1-qabat, 26-kvartirasında* jasadım" ("QJ" 2023-jıldıń 9-fevral №5–6). Bu misollar orqali obyekt haqida, qurilish ishlari bo'yicha hisob, voqea-hodisa haqida aniq ma'lumotlar olishimiz mumkin. Til jihatdan tahlil qilganimizda, sonning tarkibiy qismi jihatidan oddiy va murakkab sonlar berilgan deya ko'rsatishimiz mumkin. Ma'nosiga qaraydigan bo'lsak, *sanoq son, tartib son, butun* son va kasr sonlardan foydalanilgan.

Xulosa qilib aytganda, davriy matbuot ishida "Qaraqalpaqstan jasları" gazetasi ruknlari, tajribali jurnlaistlarning mavzu tanlash mahorati diqqatga sazovor. Qoraqalpoq adabiy tilining leksikasini rivojlantirishda xizmatlari beqiyos. Gazetada har bir fakt, har bir mavzu, har bir ma'lumot, statistika, tahlil yaxshi bayon qilingan. Ta'kidlab ko'rsatadigan bo'lsak,

– muntazam ruknlar orqali jamiyatdagi turli sohalarning hayotini, muvaffaqiyatini, olddagi rejalarini gazetxonga ixcham shaklda yetkazib berishi bilan o'zgachalanib turadi;

– frazeologizmlar xalq tilida faol qo'llaniladi. Bu frazeologizmlardan auditoriyası yoshlarga qaratilgan matbuotdagi matnlarga ham olib chiqilgan. Jurnalistlar o'g'zaki va yozma shaklda qo'llaniladigan namunalaridan ruknlarda, maqola sarlavhasida, kontekstda mahorat bilan ochib bergan;

– publitsistik maqolalarni quruq bayon qilishdan uzoqlashish maqsadida maqollardan har bir mavzuga undosh va badiiylik bilan foydalana olgan;

– gazeta neologizmlari jurnalist ijodidan tashqari, soha mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar orqali ham kirib kelmoqda;

– jurnalist va respondent orasidagi dialoglar gazeta maqolalarining kirish va xulosa bo'limlari orqali yetkazilgan;

– gazetada axboriy janrlardan tashqari jurnalistikaning barcha janrlarida ma'lumotlar beriladi. Ularning barchasida gazetxon e'tiborini qaratishda sonlar doimo asosiy o'rinda turadi.

Foydalaingan adabiyotlar:

1. Оразымбетова З.Қ. Қарақалпақ күнделикли баспасөзи тилиниң стильлик өзгешеликлери. Тошкент, «Hilol Media», 2019; Оразымбетова З., Рейпова Ш. Газета жанрларының тили ҳәм стильлик өзгешеликлери. Тошкент, "Yoshlar Mediaprint", 2022.

2. Машарипова Т. Публицистика теориясының бир пүтин концепциясы: илимий-методологиялық анализ (Қарақалпақстан баспасөзи материаллары мысалында). Монография, Тошкент, «Mumtoz so'z», 2016.

3. Каллибекова Г.П. Tarawlıq gazeta materiallarınıń tili hám stillik ózgeshelikleri. N., "Илимпаз", 2022.

4. Қурбаниязов Д. Күнделикли баспасөзде мақала темаларының атқаратуғын хызмети. Қарақалпақ филологиясының мәселелери. Илимий семинар мақалалар топламы. Нөкис, «Илим», 2021, 71–76-betlar.

5. Нажимов А.Ш. Жамийетлик-сиясий лексиканың лексика-семантикалық усыл менен жасалыўы.. Қарақалпақ филологиясының мәселелери. Илимий семинар мақалалар топламы. N., «Илим», 2021, 128–133-betlar.

6. «Қарақалпақстан жаслары» gazetasınıń tigindileri.
7. Каллибекова Г.П. The use of language resources in the newspapaer language. Intertnational Scientific Journal. Theoretical and Applied Science. АҚШ, Philadelpiya. 2022, № 5 (109), p. 160–164. http://t-science.org/arxivDOI/2022/05-109/05-109-12.html
8. Каллибекова Г.П. The use of nouns in Karakalpakstan branch newspapers. Theoretical and Applied Science. АҚШ, Philadelpiya. 2022, № 5 (109), p. 187–192. http://t-science.org/arxivDOI/2022/05-109/05-109-19.html
9. Каллибекова Г.П. Frequency of use of genres of the newspapaer «Қарақалпақ әдебияты» («Karakalpak literature») and the language of their description. Theoretical and Applied Science. АҚШ, Philadelpiya. 2022, № 6 (110), p. 54–59. http://t-science.org/arxivDOI/2022/06-110/06-110-9.html
10. Marziyaev J.K. The role of the language of the branch newspapers of Karakalpakstan in the development of media linguistics. ISJ Theoretical & Applied Science, 02 (118). 2023, p. 529–533. Soi: http://s-o-i.org/1.1/TAS-02-118-45 Doi: https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2023.02.118.45
11. Каллибекова Г.П. Перифразалар газета тилининг тасвирий воситаси сифатида. “Ilm sarchashmalari”, 2-сон, Урганч, 2023, 141 – 145-бетлар.
12. Каллибекова Г.П. Медиалингвистикани такомиллаштиришда газета тилининг аҳамияти. “Ilm sarchashmalari”, 5-сон, Урганч, 2023, 157 – 160-бетлар.

Qalandarova Farida Azamatovna (Buxoro Muhandislik-texnologiya instituti mustaqil tadqiqotchisi)

MUHADDISLAR SULTONI IMOM AL-BUXORIYNING HAYOTI VA ILMIY MEROSI

Annotatsiya. *Ushbu maqola Imom al-Buxoriy haqida. Imom al-Buxoriyning to‘liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim Bardazbeh (Bardazbeh forscha dehqon degan ma’noni anglatadi). Imom al-Buxoriy 810-yil 20-iyulda juma namozidan so‘ng, shavvol oyidan o‘n uch kun o‘tib, hijriyning bir yuz to‘qson to‘rtinchi kuni Buxoroda tavallud topgani haqida ma’lumotlar keltirilgan.*

Аннотация. *Данная статья об имаме аль-Бухари. Полное имя имама аль-Бухари Абу Абдулла Мухаммад ибн Исмаил ибн Ибрагим Бардазбех (Бардазбех означает фермер на персидском язы-ке). Сообщается, что имам аль-Бухари родился в Бухаре 20 июля 810 года после пятничной молитвы, через тринадцать дней после месяца шавваль, в сто девяносто четвертый день по хиджре.*

Annotation. *This article is about Imam al-Bukhari. Imam al-Bukhari’s full name is Abu Abdullah Muhammad ibn Ismail ibn Ibrahim Bardazbeh (Bardazbeh means farmer in Persian). It is reported that Imam al-Bukhari was born in Bukhara on July 20, 810 after the Friday prayer, thirteen days after the month of Shawwal, on the one hundred and ninety-fourth day of Hijri.*

Kalit so‘zlar: *hadis, al-Buxoriy, Muhammad, Ibrohim, Бухоро, Басра, ислом, иймон.*

Ключевые слова: *хадис, аль-Бухари, Мухаммед, Ибрагим, Бухара, Басра, ислам, вера.*

Key words: *Hadith, al-Bukhari, Muhammad, Ibrahim, Bukhara, Basra, Islam, Faith.*

Imom Buxoriy hadis ilmi rivojiga ulkan hissa qo‘shgan yetuk olim sifatida dunyoga tanilgan. Imom Buxoriyning ustozlari juda ko‘p bo‘lgan bo‘lib, sanog‘iga yetib bo‘lmaydi. Imom Buxoriy yoshlik chog‘ida ko‘zlari ojiz bo‘lib qoladi. Shunda onasi kechasi-yu kunduzi allohga iltijo qilib, tushlarida Ibrohim a.s ni ko‘radi. Ibrohim a.s bashorat beradiki, o‘g‘lingni ko‘zi ochildi deb aytadi. Otalari barvaqt o‘tib ketadi. Onasi va bitta ukasi bilan qoladilar. Movarounnahr ulamolaridan saboq oladi.

Turkmanistonning Marv shahri olimlari Marvaziy deb atalgan Imom Buxoriy Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziy to‘plagan hadislarni butunlay to‘liq holda yodlagan ekanlar. Samarqandda imom Dorimiy ham Buxoriyning ustozi bo‘lgan. Shu kishini ham to‘plagan hadislarini yodlagan. Imom Buxoriy Makka, Madina shaharlariga ham safar qilib, u yerda ham bir qancha hadislarni to‘plagan. Imom Buxoriy hayoti davomida jami 600000 ta (olti yuz ming) hadis to‘plagan. U, dastavval, Ibn al-Muborak va Vaqiy’ning hadislarga oid asarlarini yod oladi. Imom al-Buxoriyning kitobi, uning asosiy tasnifi “Sahih” asari roviylaridan bo‘lmish Abu Ja’far Muhammad ibn Abu Hotam al-Varroq shunday deb yozadi: “Al-Buxoriyning “Hadislarni yod olish ilhomi menga boshlang‘ich maktabda o‘qiyotganimda kelgan edi”, deganini eshitganimda, “O‘shanda necha yoshda edingiz?” so‘radim. U “O‘n yoshda, balkim undan ham kichik edim, deb javob bergandi”.[1]

Imom al-Buxoriyning safarlarida juda qiziq voqealar bo‘lib o‘tgan. Imom Buxoriyning ta’rifini eshitgan bir qancha bag‘dodlik kishilar xotirasini sinab ko‘rmoqchi bo‘lishadi. Imom Buxoriyga o‘nta hadis aytib, siz eshitganmisiz, sahihmi nosahihmi ajratib bering deb roviylar ro‘yhatini o‘zgartirib aytishadi.

[1]O‘zbekiston–buyuk allomalar yurti. Imom Buxoriy xalqaro markazi. T., “Ma’naviyat”, “Movarounnahr”, 2010, 8-bet.

Imom al-Buxoriy, men bu hadislarni hech qaysi birini bilmayman. Ammo men mana bu hadislarni eshitganman deb, ular aytgan hadislarni roviylrini o‘z o‘rniga qo‘yib, yoddan aytib berganda, hammalari ta’zim qilib, e’tirof etishgan ekan.

Imom al-Buxoriyning asarlari juda ko‘p bo‘lib, shox asari “Al-Jome as-Sahih” hisoblanadi”. Mustaqillik yillarida imom al-Buxoriyning “Al-Jome as-Sahih” asari o‘zbek tiliga o‘girildi. Shular qatorida “Al-Adab al-Mufrad”, “Asmoyi Sahoba” insonlar sahobalarni ismini to‘g‘ri atasin deb kitob holida ham asar yozgan. Shosh (Toshkent)ning taniqli muhaddislaridan biri Hoshid ibn Iso al-G‘azzol (vafoti 875-yil) shunday degan: “Imom Buxoriy o‘spirin chog‘ida biz bilan birga Basra mashoyixlaridan hadislar eshitardi. Hammamiz ustozlardan eshitganlarimizni yozib olardik, Al-Buxoriy esa hech narsa yozmasdan, faqat tinglab o‘tirardi. Shu tariqa, o‘n olti kun o‘tgach, u birdan”: “Nazarimda, ko‘p hadis yozib yubordingizlar, qani, menga yozganlaringni ko‘rsatinglar-chi?” deb qoldi. Biz yozgan hadislarimizni hisoblab ko‘rsak, o‘n besh mingdan ortiq hadis yozib olgan ekanmiz. Shunda Al-Buxoriy ularning hammasini yoddan aytganlariga qarab tuzatib ham oldik”.[1]

“Kitobi bad ul-Mahluqo” asasri tarix, mahluqotlar va Qur’oni karimda keltirilgan alloh taoloning olamning olti kunda yaratganligi haqidagi ma’lumotga izoh sifatida yozilgan asar hisoblanadi. “Tarixi Buxoro”, ya’ni Buxoroning tarixi to‘g‘risida yozilgan asardir. Imom Buxoriyning tarixga oid uch asari bo‘lgan: 1. “Tarixi Kabir”. 2. “Tarixi Avsat”. 3. “Tarixi Sag‘ir”.

Imom Buxoriy tarix kitoblarida aytadiki, “Birorta tarixiy shaxs yo‘qki, men u haqda ma’lumotga ega bo‘lmasam”. Imom al-Buxoriyning durdona asari bo‘lmish “Aladab al-Mufrad” ya’ni “odoblar xazinasi” deb ataladi. Bu asarda odob-axloq qoidalariga rioya etmoq, eng avvalo, ota-onaga va qarindosh-urug‘lariga “silayi rahm” qilish to‘g‘risida batafsil to‘xtalib o‘tgan.

Imom Buxoriy hazratlarini nomlari shunchalik islom dunyosiga musulmonlarning qalbiga o‘rnashganki, Madinayi Munavvarada har kuni kecha-yu kunduz janobi payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomni “Masjidi Nabaviylari”da sahih hadislarini televideniya va radio orqali dunyoga taralib turadi. Shu hadislarning ichida ikkita-uchta boshqa muhaddisdan keyin Imom Buxoriyning muborak ismlari keladi. U zotning ustozlari haqida gapiradigan bo‘lsak, Imom al-Buxoriy:

“Menbir ming saksonta roviydan hadislar yozib olganman, ularning, ichida, hech bo‘lmasa, bittagina hadis aytganlari ham bo‘lgan”, degandilar.[2] Arablar bu zotga “Imomi dunyo”, ya’ni “dunyo imomi” nomini bergan ekanlar.

Buxoro amiri Xolid ibn Valid o‘z farzandiga ilm o‘rgatish uchun saroyga taklif etadi. Shunda Imom al-Buxoriy ilm o‘rgatish uchun borilmaydi, balki ilm olish uchun kelinadi deb bu taklifni rad etadi. Xolid ibn Valid bundan g‘azablanib, Buxoriyning Buxorodan chiqib ketishini talab qiladi. Imom Buxoriy Samarqandga ketishga majbur bo‘ladi. Mana shu yerda yashab ilm o‘rganib, vafot etadi. Kunlarning birida Shayx Nadim al-Jisr Moskvaga tashrif buyuradi. Mehmonxonaga kelib joylashgach, tashrif rejasi bilan tanishib chiqadi. Rejaga imom Buxoriy qabrini ziyorat qilishni kiritishlarini so‘raydi. Ammo rad javobini oladi.

Unga tashrif rejasi sovet hukumatining oliymaqom vakillari tomonidan tasdiqlanganini aytib, o‘zgartirish mumkin emasligini tushuntirmoqchi bo‘lishadi. Ammo Shayx Nadim bo‘sh kelmadi. “Agar rejaga birinchi bo‘lib imom Buxoriy qabrini ziyorat qilish kiritilmas ekan, men hozirning o‘zidayoq Lubnonga qaytaman”, deb qat’iy turib oldi.

Ana shundan keyin tashrifga mas’ul shaxslar Shayx Nadim ziyorat qilishni istagan Imom Buxoriy qabri joylashgan O‘zbekiston rahbarlari bilan bog‘lanishadi. Nasabi Buxoriy bo‘lsa kerak, deb Buxoroning rahbarlariga qabrni ziyoratgacha tozalab qo‘yishlarini buyurishadi. Buxoro rahbarlari yarim kun qabrni qidirish bilan ovvora bo‘lishib, Toshkentga “Buxoriy qabri Buxoroda emas, Samarqandda ekan” deb telegramma jo‘natishadi. Toshkent buyruqni Samarqandga jo‘natishadi. Samarqand rahbarlari ham yarim kun ovvora bo‘lib, Imom Buxoriyning qabri shahardan 15 kilometr uzoqlikda joylashgan Xartang qishlog‘ida ekanligini aniqlashadi. Ammo maqbara vayron holda, butun islom olamida muqaddas sanalgan qabr kimyoviy moddalar saqlanadigan omborxona vazifasini o‘tab kelayotganligi ma’lum bo‘ladi. “Xavfsizlik xizmati mehmonni samalyotda emas, poezdda jo‘natish kerak”, degan taklifni bildiradi. Samalyot Toshkentga 4 soatda uchib kelsa, poezd esa 4 kunda Samarqandga yetib boradi. Mana shu 4 kun ichida maqbara ziyoyoratga shay qilib qo‘yilishini bo‘yuradi. O‘sha paytda O‘rta Osiyo va Qozog‘iston diniy idorasi muftiysi Ziyovuddinxon Boboxonovni ham bu ishga jalb etishadi. “Tezlik bilan bu ishga

[1] Ubaydulla Uvatov. Hadis ilmining sultoni. Imom Buxoriy xalqaro markazi. 2009, 11–12-betlar.
[2] Ubaydulla Uvatov. Hadis ilmining sultoni. Imom Buxoriy xalqaro markazi. 2009, 11-bet.

boshchilik qiling", deb Samarqandga jo‘natishadi. Shayx Samarqandga yetib kelgach, kun bo‘yi Samarqandni aylanadi. Nihoyat, kech tushganda maqbara tomon yo‘l olishadi. Yetib borgach, Shayh Nadim yana bir karra yerni o‘padida, ko‘zlariga yosh quyilgan holda to‘xtamay, Qur’oni karimni tilovat qila boshlaydi. Shayx tonggacha tilovat qiladi. Tong yorishgach, qabr atrofiga nazar solar ekan, nega bu yerga tunda olib kelishganini tushunib yetadi. Masjidning xarob ahvolini ko‘rib yig‘lab yuboradi. O‘zbekiston rahbari bilan ko‘rishib, "Imom Buxoriy hoki turobini olib ketishga ruxsat beringlar. Maqbara atrofidagi tuproqlarigacha beringlar. Evaziga o‘sha tuproqning og‘irligi qancha bo‘lsa, o‘shanga teng hajmda tillo olib kelishga va’da beraman!" deb aytadi. Ammo Shayxning bu iltimosi rad etiladi.[1]

Mamatov Ravshanbek Rustamovich (Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti; ravshanbek-mamatov@mail.ru)

GERTA MULLERNING ASARLARIDA NUTQ VOSITALARIDAN FOYDALANISH JARAYONLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada nemis adibi Gerta Mullerning asarlarida nutq va nutqdan foydalanish masalalari ochib beriladi. XXI asr boshida Gerta Mullerning asarlari jahon adiblarining muhokamasiga sabab bo‘ldi. Gerta Muller o‘z asarlaridagi badiiy tasvirlarni hamma tushuna oladigan nemis tilida ko‘plab asarlar muallifi hisoblanadi.*

Аннотация. *В статье будут раскрыты вопросы речи и использования речи в произведениях немецкой писательницы Герты Мюллер. В начале XXI века творчество Герты Мюллер стало предметом дискуссий мировых литераторов. Герта Мюллер-автор многих работ на не-мецком языке, в которых художественные образы ее произведений понятны каждому.*

Annotation. *This article will cover the issues of speech and the use of speech in the works of the German writer Herta Muller. At the beginning of the 21st century, the work of Herta Muller became the subject of discussions among world writers. Herta Muller is the author of many works in German, in which the artistic images of her works are understandable to everyone.*

Kalit so‘zlar: *taksonomiya, nutq, personaj nutqlari, jahon adiblari mulohazalari.*

Ключевые слова: *таксономия, дискурс, речи персонажей, мнения известных мыслителей.*

Key words: *taxonomy, discourse, speeches of characters, arguments of world sages.*

Kirish. Taksonomiya – murakkab tashkil etilgan iyerarxik bog‘liq obyektlarni tasniflash va tizimlashtirish tamoyillari va amaliyoti haqidagi ta’limot. Taksonomiya tamoyillari ko‘plab ilmiy bilim sohalarida geografiya, geologiya, tilshunoslik, etnografiya obyektlarini va organik dunyoning butun xilma-xilligini tartibga solish uchun qo‘llaniladi [1.1].

Nemis adibi Gerta Muller asarlarida ham muallif tomonidan nutq mahoratidan mohirona foydalanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Qahramonlar obrazlarini yaratishda nemis adibi Gerta Muller insonga voqealar ta’sir qilishi uchun beqaror chegaralarga ega bo‘lgan ekzistensial mavjudot haqidagi g‘oyalaridan kelib chiqadi. Shu bilan birga, yozuvchi insonga ta’sir etuvchi madaniy, ijtimoiy va tarixiy sharoitlarni ham hisobga oladi. Uning asarlarining harakati muayyan joy va harakat vaqtiga ega [2.218]. Gerta Muller o‘zining barcha hikoya matnlarida asosiy o‘rinni personajlar dialogiga emas, balki asosiy hikoyachiga beradi. Stilistik bir xillik, rivoyatdagi metalogik vositalarning o‘xshashligi yozuvchining estetik tamoyillari – matnlarning butun korpusi uchun yagona bayonotni joylashtirish bilan izohlanadi. Xususan, Gerta Muller asarlarini "Pastliklar", "Yurak-yirtqich", "Bir oyoqda sayohat qilish" kabi asarlarida ko‘rishmiz mumkin. Shunga ko‘ra, asarlar personajlari qisman ularning ijtimoiy rollari bilan belgilanadi va uning ahamiyati bosh qahramonlarni birlamchi xarakterlashda, asosan, rasmiylashtirilgan ikkinchi darajali personajlar obrazlarini yaratishda muhim ahamiyatga ega [3.87–97]. Qahramonlarning ijtimoiy-tarixiy kelib chiqishi va mavqeyiga ega bo‘lgan personajlarning muloqotida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy rollar qahramonlarning motivlariga ham ta’sir qiladi. Ammo bu, nisbatan aytganda, real parametrlar bilan bir qatorda, Gerta Muller uchun xarakterning ichki dunyosini ko‘rsatish muhimdir. Gerta Muller uchun bu dunyo xarakterning mavjudligi, uning shaxsiy pertseptual-emotsional fonidir [4.24–28].

Nazariy adabiyotlarni ko‘rib chiqish falsafada Aristoteldan boshlab, boshqa qadimgi va keyingi mualliflarning nutq haqidagi munozaralari quyidagi rivojlanish davrlari doirasida amalga oshirilganligini ta’kidlashga imkon beradi: Aristotel, Gippokrat, Demetriy, Kvintillian, Platon, Sokrat, Teofrast, Sitseron,

[1] https://khdavron. uz/ijod/maqolalar/xurshiddavronbuvoqeaolis1956yildabo‘lib o‘tgan.

Ezop, Epikur, T.Gobbs, J.Lokk, A. Bergson, Volter, J.V.Gyote, F.Nitsshe, J.Pol, J.J.Russo, M.Blek, X. Verner, D.Devidson, E.Kassirer, F.Kafka, S.Pepper, A.A.Richards, J.R.Searl, F.Uilrayt, S.Harnad va boshqalar.

Gerta Muller o‘z asarlarini davriy nashrlarda nashr eta boshladi va alohida kitob holida chop etilgan birinchi nashri – “Pasliklar” nasriy to‘plami 1982-yilda nashr etilgan va G‘arbiy Germaniyada senzurasiz qayta nashr etilgan. 1986-yilda “Bu dunyoda odam katta qirg‘ovul’ qissasi, bir yildan so‘ng “Yalangoyoq fevral” to‘plami nashr etildi. 1989-yildan keyingi davrda yozuvchi roman janriga murojaat qildi. Bu yil “Bir oyoqda sayohat”, “Tulki allaqachon ovchi edi” (1992), “Yurak-yirtqich” (1994) va “Nafas tebranishi” (2009) romanlari paydo bo‘ldi. Ushbu tadqiqotda Gerta Mullerning badiiy nasrining asosini tashkil etuvchi ushbu asarlari ko‘rish mumkin. Bundan tashqari, Gerta Mullerning poetologiyasi “Iblis oynada o‘tiradi” (1991) insholar to‘plamlarda taqdim etilgan. Uning nutqlari va ijtimoiy tanqidiy ocherklari “Ochlik va ipak” (1995) to‘plamidan joy olgan. “Shoh ta’zim qiladi va o‘ldiradi” (2003) va “O‘sha qor va o‘sha amaki” (2014) insholar to‘plamlarida ijtimoiy tanqidiy insholar mujassamlashgan. Gerta Mullerning jurnalistik asarlari va intervyularida poetologiya va ijtimoiy tanqidni, ko‘pincha, ko‘rish mumkin. Barcha sanab o‘tilgan badiiy va publitsistik asarlar tadqiqot materialidir [5.48].

Tadqiqot metodologiyasi. Nemis tili yo‘nalishi talabalariga hozirda “Jahon adabiyoti” hamda “Nemis adabiyoti” kabi fanlari o‘qitilib kelmoqda. Nemis adabiyotini o‘qitilishi jarayonida nemis adiblarini jahon adabiyotida o‘z o‘rni bor. Xususan nemis adibi Gerta Mullerni romanlarini o‘rganish ham hozirda ustivor sohalardan biridir. Yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish jarayonida ularni har tomonlama bilimini chuqurlashtirish, xususan, adabiyot darslarida nemis adibi Gerta Mullerning ijodini o‘rgatish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi hamda ularni o‘rganish quyidagicha xarakterlanadi.

Jahon adablari tahlili asosida Gerta Mullerning lingvistik va falsafiy nazariyalarga oid tadqiqotning metodologiyasini aniqlash:

Der Mensch ist ein großer Fasan auf der Welt (Берлин, 1987).

Reisende auf einem Bein (1989).

Der Fuchs war damals schon der Jäger – Лиса тогда уже была охотником (1992).

Herztier (Сердце-зверь) (1994).

Heute wär ich mir lieber nicht begegnet – Лучше бы я себя сегодня не встречала (1997).

Atemschaukel (2009) .

Shuningdek, Gerta Muller romanlarini o‘rganishning nazariy asoslarini ochib berish, Gerta Muller asarlaridagi bosh g‘oya hamda asar qahramonlar o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xos munosabatlarini o‘rganish.

Tahlil va natijalar. Gerta Muller asarlaridagi barcha muloqat jarayonlari kitobxonni o‘ziga jalb qiladi. Muloqot zamonaviy gumanitar bilimlarning markaziy tadqiqot obyektlaridan biridir. Uning atrofida turli ilmiy fanlar: falsafa, sotsiologiya, psixologiya, adabiyotshunoslik, tilshunoslik bo‘yicha munozaralar olib borilmoqda. Bularning barchasi ushbu konsepsiyaning ko‘p o‘lchovliligi va ko‘p o‘lchovliligidan, uni biron-bir modelga qisqartirishning iloji yo‘qligidan dalolat beradi. „Muloqot nazariyasi bilan bog‘liq muammolar doirasi cheklangan emas, ammo faqat nutq tushunchasining o‘ziga xos ta‘rifi bilan cheklanadi. Yana bir bahsli nuqta – bu nutqlar tipologiyasini yaratish muammosi” [6.219].

“Muloqotning barcha turlarini turlarga ajratish nihoyatda qiyin ishdir”. A.A.Kibrik ta’kidlashicha, nutq tipologiyasi (taksonomiya) „Diskursiv tahlilning uchta asosiy bo‘limidan biri bo‘lib, u nutq tuzilishini aniqlashni va diskursiv hodisalarning boshqa til hodisalari bilan aloqasini ham o‘z ichiga oladi“. Hozirgi kunga qadar zamonaviy tilshunoslik nutq turlarining yetarli miqdordagi tasniflarini ishlab chiqdi.

Adabiy tanqidda nutq ko‘proq janr tushunchasi bilan bog‘lanadi. Nutqlarni funksional uslubga (A.A.Kibrik nuqtayi nazaridan) ko‘ra ajratish inson faoliyati sohalarini taqsimlash asosida mumkin. Shu munosabat bilan, G.Y.Solganik nutqlarning kundalik, ilmiy, rasmiy, publitsistik, badiiy uslublarini ajratib turadi [7.7–15].

Ijtimoiy tilshunoslik nuqtayi nazaridan, nutqlarning ikkita asosiy turini ajratib ko‘rsatish mumkin: shaxsiy (shaxsiy yo‘naltirilgan) va institutsional. Biz bunday tasnifni Gerta Mullerning asarlarida uchratamiz. Karasikning ta‘kidlashicha, birinchi holatda ma‘ruzachi „shaxs“, ikkinchi holatda – „ma‘lum bir ijtimoiy institutning vakili“ sifatida ishlaydi.

Nutq turlarini aniqlashga sotsiolingvistik yondashuvni A.A.Kibrikning fikricha, ularni so‘zlovchi va qabul qiluvchi o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning tabiatiga ko‘ra rasmiyatchilikka ko‘ra tasniflash mumkin, shuning uchun, masalan, „begona“ kabi nutq turini ajratib ko‘rsatish mumkin. nutq [8.28].

T.van Deyk, J.Ostin, Searl nazariyasiga asoslanib, Gerta Mullerning kommunikativ yondashuvi

nuqtayi nazaridan hikoya qiluvchi va bahsli nutqni ko‘rib chiqishni taklif qiladi. Ularning har biri o‘ziga xos asosiy funksiyaga ega bo‘lib, u so‘zlovchi nutq niyatining diskursiv maqsadiga mos keladi. Kommunikativ nutqning to‘g‘ridan to‘g‘ri tarkibiy qismlari so‘zlovchining suhbatdoshga munosabati; so‘zlovchining aytilgan gap (taklif)ga munosabati, so‘zlovchining uchinchi shaxsga munosabati.

A.A.Kibrikning yozishicha, «muloqot turlari o‘rtasidagi eng katta qarama-qarshilik axborotni uzatish usuli yoki kanaliga ko‘ra qarama-qarshilikdir», masalan, og‘zaki, imo-ishora, aqliy, yozma va elektron nutqlarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Nutqlarning eng to‘liq lingvistik tipologiyasi K.V.Oshkin quyidagi turlarni ajratib ko‘rsatish:

–nutq ishtirokchilariga qarab institutsional va shaxsiy;

–hissiy pozitsiyasi mezoniga ko‘ra, nafrat nutqi va xushmuomalalik nutqi;

–nutq ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlar turi mezoniga ko‘ra, o‘ziga xos, xususiy, ziddiyatli;

–muloqotning hissiy va psixologik mezoniga ko‘ra, qayg‘uli;

–aloqa kanaliga qarab, media nutqi, elektron, televideniya.

–nutqqa ta‘sir qiluvchi bo‘shliqlarning murakkablik darajasi: elementar va kombinatsiyalangan;

–nutqning xususiyatlari: tizimli, strategik va taktik;

–axborot uzatish rejimi yoki kanali: og‘zaki, imo-ishora, aqliy, yozma va elektron;

–aloqa maqsadlari (ijtimoiy, kommunikativ).

Shunday qilib, biz Gerta Muller asarlarida juda ko‘p sonli nutq tasniflari mavjudligini ko‘ramiz. Shuni ta‘kidlash kerakki, diskursiv tasniflarning mavjud xilma-xilligi „ularni turli pozitsiyalardan o‘rganish imkoniyati va shunga mos ravishda ularni darajalashning turli mezonlari va asoslarini tanlash“ bilan izohlanadi [9.288]. Tasniflash mezonining ta‘rifi nutqni ma‘lum bir turga bog‘lashda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotimiz materialiga muvofiq, biz Gerta Muller asarlarini mavjud funksional uslublarga murojaat qilib, badiiy nutqqa havola qilamiz. Ma‘lumki, G.Mullerning asarlaridan biri adabiyot bo‘yicha Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan.

Muhokama. Nemis adibi Gerta Muller poetik asarlarini o‘rganish mobaynida juda ko‘p muhokamalarga sabab bo‘ldi. Adabiy tanqidda nutq ko‘proq janr tushunchasi bilan bog‘lanadi. Adabiy tanqidda nutq turlarini belgilash muammosi ikki taksonomiya chorrahasida joylashgan: nutq turlarini funksional uslub (badiiy uslub) va janrlar (janrlar majmuyi badiiy adabiyotda uchraydi) bo‘yicha tasniflash. Nutq turlarining janr bo‘yicha farqi ularni tanlash usullariga asoslanadi.

Xulosalar. Nobel mukofoti sovrindori nemis adibi Gerta Muller asarlarining o‘ziga xosligi, birinchi navbatda, yozuvchining poetologik konsepsiyasi asosida, bir tomondan, Gerta Mullerning ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlari, shuningdek, o‘ziga xos fikr-mulohazalari asosida ko‘rib chiqildi. Gerta Muller asarlaridagi har bir obraz va tasvirlanayotgan jarayonlardagi psixologik holatlarida o‘ziga xos falsafiy qarahslar mavjud. Bayon qilinayotgan voqealarda muallif nutqining o‘ziga yarasha mulohazlar insonni yanada o‘ylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Taksonomiya.
2. Ошкина К.В. Способы языковой актуализации морального дискурса (на примере немецкоязычных СМИ). Дис. ...канд. филол. наук, 10.02.04. Иркутск, 2006, 218 с.
3. Кузнецов С.А. Концепция памяти в публицистике и художественном творчестве Герты Мюллер [текст]. Вестник Нижегородского государственного лингвистического университета им. Н.А.Добролюбова, 2018, вып. 43, с. 87 – 97.
4. Кузнецов С.А. Русская тема в романе Герты Мюллер «Качели дыхания» [текст]. Вестник Литературного института имени А.М.Горького, 2016, № 2, с. 24 – 28.
5. Кучумова Г.В. Роман в системе культурных парадигм (на материале немецкоязычного романа 1980 – 2000). Автореф. дис....д.филол.н. [текст], Самара, 2010, 48 с.
6. Ошкина К.В. Способы языковой актуализации морального дискурса (на примере немецкоязычных СМИ). Дис. ...канд. филол. наук, 10.02.04. Иркутск, 2006, 219 с.
7. Солганик Г.Я. К определению понятий «текст» и «медиатекст». Вестник Московского университета, сер. 10, “Журналистика”, 2005, №2, с. 7 – 15.
8. Карасик В.И. Аксиологическая лингвистика: концепты и дискурс. Германистика в России. Традиции и перспективы. Новосибирск, изд-во НГУ, 2004, с. 28.
9. Григорьева В.С. Дискурс как элемент коммуникативного процесса: прагмалингвистический и когнитивный аспекты. Монография, Тамбов, изд-во Тамб. гос. техн, ун-та, 2007.

Barnoev Orifjon Dilshodovich (Doctoral student, teacher Department of Russian Language and Literature of the Navoi State Pedagogical Institute; e-mail: arifbarnoev@mail.ru)

IMPERSONAL SENTENCES IN RUSSIAN AND ENGLISH

Annotatsiya. *Maqolada rus va ingliz tillaridagi shaxssiz gaplarni qiyosiy tahlil qilish, ularning semantikasi va tuzilishini ko'rib chiqish, ulardan foydalanish xususiyatlari va shartlari o'rganiladi.*

Аннотация. *Статья включает сравнительный анализ безличных предложений в русском и английском языках, рассмотрение их семантики и структуры, изучение особенностей и условий их употребления.*

Annotation. *The article includes a comparative analysis of impersonal sentences in Russian and English, consideration of their semantics and structure, study of the features and conditions of their use.*

Kalit so'zlar: *shaxssiz gaplar, subyektsiz, semantik mavzu, shaxssiz fe'l.*

Ключевые слова: *безличные предложения, бессубъектное, смысловое подлежащее, безличный глагол.*

Keywords: *impersonal sentences, subjectless, semantic subject, impersonal verb.*

Introduction. Impersonal sentences are a special type of sentences in which the character cannot be clearly defined. In Russian, compared to English, everything is much simpler, since we can freely use only one word, which will already be a whole sentence. The grammatical structure of a sentence in English is quite strict. In order to correctly build an impersonal sentence, it must be remembered that one English word is not enough here.

Methods. In the course of studying Russian and English impersonal sentences, we used the method of linguistic description, the method of transformational analysis, the method of component analysis, the method of comparative analysis, and the comparative method.

Results. Impersonal sentences are more diverse in their structural and semantic features, in comparison with definite-personal and indefinite-personal ones. Nevertheless, according to V.I.Kazarina, the whole variety of impersonal sentences is combined into one structural-semantic type by the presence of specificity of their structure and semantics and their common structural feature is the indicated absence of the position of the nominative case representing the subject [5.167].

In the impersonal sentences of the Russian language, the relations "doer – action" are presented as if detached, that is, the action is presented as not correlated with the doer, the doer is not known. V. M. Pavlov, exploring the semantic features of Russian impersonal sentences, determined their common semantic base – "the removal of the subject from the meaning of the sentence" [6.3].

Let's take the standard definition of an impersonal sentence from a textbook of the modern Russian language: "One-part sentences are called impersonal, the main member of which does not allow the subject of the action to be designated in the form of the nominative case and names the process or state regardless of the active agent. The grammatical subject in such sentences cannot be according to their structure, since the meaning of the person expressed by the form of the nominative case is not contained in the form of the predicate, it cannot be established by connections with other members of the sentence [4.292].

The general meaning of impersonal sentences is the assertion of an independent sign (action) that is not correlated with the actor. This value is passed by the main member of the sentence. The content of the main member of impersonal sentences is:

♦designation of an independent feature – action, state;

♦expression of non-correlation of an action with a doer;

♦an indication of the relation of the utterance to the moment of speech (syntactic time).

The creation of a unified classification of impersonal sentences in the Russian language is very difficult due to the variety of morphological ways of expressing the main member of the sentence.

So, according to their structure, impersonal sentences can be different. When considered from the position of the main member of the proposal, 5 types are distinguished:

As the main member of an impersonal sentence, an impersonal verb is used (without the suffix *-ся* and with the suffix *-ся*): светает, моросит, знобит, тошнит; нездоровится, спится, хочется, смеркается, etc. The category of person in such verbs has a purely formal meaning.

The general meaning of impersonal sentences of this type is determined by the meaning of the impersonal verb. They can mean: state of nature, environment:

♦*торозило сильнее, чем с утра* (It was colder than in the morning); *На дворе еще чуть брезжило* (It was still a little glimmering in the yard);

♦the mental or physical state of a living being: *От радости в зобу дыханье сперло* (For joy, the breath stopped in the goiter); *Его знобило и ломало* (He was shivering and breaking);

♦obligation, necessity and other modal shades (such a verb is most often used with an infinitive): *Он шел не торопясь, как и подобало посетителю музея* (He walked slowly, as befits a museum visitor.); *Мне однажды привелось пробыть на Кавказе больше трех месяцев* (I once happened to stay in the Caucasus for more than three months);

♦presence or absence, lack of something: *У нас тебя недоставало* (We lacked you.).

Impersonal sentences, the main member of which is expressed by a personal verb in an impersonal meaning, are quite common in Russian and are diverse in structure and meaning: *Воздух свежеет. – На улице свежеет* (The air is fresh. – It's fresher outside); *Ветер воет. – В трубе воет* (The wind howls. – Howls in the pipe).

Thus, we see that from the point of view of the semantic subject, impersonal sentences can be divided into 2 categories:

– Actually impersonal (subjectless). These include sentences expressing the state of nature or the environment, natural phenomena, weather conditions and time of day.

– Impersonal sentences with a definite or indefinite subject, but not appearing in the syntactic structure. These include sentences expressing the mental, physical or emotional state of living beings, visual, auditory or tactile perception, assessment of the action from the moral and ethical side, obligation, modal-volitional shades.

In English, unlike Russian, the structure of the sentence is strictly limited: both the subject and the predicate must be present in it. Another thing is that the category of impersonality in the grammar of the English language still exists, since there are sentences in which the subject of the action is absent. The subject in such sentences has an exclusively formal meaning. According to A.M.Smirnitsky "that elusive content that is contained in the subject (of a known situation, life situation), as it were, dissolves in the content of the predicate and cannot be isolated and considered independently. Such a subject can be called impersonal [7.157]. There are two types of such sentences: nominal and verbal. The role of the subject in both types is played by the so-called impersonal pronoun *it*, followed by a linking verb (usually *to be*) in the appropriate tense. And then the nominal part of the predicate – it can be an adjective, a noun or a numeral. Nominal impersonal sentences also include sentences like It is+adjective+infinitive (for example: 'It is difficult to find').

The difference between a verbal impersonal sentence and a nominal sentence is only that the predicate in it is expressed by an impersonal verb (for example, to rain, to snow). There is also a division of sentences with formal it into two groups: with anticipatory *it* and with impersonal *it*.

Classifications of sentences with formal it are usually built on the basis of the situations they describe. In modern English, in impersonal sentences, nouns are found as a predicative, expressing temporal relations, the state of nature and the environment, spatial relations, evaluative ones. Accordingly, the following groups of proposals are distinguished:

– denoting weather conditions and atmospheric phenomena, as well as characterizing the situation in any place: It's a nice day; It was cold and cloudy yesterday; It rains often here;

– denoting time: It's three o'clock; It's Monday tomorrow;

– indicating distance: It's only a fifteen kilometers from here to the border; It's a long way to New Zealand;

– evaluating something: It is nice; that is very difficult.

Discussion. In addition to the formal *it,* there are other means in English for translating Russian impersonal sentences. Such as the turnover *there is (there are)* and the indefinite personal pronouns *one* and *you*. Sentences with the pronominal word there are often considered in the same section along with impersonal sentences with the formal subject *it,* despite the fact that these two types of sentences have completely different semantics. They do this, focusing on a purely formal criterion – filling the position of the subject with formal, purely superficial elements [3.35]. A specific type of sentences with the so-called "preliminary" [1.186] or "introducing" [2.296] *there*, which refers to sentences of the existential type. In such sentences, we are talking about the existence of something in the world or the presence of something in some specific conditions. It should be noted that the functions of the impersonal pronoun *it* and the introducer *there* are different in sentences. While the impersonal *it* is a real surface subject in all respects, the prefix *there* is a theme-rhematic device that allows you to move new information introduced from the position of the topic (subject) to the position of the rheme, that is, to the end of the sentence.

Conclusions. Summarizing the above, it can be noted that, firstly, an impersonal sentence is typical of the Russian language and is quite common in it. At the same time, this kind of sentence is not at all typical for the English language. At the same time, if in Russian there are subjectless impersonal sentences in which the subject is not only not indicated in any way, but not even thought of, then in English such a structure is impossible. In English, an impersonal sentence will always have a subject, albeit a purely formal one.

References:

1. Arakin V.D. Сравнительная типология английского и русского языков. "Просвещение", 1979.
2. Barkhudarov L.S., Shteling D.A. Грамматика английского языка. Textbook. M., "Высшая школа", 1965.
3. Burlakova V.V. Синтаксические структуры современного английского языка. M., "Просвещение", 1984.
4. Валгина Н.С., Розентал Д.Е., Фомина М.И. Современный русский язык. Textbook, Edited by N.S. Valgina, 6th edition, Moscow, "Логос", 2002.
5. Kazarina V.I.. Современный русский синтаксис: структурная организация простого предложения. Tutorial. Yelets: YSU University named after I.A.Bunin, 2007.
6. Павлов В.М. Противоречия семантической структуры безличных предложений в русском языке. СПб, 1998.
7. Smirnitsky A.I. Синтаксис английского языка. M., 1957.
8. Жумаева Ф.Р. Типы транспозиции частей речи в современном русском языке. "Молодой ученый", №47, Казань, 2021. https://moluch.ru/archive/389/
9. Жумаева Ф.Р. Интеръективация как один из типов транспозиции частей речи. Universum: филология и искусствоведение. 2021, №12 (90). https://cyberleninka.ru/article/n/interektivatsiya-kak-odin-iz-tipov-transpozitsii-chastey-rechi/viewer

Kurbonova Marguba Sotvoldiyevna (Teacher, Andijan State Institute of foreign languages; kmarguba2020@gmail.com)

PHRASEOLOGICAL COMBINATIONS, PHRASEOLOGICAL UNITS AND PHRASEOLOGICAL FUSIONS OF SOMATISMS IN ENGLISH AND UZBEK

Annotatsiya. *Frazeologik birliklarni shakllanish usullariga, ma'no motivatsiyasi darajasiga, tuzilishi va gap bo'lagi ma'nosiga ko'ra tasniflash mumkin. Frazeologik birliklar so'zlovchi tomonidan tayyor shaklda, hech qanday o'zgarishsiz qo'llaniladi. Butun frazeologik birlik uning tarkibiy qismlarining ma'nosidan keskin farq qilishi mumkin bo'lgan ma'noga ega, shuning uchun alohida so'zlar emas, balki butun birlik gapning bir qismi vazifasini bajaradi. Somatizmlar tananing kamida bitta qismiga ishorani o'z ichiga olgan frazeologik birliklar. Hamma odamlar voqelikni idrok etish uchun ushbu umumiy vositadan foydalanadilar, shuning uchun uning tilga ta'siri ajablanarli emas. Tananing turli tillarda bir xil tarzda ko'rishi va muomala qilinishini tasdiqlaydi.*

Аннотация. *Фразеологические единицы можно классифицировать по способам их образования, по степени мотивированности их значения, по их структуре и их частеречевому значению. Фразеологизмы употребляются говорящим в готовом виде, без каких-либо изменений. Вся фразеологическая единица имеет значение, которое может быть весьма отличным от значения ее компонентов, и потому функция части предложения выполняет вся фразеологическая единица, а не отдельные слова. Соматизмы – фразеологизмы, содержащие обращение хотя бы к одной части тела. Все люди используют этот общий инструмент для восприятия реальности, поэтому неудивительно его влияние на язык. Подтвердить, видят ли тело и обращаются ли с ним одинаково на разных языках.*

Annotation. *Phraseological units can be classified according to the ways they are formed, according to the degree of the motivation of their meaning, according to their structure and their part-of-speech meaning. Phraseological units are used by the speaker in a ready form, without any changes. The whole phraseological unit has a meaning which may be quite different from the meaning of its components, and therefore, the whole unit, not separate words, has the function of a part of the sentence. Somatisms – phraseological units that contain a reference to at least one part of the body. All human beings share this common instrument to perceive reality, so it is not surprising its influence upon language. To confirm if the body is seen and treated the same way by different languages.*

Kalit so'zlar: *tilning lug'ati, so'z turkumlari, frazeologik birliklar, erkin so'z turkumlari, sintaktik birlik, frazeologik birikmalar, somatik frazeologiya.*

Ключевые слова: *словарный запас языка, группы слов, фразеологизмы, свободные группы слов, синтаксическая единица, фразеологические сочетания, соматическая фразеология.*

